

2024
MAXSUS SON

ISSN 2181-6131



TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning indeksi raqami: 3535



Surat sur'ya intellekt yordamida yaratilgan.

2024 / MAXSUS SON

TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning indeks raqami: 3535



JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



BOSH MUHARRIR

Shavkat Sharipov – pedagogika fanlari doktori, professor.

MUHARRIR O'RINBOSARI

Farrux Aqchayev – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

MAS'UL KOTIB

Abdug'afur Abdurahmonov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili).

Eldar Hasanov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (rus tili).

Anora Jabborova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (ingliz tili).

Dildora Baxriddinova – katta o'qituvchi (ingliz tili).

MUSAHHIHLAR:

Feruza Jumayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Murodulla Jo'rayev – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

SAHIFALOVCHILAR:

Sirojiddin Turg'unboyev,
Zulayxo Shakarova.

MUASSIS – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Jurnal yilda 4 marta (har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ma'lumot ko'chirib olinganda, manba qayd etilishi shart.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.
Telefon: +998 72 226 02 93,
+998 93 298 22 12
Faks: +998 72 226 46 56

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- **Anatoliy Sagdullayev**, tarix fanlari doktori, akademik
- **Komiljon Tojiboyev**, biologiya fanlari doktori, akademik
- **Andrey Zuyev**, Novosibirsk davlat universitetining Gumanitar instituti professori, tarix fanlari doktori (Rossiya)
- **Stiven Korbet**, Portsmud universiteti, tillar va amaliy tilshunoslik yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)
- **Seyko Wazake**, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)
- **Donina Lyudmila**, Sankt-Peterburg davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Rossiya)
- **Jakelin Duglas**, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)
- **Himmet Karadal**, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)
- **Tuba Yilmaz**, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)
- **G'ayrat Qodirov**, biologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Botir To'xtamishov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Sarvar Nazarqosimov**, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Qozoqboy Yo'ldoshev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Usmonjon Qosimov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Abdug'afur Mamatov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Umrzoq Jumanazarov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Faniya Axmedshina**, tarix fanlari doktori, professor
- **Shokir G'afarov**, tarix fanlari doktori, professor
- **Baxti Ochilova**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Hamid Meliyev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Xudoybergan Mavlonov**, biologiya fanlari doktori, dotsent
- **Qo'chqor Hakimov**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
- **Mo'min Hoshimxonov**, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari doktori
- **Furqat Axmedov**, pedagogika fanlari nomzodi, professor
- **Akbar Saitkasimov**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Zuhra Yaxshiyeva**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Abdunazar Nurmonov**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Rustam Abdurasulov**, psixologiya fanlari doktori, dotsent
- **Marat Sultonov**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Raximboy Yarmatov**, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- **Ilyos Islamov**, tarix fanlari doktori, dotsent
- **Muxtorqul Pardayev**, tarix fanlari nomzodi, dotsent
- **Rabbim Yusupov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Oleg Kim**, filologiyafanlari nomzodi, dotsent
- **Abduvali Shamshiyev**, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
- **Yulduz Karimova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Kamoliddin Zoyirov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
- **Sherali Abduraimov**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Feruza Jumayeva**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Bobomurod Toshboyev**, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181-6131.

2024-yil 25-dekabr kuni bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi A4.
Buyurtma: _____
Nashr adadi: 100

**JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI**



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Musiqada tovushni yozish va qayta ishlash dasturlari	8
Xasanxon Sulaymonovich Omonov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Azamat Odiljon o'g'li Ilxomov – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Mental processes in the development of thinking of Teenagers in English Classes	14
Dilnoza Arslanovna Kurbanova – associate professor, PhD in Pedagogical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University	
XXI asr – falsafa ilmi uchun yangicha davr	17
Bobomurot Eshboyevich Toshboyev – falsafa f.b.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Zarafshon vohasi viloyatlarida tuman va shahar gazetalarining tashkil etilishi va rivojlanishi	21
Abdug'afvor Abdurahmonov, tarix f.b.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Musiqqa yozishda sekvensor–programmalar	27
Xasanxon Sulaymonovich Omonov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Gulzoda Otabek qizi Qudratova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
O'zbek qo'shiqchilik san'atida Eson Lutfullayev ijodi musiqiy-ma'rifiy va pedagogik tamoyillari	31
Qaxramon Boboqulov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Gavhar Islomqul qizi Yakubova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Milliy sport turlari bo'yicha murabbiy-o'qituvchilar tayyorlashda pahlavonlar ibratidan foydalanish	35
Ma'ruf Olimovich Muqimov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Xor to'garaklari vositasida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish	38
Tohir Raxmatovich Haqqulov – dotsent v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Diyora Abduxakim qizi Qarshiyeva – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Principles and implementation of Linguosynergetics in Discourse	42
Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva – PhD in Philological Sciences, Jizzakh State Pedagogical University	
Madina Sherzod qizi Mustaqova – student, Jizzakh State Pedagogical University	
Musiqiy folklor namunalarini qayta ishlash va pedagogik jarayonga tatbiq etish	46
Tohir Rahmatovich Haqqulov – dotsent v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Marjona Maxmud qizi Maxkamova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
The theoretical foundation of lexical-stylistic devices	50
Olimjon Jalilov – PhD in Pedagogical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University.	

Robototexnika va STEM yondashuvi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning yangi imkoniyatlari	53
Mohinur Zafarovna Akmalova – p.f.b.f.d., dotsent v.b., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Rayxona Begmat qizi Ismatova – talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Badiiy did tarbiyasida cholg'u ijrochiligi fanini o'qitishning o'ziga xos metodik jihatlari	57
Ermat Majidovich Fayzullayev – katta o'qituvchi, p.f.n., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Shaxlo Abdurasulovna Bekmirzayeva – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish	61
Gulruh Majidova – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'zbek maqom asoslari bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirish	66
Axmadjon Qodirovich Jumayev – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Musiqa ta'limida milliy mumtoz namunalaridan foydalanishda zamonaviy yondashuvlar	69
Elnoza Ismatillayevna Qudratova – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Iqbolbek Ikromjon o'g'li Ummatov – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
O'quvchi-yoshlarda musiqiy tafakkurni rivojlantirish muammolari	72
Muslim Normuxammadovich Abilov – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutqiy madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish	78
E'zozxon Muzaffarovna Xamrayeva – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
The global pilgrimage Geoffrey Chaucer's the Canterbury Tales.	81
Sunnat Ravshan o'g'li Qosimov – teacher, Jizzakh State Pedagogical University	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirish mazmuni	84
Muxabbat Normatovna Mirazimova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Gender-inclusive language in Classrooms	88
Gulruy Akhrorkulovna Donisheva – teacher, Jizzakh State Pedagogical University	
6-7 yoshli bolalarda do'stona munosabatlarni shakllantirishda harakatli o'yinlarning didaktik ahamiyati	92
Farxod Karamatullo o'g'li Xoliqov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Maqom san'ati tarixi rivojlanishida pedagogik xususiyatlar	95
Feruza Baymanova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Nota savodxonligini o'rgatishda inson temperamentlarining muhimligi	100
Muqaddas Riskulovna Mo'minova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv pedagogik jarayonlarni rejalashtirish va faoliyatlarni to'g'ri tashkil etish mazmuni	105
Xolida Bosimovna Rahmonqulova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Ma'naviy-axloqiy qiyofaning ijtimoiy-tarixiy asoslari	108
Ulug'bek Bahodir o'g'li Vaxobov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

O'quvchilarni musiqa tarixiga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishda zamonaviy texnika vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish	113
Saxob Baxromovich Karimov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda TRIZ texnologiyasi usullaridan foydalanish	119
Durdona Sayfiddin qizi O'rolboyeva – stajor o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Zuhra Odil qizi Xudayqulova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Cross-cultural analysis of English and Russian proverbs on the concept "Motherland"	123
Dildora Saidnazarovna Mavlanova – trainee researcher, Jizzakh State Pedagogical University	
Intercultural competence: understanding and navigating cultural differences communication competencies	127
Dilfuza Kurbonboyeva — practical teacher, Jizzakh State Pedagogical University	
Xalq hofizi Eson Lutfullayev ijodiy merosidan musiqiy-pedagogik faoliyatda foydalanish imkoniyatlari	130
Qutlug' Hamdamovich Haydarov –stajor o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlash kompetentlikni rivojlantirish	136
Javohir Abdullayev – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning chog'ishtirma tahlili	140
Shoira Toxir qizi Xaydarova – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Dual ta'limda innovatsion o'qitish usullarining afzalliklari	146
Parvina Shuxratovna Saidjonova – mustaqil tadqiqotchi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari	152
Munavvar Ibragim qizi Hakimova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Oliy ta'limda kredit-modul tizimi sharoitida talabalar mustaqil ishini tashkil etishda individual ta'lim trayektoriyalarining ahamiyati	155
Munajat Oltibekovna Mustafoeva – tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali	
The importance of speaking skills in learning a new language	162
Dilfuza Malikovna Mukarova – English teacher, Jizzakh city comprehensive school No. 1	

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

MUSIQADA TOVUSHNI YOZISH VA QAYTA ISHLASH DASTURLARI

Xasanxon Sulaymonovich Omonov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Azamat Odiljon o'g'li Ilxomov – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa ta'limi va san'at sohasida kompyuter musiqasi texnologiyalari o'rni va ahamiyati hamda musiqiy kompyuter dasturlari turlari, tovushni raqamlashtirish, tovush kartalari va tovushni yozish hamda unga ishlov berish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В этой статье представлена информация о роли и значении компьютерных музыкальных технологий в музыкальном образовании и искусстве, а также о типах музыкальных компьютерных программ, оцифровке звука, звуковых картах и записи и обработке звука.

Abstract: This article provides information on the role and importance of computer music technologies in music education and the arts, as well as on the types of music computer programs, sound digitization, sound cards, and sound recording and processing. versions of this program have been released, which are named in the article.

Kalit so'zlar: tovush yozish dasturi, ko'p kanalli tinglash dasturlari, tovushli trakt, studiya qurilmalari, MIDI-kommutatsiya, tabiiy reverberatsiya tushunchasi, ProToolsing dasturi.

Ключевые слова: программное обеспечение для записи звука, многоканальное программное обеспечение для прослушивания, звуковой трек, студийные устройства, Midi-коммутация, концепция естественной реверберации, программное обеспечение ProToolsing.

Keywords: sound recording software, multichannel listening software, sound track, studio devices, MIDI-switching, natural reverberation concept, ProToolsing software.

Audio bilan ishlash dasturlari jonli tovushni yozish va muharrirlash uchun mo'ljallangan. Ular yordamida tovushni qayta ishlab, tembr o'zgartirishlari, turli xil effektlar yordamida uning sifat xarakteristikalarini yaxshilash mumkin. Bunday dasturlar sinfida dasturning sifati foydalanishning qulayligi va qo'shimcha pluginlar bilan to'ldirilganligigagina emas, balki qayta ishlov algoritmlariga ham bog'liq. Turli xil dasturlar qayta ishlovning turli xildagi algoritmlariga asoslangan bo'lib, bitta masalani yechishda, bir xil tovush materialidan foydalangan holda, turlicha dasturlar turlicha natijaga erishadilar. Eng yaxshi natijalarga erishgan dasturlar qatoridan Sound Forge va Cool Edit Pro dasturlari o'rin olgan. Kompyuterga tovushni yozishda Sound Forge dasturi yaxshi

natijalarga erishmoqda. Bu jarayon bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Audioyozuv manbai CD-ROM diskovodidagi tovushli kompakt-disk yoki ichki qurilgan sintezator tovush kartasi, tovushli kartaning chiziqli kirish qurilmasi mikrofonni bo'lishi mumkin. Yozuvni boshlash uchun Transport panelidagi qizil doirali tugmani yoki Ctrl+R klavishalarini bosish kerak. Special/Transport/Record menyusida Sample Rate signalini diskretlashtirish chastotasini berish mumkin, u 2 to 96 kGts gacha o'zgarishi mumkin. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, berilgan diskretlashtirish chastotasi kompyuterning tovush kartasiga mos bo'lishi kerak. Shu yerning o'zida Bit Rate amplituda yechilmasini, mono yoki stereoning kanallar sonini berish imkoniyati bor¹.


1 Rick Clark. Mixing, Recording, and Producing Techniques of the Pros, Second Edition, 2010. – 400 pages.

Yozuvni yozuv oynasidagi Mode ro'yxatidagi beshta rejimdan bittasida bajarish mumkin. Automatic retake rejimida har bir yangi yozuv eski yozuv o'rniga yoziladi, chunki Start oynasida ko'rsatilgan bir xil pozitsiyadan boshlanadi. Multiple takes creating Regions rejimida yangi yozuv eski yozuv tugagan joydan boshlanadi va bu vaqtda har gal yangi region yaratiladi.

Multiple takes (no Region) rejimida yangi yozuv eskisi tugagan joydan boshlanadi, ammo yangi regionlar yaratilmaydi. Create a new window for each take rejimida har bir yangi yozuv uchun yangi tovush oynasi yaratiladi.

Start va End oynalaridagi Punch-In rejimida yozilishi kerak bo'lgan yozuv fragmentining boshi va oxirini ko'rsatish zarur, chunki shu fragmentning ichidagina yozuvni yozishga ruxsat beriladi.

Yozuv vaqtida kiruvchi signalning darajasi ko'rinib turishi uchun Monitor bayroqchasini belgilash kerak. Indikatorlarda signalning maksimal darajasini belgilash uchun indikatorning kontekst menyusida Hold Peaks punktini ko'rsatishimiz kerak. Agar indikatorlar ustida Clip qizil yozuvi paydo bo'lsa, demak kirish signalining darajasi maksimal darajadan katta, uni darhol kamaytirish kerak.



Transport panelidagi kabi Record oynasidagi tugmalar yordamida yozuvni yoqish yoki o'chirish, tinglash mumkin. Yozuv tugmasini bosish bilan darhol yozuv boshlanishi uchun, avvalo, Prepare tugmasini bosib qo'yish kerak. M harfli tugma yozuv vaqtida markerni o'rnatish uchun ishlatiladi. Yozuv tugaganidan so'ng Sound Forge asosiy oynasiga qaytish uchun Close tugmasini bosish kerak. Asosiy oynada raqamlashtirilgan tovush to'lqin ko'rinishidagi grafik bilan ifodalanadi. Sound Forge dasturining hamma tovushni qayta ishlash oynalarida Preview tugmasi mavjud bo'lib, uning yordamida tovushli faylga qo'llamasdan turib, biror bir effektning natijasini eshitish mumkin.

Yozuvdan so'ng va tovushga qayta ishlov berishdan oldin, uni shovqinlardan tozalash kerak. Bu Noise Reduction oynasi yordamida bajariladi. Yetarli darajada shovqinni pasaytirish sifatiga erishish uchun yozuvda foydali signalsiz "sof" shovqin qismi bo'lishi kerak. Shunda dastur shovqin fragmentini tahlil qilib, uni aniqlashi va foydali signaldan ajratib olishi mumkin. Noise Reduction oynasini ochishdan oldin "sof" shovqin fragmentini, ya'ni tovushning foydali signal yo'q qismini ajratish kerak².

So'ng Noise Reduction oynasini ochib, Get tugmasini bosib, shu yozuvdagi shovqinning joylashish spektral chiziqlarini aniqlash kerak.

Keyin Fit tugmasini bosib, avtomatik ravishda shovqin namunasining korrekt spektral egri chizig'ini qurish lozim. Bu egri chiziqni o'zimiz grafikda ham hosil qilishimiz mumkin. U holda shovqin pasaytirishni sifatliroq bajarishimiz mumkin. Endi butun faylni shovqindan tozalash uchun Apply to all ni belgilab, OK ni bosish kerak. Agarda Keep residue ni belgilasak, tozalash uchun tayyorlangan shovqinni eshitib ko'rishimiz va unga foydali signal qo'shib ketmaganligini tekshirib ko'rishimiz mumkin. Shovqinni

2 Петелин Р.Ю., Петелин Ю.В. Satewalk Pro Audio 9. Секреты мастерства. – СПб.: БХВ-Петербург, Издательская группа "Арлит", 2000. – 432 с.

pasaytirish ishlarini olib borganimizdan so'ng ham uni sezsak, u holda Reduce noise by tugmasini ozgina o'ngga surib, detsibellar sonini ko'paytirishimiz va shovqinga ega bo'lgan spektral qismlarni kuchsizlantirishimiz mumkin. Odatda bu tugma 20–30 dB larni o'rnatadi, ammo shovqin qattiq bo'lgan hollarda, bu qiymatni kattalashtirish kerak. Bunda shovqin izchilroq ravishda tozalanadi, lekin foydali signal tembri buzilishi mumkin, chunki unda shovqindagi kabi spektral qismlar bo'lishi mumkin. Agar shovqin spektri doimiy bo'lsa, bu algoritm yaxshi natijalar beradi. O'zgaruvchan spektrlarda boshqa vositalardan – masalan DART dasturi yoki Ray Gun plaginidan foydalanish effektivroqdir.

Agar shovqin faqat pauzalarda eshitilib, foydali signal jarangida deyarli sezilmasa, u holda Effects menyusidagi Noise Gate modulidan foydalanish kerak. Uning oynasida vertikal suriluvchan regulyator yordamida signalning boshlanish chizig'ini ko'rsatilsa, shu chiziqdan pastda joylashgan signallar jimlik bilan almashtiriladi, yuqoridagi signallar o'zgartirilmaydi.

Yozuv vaqtida elektr o'zgarishlari yoki boshqa sabablarga ko'ra paydo bo'lgan taqillash yoki shaqillashlardan yozuvni tozalash uchun Tools menyusidagi Click Removal dan foydalanish mumkin. Undagi Settings punktida Method o'zgartiruvchisi yordamida uchta usuldan birini tanlash kerak bo'ladi: Find only – shaqillashni izlash va uning joylashish o'rniga kursorni o'rnatish hamda o'zimiz yoki boshqa biror usul bilan muharrirlash; Replace all – almashtirish yordamida shaqillashni avtomatik ravishda yo'q qilish; Interpolate all – interpolatsiya. Ko'p hollarda oxirgi usuldan foydalanish qulayroq, ammo ba'zida u kerak bo'lmagan sado effektini berishi mumkin. Click Removal menyusidagi boshqa punktlar bir karrali ishni olib boradi: Find keyingi shaqillashni topadi, Interpolate va Replace uni mos ravishda yo'qotishadi. Yozuvni shovqindan tozalangandan so'ng montajni boshlash, ya'ni yozuv fragmentlarining o'rnini

almashtirish yoki olib tashlash mumkin. Olib tashlash yoki joyini o'zgartirish kerak bo'lgan yozuv fragmentini ajratib olishni grafik usulda sichqonchadan foydalanib yoki Ctrl+D klavishalari yordamida ochiladigan Set Selection oynasida fragmentning boshi va oxirini ko'rsatish yordamida bajariladi.

Montaj uchun standart kesib olish, nusxa ko'chirish va almashuv buferi yordamida o'rniga qo'yish buyruqlaridan foydalanish mumkin. Kesib olingan fragment almashuv buferiga joylanadi, bu odatdagidek Edit/Cut buyrug'i bilan, nusxa ko'chirish Edit/Copy, o'rniga qo'yish Edit/Paste buyruqlari yordamida bajariladi. Fragmentni kesib olishdan oldin Edit/Preview Cut/Cursor buyrug'i yordamida yozuvni boshqatdan tinglab ko'rib, ajratilgan fragment to'g'riligiga ishonch hosil qilish kerak. Montajning bunday usuli destruktiv usul deb ataladi, chunki boshlang'ich faylning tuzilishini o'zgartiradi va montajdan keyin boshlang'ich faylga qaytish mumkin emas. Bundan tashqari montajning bunday usuli ko'p vaqtni oladi. Kompyuterdagi montajning boshqa usuli – nodestruktiv usuli mavjud bo'lib, bu usulda boshlang'ich fayl o'zgarmasdan qoladi. Bu usulda o'tkazib yuborish yoki qaytadan hosil qilish kerak bo'lgan fragmentlar – ular region deb nomlanadi – ajratiladi va ularni qayta hosil qilish ketma-ketligi hamda bu qayta hosil qilishlar soni ko'rsatiladi. Ammo montajning bu usulida signallarni ustma-ust yoki kesishtirib qo'yish, faza inversiyasi fragmentlarni teskarisiga eshitib ko'rish mumkin emas.

Montajning bu usulidan foydalanish uchun View menyusidagi maxsus Regions List va Playlist oynalarini ochish kerak. Regions List oynasida ijro etilishi yoki yozuvdan olib tashlanishi kerak bo'lgan regionlar, Playlist oynasida esa regionlarning ijro etilish tartibi ko'rsatiladi. Region quyidagicha aniqlanadi: tovushli faylning fragmentini ajratib, sichqoncha yordamida uni Regions List oynasiga sudrab o'tiladi, unga nom beriladi va OK bosiladi.

Umuman shuni aytib o'tish kerakki, menyudagi ixtiyoriy buyruq yoki klavishalar moslanmasi har doim ajratilgan fragmentga qo'llaniladi, agar ajratilgan fragment bo'lmasa butun faylga qo'llaniladi. Sound Forge da faqatgina montaj nodesktruktivdir, shuning uchun boshqa keltiriladigan muharirlash buyruqlarining hammasi destruktiv bo'ladi.

Endi ovoz balandligi va tembrni ustida olib boriladigan operatsiyalar bilan tanishamiz. Ajratib ko'rsatilgan fragmentning ovoz balandligini o'zgartirish uchun Process menyusida ochiladigan Volume ovoz balandligi o'zgartirish oynasida foydalaniladi. Hamisha ovoz balandligini ko'targanda ortiqcha yuklamalarning va tovush buzilishlarining hosil bo'lmasligini kuzatib turish kerak. Bu holat signal amplitudasining qiymati 0 dB dan katta bo'lib ketganida yuz beradi. Ovoz balandligini maksimal darajada ko'tarish zarur bo'lsa, u holda Process menyusidagi Normalize punktidan foydalanish qulayroqdir. Bu buyruq yordamida dastur ajratilgan tovush fragmenti amplitudasining maksimal darajasini topadi, so'ngra signal amplitudasini shunday o'zgartiradiki, maksimal daraja talab etilayotgan qiymatga mos bo'ladi, qolgan darajalarni ham mos bo'lgan qiymatlarga o'zgartiradi. Signalning imkon bo'lgan maksimal darajasini hosil qilish uchun, suriluvchi regulyatorni 0 dB ga o'rnatib, Normalize using parametrini Peak level ga o'rnatish lozim. Zaruriyat tug'ilganda ovoz balandligini asta-sekin o'zgartirish mumkin. Process menyusidagi Fade/In punktida ajratilgan fragmentning ovoz balandligini asta-sekin ko'tarish, Fade/Out punktida asta-sekin pasaytirish mumkin.

Ovoz tembrini o'zgartirishda eng sodda vosita bu filtrlar va ekvalayzerlardir. Ular filtrlari yo'llar to'plamidan tuzilgan bo'lib, chastotali yo'llari hamma ishlanayotgan diapazonni berkitadi. Process menyusidagi EQ/Graphic punkti orqali


har bir yo'lning suriluvchi regulyatoriga ega bo'lgan 10 yo'lli ekvalayzerni chaqirish mumkin.

Tovush tembrini diskretlash chastotasining yarmiga yaqin bo'lgan chastotalarni kuchaytirish yoki pasaytirish yo'li bilan o'zgartirish ham mumkin.

Buning uchun Process menyusida Smooth/Enhance punktiga kirish kerak.

Bu chastotalarni kuchaytirish tembrni qattiqlashtiradi, pasaytirish tembrni mayinlashtiradi³.

Bundan tashqari Sound Forge dasturida ko'p sonli turli xil tovush effektlari mavjud bo'lib, ularni kiritish natijasida turli xil akustik effektlarni hattoki jarangni butunlay o'zgartirish mumkin. Process menyusidagi Time/Expend buyruq yordamida signal jarangi davomiyligini cho'zish yoki siqish mumkin.



Buning uchun Final length maydonida tovush o'zgartirilganidan so'ng kerak bo'lgan davomiyligni ko'rsatish kerak, boshlang'ich signal davomiyligi Original Length maydonida ko'rsatilgan bo'ladi. Ko'p hollarda tovushni siqish yoki cho'zish natijasida qayta ishlash algoritmiga bog'liq ravishda turlicha buzilishlar yuz beradi. Har bir aniq bir xol uchun Mode maydonida

3 Петелин Р.Ю., Петелин Ю.В. Музыкальный компьютер. Секреты мастерства. Издание второе, переработанное и дополненное. – СПб.: БХВ-Петербург, Арлит, 2003. – 688 с.

26 qayta ishlash algoritmidan mosini tanlash mumkin, misol uchun matnni qayta ishlash uchun Speech algoritmi, zarbli cholg'ular jarangiga qayta ishlov berish uchun Drums algoritmini tanlash maqsadga muvofiqdir.

Tovushni transpozitsiya qilish uchun Effects menyusidagi Pitch/Shift punktidan foydalanish kerak. Semitones to shift by maydonida tovushni necha yarimtonga ko'tarish yoki pasaytirish kerakligini ko'rsatish kerak, bunda yuqoriga transpozitsiya musbat, pastga transpozitsiya manfiy sonlar bilan ko'rsatiladi. Agar zaruriyat tug'ilsa Cents to shift by maydonida qancha sentga yoki yarimtonning qancha hissasiga tovushni yuqoriga yoki pastga transpozitsiya qilish kerakligini ko'rsatish ham mumkin.

Preserve duration bayroqchasi transpozitsiya vaqtida tovush cho'zimini saqlashga yordam beradi.

Effect menyusidagi Vibrato punktida tovushga turli xil chastotali vibrato effektini berish mumkin.

Xorus, aks-sado, flendjer va reverberatsiya kabi effektlar signalni kechga qoldirishga asoslangan. Xorus effektini Effect menyusidagi Chorus buyrug'i yordamida hosil qilish mumkin. Parametrlarning turli xil qiymatlariga qarab, turli effektlarni hosil qilish mumkin. Sado va flendjer effektlari mos holda Effects menyusidagi Delay/Echo/Simple va Flange/WahWah buyruqlari yordamida hosil qilinadi.

Tovush atrofida biror bir xonada joylashganlik effektini hosil qilish uchun Effect menyusidagi Reverb buyrug'ini bajarib, reverberatsiya oynasini ochish kerak. Reverberation mode maydonida turli xil reverberatsiya rejimlarini tanlash mumkin: Concert Hall – konsert zali, Small room – kichkina xona va hokazo. Bundan tashqari o'zimiz Early reflections style buyrug'i bilan

birlamchi akslar to'plamini, Decay time buyrug'i yordamida o'chib borishning umumiy vaqtini va Pre-delay buyrug'i bilan kechga qolishdan oldingi vaqtni boshqarishimiz mumkin.

Ko'p kanalli tenglash dasturlari. Ko'p hollarda tovush bilan ishlash vaqtida bir nechta tovushli fayllar jarangini birlashtirish zarurati tug'iladi. Umuman olganda, bu ishni tovushli qayta ishlash dasturlarida ham bajarish mumkin, ammo ularda birlashtirilgan fayllarni keyin ajratib bo'lmaydi va bu usulda ikkitadan ortiq faylni birlashtirish noqulayliklar yaratadi. Buning uchun ko'pkanalli keltirish dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiqroqdir, ularda xuddi ko'pkanalli magnitofondagi kabi tovushli material bilan ishlash imkoniyatlari mavjud. Bu dasturlarda har bir yo'lni eshitish parametrlarini xuddi miksher pulti yoki boshqa studiya asboblaridagi kabi alohida boshqarish mumkin, dasturda o'rnatilishi bo'yicha muharrirlar esa nodestruktivdir, chunki boshlang'ich tovushli fayllar o'zgarishsiz qoladilar.

Bu sinfda eng yuqori professional dastur ProTools ko'pkanalli keltirish kompyuter tizimi hisoblanib, u ham Macintosh, ham PClar uchun chiqarilgan. U apparatli va dasturli qismlardan tuzilganligi sababli tizim deb ataladi^{4,5}.

Macintosh uchun apparatli qism odatiy rekli modul ko'rinishidadir, nechta parallel stereokanallarni birdaniga eshitish mumkinligi aynan unga bog'liq. PC uchun yaratilgan ProToolsning apparatli qismida faqatgina kiritish-chiqarish interfeysi bo'lib, signalli protsessorlar (DSP) yo'qdir, shuning uchun ko'pkanalli tenglashtirish ishlarining hammasini kompyuterning markaziy protsessori bajaradi. Umuman, tizim bilan ishlash uchun ixtiyoriy boshqa kiritish-chiqarish interfeysi bilan ishlash mumkin. Xuddi MIDI-sekvensorlardagi kabi dasturning asosiy oynasida tovushli

4 Петелин Р. Ю., Петелин Ю. В. Аранжировка музыки на PC. – СПб: БХВ – Санкт-Петербург, 1999. – 277с.

5 Sh. A. Gafurova. Elektron va kompyuter musiqasi. T. 2019-133 b.

fragmentlarga ega yo'llar aks ettirilgan, bu yerda ular regionlar deb nomlanadi. Tovushli faylning ixtiyoriy qismi region bo'lishi mumkin. Regionlar ustida turli nodestruktiv o'zgarishlarni bajarish mumkin, masalan, yo'lning o'zida amplitudali egri chiziqni chizib, region jarangi dinamikasini o'zgartirish mumkin.

Bu tizimni o'rganish mazkur qo'llanmaning vazifasiga kirmaydi, chunki o'z sinfida eng qimmat dasturlardan bo'lib, undan kam foydalaniladi.

Bu sinfnings eng mashhur va kuchli dasturlaridan biri Steinberg firmasining tovush bilan professional ishlash, audioni ko'pkanalli keltirishga mo'ljallangan Nuendo dasturidir. Uni yana raqamli audioni yaratish tizimi (digital audio production system) deb atash ham mumkin. Hozirga kelib bu dasturning bir nechta versiyalari

chiqarilgan.

Mazkur maqolada kompyuter musiqasi texnologiyalarini o'zlashtirishda as qotadigan tushuncha va qoidalar ko'rib chiqilgan. Maqolada kompyuter musiqiy dasturi haqidagi zamonaviy ma'lumotlar va tovushni raqamlashtirish, MIDI, ko'p kanalli tenglash dasturlari haqida tushuncha, tovush kartalari va tovushni yozish hamda unga ishlov berish haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

Keltirilgan materiallar talabalarda kompyuter musiqiy dasturlar bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilishga yordam beradi, bundan tashqari misol va illyustratsiyalar ham keltirilgan. Ushbu maqolada Musiqa, madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun elektron va kompyuter musiqasini, nazariy va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirishda foydalansa bo'ladi.

MENTAL PROCESSES IN THE DEVELOPMENT OF THINKING OF TEENAGERS IN ENGLISH CLASSES

Dilnoza Arslanovna Kurbanova – associate professor,
PhD in Pedagogical Sciences, Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: This article highlights comments and opinions on the development of a foreign language and the thinking of youths. How important it is for teenagers to develop thinking is reflected in this article. The development of thinking is more effectively carried out in English classes.

At the same time, the development of thinking is considered as an important factor not only in intensifying the process of teaching a foreign language, but also in the professional growth of pupils.

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tilini rivojlantirish va yoshlar tafakkuriga oid mulohazalar yoritilgan. O'smirlar uchun fikrlashni rivojlantirish qanchalik muhimligi ushbu maqolada o'z aksini topgan. Fikrlashni rivojlantirish ingliz tili darslarida samaraliroq amalga oshiriladi.

Shu bilan birga tafakkurni rivojlantirish nafaqat chet tilini o'qitish jarayonini faollashtirish, balki o'quvchilarning kasbiy o'sishida ham muhim omil sifatida qaraladi.

Аннотация: В данной статье освещаются комментарии и мнения по развитию иностранного языка и мышления молодежи, а также насколько важно для подростков развивать мышление.

При этом развитие мышления рассматривается как важный фактор не только интенсификации процесса обучения иностранному языку, но и профессионального роста учащихся.

Keywords: thinking, reasoning, thoughts, beliefs, semiotics, competence, discourse.

Kalit so'zlar: fikrlash, e'tiqod, semiotika, kompetensiya, nutq.

Ключевые слова: мышление, рассуждение, мысли, убеждения, семиотика, компетентность, дискурс.

Critical thinking skills are essential for individuals to make informed decisions, solve problems, and innovate. It is a cognitive skill that involves analyzing information, evaluating evidence, and making logical judgments. Children who develop critical thinking skills have better problem-solving abilities, are more creative, and can communicate their ideas effectively. It is a lifelong skill that is necessary for academic, personal, and professional success. Critical thinking (Sohana Abdul Hamid, 2021) not only describes the ability to think in accordance with the rules of logic and probability, but also the ability to apply these skills to real-life problems, which are not content independent.

As today's labor market has an increasing need for highly qualified specialists who know a foreign language, who are able to think in solving a wide

range of problems in the process of professional activity, it is clear that the content of education must meet new requirements. For this, it is necessary to develop new approaches, methods and technologies with a communicative — speech orientation and introduce them into the practice of the educational process.

Therefore, we are talking not only about teaching a foreign language as a whole system of signs and rules for their use (grammar), but also about teaching speech in this language, developing thinking, through which we can express our thoughts, ideas and topics we understand the use of language to express our ideas.

In semiotics (Greek: semeion-sign), it has become traditional to distinguish between

language and speech, the methods of information transmission in human society, the characteristics of signs and sign systems. We come from the interrelationship of speech and language, because the large volume of language that speech contains represents understanding. Speech is one of the highest mental functions of a person, which has a communicative orientation, that is, it is directed to communication between people with the help of a special sign system.

H.H.Jinkinstates that language and speech structures complement each other and that there is no "speech without language and language without speech"¹.

Linguist, psychologist and teacher I.M.Rumyantseva considered speech from a complex — linguistic-psychological point of view, saying that "language is a means of human communication with other people", as well as "a phenomenon of the human psyche, its highest mental function, a special mental process". emphasized. He writes, "Thus, speech is naturally connected with all other mental processes (feelings, attention, memory, thinking and imagination). All of them affect the emergence and development of speech, contributing it"².

Therefore, by teaching people to know a foreign language, we need to teach them not only vocabulary, phonetics and grammar, but also the ability to speak this language. This is not only a pedagogical and linguistic, but also a psychological problem. Therefore, in our opinion, it is impossible to improve the effectiveness of teaching speech in a foreign language without "involving" psychological laws. Improvement of the teaching methodology should also follow this direction. From this point of view, K.D.Ushinsky emphasizes that a teacher must know psychological laws in order to teach

successfully and educate a person and even successfully influence the educational process with the best methodological developments³.

It should be noted that modern approaches to the problems of foreign language teaching methodology are constantly expanding. Today methodological science in this field includes not only the data of traditional sciences such as pedagogy, psychology and linguistics, but also cultural studies, literature, geography, the history of the country of the studied language, as well as linguostatistics, communication theory, information theory, sociolinguistics, logic. and based on other information. In Rumyantseva's opinion, "such interdisciplinary, integrative, holistic research, which combines different scientific disciplines and different scientific schools, is of particular importance, because it allows to consider these phenomena from all possible perspectives"⁴.

Thus, modern speech researchers emphasize that speech is an integrative phenomenon, that is, speech should be taught comprehensively, taking into account pedagogical, linguistic and psychological laws. If we set ourselves the goal of improving the methodology of teaching speech in a foreign language, we should know that only this teaching methodology will be truly effective based on these laws.

Thinking and speech are cognitive mental processes and are closely related to each other. Deep penetration into speech, thinking, as well as other cognitive processes (feelings, attention, memory, imagination) becomes an integral part of speech and is considered the most important of them. According to some scientists (I.S.Vygotsky, P.S.Nemov), speech is determined by direct thinking. Therefore, both the process of mastering language and speech, as well as the

1 Jinkin N.I -ijod (tanlangan asarlar) / komp., taxminan. S.I.Gindin tomonidan. – M.: Labirint, 1998. 368 b. . Til-nutq

2 Rumyantseva I.M. Nutq psixologiyasi va lingvopedagogik psixologiya. M.: Per SE; Logos, 2004. 319 b.

3 Ushinskiy K.D. Ijtimoiy: 6 jildda-M., 1990. Vol.5.

4 Rumyantseva I.M. Nutq psixologiyasi va lingvopedagogik psixologiya. M.: Per SE; Logos, 2004. 319 b.

level of their knowledge, depends on the level of development of thinking.

When talking about the definition of the concept of "development", we should mention that it is very difficult to come to a single interpretation of this concept among the number of existing definitions of this concept today. Development is a philosophical concept that refers to the process of transition from one state to another, more perfect one. There are two different trends of development. One of them is ascending, from simple to complex, from low to high (progressive line), the other is down, from complex to simple, from high to low (regressive line).

The main thesis of this theory is that a child's mental development is related to his upbringing.

I.A. Zimnaya comments on one of these basic principles of modern education: "If the first part of these rules notes the connection between mental development and learning, the second contains the answer to the question "how does it lead?"⁵.

In our case, we contribute to the development of professional and personal qualities of a person by developing the intellectual abilities of a person — his creative thinking and also speech in a foreign language.

At the same time, we rely on one of the main rules of L.S.Vygotsky: "To teach and develop a person, it is important to pay attention not to what he does not have, but to what he has and what he can rely on when working with him"⁶.

S.L.Rubinstein noted: "One or another level of perception, memory, thinking is not just a necessity, but the result of a specific cognitive educational activity in which they are not only manifested, but also formed. It follows that death the learning process must also be a developmental

process"⁷.

According to L.S.Vygotsky, learning processes and internal development processes have unity, not uniformity. Although education is directly related, they never go equally and parallel to each other. The most complex dynamic relations are established between the development and learning processes, the formula of which cannot be predicted⁸.

Also, "An important feature of learning is that it creates a zone of proximal development in life, that is, it causes, awakens and sets in motion a number of internal development processes. From this point of view, learning is not development. However, until is organized, it leads to intellectual development. It brings to life a number of such processes that would be completely impossible outside of education. Thus, learning is an intrinsically necessary and universal moment in the process of development. It is not natural, but human are historical features"⁹.

Effective acquisition of English speech by listeners is ensured by developing the listener's thinking with the help of a developed system of language and psychological exercises. Along with the development of thinking, teaching speech in a foreign language helps to develop the entire cognitive (cognitive) sphere of the listeners. At the same time, teaching foreign language speaking by developing thinking helps the personal and professional growth of the listeners. Development of thinking should be done in every discipline. In addition to the formation of language competences in English classes, it is appropriate to pay attention to the development of thinking.

5 Zimnaya I.A. Ta'lim psixologiyasi. M.: Logos, 2005 Yil. 384 b.

6 Rumyantseva I.M. Nutq psixologiyasi va lingvopedagogik psixologiya. M.: Per SE; Logos, 2004. 319 b.

7 Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. — Sankt-Peterburg: "Piter" Nashriyoti, 2000. 712 b.

8 Vygotskiy L.S. Fikrlash va nutq. Tahrir 5, ISPR. M.: Labirint Nashriyoti, 1999.-352 b.

9 O'sha manba.

XXI ASR – FALSAFA ILMI UCHUN YANGICHA DAVR

Bobomurot Eshboyevich Toshboyev – falsafa f.b.f.d.,
dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilmiy-texnologik taraqqiyot, ma'naviy va madaniy tanazzul, axloqiy dilemmalar, sun'iy intellekt, ekologik axloq, qutblanish, populizmning kuchayishi va demokratik institutlarga tahdidlar kabi masalalarning falsafa ilmida tadqiq etilishi xususida fikr yuritilgan hamda mazkur dolzarb masalalar yechimida falsafa ilmining o'rnini asoslab berishga harakat qilingan.

Аннотация: В данной статье обсуждается исследование таких вопросов, как научно-технический прогресс, духовный и культурный упадок, моральные дилеммы, искусственный интеллект, экологическая этика, поляризация, рост популизма и угрозы демократическим институтам в науке философии, а также решение этих актуальных вопросов наука философия попыталась обосновать.

Abstract: This article reflects on the study of issues such as scientific and technological progress, spiritual and cultural decline, moral dilemmas, artificial intelligence, environmental ethics, polarization, the rise of populism, and threats to democratic institutions in philosophy, and attempts to justify the place of philosophy in solving these pressing issues.

Kalit so'zlar: ilmiy-texnologik taraqqiyot, ma'naviy va madaniy tanazzul, axloqiy dilemma, sun'iy intellekt, ekologik axloq, qutblanish, populizm, demokratik institutlar, ekzistensializm, shaxsiy erkinlik, haqiqiylik, mavjudlik.

Ключевые слова: научно-техническое развитие, духовный и культурный упадок, моральная дилемма, искусственный интеллект, экологическая этика, поляризация, популизм, демократические институты, экзистенциализм, свобода личности, аутентичность, существование.

Keywords: scientific and technological development, spiritual and cultural decline, moral dilemma, artificial intelligence, environmental ethics, polarization, populism, democratic institutions, existentialism, personal freedom, authenticity, existence.

Falsafa asrlar davomida insoniyat tafakkurining tamal toshi bo'lib, sivilizatsiyalarni shakllantirgan. Fan, siyosat va madaniyat rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Qadimgi Yunonistonlik Suqrot dialoglaridan tortib, zamonaviy demokratiyaga asos solgan ma'rifatparvar mutafakkirlarigacha falsafiy izlanishlar doimo rivojlanib bordi. Aristotel, Dekart va Kant kabi faylasuflar nafaqat voqelik va borliqning mohiyatini shubha ostiga oldilar, balki axloq, adolat va insoniy holatni tushunish uchun asoslar ham yaratdilar. Ushbu tarixiy asos XXI asrda falsafiy g'oyalar qanday qayta talqin qilinayotgani va zamonaviy muammolarga tatbiq etilayotganini tushunish uchun juda muhimdir.

XXI asr jamiyat va madaniyatda chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Global miqyosdagi muammolar, ilmiy-texnologik taraqqiyotning tez sur'atlari, ma'naviy va madaniy tanazzul

kabi omillar falsafiy tafakkurni yangicha darajaga ko'tarish, uning dolzarbligini yanada oshirish talabini qo'ymoqda. Ko'pincha mavhum va kundalik hayotdan yiroq deb qaraladigan falsafaning dolzarbligi endi qayta ko'rib chiqilmoqda. Falsafa ilmida chuqur axloqiy dilemmalarni hal qilish, siyosiy mafkuralarni boshqarish va inson mavjudligi haqida mulohaza yuritish kabi mavzular har qachongidan ham bugungi kunda muhimroqdir.

Falsafaning zamonaviy hayot bilan kesishadigan eng dolzarb yo'nalishlaridan biri texnologiya sohasidir. Amerikalik taniqli faylasuf va sotsiolog D.Bell bo'lg'usi ijtimoiy qurilish shakl-shamoyillarini belgilar ekan, hali internet paydo bo'lishidan ancha oldin shunday degan edi. "Shunga ishonchim komilki, axborot va nazariy bilim postindustrial jamiyatning strategik resurslaridir. Bundan tashqari, o'zining

yangi rolida ular hozirgi tarixning tub burilish nuqtalaridir". Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish bizning kundalik hayotimizga tobora ko'proq integratsiyalashgani sababli ularni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq axloqiy masalalar muhim ahamiyatga ega. Ong tabiati, iroda erkinligi va axloqiy mas'uliyat haqidagi falsafiy mulohazalar hozirda sun'iy intellekt etikasi haqidagi munozaralarda markaziy o'rin tutadi. Masalan, sun'iy intellekt axloqiy vakolatga ega bo'lishi mumkinmi yoki u odamlar kabi axloqiy me'yorlarga bo'ysunishi kerakmi, – degan savol falsafiy tadqiqotlarda chuqur ildiz otgan.

Bundan tashqari, texnologiya falsafasi texnologik taraqqiyot inson tajribasi va ijtimoiy tuzilmalarni qanday shakllantirishini o'rganadi. Martin Xaydegger kabi faylasuflar texnologiya shunchaki vositalar to'plami emas, balki dunyoni idrok etish usuli ekanligini ta'kidlab kelishgan. D.Bell birinchi burilish nuqtasi sifatida hozirgi jamiyatda "umumiy bilim" sifatida asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan fan xususiyatining o'zgarishini qayd etadi. Ikkinchi burilish nuqtasi yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ular sanoat inqilobi davri texnologiyalaridan farqli o'laroq, o'ta moslashuvchan va osongina qayta ixtisoslashtirilishi mumkin. "U hozirgi texnologiya betakror va ayni vaqtda rang-barang natijalarga erishish uchun ko'p sonli muqobil yo'llar ochadi, bunda moddiy nematlar ishlab chiqarish mislsiz darajada o'sadi. Bular – imkoniyatlar, hamma gap ularni ro'yobga chiqarishda"¹, – deb qayd etgan edi. Ushbu istiqbol rivojlanayotgan texnologiyalarning axloqiy oqibatlarini o'rganish, ular bizning qadriyatlarimiz va avtonomiyamizni kamaytirmasdan, insoniyatga xizmat qilishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Axloqiy falsafa zamonaviy muammolar keltirib chiqaradigan axloqiy dilemmalarni hal qilishda birinchi o'rinda turadi. Iqlim o'zgarishi, inson huquqlari va global tengsizlik kabi muammolar qonun doirasidan tashqarida bo'lgan axloqni chuqur tushunishni talab qiladi. Piter Singer² kabi faylasuflar o'zining samarali altruizm bo'yicha ishi bilan bizni xatti-harakatlarimizning global oqibatlarini, ayniqsa, axloqiy majburiyatlarimizni ko'rib chiqishga chaqiradilar.

Iqlim o'zgarishi kontekstida ekologik axloq atrofidagi falsafiy munozaralar inson ehtiyojlarini boshqa turlar va ekotizimlarning ehtiyojlaridan ustun qo'yadigan antropotsentrik nuqtayi nazarni shubha ostiga qo'yadi. Bu inson va tabiat o'rtasidagi yanada uyg'un munosabatlarni targ'ib qiluvchi chuqur ekologiya va ekofalsafaning rivojlanishiga olib keldi. Bu falsafiy istiqbollar atrof-muhit siyosatini shakllantirishda va jamoatchilikni xabardor qilishda tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Bu haqida XX asrning 40-yillardayoq K.Yaspers shunday deb yozgan edi: "Barcha mavjud muammolar dunyo muammolari bo'lib qoldi, vaziyat – umuminsoniyatning vaziyatiga aylandi"³. Bugungi kunda dunyoda bo'layotgan har bir hodisa, u insoniyatga aloqadordir. Shunday ekan, albatta, ulardan insonlarni ogoh qilish hozirgi falsafaning muhim vazifalaridan biridir.

XX asrning siyosiy manzarasi qutblanish, populizmning kuchayishi va demokratik institutlarga tahdidlar bilan ajralib turadi. XX asr "Yevropa siyosatining keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda yevropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun kurashda raqobat ham qo'shildi"⁴. Shu nuqtayi nazardan, falsafa ushbu o'zgarishlarni tahlil qilish va

1 Белл Д. Социальные рамки информационного общества I Новая технократическая волна на Западе. — Москва. 1986. 342 бет

2 Piter Singer. Practical Ethic. Cambridge, 1979.

3 Ясперс К. Смысл и назначение истории. М., 1994. 141 бет

4 Харенберг Б. Хроника человечества. — Москва, Слово. 2000. 387 бет

ularga javob berish uchun tanqidiy yondashuv taqdim etadi. Jon Rouls⁵ va Xanna Arendt⁶ kabi faylasuflarning asarlari adolat, hokimiyat va siyosiy hokimiyatning tabiati kabi tushunchalar haqida ma'lumot beradi, ular hozirgi siyosiy iqlimni tushunish va hal qilish uchun zarurdir. Misol uchun, Roulsning adolat nazariyasi ijtimoiy adolat va resurslarni taqsimlash haqidagi munozaralarda muhim rol o'ynadi. Uning g'oyalari jamiyatlar shaxsiy erkinliklarni jamoaviy mas'uliyat bilan qanday muvozanatlashi mumkinligi haqidagi munozaralarga ta'sir qilishda davom etmoqda.

Xuddi shunday, Arendtning totalitarizm va yovuzlik tabiati haqidagi tahlili dunyoning turli burchaklarida avtoritar tendensiyalar qaytadan kuchayib borayotgan davrda ham dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu falsafiy g'oyalar bilan shug'ullanish orqali biz hokimiyat dinamikasini, fuqarolar va rahbarlarning axloqiy mas'uliyatini yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

Falsafa o'z zahirida inson mavjudligining asosiy mohiyatini tushunishga intiladi. XXI asrda bu so'rov har qachongidan ham dolzarbdir, chunki odamlar tobora murakkablashib borayotgan dunyoda o'ziga xoslik, maqsad va ma'noga oid savollar bilan kurashmoqda. XX asrda paydo bo'lgan ekzistensializm va postmodernizm kabi falsafiy oqimlar hozirgi zamon tafakkuriga, xususan, psixologiya, adabiyot va san'at sohalarida ta'sir o'tkazishda davom etmoqda.

Jan-Pol Sartr va Simona de Bovuar kabi ekzistensialist faylasuflar shaxsiy erkinlik va u bilan birga keladigan mas'uliyatning muhimligini ta'kidladilar. Ularning g'oyalari shaxsiy avtonomiya, ruhiy salomatlik va ko'pincha parchalanib ketgan va noaniq bo'lib tuyuladigan dunyoda ma'no izlash haqidagi bugungi munozaralarda aks sado beradi. Xuddi shunday, postmodern falsafa ham buyuk hikoyatlarni

tanqid qilish va haqiqatning nisbiyligiga urg'u berib, bizni o'ziga xoslik va madaniyat haqida o'rnatilgan me'yorlarni shubha ostiga qo'yishga va yangi fikrlash usullarini o'rganishga chaqiradi.

Ekzistensializm shaxsiy erkinlik, haqiqiylik va mavjudlikning bema'niligiga e'tibor qaratgan holda, zamonaviy madaniyat va tafakkurga chuqur ta'sir ko'rsatdi. "Mavjudlik mohiyatdan oldinroq" degan ekzistensialistik g'oya hayotimiz oldindan belgilangan maqsadga ega degan fikrga qarshi chiqadi va buning o'rniga ma'no yaratishda shaxsiy tanlov va mas'uliyat rolini ta'kidlaydi. Din va jamoa kabi an'anaviy ma'no manbalari tez-tez o'zgarib turadigan va odamlar tobora ko'proq o'z yo'llarini qidirayotgan XXI asrda bu nuqtayi nazar ayniqsa dolzarbdir.

Ekzistensializmning ta'sirini zamonaviy psixologiyada, xususan, o'z-o'zini anglash va haqiqiy hayotga intilishda ko'rish mumkin. U adabiyot, kino va tasviriy san'atda begonalashish, erkinlik va insoniy holat mavzulari o'rganiladigan san'atda ham muhim rol o'ynaydi. Bizni mavjudlik haqiqatiga va o'limning muqarrarligiga qarshi turishga undagan holda, ekzistensializm zamonaviy hayotning murakkabliklarida harakat qilish uchun asos yaratadi.

XX asr o'rtalarida paydo bo'lgan falsafiy oqim bo'lgan postmodernizm zamonaviy fikr va madaniyatni shakllantirishda davom etmoqda. Katta rivoyatlarga skeptitsizm va haqiqatning nisbiyligiga ishonish bilan ajralib turadigan postmodernizm yagona, obyektiv voqelik borligi haqidagi g'oyaga qarshi chiqadi. Axborot "portlashi" va raqamli media asrida bizning dunyoni qanday tushunishimiz va ular bilan qanday munosabatda bo'lishimiz uchun muhim ta'sir ko'rsatadi.

Siyosat sohasida postmodernizm bizning hokimiyat, o'ziga xoslik va ijtimoiy adolat

5 Jon Rouls. Political liberalism. 1993

6 Арент Х. Истоки тоталитаризма / Пер. с англ. И. В. Борисовой и др.; послесл. Ю. Н. Давыдова; под ред. М. С. Ковалёвой, Д. М. Носова. — М.: ЦентрКом, 1996.

haqidagi fikrimizga ta'sir qildi. Harakatning o'rnatilgan me'yorlarni dekonstruksiya qilish va marginallashtirilgan ovozlarni o'rganishga urg'u berishi o'ziga xoslik siyosatining yuksalishiga va turli nuqtayi nazarlarni tan olishga intilishiga yordam berdi. San'atda postmodernizm gibrid shakllarning ko'payishiga olib keldi, bu yerda janrlar va vositalar o'rtasidagi an'anaviy chegaralar noaniq bo'lib, zamonaviy madaniyatning o'zaro bog'liqligini aks ettiradi.

Biz kelajakka nazar tashlar ekanmiz, yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishda falsafaning roli har qachongidan ham muhimroqdir. A.Pechchi ta'kidlaganidek, "Endilikda ona – Yerimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishishga, insonning har qanday erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan ularning qandayligi va qayerdaligini hali aniqlash lozim"⁷. Texnologik taraqqiyotning jadal sur'atlari iqlim o'zgarishi va ijtimoiy tengsizlik kabi global inqirozlar bilan birgalikda muammolarni hal qilishda chuqur va o'ylangan yondashuvni talab qiladi.

Falsafa tanqidiy fikrlash va axloqiy mulohazalarga urg'u berib, ushbu muammolarni hal qilish uchun qimmatli vositalar to'plamini taklif qiladi.

Falsafa sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy sohalardan yana biri bu sun'iy umumiy intellekt (AGI) rivojlantirishidir. Sun'iy umumiy intellekt atrofida axloqiy mulohazalar, masalan, mashinalarda ongning potentsiali va inson o'ziga xosligi kabi masalalar bugungi kunda chuqur falsafiy savollardir. Sun'iy umumiy intellektni amalga oshirishga yaqinlashar ekanmiz, faylasuflarning fikrlari ushbu texnologiyani ishlab chiqish va boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, falsafaning kelajagi uning kundalik hayotga mos kelishidadir. Bu faylasuflardan zamonaviy muammolar bilan shug'ullanishni va o'z g'oyalarni kengroq auditoriya yetkazishni talab qiladi. Shunday qilib, falsafa XXI asrning murakkab muammolarini hal qilish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlarni taqdim etishda davom etishi mumkin.

XXI asr falsafa ilmi uchun yangicha davr. Falsafa yangi strategiyalarni ishlab chiqishi, jamiyatning dolzarb muammolarini hal qilishga yordam berishi, inson va jamiyatning kelajagi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatmog'i va ularni tushunish va hal qilish uchun zarur vositalarni taklif etmog'i lozim. Akademik N.I.Moiseyev ta'kidlaganidek, "Davrimizning o'ziga xosligi shundan iboratki, kishilar, guruhlar, davlatlar manfaatlari doirasi tobora ko'proq bir-biriga mos keluvchi tarkibiy qismlar bilan kengayib bormoqda. Odamlar borgan sari bir-birlariga bog'liq bo'lib qolmoqdalar. Umuminsoniy qadriyatlar qaror topib bormoqda. Demakki, kishilar o'rtasidagi, eng avvalo, davlatlararo o'zaro aloqalar ikki tomonlama manfaatli kelishuvlarni topishga qodir bo'lgan murosa institutlarining qonunlashtirilishiga qachondir olib keladi"⁸.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, murakkablashib borgan dunyoda yuzaga kelgan muammolarning eng samarali yechimi sifatida falsafa ilmi murosa yo'lini taklif qilgan. Bu usul ko'pincha muammolarning oqilona yechimi sifatida xizmat qilgan va u kelajakda ham insoniyat mavjudligiga daxl qiladigan muammolarning samarali yechimi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

7 Печчи А. Человеческие качества. Москва. 1980. 123–124 бетлар

8 Моисеев Н.И. Экология, нравственность и политика // Вопросы философии 1989. №5. 12 стр

ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARIDA TUMAN VA SHAHAR GAZETALARINING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISHI

Abdug'affor Abdurahmonov, tarix f.b.f.d. (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zarafshon vohasi viloyatlarida tuman va shahar gazetalarining tashkil etishi va rivojlanishi, boshqa nashrlarning muammolari tahlili etilgan.

Аннотация: В статье анализируются организация и развитие районных и городских газет, проблемы печатных изданий в районах Зарафшонского оазиса.

Abstract: This article analyzes the organization and development of district and city newspapers, problems of print publications in the regions of Zarafshon oasis.

Kalit so'zlar: davriy nashrlar, gazeta muassisi, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, gazeta ruknlari, shakl va mazmun, publitsistika.

Ключевые слова: периодическая печать, газетное учреждение, образование, наука и просвещение, газетные колонки, форма и содержание, журналистика.

Keywords: periodicals, newspaper establishment, education, science and enlightenment, newspaper columns, form and content, journalism.

Har bir tuman (shahar) gazetolari ushbu hududning o'tmishi, yaqin tarixi, buguni va ma'lum ma'noda kelajagi haqida ma'lumot beradi¹. Ayrim tuman gazetalarining chop etilish tarixi va joriy arxiv fondlari viloyat va respublika gazetalarinikidan boy hisoblanadi. Bunga "Kogon hayoti", "Qorako'l sadosi", "G'ijduvon hayoti", "Bulung'ur hayoti", "Kattaqo'rg'on haqiqati", "Paxtachi" kabi gazetalarini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu gazetalarining barchasi 1931-yildan buyon chop etib kelinadi². "Kanimex tani" (1930 y.) o'zbek, qozoq, qoraqalpoq tilida, "Ilg'or chorvador" (1935) o'zbek, tojik, "Tamdi sharuageri" (1938) qozoq, "Samarqand" (1991 y.) o'zbek, tojik, rus tilida o'quvchilariga tarqatilgan.

O'zbek tilida chop qilingan "Ishtixon ovozi" gazetasining tarixi 1934-yilga borib taqaladi. Ushbu yilda gazeta Mitn rayon partiya qo'mitasi va tuman Kengashi organi sifatida "Stalin yo'lidan" nomi bilan chop etilgan. Gazetaning dastlabki sonlari saqlanib qolmagan. Keyinchalik

gazetaning nomi "Oktabr yo'lidan" nomiga o'zgartirilgan.

Ikkinchi jahon urishi yillarida gazeta tahririyati xodimlari urushga jalb etilgani sababli gazeta chiqmay turgan. 1950-60-yillarda J.Qodirov, N.Zayniyev, T.Alimovlar gazetaga muharrirlik qilishgan. M.Navruzov, N.Begmatov, N.Ro'ziyevlar mas'ul kotib vazifasida ishlagan.

1963-yildan tuman gazetasi "Kolxoz hayoti" nomi A-3 formatda tuman bosmaxonasidan chiqa boshladi. Tajribali jurnalist N.Begimov muharrirligidagi jamoada M.Mardiyev, R.Sattorov, I.Bahodirov, R.Tayloqovlar mehnat qildi. 1973-yildan gazetaga Z.Bahriddinov rahbarlik qildi. Bu vaqtda gazeta haftasiga 3 martagacha chiqib turgan. "Ishtixon ovozi" taniqli adib va yozuvchilar, jurnalistlar uchun mahorat maydoni bo'lib xizmat qilgan. Xususan, Olqor Damin, Yo'ldosh Eshbek, Rauf Subhon, Orif To'xtash, Shahodat Ismoilova, To'liqin Eshbeklar ilk ijod namunalari ushbu gazetada chop etishgan.

1 Xalq xizmatida / to'plam. mas'ul muharrir Xosilov A. — Navoiy.: Alisher Navoiy, 2013 y. —B. 2.

2 O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlari. — T.: -2003-y. - B. 85, 97, 103.

1991-yil setyabridan gazeta "Ishtixon ovozi" nomi bilan chop etildi. Gazeta o'quvchilari sonini oshirish uchun tuman aholisi bilan uchrashuvlar o'tkazib keladi³. "Ishtihon ovozi" 2015-yildan A-4 formatda, rangli bo'lib chiqa boshladi. 2021-yil hisobida tahririyatda 6 nafar xodimlar mehnat qiladi. Ularning 5 nafari oliy, 1 nafari o'rta-maxsus ma'lumotga ega. Gazetaning moddiy-texnik bazasi yangilangan. Rasmiy www.ishtixonovozi.uz web-sayti ishlab turibdi.

2021-yilning 5-dekabrida "Bulung'ur hayoti" gazetasining 90 yilligi nishonlandi. Gazetaning ilk soni (1931) "Kolxo'zchilar bayrog'i" nomi bilan chop etilgan. Shundan so'ng, 1962-yil "Kommunist" nomiga o'zgartiriladi. 1991-yil oktabrdan gazeta "Bulung'ur hayoti" nomi bilan chop etilmoqda⁴.

"Bulung'ur hayoti"ga turli yillarda M.Madumarov, G.Hasanov, B.Bahodirov, V.Golovashenko, T.Shirinov, V.Ro'zimetovlar, M.Murodov, N.Shakarov, G.Alimov, A.Mahramqulovlar, O.G'oziyev, E.Uzoqov, K.Karimov, E.Uzoqov, Y.Otamurodovlar muharrirlik qilishgan. Gazetani sifatli va o'qimishli maqolalar bilan boyitishda jamoatchi muxbirlardan B.Pirnazarov, A.Abayev, A.Ubaydullayev, B.Berdaliyev, O.Husanov, M.Nematov, O.Taniyev, S.Qo'shmurodov, A.Qodirov, N.Qulboyev, F.Umirzoqovalarning nomlarini alohida eslab o'tish joiz.

2020-yilda gazetaga hokimlik tomonidan xizmat mashinasi berildi. 2021-yildan yangi

binoda ish faoliyatini boshladi. Gazetani mavzular bilan boyitishda P.Cho'mboyev, R.Hotamov, T.Sherboyev, M.Suyunova kabi jurnalistlarning hissasi katta bo'lmoqda⁵. 2021-yil hisobida gazetada 9 nafar xodimlar mehnat qiladi. Ularning 5 nafari oliy, 4 nafari o'rta-maxsus ma'lumotga ega.

Kattaqo'rg'on tuman Kengashi va tuman hokimligi muassisligidagi "Kattaqo'rg'on haqiqati" gazetasi 1931-yilning sentabr oyida G'ulom Murodov rahbarligida chop etilgan⁶. 1934-yildan gazeta ikki betlik, 1917 nusxada chop etilgan. XX asrning 70-80-yillarida nashrning tiraji 10-12 ming nusxada, haftada 3 martagacha bosilgan⁷. O'sha vaqtda tahririyatda 10 nafar ijodiy va texnik xodimlar mehnat qilgan. 1986-yil tahririyat uchun yangi bino va bosmaxona qurib beriladi. Turg'it Yoqubov, Ne'mat Maqsumov, Latif Ergashev, Muqim Elmurodov, Fayzulla Nurullayev, Asqar Jalilov, Dilorom Ibragimova, Eshpo'lat Safarov, Shuhrat Qarshiyev, Jahongir Safarovlar gazetaning muharrirlari bo'lishgan⁸. Fayzulla Nurillayev bosh muharrirligi davrida gazeta 12-13 ming nusxada chop etilgan⁹. 2021-yilning may oyidan O'tkir Usmonov bosh muharrir vazifasida ishlamoqda.

Gazeta maktabidan ko'plab zabardast jurnalist xodimlar yetishib chiqqan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Hamroqul Jamilov, O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi a'zosi Mardi Nuriddinov, Meli Farmonov, Fazilat Abdullayeva, Nafas Do'sanov, Haydar Bozorov, Qobiljon Uzoqov, Ochil Rahmatov, G'ayrat Shukurovlar shular jumlasidandir.

3 Bahridinov Z. Mushtariy ko'ngli nimani istaydi? // Zarafshon, 2005-yil, 25-iyun.

4 O'ralov G'. 90 yil xalq xizmatida // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Cho'mboyev P. Izlanish, intilish – yuksalish // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Xatamov R. Jurnalistning noni qattiq // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Aliboyev S. Eslashga arzugulik o'tgan kunlar // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Abdurahmonova N. Kasbimdan faxrlanaman // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Sherboyev T. Gazeta hayotim mazmuni // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Suyunov M. Oqko'ngil odamlar orasida // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Turdiyev S. Hisobli do'st ayrilmas // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Bahromov B. Bulung'ur hayoti gazetasi tumanimiz ko'zgusi // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Qosimov X. Dunyoda baxt yo'qdir shu baxtdan ustun // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr; Ne'matov M. Ustozni eslab // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr.

5 O'rolov G'. 90 yil xalq xizmatida // Bulung'ur hayoti, 2021-yil, 4-dekabr.

6 Safarov E. Matbuot hayot ko'zgusi // Kattaqo'rg'on: kecha va bugun, 2022-yil, 27-iyun.

7 Ergashov M. Eshpo'latov S. Kasbini ulug'lab qadr topgan jurnalist // Kattaqo'rg'on haqiqati, 2021-yil, 26-avgust.

8 Safarov E. Matbuot hayot ko'zgusi // Kattaqo'rg'on haqiqati, 2021-yil, 21-iyun.

9 Hoshimov A. Ko'pchilik suygan, e'zozlagan jurnalist edi // Zarafshon, 2001-yil, 27-iyun; Abdullayev F. Otamday ulug' ko'rardim // Zarafshon, 2005-yil, 25-iyun.

Ulardan Mardi Nuriddinov viloyat "Zarafshon" gazetasi muharriri va Kattaqo'rg'on tuman hokimi, Qobiljon Uzoqov "Namangan haqiqati" gazetasi muharriri, O'zbekiston telegraf agentligining direktori, shoir Toshpo'lat Sadiy respublika davlat bolalar nashriyoti direktori, G'ayrat Shukurov "Kattaqo'rg'on tongi" gazetasi bosh muharriri, Ahmad Ismoilov "Toshkent haqiqati" gazetasi bosh muharriri vazifalarida ishlagan. 2020-yil gazeta koronavirus infeksiyasining tarqalishi munosabati bilan chop etilishidan to'xtatiladi¹⁰. 2022-yildan gazeta "Kattaqo'rg'on: kecha va bugun" nomi bilan chiqmoqda¹¹. 2021-yil hisobida tahririyatda 6 nafar xodimlar faoliyat yuritmoqda. Ularning 4 nafari oliy, 2 nafari o'rta-maxsus ma'lumotga ega. Gazeta 2021-yilning yanvar hisobiga 2862 nusxada chop etildi.

Toyloq tumanida nashr etilib kelinayotgan "Qo'shchinor" gazetasining ilk soni 1954-yilda "Lenin bayrog'i" nomi bilan haftada 2 marta, A-3 formatda chop etilgan. 1959-yil Toyloq tumani (eski Komsomol) Samarqand tumaniga qo'shib yuborilgach gazeta ham o'z faoliyatini to'xtatgan.

1992-yil Toyloq tumani qayta tashkil etilgach, 1994-yildan tuman nashri sifatida "Yangi hayot" gazetasi chiqa boshlaydi. 1999-yildan gazetaning nomi "Qo'shchinor"ga o'zgartirildi. 2014-yildan gazeta A-2 formatda, rangli bo'yoqlarda, haftasiga bir marta chop etib kelinmoqda. 2021-yil hisobida gazetada 10 nafar xodimlar mavjud. Ularning 7 nafari oliy, 3 nafari o'rta-maxsus ma'lumotga ega. 2019-yilda muassis tomonidan gazetani qo'llab-quvvatlash maqsadida 200 million so'm mablag' ajratilgan.

"Jomboy tongi" gazetasining birinchi soni 1935-yil 11-aprelda bosilgan. Davr taqozosi bilan turli yillarda "Davlatli turmushga", "Kommunist", "Shonli mehnat" nomlari bilan chop etilgan. Mustaqillik yillaridan "Jomboy

tongi" nomi bilan nashr etilmoqda. Gazetaning birinchi muharriri Yo'ldosh Ismoilov bo'lgan. 1936-40-yillarda Teshaboyev, I.Xonimov, S.Yo'ldoshev, X.Mirzayevlar muharrir bo'lishgan. Tuman gazetasini tashkil etganlar safida Jomboy qishlog'ida yashagan o'qituvchi O'rol Qayumov ham bor.

"Davlatli turmush" gazetasi 1943-yilning 6-iyuliga qadar chiqib turgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida gazeta faoliyati vaqtincha to'xtatiladi. 1953-yilning 1-iyulidan "Kommunist" nomi bilan qayta nashr etiladi. "Kommunist" gazetasi 1962-yilning 7-iyunigacha chop etildi. Jomboy va Bulung'ur tumani hududlarining birlashtirilishi natijasida "Kommunist" gazetasi tumanlararo gazeta bo'lib chiqdi.

1953-1954-yillarda "Kommunist" gazetasiga M.Ermuhammedova, 1955-62-yillarda B.Pirnazarov muharrirlik vazifasini bajarishdi. 1970-yilning so'nggida Jomboy tumani qayta tashkil etildi. 1971-yilning 1-sentabridan gazeta "Shonli mehnat" nomi bilan chiqa boshladi. Tuman gazetasiga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist M.Majidov 20 yil mobaynida muharrirlik qildi. 1991-1993-yillarda R.Inoyatov, 1993-94-yillarda A.Hamidovlar gazetaga muharrir bo'lishdi. O'tgan davrda tahririyatda Ochil To'ychiyev, Yo'ldosh Otamurodov, Muhammadi Berdialiev, Abdusalom Suyunov, Abdurasul Oltmishev, Obloqul Usmonqulov, Sulaymon Husainov, Shokirjon Sheraliyev, Oyhumor Asadova, Gulchehra Jamilova, Yoqub Aminov, Ashurbek Po'latov, Hulkar Mamatmurodova singari jurnalistlar mehnat qilishdi.

2021-yil hisobida gazetaga Isomiddin Po'latov muharrirlik qilmoqda. Sherzod Isoqulov, Orifjon Odilov, Ahror Shamsiyev kabi ijodiy xodimlar faoliyat yuritishyapti. Gazetaning har bir sonida fotomuxbir Sohib Sayfullayevning ijodiy ishlari, surat-lavhasi berib boriladi.

¹⁰ https://t.me/gazetalar_sharhi/2005

¹¹ Usmonov O'. Gazetaning qisqacha o'tmishi va buguni haqida // Kattaqo'rg'on: kecha va bugun, 2022-yil, 15-mart.

Paxtachi tumani hokimligining "Paxtachi" gazetasi 1935-yilda dastlab "Uchqun" nomi bilan chop etilgan. Gazetaning birinchi bosh muharriri Norqul Toshpo'latov edi. 1963-yilgacha tahririyatga Xolchuchuk Mullajonova, Hamdam Junaidov, Soli Jo'rayev, Qudrat Mizomov, Ahmad Eshmurodov, Ismoil Ibrohimovlar rahbarlik qildi. 1963-1973-yillarda Paxtachi tumani Narpay tumani bilan birlashgach, tahririyat ham "Qizil Norpoy" gazetasi bilan birlashtirildi va "Paxtakor ovozi" nomi bilan chop etila boshladi. Gazetaga dastlab Qudrat Mizomov so'ngra Ismoil Ibrohimov rahbarlik qildi.

1973-yilda Paxtachi tumani qayta tashkil etilgach, "Paxtachi" gazetasi yana chop etila boshladi. Gazeta haftasiga 3-4 marta, 5-6 ming nusxagacha chop etilgan. F.O'roqov, O.Umarov, B.Shamsiyev, U.Elmurodov, T.Qiyomov, B.Safarov, Q.Shokirov, F.Toshev, J.Narzullayev, M.Norboboyev, B.Qurbonov, I.Norquvvatov, U.Xalilov, O.Xo'jayev, I.Hasanovlar gazetaning sifatli va mazmundor maqolalar bilan chop etilishida samarali mehnat qilganlar. 2008-yil 12-iyundan gazeta ofest usulida chop qilinmoqda¹².

"Paxtachi" gazetasi o'zga xos ijodiy maktab yarata oldi. Farmon Toshev, "Ma'rifat" gazetasi bo'limi mudiri Oybuvi Ochilova, respublikaning turli nashrlarida ijod qilayotgan Lazizjon Bahromov, Oydiniso Yo'ldoshevalar "Paxtachi" maktabi tarbiyalanuvchilari hisoblanadi. Tahririyat qoshida "Nafosat" yosh ijodkorlar to'garagi faoliyat ko'rsatadi. 2021-yil hisobida gazeta haftada bir marta chop etilmoqda. Bosh muharrir Murodulla Shukurovdir.

1935-yil "Urgut sadosi" gazetasining dastlabki soni chop etildi. Gazeta A-3 formatda, ikki sahifada Urgutda ochilgan bosmaxonada qo'l kuchi bilan aylantiriladigan stanokda nashr etilgan. Gazetaning ilk muharriri Yorbobo Xolmuhammedov edi. Dastlab "Urgut

haqiqati" nomi bilan chop etilgan gazeta 1966-yil 1-yanvardan "Oktabr alangasi" nomi bilan A-3 formatda to'rt sahifada chiqa boshlagan. Bu davrda unga iqtidorli jurnalist Ergash G'ulomov muharrirlik qildi. 1970-yildan muharrirlik mas'uliyati Ahtam To'raqulov zimmasiga yuklandi. O'sha vaqtlarda N. Fayziyev, R.Jo'rayev, A.Dilmurodov, F.Xaydarov, N.Ibrohimov, Yo.Yo'ldoshev, F.Ahmedov, I.Boymurodov, M.Mustafoev, M.Salimova qalami qayralgan jurnalist sifatida tanildilar. Ularning imzosi qo'yilgan har xil janrdagi materiallar viloyat, respublika gazeta-jurnallarida chop etila boshlandi.

Gazeta 1992-yildan buyon "Urgut sadosi" nomi bilan chiqarilmoqda. M.Jumayeva, M.Yangiboyev, X.Fayyozov, D.Do'stmurodov, R.Rahimov gazetada uzoq yillar ishladi. 70-yillarda tahririyat qoshida "Chashmalar" adabiyot to'garagi ochiladi. To'garak a'zolarining 100 ga yaqin qatnashchisi she'r va hikoyalaridan tashkil topgan "Urgut ohanglari" nomli kitob nashr qilindi. Bundan tashqari, "Chashmalar" a'zolaridan va uning tashkilotchilaridan Narzulla Fayziyev, Latif Sharipov, Ergash Majidov, Fayzi Xaydarov, Gaybiddin Fazliyev, Mavluda Mirsaidova, Jumagul Suvonova, Xudoyberdi Komilov, Qahramon Suyarovlarning alohida kitoblari chop etildi.

Gazeta 1998-yildan buyon muharririyatda tayyorlanib, Samarqand bosmaxonasida ofest usulida haftada 1 marta, oyiga 4-5 marta chop etilayapti. 2015-yildan gazeta A-2 formatga o'tdi. 2021-yil tahririyat binosi tuman hokimi Botir Jabborovning tashabbusi bilan kapital ta'mirdan chiqarildi.

1979-yildan "Peshku ovozi" gazetasi Muhammad Boqayev muharrirligida "Mehnat zarbdori" nomi bilan chiqa boshlangan. Gazetaga S.Qodirov, D.Rahmonova, D.Jabbarov, R.Aslanov, Z.Qurbonovlar turli yillarda muharrirlik qilishdi. Tahririyat xodimlari I.Umarov,

12 Markayev Y. Paxtachi ofestga o'tdi // Zarafshon, 2008-yil, 26-iyun.

I.Rajabova, X.Murodov, M.Qudratov, H.Berdiyeva, S.Qodirov, R.Qodirovalar yozgan ijod namunalari tuman hayotini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini yoritib borishda muhim o'rin tutadi.

Gazeta 1998-yilning 26-iyulidan "Peshku ovozi" nomi bilan qayta chop etila boshlagan. "Peshku ovozi"ning "Qonunchilikdagi yangiliklar" rukni bilan chop etilgan maqolalari aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Gazeta sahifalarida 2018-yildan buyon berib borilayotgan "Mutolaa" rukni ostidagi ibratli hikoyalar tuman yoshlarini kitobxonlikka, badiiy adabiyotga oshno qilishda xizmat qilmoqda.

2016-yildan buyon gazeta Hurmat Sharapova rahbarlik qilib kelmoqda. Gazeta "Buxoro viloyat bosmaxonasi" MCHJ da oyida 4 – marta, A-3 formatda 4 sahifada chop etiladi. 2021-yil hisobida tahririyatda 3 nafar xodim faoliyat olib boradi. Ularning 2 nafari oliy, 1 nafari o'rta-maxsus ma'lumotga ega. Xodimlarning barchasi ayollar bo'lib, bir nafari mutaxassis qolgan ikki nafari nomutaxassisdir. Tahririyat tuman hokimligi binosida ijarada turadi. Kompyuter jamlanmalari 2 ta, 1 ta nusxa ko'chirish apparati mavjud. 2021-yilda tuman gazetasi iyun oyigacha 1005 nusxada chop etilgan, keyingi 6 oylikda 700 nusxada chop etildi. Reklamadan tushgan mablag'lar bosmaxona xarajatlarini bir qismini qoplashga yo'naltiriladi.

"Romitonoma" gazetasi birinchi marta 1934-yilning 28-iyulida "Romiton kolxozchisi" nomi bilan chop etilgan¹³. Gazetaning birinchi bosh muharriri Sayli Hayitov edi. Gazeta "Kommunistik mo'l-ko'chilik uchun" nomi bilan 15 ming nusxagacha chop etilgan. Gazetada taniqli jurnalistlardan S.Qodirov, K.Rahimov, M.Qudratov, H.Narziyevlar faoliyat yuritgan. 1984-yildan gazeta "Do'stlik bayrog'i" nomi

bilan chop etilgan. Sattor Safarov bosh muharrir vazifasida ishlagan. Hasan Narziyev, Bafo Nekov, Jo'ra Fozilov, Zuhra Qurbonova, Nasriddin Vohidovlar samarali mehnat qilishgan.

Gazeta "Romitonoma" nomi bilan chiqa boshlagach, Jo'ra Fozilov, Nasriddin Vohidov, Sunnat Beshimovlar muharrirlik qildi. 2019-yildan buyon gazeta Maxfirat Atoeva rahbarlik qilib kelmoqda. Tahririyatda jami 6 nafar xodimlar ishlaydi. Ularning 5 nafari oliy, 1 nafari o'rta-maxsus ma'lumotga ega. Ayollar 4 nafar, erkaklar 2 nafarni tashkil etadi. Tahririyat binosi 1983-yilda qurilgan bo'lib, ta'mirtalab holga kelgan¹⁴. Gazeta 2021-yilni 1 million 72 ming so'm foyda bilan yakunlagan¹⁵.

Buxoro tuman hokimligi muassisligidagi "Galaosiyo ovozi" gazetasining dastlabki soni 1957-yilda "G'alaba" nomi bilan ikki sahifada, A-3 formatda Buxoro viloyat bosmaxonasida chop etilgan. Birinchi bosh muharriri Haydar Boboyev edi. 1962-yil 1-yanvardan boshlab gazeta "Lenin bayrog'i" nomi bilan nashr qilingan. Gazetaning nomi 1991-yildan "Galaosiyo ovozi", deb o'zgartirildi.

Gazetaga 1962-yildan 1977-yilga qadar tajribali jurnalist Sh. Hasanov, 1977-yildan 1993-yilgacha F.Qurbonov muharrirlik qildi. 1993-yil yanvaridan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, "Turon" Fanlar akademiyasi akademigi, shoir va dramaturg Baxshulla Rajab muharrirlik vazifasini davom ettirib kelmoqda.

Tahririyatda iste'dodli ijodkordan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol, talantli yozuvchilar Said Ravshan, Muzaffar Tursunov, SSSR Jurnalistlar soyuzi a'zolari G'ulom Kenjayev, Ahmad Rahmatullayev, Ato Akramov, O'zbekistonda

13 Rajabov Q. Romitan tumani tarixi (qisqacha ma'lumotnoma): — T.: Tafakkur, 2015-y. – B. 45.

14 O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi Buxoro viloyat bo'limining 2021-yil ish rejasi asosida amalga oshirilgan ishlar haqida hisoboti. Buxoro-2021-y.

15 https://t.me/daryo_live/64332

xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, urush qatnashchisi Jo'ra Turdiyev, Botir Nasriddinov, Razzoq Xolliyev, Nabi Ochilov, Juma Abdullayev, Hasan Narziyev, Rayhonali Safarov, Murod Mahmudovlar jurnalist sifatida faoliyat yuritgan.

1997-yilda gazetaning 40 yilligi nishonlandi. "Galaosiyo ovozi" 2007-yildan buyon tahririyatda kompyuterda tayyorlanib, Buxoro viloyat bosmaxonasida A-3 formatda 4 betlik qilib 2019-yilgacha rangli qilib chop etilgan. Gazeta 2019-yilda — 500 ta, 2020-yilda — 246 ta, 2021-yilda — 300 nusxada chop etildi. Hozirgi paytda tahririyat binosi ta'mirtalab ahvolga kelib qolgan.

"Xatirchi hayoti" gazetasi 1932-yildan buyon chop etib kelinadi. Gazetaning dastlabki nomi "Paxtakor" bo'lib, hozirgi Oqtosh shahrining "Qizil Norpay" bosmaxonasida 1500 nusxada nashr qilingan. "Xatirchi hayoti"ning ilk sonlari saqlab qolinmagan. Moskva markaziy kutubxonasining Ximki shahridagi gazetalar arxividan olib kelingan 3-son fotonusxasi mavjud. Gazetaning birinchi sonlari chop qilinganda A.Rahmutullayev mas'ul muharrir, Ramazonov mas'ul kotib, Ernazarov bosmaxona direktori vazifasida ishlagan.

1962-yilda Xatirchi va Narpay tumanlari birlashtirilgach, gazetalar ham qo'shib yuborilib, "Paxtakor ovozi" nomi bilan chiqa boshlagan. 1963-yilda Xatirchi Kattaqo'rg'on tumaniga qo'shilgach, har ikki tuman uchun "Zarafshon" gazetasi tashkil etilgan. 1965-yilda Xatirchi tumani qayta tashkil etilgach, 1966-yilning 1-yanvaridan boshlab tuman gazetasi "Yangi hayot" nomi bilan chiqa boshladi. Gazetaga hozirgi "Xatirchi hayoti" nomi 1998-yilda berildi.

Gazeta o'tgan yillar davomida nafaqat tumanda, balki viloyatda ham o'z o'rniga ega bo'ldi. Uning bu darajaga yetishishida sobiq muharrirlar – O'rin Kamolov, Adolat Sanaqulova, Shonazar Ochilov, Jaloliddin Rajabov, Karim Rahimov, Jo'raqul Yormamatovning hissalari katta bo'ldi. Bu davr mobaynida o'zining

dolzarb mavzulardagi maqolalari bilan tilga tushgan H.Nazarov, N.Cho'tboyev, I.Xolboyev, R.Hamdov, N.Umarov, M.Saidahmedova, O.Haqberdiyev va boshqa yana ko'plab jurnalistlar aynan shu dargohda toblanishdi, ijod qilishdi.

Taniqli ijodkorlardan A.Po'ltanov X.Bobomurodova, B. Turobova, F.Nizomov (Faxriyor), M.Oydinova, Z.Qo'ziyev, I.Hamro, X.Navro'z, T.Xo'jamov, Z.Mo'minov, S.Suyarov, V.O'roqov, B.Sadriddinov, B. Umarov, R.Rabbimovlar ilk she'riy namunalarini tuman gazetasida nashr etishgan.

1935-yil 9-fevralda O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya Qo'mitasining qarori bilan Qiziltepa tumani tashkil etilgandan so'ng o'sha yili tuman partiya qo'mitasi va tuman ijroiya qo'mitasi organi "Sovet paxtasi uchun" gazetasi chiqa boshlagan. Gazeta nomidan ma'lum bo'lib turganidek urg'u paxtaga, aniqrog'i sovet paxtasiga berilgan. Sovet hokimiyatining dastlabki davridan O'zbekistonda paxta yakka hokimligi siyosati amalga oshirilganining ifodasi bu, albatta.

Gazetaga o'tgan asrning elliginchi yilgacha M. Rahimov, O.Yoqubov, H. Shakarov, J. Hojiyev muharrirlik qilganlar. Urush davrida gazeta chiqmay qolgan. 1963-yilgacha gazetaga Rauf Qodirov, Ne'mat Abdullayev va Bozor Yo'ldoshev muharrirlik qilganlar. 1962-yili Qiziltepa G'ijduvon tumani tarkibiga qo'shilgach, "Sovet paxtasi uchun" gazetasi ham to'xtab qolgan. 1970-yil 7-dekabrda Qiziltepa tumani qayta tashkil etildi. Tuman partiya qo'mitasi va tuman ijroiya qo'mitasi organi bo'lgan gazeta "Qizil tong" nomi bilan chiqa boshladi. Gazetaga 1971-1977-yillarda Murod Xalilov, 1978-1979-yillarida Umid Sattorov, 1997-1998-yillarda Klara Bozorova muharrir bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida tuman gazetalarini chop etish, moddiy-texnik imkoniyatlarni yaxshilash choralari aniq bir tizim asosida yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondining tashkil etilishi davlat tomonidan gazetalar uchun ham grantlar ajratilishiga, bu esa tegishli moddiy-texnik imkoniyatlarning yaxshilanishiga xizmat qildi.

MUSIQA YOZISHDA SEKVENSOR–PROGRAMMALAR

Xasanxon Sulaymonovich Omonov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Gulzoda Otabek qizi Qudratova – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa san'ati sohasida nota muharrirlari va aranjirovka dasturlari imkoniyatlari hamda musiqiy ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llash yo'llari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, mutaxassislik fanlari bilan zamonaviy texnologiyalarning integratsiyalashuvi haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о возможностях нотных редакторов и аранжировочных программ в области музыкального искусства, а также о способах их применения в музыкальном образовании и воспитании, использовании современных технологий, интеграции современных технологий со специальными дисциплинами.

Abstract: This article will talk about the possibilities of note editors and arrangement programs in the field of musical art and the ways of application in the process of musical education and upbringing, the use of modern technologies, the integration of modern technologies with specialist disciplines.

Kalit so'zlar: sekvensor, MIDI, kompyuter, FL Studio (Fruity Loops), Cakewalk Sonar, Logic Pro, ProTools, PreSonus Studio One, sayqallash oynasi, siklik yozuv, kvantayz.

Ключевые слова: секвенсор, MIDI, компьютер, FL Studio (Fruity Loops), Cakewalk Sonar, Logic Pro, ProTools, PreSonus Studio One, окно полировки, циклическая запись, квантование.

Keywords: sequencer, MIDI, computer, FL Studio (Fruity Loops), Cakewalk Sonar, Logic Pro, ProTools, PreSonus Studio One, polishing window, loop recording, quantize.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 31.08.2021-yildagi "Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 556-son qaror qabul qilindi.

Hujjatga muvofiq Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, "Aloqabank" AJ hamda Dasturiy mahsulotlar va Axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasining axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni maqsadli o'qitishni qo'llab-quvvatlash va ularni keyinchalik ishga joylashtirish mexanizmini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullandi. Ushbu qarordan kelib chiqib, musiqa sohasida ham bir muncha ishlar amalga

oshirildi. Hozirda ovoz yozish studiyalari barcha viloyat markazlarida mavjud bo'lib, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Shu jumladan, musiqa yozishda ham kompyuter texnologiyalarining musiqiy mazmun va yo'nalishlardagi turlari haqida bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, qo'llashda sekvensor-programmalardan foydalanish hamda ovoz yozish amaliyotini bilish zarur¹.

Sekvensor (yoki sekvenser, inglizcha "sequence" – ketma-ketlik) – MIDI-xabarlarini yozish va qaytadan tiklash uchun apparatli yoki dasturiy qurilmadir. Sekvenser quyidagicha ishlaydi: klavishali sintezator, MIDI klaviatura, kontroller, dram-moshina va hokazo MIDI-qurilmalar qayta tiklash tempi, tanlangan templar, chalingan notalar, effektlarning sozlashlari va shu kabilar haqidagi to'liq ma'lumotlarni o'z

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 556-son.31.08.2021 qarorining Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni maqsadli tayyorlash. 1- ILOVASI

ichiga olgan MIDI-xabarlar oqimini uzatadi. Sekvenser bu xabarlarni ichki xotiraga yozib oladi. Shunday qilib, sekvenser bajaradigan vazifalariga ko'ra magnitafonga o'xshashdir (va ko'p hollarda u magnitofon ko'rinishidagi: yozuv, qayta o'rash, qayta tiklash kabi boshqaruv bilan ta'minlanadi), farq shundaki, u tovushli ma'lumotlarni emas, balki turli MIDI-qurilmalar uchun buyruqlarni yozadi.

MIDI-fayl deb ham nomlanuvchi oddiy MIDI-sekvenserlar faqatgina MIDI-oqimlarni yozishi va qayta tiklashi mumkin. Murakkabroq sekvenserlar yordamida yozuvni bir nechta partiyalarni ustma-ust qo'yib amalga oshirish, yozib bo'lingan partiyalarni ularning jarang balandligini, tembrini, tempini, musiqiy o'lchovi va boshqa xarakteristikalarini o'zgartirish hisobiga muharrirlash imkoni mavjud. Shu tariqa sintezator bilan birgalikda sekvenser, yagona ijrochiga to'la qonli ko'ppartiyali musiqiy asarni yozish, zarur bo'lgan tuzatishlarni kiritish, so'ngra uni kompakt-disk, audiokasseta va boshqalarga saqlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda, shaxsiy kompyuter uchun yaratilgan dasturlar – dasturiy sekvenserlarning quyidagilari juda keng tarqalgan: Steinberg Cubase, FL Studio (Fruity Loops), Cakewalk Sonar, Logic Pro, ProTools, PreSonus Studio One, REAPER, Reason, Digital Performer, Live Step Designer, MAGIX Music Maker, Samplitude va boshqalar. Ko'p hollarda mazkur dasturlarda MIDI-ma'lumotlarni yozish va muharrirlashning turli xil vositalaridan tashqari qo'shimcha imkoniyatlar, masalan, yaratilgan musiqiy asar nota matnini avtomatik tarzda qog'ozga tushirish, ko'pkanalli audioyozuv, virtual sintezator, semplerlar va qayta ishlash protsessorlarini qo'llab-quvvatlash kabi imkoniyatlar ham mavjuddir. Passajlarni esa qadamma-qadam yozuv funksiyasi yordamida kiritish mumkin.

Sekvenserdan foydalanish musiqiy asarlarni yozish jarayonini ahamiyatli tarzda yengillashtiradi. Misol uchun, bitta yoki bir

nechta partiyalarning yozuvini sekinlashtirilgan tempda amalga oshirilishi mumkin, eng tezkor musiqiy passajlarni esa qadamma-qadam yozuv funksiyasi yordamida kiritish mumkin.

Kvantlash (inglizcha "quantize") operatsiyasi yordamida ijroning ritmik jihatdan notekisliklarini tekislash mumkin. Sekvenser ko'pyo'lchali magnitofon bajargan vazifalarni bajarganligi sababli (faqat u tovushni emas, MIDI-ma'lumotlarni yozadi), ko'pgina sekvenser ishlab chiqaruvchilar o'z dasturlarining interfeyslarini oddiy ko'pkanalli magnitofonning boshqaruviga o'xshatib ishlashga harakat qiladilar. Shuning uchun ixtiyoriy sekvenserda treklarni, kanallarni va Start, Stop, Zapis (yozuv), Oldinga aylantirish, orqaga aylantirish kabi tugmalarni ko'rishimiz mumkin.

Sekvenserga ma'lumotlarni yozishning asosiy usuli – partiyalar yoki ularning qismlarini MIDI-klaviaturada yoki boshqa ixtiyoriy MIDI chiqishga ega bo'lgan cholg'uda ijro qilib kiritishdir. Bu elektron zarbli cholg'ular, gitara yoki boshqa ixtiyoriy MIDI interfeysga ega cholg'u bo'lishi mumkin.

Sayqallash oynasi. Ko'p hollarda yozuv sekvenserning Sayqallash oynasi deb ataluvchi asosiy oynasida amalga oshiriladi. U ikki qismdan iborat: chap tarafda yo'lchalarning nomlari va ularning parametrlari (misol uchun MIDI kanalning), o'ng tarafda har bir yo'lchada yozilgan MIDI-ma'lumot (to'rtburchaklar ko'rinishida) hamda qo'shiq pozitsiyasining lokatori – yozuvning qaysi joyida ekanligingizni ko'rsatuvchi vertikal chiziq joylashgan.

Avvaliga yozuv amalga oshirilishi lozim bo'lgan yo'lchani tanlash, o'zingiz xohlayotgan MIDI-kanal va chiqishni o'rnatish kerak. Yozuv, mos holda RECORD va STOP tugmalari yordamida yoqiladi va o'chiriladi. Yozuv pozitsiyalar lokatori joylashgan joydan boshlanadi. Maxsus tugma yordamida ichki qurilgan Metronomni yoqish mumkin.

So'ngra, Sayqallash oynasida hosil qilingan musiqiy fragment ustida quyidagi ishlarni bajarish mumkin: o'chirish, nusxa ko'chirish, qismlarga kesish, boshqa fragmentlar bilan ixtiyoriy tartibda ulash. Bundan tashqari, Sayqallash oynasida quyidagi amallarni ham bajarish mumkin: yo'lchalarni yaratish, ularni nomlash, qayta nomlash, siljitish, olib tashlash, nusxa ko'chirish, so'ndirish (qayta ishlashni to'xtatish), yakkaxonlik qilish (tanlangan yo'lchadan boshqalarini so'ndirish), transponirlash².

Siklik yozuv. Oddiy (chiziqli) rejimda ishlashdan tashqari, sekvenserlar ma'lumotni siklik rejimda ham yozishlari va qayta ishlashlari mumkin. Buning uchun fragmentning boshi va oxirini aniqlovchi chap va o'ng lokatorlar o'rnatiladi.

Misol uchun, agarda fragment uzunligini bir takt deb o'rnatdik, sekvenser taktning oxiriga borib yana takt boshiga qaytadi va yozuvda davom etadi, o'zimiz to'xtatmagunimizcha u mazkur jarayonni bajaraveradi. Ko'pchilik zarblilar partiyalarini shu tariqa yozishni xush ko'rishadi.

Kvantayz. Sekvenserning eng bosh imkoniyatlaridan biri Kvantayzni amalga oshirishdir. Kvantayz bu – notalarning eng yaqin ritmik hissalariga siljishi bo'lib, bu jarayon unchalik sodda emas. Kvantayz nota cho'zimplari o'lchanadigan birliklarda (butun nota, yarimtalik nota, choraktalik nota, nimchoraktalik nota va hokazo hamda ularning triolli ko'rinishlari) o'rnatiladi. Klaviaturadan biror bir fragmentni yozib, so'ngra uni setka bo'ylab turli xil usullar yordamida tekislash mumkin. Kvantayzning quyidagi turlari mavjud:

Umumiy kvantayz – hamma notalarni hissaga siljitadi, bunda nota cho'zimi saqlanadi (agarda o'n oltitalik notali fragmentni kvantayzlamoqchi bo'lsangiz, hamma notalar eng yaqin o'n oltitalik notalarga siljiriladi). Hamma narsa Umumiy

kvantayzdan boshlangan, uni birinchi bo'lib o'ylab topishgan, u keng tarqalgan va haqli ravishda musiqaga mexaniklik xususiyatini berishda ayblangan. Shu sababli, sekvenser ishlab chiqaruvchilar kvantayzning murakkabroq turlarini ishlab chiqishga majbur bo'ldilar va mazkur kamchilikni bartaraf qilishga harakat qildilar.

Nota boshlanishi kvantayzi – faqatgina notalarning boshlanishini siljitadi, bunda nota cho'zimi o'zgaradi.

Protsentli kvantayz (uni svingli deb ham ataydilar) – nota va hissaning birlamchi masofasidan kelib chiqqan holda notani hissaga ma'lum foizda suradi.

Analitik kvantayz – kvantayzning alohida turi bo'lib, unda dastur sizning ijro uslubingizni tahlil qilib, ritmik jihatdan noto'g'ri deb topgan kamchiliklarni tuzatadi. Bu kabi kvantizatsiyaning natijasini oldindan etib bo'lmaydi.

Moslik kvantayzi – "xuddi qo'shnilar nikidek" tamoyili asosida kvantizatsiya qiladi, misol uchun bas partiyasini barabanlar partiyasi bilan ritmik moslikka olib kelishi mumkin.

Ammo bu hali hammasi emas, kvantayzda qizig'i shundaki, u shablon asosida amalga oshirilishi mumkin.

Gruv-Kvantayz – ritmik shablonga ko'ra kvantayz (inglizcha "Groove" (shablon, iz)). Ko'pgina sekvenserlarda ko'p ishlatiladigan gruvlar to'plami mavjud.

Bundan tashqari, sotuvda gruvlarning maxsus to'plami mavjud bo'lib, unga mashhur musiqachilar yozuvlarining shablonlari ham kiritilishi mumkin.

O'zimiz ham ritmik partiyamizdan foydalanib, gruv yaratishimiz mumkin. Gruv-Kvantayzni

2 Петелин Р.Ю., Петелин Ю.В. Музыкальный компьютер. Секреты мастерства. Издание второе, переработанное и дополненное. – СПб.: БХВ-Петербург, Арлит, 2003. – 688 с.

qo'llash fragmentning xarakterini tamomila o'zgartirib yuborishi mumkin, shuning uchun kvantayzning mazkur ko'rinishi bilan tajriba o'tkazish juda qiziqarlidir va kutilmagan ijodiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Muharrirlar. Yozib olingan partiya sizni darhol qoniqtirishi shubhalidir. Sekvenserda esa magnitofondan farqli o'laroq hamma MIDI-hodisalarni muharrirlash mumkin. Buning uchun, odatda, sekvenserlarda bir nechta muharrirlar bor bo'lib, ularning har birida yozib olingan yozuv, turli, muharrirlash uchun qulay ko'rinishlarda aks etadi. Uyoki bu muharrirni tanlash hodisalarining turiga va shaxsiy moyillikka bog'liq.

Mavjud hodisalarni o'zgartirish bilan birga, muharrirlarda yangi ma'lumotlarni kiritishni ham amalga oshirsa bo'ladi, bunda nafaqat klaviaturadan, balki sichqonchadan ham foydalansa bo'ladi. Bundan tashqari muharrirlar qadamma-qadam yozuv rejimi uchun ham juda qulaydirlar. Mazkur rejimda klaviaturaning klavishasiga bosganimizda (yoki akkordni bosganimizda), sekvenser natijani yozadi, so'ngra biz oldinga, keyingi hissaga siljiymiz. Qadamma-qadam yozuv rejimidan foydalanish murakkab cholg'u partiyalarini qurishni soddalashtirib berishi mumkin. Ko'pchilik sekvenserlarda quyidagi ichki qurilgan muharrirlar mavjud: Klavishali muharrir, MIDI hodisalar muharriri, partitura muharriri, barabanli muharrir, miksher, audio muharriri va boshqalar^{3, 4, 5}.

Hozirgi kunda ko'pchilik sekvenserlarda nafaqat MIDI ma'lumotlarni, balki audio yo'lchalarni ham yozish imkoniyati mavjud. Zamonaviy sekvenserlarda vokal, jonli cholg'ularni ham yozish imkoniyati mavjud bo'lib, ular endi oddiy sekvenserlar emas, balki to'la qonli DAW (inglizcha Digital Audio Workstation, raqamli ishchi stansiya)ga aylangan

bo'lib, mazkur dasturlar oddiy kompyuterni ovoz yozish studiyasi markaziga aylantiradilar. Bu kabi dasturiy ta'minot musiqani ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan hamma jarayonlarni ta'minlab beradi va ulardan yozuv, tenglashtirish, mastering, nota partituralarini yozish va sayqal berishda foydalanish mumkin.

Mazkur maqolada zamonaviy kompyuter texnologiyalarining musiqiy mazmun va yo'nalishlardagi turlari haqida bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishdan iborat.

Talabalar o'qituvchilar yordamida elektron va kompyuter musiqasi texnologiyalarining o'ziga xos uslubi va boshqa birqancha imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ovoz yozish, ommaviy tomoshalar va tadbirlar, radio va televizion eshittirishlar, videofilmlar, reklama roliklarini ovozlashtirish va boshqa birqancha tadbirlarni musiqiy bezagini yaratishda raqamli (digital) texnologiyalarni amaliy qo'llashni o'zlashtirishi. Jumladan, mashg'ulotlarda ovoz yozish va uzatish tarmoqlariga ulanishi (MIDI interfeys), kompyuter texnologiyasi musiqiy dasturlaridan unumli foydalanish hamda ovoz yozish amaliyotida qo'llay bilish tadbirlari ustida ishlay olish ko'nikmalariga ega bo'lish. Jumladan:

- MIDI bilan ishlashi;
- sekvensorlar, protsessor effektlari bilan ishlashni bilishi;
- turli musiqali kompyuter dasturlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- musiqali kompyuter dasturlarini o'zlashtirish malakalariga ega bo'lishga undaydi.

3 ТимКинтцель. Руководство программиста по работе со звуком. ДМК, 2000 г.247с.

4 Ш.А. Гафурова. Компьютерные музыкальные технологии Т., 2007 г.9-13 с.

5 Ўша манба.

O'ZBEK QO'SHIQCHILIK SAN'ATIDA ESON LUTFULLAYEV IJODI MUSIQIY-MA'RIFIY VA PEDAGOGIK TAMOVILLARI

Qaxramon Boboqulov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Gavhar Islomqul qizi Yakubova – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq hofizi Eson Lutfullayevning milliy qo'shiqchilik san'atimizdagi o'rni, ijrochilik va bastakorlik maktabi tadqiq etilgan. Hofizning ijro namunalari bilan bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarini tanishtirishning shakl, uslub va vositalari o'rganilgan, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль народного артиста Узбекистана Эсона Лутфуллаева в национальном певческом искусстве, школе исполнительства и композиции. Были изучены формы, методы и средства ознакомления учащихся детских музыкальных и художественных школ с спектаклями хафиза и выработаны рекомендации.

Abstract: This article dissertation examines the role of the national singer of Uzbekistan Eson Lutfullayev in the national art of singing, the school of performance and composition. The forms, methods and means of introducing Hafiz's performance samples to students of children's music and art schools were studied, and recommendations were developed.

Kalit so'zlari: musiqa, ta'lim, ijro, mahorat, shakl, usul, qo'shiq, bastakorlik, pedagog, shakl, hofizlik.

Ключевые слова: музыка, образование, исполнение, мастерство, форма, метод, песня, композиция, педагог, форма, изящество.

Keywords: music, education, performance, skill, form, method, song, composition, pedagogue, form, grace.

Respublikamizda ishlab chiqarilgan milliy ta'lim konvensiyasi xususiyl milliy mintaqaviy va O'zbekiston kelajagini yaratish, o'ziga xos va chet mamlakatlarning eng yaxshi tajribalaridan foydalangan holda takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim tarbiya ishlarini milliy asoslarda, xalq pedagogikasi, ma'daniyat va san'ati an'analari bilan boyishi, o'quv adabiyotlarni shu asosda yaratishni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, milliy axloqi, ma'daniy taraqqiyotida musiqa san'ati muhim ro'l o'ynaydi. Qadimiy ildizlari va boy tarixiy rivojlanish, shakllanish xususiyatlariga ega bo'lgan noyob san'at

durdonalari – bu xalqimizning o'ziga xos urf-odat, an'ana va falsafiy qarashlarning ifoda etishi bilan jahon xalqlari musiqa ma'daniyati ham yetakchi o'rin egallaydi¹. O'zbek xalqining musiqa merosi xazinasida mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari jahon miqyosida e'tirof etilgan san'at hisoblanadikim ularni kelajak avlodga o'rgatish, bugungi kunda dolzarb pedagogik masalalardan biri.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2017-yil qabul qilingan "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham bejizga bo'lmaganligi amaliy dalilidir².

Afsuski ko'p yillik sho'ro ta'lim tizimi mafkurasi davrida milliy ma'daniyat va

1 Norqo'ziyev M "An'anaviy xonandalik", "Orifxon Hotamov uning bastakorlik ijodi", Tashkent, Iqtisod-moliya, 2008-yil

2 Mirziyoyev Sh.M "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori.2017-yil, 17-noyabr

san'atimizga bir yoqlama qaralishi oqibatida yosh avlodning milliy musiqiy san'atimizga munosabatida muayyan kamchiliklar, undan uzoqlashish holatlari yuzaga keldi. Bu o'rinda o'zbek musiqa ma'daniyati san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan san'atkorlarning pedagogik va madaniy merosidan to'la foydalanmaslik kabi holatlar kuzatildi.

Mustaqil rivojlanishga o'tilgan dastlabki yillarda ma'daniyat, san'at va ta'lim tizimini yangicha milliy asosda shakllantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor berildi. Natijada mamlakatimizda xalqaro ahamiyatga molik "Sharq taronalari" kabi yirik musiqali festivallarni har ikki yilda o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Festivalning asosiy shiori sharq xalqlarining milliy xalq an'alarini mujassam etgan mumtoz va maqom kuy-qo'shiqlari va xalqlarning ma'daniy aloqalarni tiklash, boyitish, yosh avlodga yetkazishdan iborat.

O'zbek xalqining boy, milliy va an'anaviy musiqasi o'zining betakror ijro xususiyatlari, janr xilma-xilligi bilan bu xazina rivojiga salmoqli hissa qo'shgan hofiz, xonanda bastakorlari bilan mashhur o'zbek mumtoz va maqom san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan yirik san'atkorlar orasida Domla Halim Ibodov, Ota G'iyos, Ota Jalol Nosir, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Is'hoq Katayev, Hojixon Boltayev, Halima Nosirova, Berta Davidova, Komiljon Otaniyozov, Matyoqub Xarratov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy va ularning izdoshlari hisoblangan Jo'raxon Sultonov Ma'murjon Uzoqov, ularning munosib shogirdlari bo'lmish Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonov, Orifhoji Alimaxsumov, Eson Lutfullayevlar o'zlarini ko'p qirrali ijodiy faoliyati bilan o'ziga xos o'rin tutadi.

Biz o'z maqolamizda yuqorida nomlari zikr etilgan san'atkorlardan biri O'zbekiston xalq hofizi Eson Lutfullayevning ijodiy faoliyati, ijrochilik borasida erishgan yutuqlari, pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan musiqiy qarashlari,

ulardan musiqa ta'limi va tarbiyasida foydalanish imkoniyatlari kengroq mazmunda o'rganishni maqsad qilib oldik.

O'zbek milliy musiqa rivojida Eson Lutfullayevning ko'p qirrali va mahsuldor ijodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari uning xalq orasidan yetishib chiqqanligi, xalq musiqa va qo'shiqchilik san'atining bevosita ta'sirida o'sib ulg'ayganligi, butun umrini shu san'atga baxshida etganligi, xotirasida ko'plab xalq ashulalari, mumtoz maqomlarini saqlab, ularga xos ijrosi, yoqimli va betakror ovozi bilan xalqqa yetkazib berganligi, o'zi ham ko'plab ashulalarga kuy yaratganligidadir. Eson Lutfullayev musiqa ijrochiligida shunday yorqin iz qoldirganki, uning san'ati og'zaki an'anaviylikka tayanadigan eski formatsiya musiqachilari safida hisoblash noto'g'ri bo'lur edi. Uning ijodiy faoliyati bilan birga musiqiy-ma'rifiy pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan qarashlarini aytish mumkinki, zamonaviy talab va yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holatda shakllandi. Bu esa:

- birinchidan, davlat musiqiy muassasalari tizimi bilan bog'liqligi;

- ikkinchidan, faoliyati ilmiy asoslangan maqom ijrochiligi va zamonaviy nota savodiga tayangan holda oshirilganligidadir. Bu esa Eson Lutfullayev ijodiy faoliyatini musiqiy-ma'rifiy, pedagogik asoslarga ega ekanligining yaqqol ifodasi deyishimiz mumkin.

Bu borada xalq musiqa ijrochilarini ikki toifaga ajratish mumkin.

Musiqiy shakl tuzilishining hamma ko'rinishlarida kanonizatsiyani qat'iy talab etuvchi o'ziga xos dogmatik uslub (Shodi Azizov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov ijodi, ijro yo'li);

Yuqori darajadagi harakatchanlikka, chaqqonlikka intiluvchi improvizatorlar (Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilovlar qatorida Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov va Eson Lutfullayev shular qatorida).

Xususan, Eson Lutfullayev ustozlari Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqov rahbarligida ularning kuylash uslubiga tayana turib, sekin astalik bilan ustozlarining ijrochilik uslubiga taqlid qilish bilan cheklanmasdan o'z ijro uslubini topishga harakat qildi. U ashula ijro etar ekan, kerakli joylarda ohangni ko'tarar, ustalik bilan usul va kodensiyalar bilan bezar va unga o'ziga xos shukuh baxsh etar edi. Bularning barchasi uning maqom ansamblidagi faoliyatida namoyon bo'ldi. Shu sababli Eson Lutfullayev ijrolaridagi mumtoz va maqom ashulalarida bir tomonda ustoz maqom ijrochilarining yo'l va ijrochilik uslublari kuzatiladigan bo'lsa, ikkinchi tomondan uning kuylashi va ijrosi taqliddan iborat emasligining, aksincha milliy kuylash uslublari, an'analari kengligi va ijodiy davom etishi bo'ladi³.

An'anaviy ijrochilikning chuqur bilim tamoyillari asosida xalq musiqa durdonalarini ijodiy tahlil qilish va sharhlash maqsadida misol qilib Yunus Rajabiyning "Muqanna" musiqali dramasiga yozgan musiqalarini olish mumkin. Unda ritmik xilma-xilligi, boyligi va aniq arxitektonika yaqqol nomoyon bo'ladi. Bu dramaning ko'p ariyalari xalq yo'lidagi ashulalardan iborat bo'lib, xalq musiqasiga xos keng va chuqur sakrashlar bilan kuy izchilligi ravonligining saqlanishi va bir-biriga mosligi namoyon bo'ladi. Ayni damda Eson Lutfullayevning xonandalik faoliyatida mana shu kabi uslublar yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Eson Lutfullayev hofizlik salohiyati, barcha o'zbek xonanda ijrochilaridan deyarli farq qilmas edi, faqatgina uning ovozi va qo'shiq ijrosida oshib, o'ziga xoslik namoyon etar edi. O'zbek maqom ijrochilarining umumiy ijro uslubi mahorati, olamni idrok etish, o'z holda uning hayoti va taqdiridagi o'zgarishlarni tasavvur etish, nafaqat obrazlarda ifoda etilgan g'oyalarni ijodkor shaxsining ichki kechinmalari talqin etishga intilishini bo'rttirib, yorqin namoyish etishida zoxir bo'ladi.

Eson Lutfullayevning xonanda-hofizlik faoliyati musiqiy-ma'rifiy va pedagogik yo'liga ega bo'lib, unda xalq ijodi va professional musiqaning eng ilg'or g'oyalarini o'rganish, yozish, targ'ib qilish bilan pedagogik ahamiyatga ega, chunki uning ijro uslublarini kelgusi avlodlar, yosh musiqachi-ijrochilar o'rganishlari, davom ettirishlari uning pedagogik va tarbiyaviylik xususiyatiga ega ekanligining ifodasidir.

San'atkorning maqom yo'llarini ijro etish qobiliyati xalq donishmandligi bilan yaratilgan navolarni bilishi, o'rganishi, taniqli xalq hofizlari bilan doimiy muloqotda bo'lishi, o'z bilimi va mahoratini doimiy rivojlantirib, takomillashtirib borishi bilan izohlanadi.

Yosh avlodga milliy mumtoz va maqom sirlarini o'rganishi, ularni xalq musiqasi ijrochilik sirlarini o'rgatish, ularga murakkab va baland diapozon ovozga ega bo'lgan maqom asarlarini yoshlik chog'larida singdirib borish bo'yicha yuksak musiqiy-ma'rifiy vazifani bajarish ma'suliyatli hofizni doimo o'ylantirib kelar edi. Buning amaliy natijasi o'laroq hozirgi vaqtda Respublikamizning viloyat, tuman va shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan Bolalar musiqa va san'at maktablarida, Ixtisoslashtirilgan san'at maktablari qoshida yosh maqom ijrochilari guruhlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom ijrochilari festivalini o'tkazilishi o'zbek maqom san'atining xalqaro miqyosda obro' qozonishi uchun zamin yaratdi.

Ma'lumki, maqom ijrochiligi to'laqonli badiiy yetuk ijrosini ta'minlashda maqomchilar ansambli muhim ro'l o'ynaydi. O'zbekiston radio kompaniyasi qoshida tashkil etilgan, Y.Rajabiy rahbarligidagi maqom ansambli xalq cholg'u asboblari ansambliga xos vazifalarni ham bajarib kelardi. Ya'ni:

3 Yunus Rajabiy "Musiqiy merosimizga bir nazar" Toshkent, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti 1974-yil 6-bet

1. Xalq musiqasi va maqom jamoalari tizimi, ijrochilikka xos jihatlarni aniqlash bo'yicha ijodiy laboratoriya bo'lib, maqom musiqalarini qayta ishlab chiqishda sodir bo'luvchi kamchiliklarni aniqlashga ko'maklashar, cholg'u ansambli asboblari yangrashini nazorat qilar, amaliy jihatdan milliy cholg'u asboblari va vokal ijrosining sayqallashida xizmat qilar edi.

2. Xalq musiqasi, maqom san'atining musiqiy targ'ibot markazlari ro'lini bajarar edi.

3. Xalq musiqa ijrochilari an'analarning davomchilari va yetkazuvchilari vazifalarini bajarar edi.

Ushbu jamoalar bilan yaqin aloqada bo'lishi barcha maqomdan musiqachilar singari Eson Lutfullayevning pedagogik qobiliyati yanada rivoj topishida muhim o'rin tutdi.

Eson Lutfullayevning musiqiy-ma'rifiy, ijrochilik mahoratining shakllanishi va rivojlanishi hamda uning amaliy targ'ibot va tashviqotchilik faoliyatini 3 ta yo'nalishda o'rganish mumkin.

1. Eson Lutfullayev faoliyat yuritgan o'zbek maqomchilar ansambli bilan ishlash jarayoni.

2. Original musiqiy ijod individual ijod bilan shug'ullanish, yangi qo'shiq va kuylar yaratish.

3. Xalq musiqa ijodiyoti va zamonaviy musiqa ijodi bilan ma'lum bastakor va kompozitorlari ijodiga mansub asarlarni targ'ib etish.

Eson Lutfullayevning ijod faoliyatini uning yuksak ijrochilik mahorati, tashabbuskorligi va pedagogik malakasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq ekanligini anglash – bu ilmiy pedagog tashxis uchun eng muhim xususiyatdir⁴. Bu xususiyatlar san'atkor faoliyatining to'laqlonligi, badiiy yetukligi ijod namunalarning xima-xilligi, mavzular rang-barangligi bilan uning ijrosida o'zining o'chmas izini qoldirdi.

Eson Lutfullayev ijodiga xos boshqa bir xususiyati uning doimo ijodiy tashabbus ko'rsatadiki, turli murakkabligi, O'zbekistonning turli vohalarida qaror topgan xalq qo'shiqlarini, maqom va mumtoz asarlarni kuylashga intilar va uni maromiga yetkazib bajarishga

intilar edi. Uning repertuarida Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, xalq ashulalari o'rin olganligi, buning dalilidir⁵. Ushbu fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, barcha atoqli o'zbek xonanda-hofiz ijrochilar kabi Eson Lutfullayevning badiiy-ijodiy va tarbiyaviy-pedagogik faoliyati asosida quyidagi tamoyillar yotadi.

1. O'z kasbiy faoliyatiga doir san'atkorga ustozlik qilish, muhimi qalbdan his qiluvchi musiqiy obrazlarda, insoniy his-tuyg'u va kechinmalarni idrok etib, ijro etuvchi insonlarni tarbiyalash.

2. Yuksak did, talabchanlik, ijodiy mehnat qobiliyatining o'tkirligini talab qiluvchi musiqachini shakllantirish.

3. To'laqlonli ijodiy faoliyatga tegishli ko'nikmani shakllantirish, ko'p yillik mehnat qilish natijasida to'plangan tajribalarini shogirdlariga yetkazish.

4. Ijodda yuqori natijaga erishish uchun butun professional mahoratini ishga solish, mashg'ulotlar davomida vaqt va yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanishga o'rgatish.

5. Repititsiya, konsertlarda chiqish talablariga qat'iy amal qilishga odatlantirish, yaxshi kuylash kayfiyatiga ega bo'lish, barcha ishlarni asosiy maqsadga yo'naltirish, o'z ovozi doimiy ravishda salomatligini saqlash, maishiy, oilaviy muammolardan yiroqlashishi, tomoshabinning kayfiyatini ko'tarish, ularning yaxshi dam olishi va olqishiga ega bo'lishni asosiy maqsad qilib olishiga erishishlari kerakligiga ustuvor ahamiyat qaratish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston xalq hofizi Eson Lutfullayev ijodini yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga joriy etishi, o'quvchilarda o'zbek mumtoz va maqom ijrochiligida yorqin iz qoldirgan hofiz hayoti, ijod faoliyatini o'rganish orqali milliy xalq qadriyatlarini hurmat qilish, qadrlash, saqlab qolish tuyg'ularini shakllantirishdan iborat bo'lganligi uchun, Eson Lutfullayev musiqiy-pedagogik, ijodiy merosini yosh avlod ta'lim tarbiyasida tatbiq etish ta'limning axloqiy-estetik, tarbiyaviy xarakteri mashg'ulotlarning ijobiy mazmundorligini ta'minlovchi asos bo'lib xizmat qiladi.

4 Haydarov Q. "Eson Lutfullayev ijodiga mansub ijro namunalari bolalar musiqa va san'at maktablari o'quv jarayonida qo'llash yo'llari" nomli magistrlik dissertatsiyasidan. 2023 yil. 35 — bet

5 Haydarov Q. "Eson Lutfullayev ijodiga mansub ijro namunalari bolalar musiqa va san'at maktablari o'quv jarayonida qo'llash yo'llari" nomli magistrlik dissertatsiyasidan. 2023 yil. 44 — bet

MILLIY SPORT TURLARI BO'YICHA MURABBIY-O'QITUVCHILAR TAYYORLASHDA PAHLAVONLAR IBRATIDAN FOYDALANISH

Ma'ruf Olimovich Muqimov – dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ham milliy-ma'naviy qadriyatlardan, xususan, Pahlavon Muhammad Abdusaidning turmush tarzidan foydalanib, milliy sport turlari bo'yicha bo'lajak murabbiy-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga tayyorlash masalasi haqidagi tadqiqot natijalari bayon qilinadi.

Аннотация: В данной статье описаны результаты исследования по вопросу подготовки будущих тренеров-педагогов к профессиональной деятельности в национальных видах спорта с использованием национально-духовных ценностей, в частности, образа жизни Пахлавона Мухаммада Абдусаида.

Abstract: This article also presents the results of a study on the issue of preparing future coaches and teachers for professional activities in national sports using national and spiritual values, in particular, the lifestyle of wrestler Muhammad Abdusaid.

Kalit so'zlar: milliy sport turlari, ma'naviy yetuk, sog'lom turmush tarzi, milliy-ma'naviy qadriyatlar, murabbiy-o'qituvchilar.

Ключевые слова: национальный спорт, духовно зрелый, здоровый образ жизни, национально-духовные ценности, тренеры-педагоги.

Keywords: national sports, spiritually mature, healthy lifestyle, national and spiritual values, coaches and teachers.

Mamlakatimizda bo'lajak avlodni ma'naviy va jismoniy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash negizida barkamol, yetuk shaxsni shakllantirish masalasi ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosini tashkil qiladi va u davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish ta'kidlangan. Shuning uchun ham bugungi kundagi ta'lim yo'nalishidagi islohotlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat, intellektual salohiyatli va shu kabi sifatlarga ega bo'lgan barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaning har bir qirrasida o'z aksini topmoqda.

Ma'lumki, ota-bobolarimizning biz uchun ibratli jihatlari, ularning o'ta ishchanligi, mehnatsevarligi, vatanparvarligi, insoniyligi, istiqbolli orzu-niyatlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Bu boradagi faoliyatda, ya'ni ota-bobolarmizdan bizgacha yetib kelayotgan o'git va nasihatlar, ayniqsa, ularning turmush tarzini o'rganishda yoshlarimizga keng imkoniyatlar yaratilgan. Shuning bilan birga barkamol shaxs, barkamol avlod, ma'naviyatli odam, madaniyatli inson, milliy qadriyatlar va shu kabi tushunchalar hamda ularning mazmun-mohiyati yoshlarimiz ongida Ozod Vatan, mustaqil davlatning o'ziga xos yo'li, o'z-o'zini anglash, intellektual salohiyatli barkamol shaxsni tarbiyalash kabi ezgu maqsadlarni ifodalovchi ustuvor yo'nalishga aylandi. Ana shunday yo'nalishlar asosida bo'lajak mutaxassislarni tarbiyalash orqali biz xalqimizning asriy an'ana va urf-odatlarini, qadriyatlari va boy ma'naviy merosini hamda intellektual mulkini asrab-avaylab, ular asosida kelajak avlodimizning ong-u tafakkurini va

dunyoqarashini kengaytirishda faollik ko'rsatuvchi milliy mutaxassislarni tayyorlashga erishamiz.

Mazkur maqolada ham milliy-ma'naviy qadriyatlardan, xususan, Pahlavon Muhammad Abdusaidning turmush tarzidan foydalanib, milliy sport turlari bo'yicha bo'lajak murabbiy-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga tayyorlash masalasi haqidagi tadqiqot natijalari bayon qilinadi.

Ma'lumki, sportga qiziquvchi yoshlarni tanlashda va milliy sport turlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda shu sohaga oid milliy-ma'naviy qadriyatlardan va sohaning mashhur kishilari turmush tarzlaridan foydalanish ushbu sohadagi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta'sirchan vositalardir. Hamda bir paytning o'zida mazkur faoliyat yo'nalishi uchun mustahkam didaktik asos hamdir¹.

Bu borada bo'lajak milliy sport turlari bo'yicha murabbiylar tayyorlashda milliy qadriyatlardan, xususan, pahlavonlar turmush tarzidan foydalanish o'zining ijobiy pedagogik samaralarini beradi. Bunga sabab bo'lajak murabbiylar, birinchidan, polvon bilan pahlavonning farqiga boradi, ikkinchidan, ulardan qaysi birining ma'naviyati keng qamrovli ekanligini anglaydi, uchinchidan, pahlavonlar turmush tarzining jamiyat ma'naviyatiga ta'siri haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi, to'rtinchidan, pahlavonlar o'z ma'nfaatidan ko'ra umummanfaatning ustun qo'yishligiga ongli ravishda tushunib yetadi, beshinchidan, pahlavonlar faoliyatidagi mardlik, ornomuslilik kabi fazilat va xislatlar hamda ulardagi irodaviy sifatlariga havas uyg'onadi, oltinchidan, pahlavonlardagi o'z qat'iy fikriga ega bo'lishlik, jamiyatda kechayotgan har bir jarayonga u yoki bu shaklda, albatta, o'z munosabatlarini bildirishlari negizda bo'lajak mutaxassislarda mustaqil va erkin fikrlashga taqlid qilishlik kuchayadi, yettinchidan, pahlavonlardagi oliyjanoblik, insoniylik, hatto raqibiga nisbatan ham hurmatda bo'lishlik negizida bo'lajak mutaxassislardagi insonlar o'rtasida o'zaro totuv yashash ko'nikmalari shakllanadi,

sakkizinchidan, polvon va pahlavonlarning olgan sovrinlarini bemor va nochorlarga berishligi negizida bo'lajak mutaxassislarda bag'rikenglik shakllanadi, to'qqizinchidan, polvon va pahlavonlarning irodasi kuchli bo'lganligi sababli ular istalgan sarobni obihayot deb ko'rsatsa ergashib ketavermasligi negizida bo'lajak mutaxassislarni turli xil tahdid va salbiy ta'sirlar domiga tushib qolishdan saqlanishga erishiladi, o'ninchidan, pahlavonlarning harom-harishdan, zinodan, o'g'rilikdan, kashandalikdan, giyohvandlikdan, ichkilikbozlikdan va shu kabilardan yiroq yurishligi negizida bo'lajak mutaxassislarni bu kabi illatlarga nafrat ruhida tarbiyalashga imkoniyat yaratiladi, o'n birinchidan, pahlavonlarning Vatanni o'rta qo'yib, qasam ichmasligi va hech qachon yurtga xiyonat qilmasligi negizida bo'lajak mutaxassislarda vatanparvarlik tarbiyasini samarali olib borishga imkoniyat kuchaytiriladi, o'n ikkinchidan, pahlavonlarning turmush tarzi ibrat-namunali bo'lganligi negizida bo'lajak mutaxassislarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishga erishish mumkin va shu kabilar².

Demak, milliy sport turlari bo'yicha murabbiylar nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga erishish lozim ekanligini ham o'ylab, faoliyat yuritish kerak ekan va bunda yuqorida qayd qilinganidek, pahlavonlar turmush tarzidan foydalanish ijobiy pedagogik samaralarni berdi. Ushbu sohadagi izlanishlarimizni quyidagi ketma-ketlikda olib bordik:

– pahlavonlar hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumotlar. Bunda o'rganilayotgan pahlavonning qisqacha hayot yo'li, ibrat-namunali faoliyatidan lavhalar keltiriladi;

– pahlavonga beriladigan tavsiflar (ta'riflar). Bunda suvrat va siyrat tizimidagi ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Holati Pahlavon Muhammad" qasida-risolasidagi Pahlavon Muhammad Abdusaidga berilgan tavsif: "Azhari minashshams – quyoshdek nur sochuvchi zot, shams ul-millat – millat quyoshi"dan iborat bo'lgan. Ulardan bo'lajak mutaxassislarni ma'naviy dunyoqarashini

1 Дилмуродов А. Пахлавон Муҳаммад. Роман.-Т.: "Шарқ", 2006.- 432 б.

2 Тўрақулов Х.А. Инсон камолотининг маънавий рисола. Илмий-оммабоп рисола. –Тошкент: 2011.-350 б.

kengaytirishda foydalanish maqsadga muvofiq;

– pahlavonlar hikmatlaridan foydalanish. Bunda ularning nurma'no fikrlari keltirilib, ular umumiy holda jamoaviy bo'lib, tahlil qilinadi. Bunga Pahlavon Muhammad Abdusaidning: "O'g'lim, bir tarozi borki, undan tan emas, aql-u idrok tortilur" degan nurma'no fikrini misol keltirish mumkin;

– pahlavonlarning hayoti-faoliyati davomida shakllangan xulosaviy fikrlari negizida bo'lajak mutaxassislardagi milliy g'ururni va irodaviy sifatlarni yuksaltirishda foydalanishga oid tushunchalar. Bunda pahlavonlarning muayyan yutuqlarga erishganlardan keyin sovrin boylik olish o'rniga vatandoshlarining ozodligini so'rashi yoki onaizor niyatining ijobat bo'lishiga rozilik berib, yon berishlari asosida aytgan fikrlaridan didaktik material sifatida foydalaniladi. Yana Arastuning: "Axloqiy fazilatlar odamning niyatida aks etadi", – degan kabi didaktik materiallardan foydalanish mumkin;

– pahlavonlar faoliyatidan murabbiylarning ongiga mustaqillik mafkurasini singdirishda foydalanish. Bunda pahlavonlar faoliyatidagi ibrat-namuna bo'ladigan jihatlar asosida ma'lumotlar ba'zasi shakllantiriladida, ular milliy mafkuramiz bosh va asosiy g'oyalariga moslab tizimlashtiriladi hamda ular ta'lim mazmuni bilan uyg'unlashtiriladi;

– pahlavonlar faoliyatidan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlashda foydalanish. Bunda barcha o'tgan ulug' odamlar biror kasb-kor egasi bo'lganligi haqida to'xtalish lozim. Bunga quyidagidek misollarni keltirish mumkin: Pahlavon Mahmud – po'stindo'z bo'lgan, Said Ali Hamadaniy – qalpoq tikuvchi hunarmand bo'lgan, Zaro'shtra – chorvador bo'lgan, Adib Sobir Termiziy – Hunarmand bo'lgan, Hoji Yusuf – hunarmand pillakash bo'lgan va h.k;

– milliy sport turlarini olqishlovchi klipli qo'shiqlardan foydalanish. Bunda kurashni (Toshpo'lat Matkarimov ijrosidagi "Ha polvon", Hosila Rahimova ijrosidagi To'maris onamizga bag'ishlangan qo'shig'i va h.k) va ko'pkarini (Hosila Rahimovaning "ko'pkari"

nomli qo'shig'i, "Noma'lum polvon" nomli filmni va h.k.) va shu kabilarni sport turlari bo'yicha bir tizimga keltirib, bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda foydalanish ijobiy samaralar beradi;

– bo'lajak murabbiylarni o'z kasbiga e'tiqod ruhida tarbiyalashda polvon va pahlavonlarni olqishlovchi so'zlardan foydalanish. Bunda quyidagilar ruhiy ta'sirli vositalar bo'lib hisoblanadi: "maydonga chiqdingmi, halol kurash", "halol", "yonbosh", "chala", "haqiqiy polvon-da u mard", "kurashchilarga pirlar madadkor", "polvon zot uchun emas, oriyat uchun kurashdi" va h.k.;

– bo'lajak murabbiylardagi milliy g'ururni yuksaltirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish. Bunda "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Rustam", "To'lg'anoy", "Kuntug'mish" kabi dostonlardagi pahlavonlar kurashi haqidagi ma'lumotlar to'plandi³.

Bu keltirilgan ketma-ketlikdan murabbiylik amaliyotidan olib borilgan quyidagi bo'limlarni o'zlashtirishda foydalandik: "Sport musobaqalashish ishlari", "Alpomish va Barchinoy" majmuasi ishlarini va "sport musobaqalashuv ishlarini o'rganish", "O'quv-tadqiqot ishlari", "Jismoniy madaniyat jamoasida tashkiliy-boshqaruv ishlari".

Natijada bo'lajak murabbiylarda pahlavonlar turmush tarzi ulardagi sog'lom turmush tarzini shakllantirishga didaktik asos bo'la olishligi aniqlandi va milliy g'urur yanada mustahkamlandi hamda milliy sport turlari mazmun-mohiyatini chuqur anglashga erishildi, shuningdek, eng asosiysi, bo'lajak mutaxassislardan ba'zilar Pahlavon Muhammad Abusaid turmush tarzini o'ziga ibrat maktabi qilib olishligi haqidagi fikrlarini ham bildirishdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, pahlavonlar ibrat-namunasi bo'lajak mutaxassislardagi milliy g'ururni, oriyatli bo'lishlikni, Vatanparvarlikni va odamiylikni shakllantirishda "ma'naviy ozuqa" bo'la oladi.

3 Маҳмудов Ю.Ф. ва бошқ. Миллий ғурур-маънавий комиллик мезони. Услубий қўлланма. –Т.: "DIZAYN-PRESS", 2011.–276 б.

XOR TO'GARAKLARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Tohir Raxmatovich Haqqulov – dotsent v.b.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Diyora Abduxakim qizi Qarshiyeva – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xor to'garaklari vositasida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish omillari yoritilgan va bu xususida to'garaklarni tashkil etish shartlari, tuzilish jihatlari bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье выделены факторы формирования музыкальных способностей учащихся средствами хоровых кружков и в связи с этим даны рекомендации по условиям и аспектам организации кружковой работы.

Abstract: In this article, the factors of formation of students' musical abilities by means of choral clubs are highlighted, and in this regard, recommendations are given on the conditions and aspects of the organization of clubs.

Kalit so'zlar: xor, to'garak, guruh, repertuar, "xor bo'lib kuylash" faoliyat turi.

Ключевые слова: хор, кружок, группа, репертуар, вид деятельности "пение хором".

Keywords: choir, circle, group, repertoire, "singing as a choir" type of activity.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2-fevral 2022-yili "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2022-2023-o'quv yilidan boshlab, ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zlangan. Shunday ekan, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha zamonaviy yondashuv va usullarni tatbiq etgan holda o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini shakllantirishda "xor to'garaklari" mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni shakllantirish lozim.

Oldimizga xor bo'lib kuylash ijrochiligini egallash orqali bolalarimizni hayotga tayyorlashdek zarur vazifa qo'yiladi, chunki har bir bola musiqa sirlarini bilishi kerak.

Prezident risolalarini hayotga tatbiq etgan holda xor to'garak mashg'ulotlari jarayonida eng zamonaviy, jahon andozalariga mos bo'lgan ta'lim-tarbiya berish vazifasini qo'yadi. Shuningdek, xor to'garagining asosiy vazifasi ona yurtiga bo'lgan muhabbatni qo'shiqlarda aks ettirish orqali o'quvchilarda milliy g'ururlikni tarbiyalashdir. Xor to'garaklari mashg'ulotlari orqali biz o'quvchilarda musiqiy qobiliyatni har taraflama shakllantirishimiz mumkin. Bu jarayonlar esa bosqichma bosqich turli usullar va shu bilan bir qatorda to'garak tashkil etish bosqichlarini amalga oshirishni talab qiladi. To'garak tashkil qilish va mashg'ulotni qiziqarli va samarali o'tkazish juda muhim hisoblanadi.

Xor to'garaklariga o'quvchilarning yoshini e'tiborga olgan holda tanlab olish zarur. Masalan, I-IV sinf o'quvchilarini alohida guruhlarga to'plash kerak. Umummaktab xor jamoasini tashkil etish va rejalashtirilgan asarni o'rgatish esa katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir².

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev.Sh.Sh. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror. 2022-yil.

2 Abu Rayhon Beruniy. Ruhniyat va ta'lim- tarbiya haqida. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B. 113.

Xor jamoasini tashkil etish, avvalo, qiziquvchilarni shu jamoaga jalb etishdan boshlanadi. O'qituvchi odatda o'z fikriga ko'ra muvaffaqiyatli shug'ullanib keta oladigan o'quvchilarni jalb qilishga harakat qiladi. Qobiliyati sal pastroq darajada bo'lsa ham, qiziqishi va xohishi bor o'quvchilar xorda qatnashish istagini bildirsalar qabul qilish lozim. Chunki tajriba shuni ko'rsatadiki, har bir sog'lom bolada musiqiy qobiliyatni, shu jumladan, kuylash malakasini shakllantirish mumkin. To'garakka qatnashish istagini bildirgan o'quvchilarning ismi, familiyalari, sinflari, turar joylari va telefon raqamlari, maktabi yozib olinadi. Ularni ota-onalarining ism-familiyasi, ish joyi haqidagi ma'lumotlar to'garak rahbarining jurnalida qayd etiladi. Shuningdek, to'garakka a'zo bo'lgan o'quvchilarga mashg'ulotlar o'tiladigan joy manzili, mashg'ulot vaqti, kimga uchrashish, nimalar olib kelish, qancha vaqt shug'ullanishlari va to'garak rahbari to'liq ism familiyasi kabilar yozma ravishda ma'lumot beriladi. Xor to'garagiga o'quvchilarni jalb etishning yana bir usuli bu o'quvchilar ko'p qatnaydigan yo'llarda, maktablar, mahalla idoralari darvozalarida e'lonlar yopishtirish bo'lib, e'lonlar hammaga ko'rinadigan joylarga, tushunarli so'zlar va yirik xarflar bilan yozilib yopishtiriladi. Bu e'londa to'garakning nomi, mashg'ulot o'tiladigan manzil, mashg'ulotlar jadvali (vaqti, me'yori), mashg'ulot o'tiladigan xona, muassasa yoki to'garak rahbarining ism-familiyasi, to'garakka qabul qilinuvchilarning ishi, jinsi kabi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'ladi. Murojaat uchun muassasaning telefon raqamlari beriladi. Xorga kiruvchi o'quvchilarning ovoz diapazoni va kuylash malakasining qay darajada ekanligini aniqlash uchun ularga musiqa jo'risiz birorta o'zi sevgan qo'shiqni kuylab berish taklif etiladi. Agar o'quvchi qo'shiq tanlashda qiynalib qolsa o'qituvchining o'zi biror mashhur, lekin

o'quvchining yoshiga mos keladigan qo'shiqni eslatadi. Qo'shiqni musiqa asbobi jo'risiz ijro etganda ovozning sifat darajasini aniqlash oson bo'ladi. So'ngra o'quvchining to'liq musiqiy qobiliyatini bilish uchun shu qo'shiqni har xil pardalardan ijro ettirish va shu ohanglarga moslab qarsak chaldirib ko'riladi. Shu tariqa o'quvchining eshitish, kuylash kabi qobiliyatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'linadi³.

Kichik yoshdagi o'quvchilar ancha uyatchanligi va uncha faol bo'lmaganligi sababli ularni kichik guruh tarzida tinglash zarur. Odatda xor jamoasiga 40-50 ta o'quvchi jalb qilinadi. Bu borada bolalar soni har xil bo'lishi mumkin, lekin kamida 25-30, ko'pi bilan 70-80 o'quvchi. Bolalar soni o'ta ko'p bo'lsa, har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatini aniqlash ancha murakkab kechadi⁴.

Mashg'ulotning davomiyligi esa bolalar yoshiga bog'liq bo'ladi. Kichik o'quvchilar bilan 45 minutdan haftada ikki marta o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqori sinflarda esa ikki akademik soat davomida o'tkaziladi. Har bir darsni chuqur o'ylab yaxshi tayyorgarlik asosida xilma-xil uslub va yo'llar bilan olib borishi lozim. Bolalarning musiqiy qobiliyati va uning kuylash malakalarini samarali rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur bo'ladi. Har bir bolaning yosh xususiyatiga talluqli bo'lgan tovush hosil qilish mexanizmini yaxshi bilish, ish faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi. "Bola tovushi o'ta nozik va e'tibor talab qiluvchi tabiiy musiqa asbobidir. Bu tabiiy bo'lgan inson tovushiga doimiy tarzda e'tibor zarur. Uni ehtiyotkorlik bilan kuzatish, jiddiy e'tibor va doimiy tarzda nazorat qilish aniq reja asosida olib borilishi kerak"⁵.

Xor mashg'ulotlari davomida har bir qatnashchining kuylash holatidagi tovush

3 Sharipova G. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Turon-iqbol, 2008. – B. 112.

4 Kadirova S.P "Xorshunoslikning boshlang'ich kursi" o'quv qo'llanma Toshkent, 2015 62-bet

5 Kozimov J.J. Dirijyorlik mashqlar to'plami, Samarqand 2013, 68-bet

va musiqiy qobiliyatini rivojlantirib borishga erishish muhim vazifadir. Ijrochilik davomida qatnashchilarning ijrosini magnit yozuviga tushirish asosida tahlil qilish samarali vositalardan biridir. Xuddi shu jarayonda xor ijrochilarining bu san'atni egallash sirlari badiiy ifoda vositalarining hamohanglik fonidagi talqini, yuksaksan'at darajasiga ko'tarilib boradi. Shu bilan birgalikda xor partiyalarini har bir ijrochi bilan yakka holda ishlash, to'g'ri kuylashini nazorat qilish, tegishli nazariy, amaliy maslahatlarni o'z vaqtida berib borilishi yanada yaxshi natijaga olib keladi. Eng past va yuqori tovush bolalarda 10-11 yoshda shakllanadi. Bu chegara ko'pchilik bolalarda kuzatilgan. Bu borada har bir qatnashchining qaysi ovoz partiyalariga to'g'ri qo'yilishi o'qituvchidan katta mahorat talab etadi. Bolalarning muntazam davri o'quvchilarning xor mashg'ulotlariga qatnashmay qolishiga sabab bo'lmasligi kerak. Aksincha bunday bolalarga alohida e'tibor kerak bo'lib, ularni ehtiyot qilish va tovushning to'g'ri shakllanishiga qaratish hamda muhofaza qilish choralari belgilash o'ta muhim. Bunday bolalarning ijro faoliyatida ortiqcha zo'riqish bo'lmasligi tovush imkoniyatiga qarab asarlar tanlash zarur bo'ladi. Har bir mashg'ulot boshlanishidan oldin tovush qizdirish mashqlariga o'zgacha e'tibor zarur bo'lib, muayyan holatdagi tovushning takomillashishi zarur malaka va ko'nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday mashqlar xor qatnashchilari uchun o'ta zarurdir. Bu esa o'quvchilarning xorga qiziqishi bilan birgalikda ongli munosabatning ham shakllanishiga ta'sir etadi. Mashqlarning xilma-xilligi xor asarlarini aniq ijro etish malakalarini egallashning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. "Bu omilning izchil takomili kuylash faoliyati, ijro imkoniyati, malakaning mustahkam asosi, musiqiy asarlarni sof kuylanishiga yo'naltiruvchi manba bo'lib

hisoblanadi"⁶.

Xor ijrochiligi amaliyotida turli xil mashqlar qo'llaniladi. Bunday ovoz sozlash mashqlari har mashg'ulot davomida takrorlanadi, uni to'ldirish, turli xil variantlar bilan boyitib borish, tovushning sofligiga erishish, artikulyatsiya qoidalariga muvofiqligi, ikki ovozli ijroning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Boshqa murakkab mashqlarni ham berib borilishi asarlarning murakkab jihatlarini o'zlashtirishga qaratiladi. Mashqlarning mexanik tarzda takrorlanishi uning belgilangan maqsadga qaratilmasligi o'quvchilarni toliqtiradi va qiziqishining so'nishiga olib kelishi mumkin⁷. Xor jamoasining yaxshi natijalarga erishishi o'qituvchining repertuar tanlashiga ham bog'liq bo'lib, ular ta'limiy va tarbiyaviy maqsadga asoslangan bo'lishi lozim. Repertuarda o'zbek bastakorlari asarlari, xalq qo'shiqlari, qardosh va chet el asarlarining ham bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Agar o'qituvchi tajribali bo'lsa xorga va xor jamoasiga ko'ngil qo'yib ishlasa, o'quvchilarning kuylash malakalarini shakllantirish orqali ma'naviy jihatdan tarbiyalash ishlarini muvaffaqiyatli bajaradi.

Xor to'garaklarida qo'shiq kuylash bolalarni uyushtiradi va tarbiyalaydi, hamda qo'shiqchilik qobiliyatini shakllantirishga ko'maklashadi. Tanlanadigan repertuar juda muhim va katta ahamiyatga egadir. Repertuar quyidagi talablarga javob berishi kerak⁸:

- badiiy mazmun mohiyatiga ega;
- xor jamoasiga mos;
- kuylaydigan xor jamoasi imkoniyatlariga mos;
- bayramlar va tabiat fasllariga mos.

Har bir asarda bolalarning ma'lum bir qobiliyatlarini namoyon qilish uchun ijobiy

6 Kozimov J.J Madxingni kuylayman muqaddas vatan, Asarlar to'plami – Toshkent – 2011, 108 bet

7 Baxriddinova B. O'zbekiston bolalar xor madaniyati. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyoti matbuat ijodiy uyi, 2002. – B. 44.

8 Kozimov J.J "Xor dirijorligida oddiy va murakkab o'lchovlarni o'rganish uslublari". O'quv qo'llanmasi. Samarqand-2014 104-bet

turtki berish va ularning g'oyaviy shoirlarini birlashtirish kerak⁹.

Bolalar xor to'garaklarida ijrochilikning, asosan, xor rahbari o'z maqsadi va vazifalarini tushunishlari, bolalar xori va ular bilan ishlashda muvofiq ish olib borishdadir. Bolalar o'ziga xos ovoz apparatiga ega. Bolalar ijrochiligida xor bo'lib kuylashda intonatsiya, vokal texnikasi, ansambl ustida ko'proq ishlash talab qilinadi. Bolalarda 5-6-7-sinflar davrida bola ovozi eng boy nuqtasida bo'ladi. Bu vaqtda bolalarda ko'p imkoniyatlar mavjud. Xor rahbari bu vaqtda repertuarga garmonik asarlar va oddiy polifonik asarlar kiritish mumkin. Bizga ma'lumki, bolalar xorida kuylash davri, asosan, maktabgacha, maktab yoshida ya'ni boshlang'ich sinf, o'rta sinf va yuqori sinf o'quvchilaridan tashkil topgan bolalardir. Hozirgi kun negiziga qaraydigan bo'lsak, ko'plab umumiy o'rta ta'lim maktablarida, bolalar musiqa va san'at maktablari, viloyatlardagi faoliyat yuritayotgan xor to'garaklari faoliyati xor ijrochiligini sifatli darajada yuksaltirish uchun biz kabi xor rahbarlari tomonidan xor jamoasi dasturidan o'rin olgan asarlar bola ovoz imkoniyatiga mos bo'lishi, asar qulayligi va ohangdorligi hamda vokal xor malakasi jihatidan kuylashda intonatsion jihatdan qulay bo'lmog'i bolalar xor ijrochiligining muammolari yechimlaridan biridir¹⁰.

Demak, xor jamoalari rahbari o'z sohasi bo'yicha ilmiy salohiyatga ega va tajribali, o'z ishlariga fidokorona yondashishlari lozim. Bolalar xor to'garaklari ijrochiligidagi muammolardan biri xorda vokal mashqlarining to'g'ri bajarilishidadir. Ish jarayonida tembr yanada aniqroq namoyon bo'lganda ovozlar soprano va altga ajratiladi. Bunda xor ovoz sozlash mashqlarida bolalar diafragma nafasidan foydalanishlari kerak. Maktablarda

tashkil qilingan xor jamoalari, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar xor jamoalari faoliyatining to'la to'kis rivoji, vokal mashqlarining to'g'ri tanlash tamoyillari va repertuarning bolalar ovoz imkoniyatiga mosligi, emotsional kayfiyatni yaratish o'z-o'zidan bolalar xor ijrochiligidagi muammolarini hal qilishga turtki bo'ladi.

O'quv yili yakunida to'garak rahbari boshchiligida hisobot konserti tashkil etiladi. Bu konsertda xor to'garak a'zolarining o'rgangan musiqiy nomerlari ko'rsatiladi. Xo'r to'garak hisobot konsertiga maktab, mahalla qo'mitalari vakillari, muassasa rahbarlari, maktablardan o'quvchilar, to'garak a'zolari taklif etiladilar. Ular namoyish etgan musiqiy nomerlarga belgilangan hay'at a'zolari o'zlarining munosabatlarini bildiradilar, ishlarni baholaydilar va to'garak qatnashchilariga esdalik sovg'alari topshiradilar. Shu bilan bir qatorda xor to'garak rahbari ish faoliyati ham baholanadi. Demak, "xor to'garagi" faoliyat sifatiga katta e'tibor berilsa, umumta'lim maktabi o'quvchilarida musiqiy did shakllanishining samardorligi oshadi, Vataniga, xalqiga bo'lgan vatanparvarlik hissiyoti yanada o'sib boraveradi.

Xulosa. Xor to'garaklari orqali musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi, o'quvchilarning ma'naviy va estetik dunyoqarashini kengaytiradi. To'garaklarni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, repertuarni to'g'ri tanlash, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish – barcha bu omillar musiqiy san'atni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

9 Panjiev Q.B "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa to'garaklarini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar" maqola Zamonaviy ta'lim 2019. 26-bet

10 Muxitdinova R.N. Xorshunoslik asoslari. – Toshkent: TDU, 2008. – B. 106.

PRINCIPLES AND IMPLEMENTATION OF LINGUOSYNERGETICS IN DISCOURSE

Khayriniso Bakhtiyarovna Ganiyeva- PhD in Philological Sciences,
Jizzakh State Pedagogical University
Madina Sherzod qizi Mustaqova – student,
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: In this article the phenomenon of self-organization of a discourse system, its semantic development through the fundamental lingvosynergetic principles of instability and nonlinearity are investigated. A special attention is paid to the phenomenon of positive and negative feedback of a discourse which are interconnected and complement each other, illustrating a constructive role of chaos in a discourse system in general. Consequently, in the course of this analysis, the main problems of the synergetic paradigm are described and the main synergetic directions and schools are presented. In addition, the article contains a definition of the concepts of "discourse" and "discursive space" in a broad sense.

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq tizimining o'z-o'zini tashkil etish fenomeni, uning beqarorlik va chiziqli bo'lmaganlikning fundamental lingvosinergetik tamoyillari orqali semantik rivojlanishi o'rganiladi. O'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradigan nutqning ijobiy va salbiy munosabati fenomeniga alohida e'tibor qaratiladi, bu umuman nutq tizimidagi xaosning konstruktiv rolini ko'rsatadi. Binobarin, ushbu tahlil jarayonida sinergetik paradigmanning asosiy muammolari tavsifi berilgan va asosiy sinergetik yo'nalishlar va maktablar keltirilgan. Shuningdek, maqolada keng ma'noda "diskurs" va "diskursiv makon" tushunchalarining ta'rifi mavjud.

Аннотация: В статье исследуется феномен самоорганизации дискурсивной системы, ее семантическое развитие через фундаментальные лингвосинергетические принципы неустойчивости и нелинейности. Особое внимание уделяется феномену положительных и отрицательных обратных связей дискурса, которые взаимосвязаны и дополняют друг друга, иллюстрируя конструктивную роль хаоса в дискурсивной системе в целом. Поэтому в ходе данного анализа дано описание основных проблем синергетической парадигмы, а также представлены основные синергетические направления и школы. Кроме того, в статье содержится определение понятий "дискурс" и "дискурсивное пространство" в широком смысле.

Keywords: instability, nonlinearity, self-organization, chaos theory, semantic development of a discourse, system, positive and negative feedback.

Kalit so'zlar: muloqotda beqarorlik, chiziqli bo'lmaganlik, o'z-o'zini tashkil etish, xaos nazariyasi, nutqning semantik rivojlanishi, tizim, ijobiy va salbiy fikrlar.

Ключевые слова: неустойчивость, нелинейность, самоорганизация, хаос, смысловое развитие дискурса, система, положительная и отрицательная обратная связь.

Discourse is a complex linguistic phenomenon, its polysemy has been discussed many times by researchers in a number of scientific disciplines (philosophy, cognitive science, psycholinguistics, sociolinguistics, etc.). In the works of T.A. van Dijk, the term "discourse" is defined as "a complex, comprehensive phenomenon that includes a social context that provides an idea of both the participants in communication and the processes of production and perception of a message" The

scientist introduces into scientific theory an understanding of discourse as a communicative event that occurs "between the speaker and the listener in the process of communicative action in a certain temporal, spatial context"¹. Discourse depends on many characteristics, the context of a given specific situation, which gives an idea of the object under study of language. The basic principle of the strategic approach is to select the most significant information in a given context and for

1 Т.А. ван Дейк язык • познание • коммуникация. Б.: БГК им. И. А. Бодуэна де Куртенэ, 2000. — 308 с

the given communicants. At the same time, the strategic approach is not focused on the sequential analysis of individual levels of language—from syntax to pragmatics, from understanding words to sequences of sentences—but on the complexity of the description. In particular, semantic interpretation does not necessarily have to be carried out only after the completion of syntactic analysis—it can begin earlier on the basis of incomplete information about surface syntactic structures. At the same time, information from the semantic and pragmatic levels can be used within the framework of syntactic analysis. In a similar way, knowledge about entire fragments of text can be used to establish the “final” meaning of some words. The perception of utterances as specific speech acts is based on a complex process involving the use of various types of information noted above. However, the analysis of all these observable modes of expression must be presented in terms of knowledge of a more general nature: understanding is inevitably based on more general concepts, categories, rules and strategies. One of the methodological principles that we should always remember is the concept of pragmatic context — this is a theoretical and cognitive abstraction of various physical and biological and other situations. Indeed, most of the features of any situation are not important for determining the unknown person requires consideration of the analysis of the expressive power of expression in a synergistic interpretation. The basis of the synergistic approach to the linguistic field is that it reflects what changes occur and occur in speech and in the process of communication. The term “synergetics” comes from the Greek roots “syn” — joint and “ergos” — action. The choice of this name is due to the special interest in such interaction (joint action) of parts of one complex system, as a result of which, at the macroscopic level, a new structure is born, bringing the system

to a new level of development. In the course of his research, G.Haken noticed that completely different systems (physical, biological, chemical and even social) behave in accordance with similar principles, contained in the essential, basic properties of the systems under consideration². Thus, synergetic concepts are transferred to the linguistic area and interpreted to explain linguistic processes. Currently, a new direction is being formed in linguistics, which has received the name “linguistic synergetics” or “linguositynergetics”. With the help of synergetic methods, language is studied as a complex dynamic nonlinear dissipative system, which allows us to answer questions that structural linguistics had difficulty answering. The most important achievement of synergetics is the study of the behavior of a system in dynamics, and not in statics, as classical science did. If earlier science studied the structure of the entire system or its part, then synergetics shifts interest towards changes in this structure over time, offering a special view of the evolutionary process. The fact is that from the standpoint of the synergetic approach, the evolution of a complex system is seen as “wandering along the field of development paths”, moving towards “order through chaos”³. In the process of its development, the system goes through phases of “order” and “chaos”, and phase transitions lead the system either to the improvement of its own structure in the process of self-organization, or to destruction. It is important to understand that in synergetics, chaos does not have destructive power: on the contrary, chaos is an indispensable guarantee of constant movement towards order.

Despite the huge number of discursive studies, the analysis of discourse and discursive spaces is still a complex and controversial issue. Discourse is difficult to systematize, given all the disagreements regarding what should be

2 Хакен Г. Синергетика. М.: Мир, 1980. 405 с.

3 Князева Е. Н., Курдюмов С.П. Законы эволюции и самоорганизации сложных систем // Кибернетика – неограниченные возможности и возможные ограничения. М.: Наука, 1994. 238 с.

understood by discourse. In addition, it follows from the definition that discourse, and, moreover, discursive space are complex complexes of meaning generation in the process of speech activity, including, in addition to the text as a result of meaning generation, also many factors of the socio-cultural context of the communicative act, the intentions and experience of the participants in speech interaction, etc. It seems almost impossible to determine the control parameters and order parameters of such a system. In a state of equilibrium, language develops progressively, obeying laws that can be explained by cause-and-effect relationships. However, it is obvious that language is regularly subjected to the influence of various external influences caused by historical, social, cultural and other changes. In this case, having reached a certain critical state, the system finds itself at a bifurcation point and chooses a further path of development: acceptance or rejection of a new linguistic phenomenon. Having given preference to one fluctuation, the system breaks its symmetry and begins to adapt to new conditions, approaching the chosen attractor-goal, completely assimilating the new linguistic phenomenon. The theory of discourse was developed in the lingvosynergetic studies of Russian researchers. Lingvosynergetics treats discourse as a self-organizing system. One of the first N.F. Alefirenko studies discourse from lingvosynergetic positions. The scientist understands discourse synergetics as "the interaction of all the factors that generate it, as a result of which there is a "fusion and assistance of energies" aimed at the ontological and functional "self-organization" of the discursive space and determining the semantic distribution of its ingredients"⁴ Disorganized speech communication ensures that the established parameters of the speech system are maintained to a certain extent. Developing micro fluctuations

are suppressed in the speech system, which does not allow them to pass to the macro level. In self-regulating systems, negative feedback exists in balance with positive feedback, as a result of which the system contains elements of disorder that maintain the flexibility of the speech system under study and the language as a whole. The linguosynergetic approach assumes the consideration of language as a self-organizing communicative system connected with the consciousness of communicants, as well as its general system⁵. The linguosynergetic approach to discourse analysis involves using the method of models. This method consists of constructing, substantiating and describing a synergetic discursive model using linguosynergetic modeling in accordance with the fundamental principles of complementarity, interpenetration and self-organization. The use of the potential of linguosynergetics in the consideration of discourse allowed to combine the formal, functional, communicative, critical, linguamodeling and anthropocentric approaches to discourse analysis and to develop an integrated methodology for studying the modus category of "evidentiality". The main advantages of using this methodology for studying the modus category of "evidentiality" include its comprehensive nature, the specificity of the results achieved through a multi-level and comprehensive analysis of the discursive space and its components. This distinguishes the methodology of linguosynergetic discourse analysis from all other methods that, as a rule, consider only one aspect of the discursive structure. It should be noted that the proposed methodology of linguosynergetic discourse analysis has not been mentioned in the works of other researchers before. Despite the fact that the study was carried out on the basis of English-language media discourse, the presented methodology of discourse analysis is relevant

4 Алефиренко Н.Ф. Дискурсивная синергетика «живого» слова //Язык. Текст. Дискурс: научный альманах Ставропольского отделения РАЛК. Краснодар: Изд-во СГПИ, 2008. Вып. 6. С. 20-26

5 Герман И. А. Лингвосинергетика. Барнаул: Изд-во Алтайской академии экономики и права, 2000

not only for this language and type of discourse. Since evidential statements belong to the system of statements that make up the discourse as a whole, and represent the interactive activity of communication subjects in languages of various types, linguosynergetic discourse analysis is applicable to the study of discourse regardless of the language and genre affiliation of the research material. Along with this, the proposed methodology can be used to study other modus categories. This possibility is ensured by appealing to the basic principles of linguosynergetics (mutual complementarity, interpenetration and self-organization), according to which the category of evidentiality has a synergetic link with other modus categories and can take on their meanings depending on the context. Summarizing the above, there is every reason to believe that the results of the study presented in this article can be used to study the entire register of modus categories. The principles of the linguosynergetic approach are applicable to the study of various systems, including the categorical system of language placed in the discursive space of its functioning⁶. Within the framework of this study, the specifics of the actualization of the modus category "evidentiality" in mass media discourse are of particular interest. The objectives of the study are: (1) identifying the model of evidential utterance in media discourse; (2) describing the evidential discursive context; (3) defining and developing an algorithm for interpreting the synergetic evidential discursive model. Linguistic synergetics, or linguistic synergetics, is such an interdisciplinary research approach to the study of language. The application of synergetic principles in language research is not only possible, but also necessary, since language meets all the criteria of a synergetic system — it is an open, dynamic, non-linear, self-organizing system with many hierarchical subsystems and elements

that are interconnected and function under the influence of regulating order parameters. It is a complex synergetic megasystem that changes and develops in accordance with the universal principles of behavior of a complex system, revealed in the theory of synergetics. The potential of linguosynergetics opens the boundaries for comprehensive studies of language as a synergetic system and allows us to expand our understanding of the nature, functioning and prospects for the development of language. Systemic-functional linguistics aims to study the conditions and processes of activation of certain characteristics of language/speech/discourse depending on a specific communicative situation in real conditions of verbal interaction⁷.

It is important to understand that synergetics does not aim to build a rigid framework of laws based on immutable truths, but is aimed at constructive dialogue between researchers of different disciplines, creating interpretations. By forming meanings in dialogue, synergetics fulfills the main task prescribed by one of its creators, G. Haken: to be a kind of bridge between the natural and social sciences. In conclusion, synergetics language can be studied from specific angles, and the application of its principles greatly contributes to the theory of the evolution of language. Linguosynergetics provides ample opportunities for describing language/text/discourse as a complex dynamic open system, and functional linguosynergetics, in turn, helps describe the features of its functioning and evolution.

6 Малахова В. Л. Динамико-системные принципы синергетики в функциональной лингвистике // Филологические науки в МГИМО. 2021. Т. 7. № 3 (27).

7 Fontaine L. *Analysing English grammar: A systemic functional introduction* / L. Fontaine. Cambridge: Cambridge University Press, 2012. 294 p.

MUSIQIY FOLKLOR NAMUNALARINI QAYTA ISHLASH VA PEDAGOGIK JARAYONGA TATBIQ ETISH

Tohir Rahmatovich Haqqulov – dotsent v.b.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Marjona Maxmud qizi Maxkamova – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek musiqa folklori tarixi, xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va yozib olish borasidagi ishlar, bolalar musiqa folklorining o'ziga xos xususiyatlari va bugungi kundagi ahamiyati keng yoritilgan.

Аннотация: В данной статье широко освещены история узбекского музыкального фольклора, работа по сбору и записи образцов устного народного творчества, особенности детского музыкального фольклора и его значение в наши дни.

Abstract: In this article, the history of Uzbek musical folklore, work on collecting and recording samples of folk oral creativity, the specific characteristics of children's musical folklore and its importance today are widely covered.

Kalit so'zlar: YUNESKO, madaniyat, folklor, musiqa, xalq, nomoddiy madaniy meros, urf-odat, etnofolklor, qadriyat.

Ключевые слова: ЮНЕСКО, культура, фольклор, музыка, народ, нематериальное культурное наследие, традиция, этнофольклор, ценность.

Keywords: UNESCO, culture, folklore, music, people, intangible cultural heritage, tradition, ethnofolklore, value.

Folklorshunoslikka turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelingan. Keyinchalik xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirki kabi) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Folklorshunoslikning asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi¹.

Qadimdan dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlari, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi dastlabki fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo'yicha dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab ko'zga tashlanadi (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallari). Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar

tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. XVIII asr va XIX asr boshlarida folklorga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plash va nashr etish jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda uni chinakamiga o'rganish boshlandi. Natijada Yevropa va Rossiya folklorshunosligida turli yo'nalishlar, maktablar yuzaga keldi. Shunday maktablardan biri mifologik maktab bo'lib, folklor janrlarining yuzaga kelishini qadimgi miflarga bog'laydi. Ma'rifatparvarlar esa folklorning demokratik va sinkretik xarakterini, undagi umuminsoniy va milliy xususiyatlar birligini o'rganishga alohida e'tibor berdilar.

XIX asr o'rtalaridan boshlab folklorni ilmiy prinsiplar asosida to'plash va nashr etishning yanada kuchayishi folklorshunoslikda yangi yo'nalish — "sayyor syujetlar" nazariyasini yuzaga keltirdi. Bu nazariya tarafdorlari o'xshash syujet, motiv va obrazlardagi murakkab

1 Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. – T.: Talqin, 2008. – B. 134.

jarayonlarni hisobga olmay, ularni bir xalqdan ikkinchi xalqning shunchaki o'zlashtirishi deb talqin qildilar. Antropologik maktab tarafdorlari esa xalq ijodidagi o'xshash hodisalarni turli millat va irqning umumiyliги bilan izohlamoqchi bo'ldilar. Ijtimoiy hodisalarni bunday biologik qonunlar asosida tushuntirishga urinish hozirgi zamon folklorshunosligida turli-tuman oqimlarni (freйдizm², neomifologizm va boshqalarni) yuzaga keltirdi. Folklori xalq tarixi bilan bog'liq holda o'rganishda tarixiy maktab vakillari katta ishlar qildilar. Folklor asarlari syujetlarining tarixiy-geografik tarqalish arealini belgilash, ularni tasniflash, sistemaga solish va kataloglashtirishda fan maktabi vakillari ham birmuncha yutuqlarga erishdilar.

Hozirgi paytda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda folklor sektorlari mavjud. Shuningdek, turli mamlakatlarda xalqaro yoki muayyan mintaqa bo'yicha har xil jamiyatlar ham bor. Masalan, YUNESKO huzuridagi Etnologiya va folklor xalqaro jamiyati, Xalq musiqasi xalqaro kengashi, Folklor o'rtoqlik jamiyati kabilar shunday ilmiy tashkilotlardir.

O'zbek folklori namunalarini to'plash va nashr etish ishlari XIX asrning 2-yarmidan boshlab ahyon-ahyonda ko'zga tashlanib tursada, uni chinakamiga to'plash va nashr etish ishlari 1919-yildan yo'lga qo'yila boshlandi. Yangicha yo'nalishda shakllana boshlagan o'zbek folklorshunosligining dastlabki bosqichi (1918—1925 yillar) o'sha davr sharqshunosligi va o'lkashunosligi erishgan yutuqlarni izchillik bilan o'zlashtirishga intilish, folklor materiallarini jadal jamlash, xalq hayoti va maishiy turmushining barcha tomonlariga kirib borishga urinish bilan ajralib turadi. Bunda G'ozzi Olim, G'ulom Zafariy va Elbeklarning faoliyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 20-yillarning 2-yarmidan boshlab yana ham jiddiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir kabi atoqli dostonchilar aniqlandi. Ular

ijrosida birinchi marta epik asarlar to'la yozib olinib boshladi, xalq san'atkorlariga ijodkor sifatida qarab, original kuzatishlar olib borildi. Bu ishda o'zbek folklorshunosligi o'zining mustahkam ilmiy yo'nalishiga ega bo'ldi, uning asosi yaratildi.

Bizga ma'lumki, har bir xalq, millat o'zining ming yillik an'ana va urf-odat, marosimlari bilan boshqa millatlardan ma'naviy jihatdan alohida o'rin tutgan. Buni alohida ta'kidlash joizki, inson ma'naviyati bog'liq bir qancha tushunchalarni keltirib o'tish mumkin. Ammo oddiy xalq ongiga singib ketgan va ishonadigan hamda ishonib bajaradigan ma'naviy, diniy tadbirlar va marosimlar borki, bunday tadbirlarni aynan boshqa xalqlarda kuzatish qiyin. Har bir xalqning o'zligini namoyon etib turadigan bunday meroslar qadimdan xalq og'zaki ijodi na'munalari, folklor tarkibida bo'lgan hamda bizgacha asil holatda yetib kelganlari ham bor desak mubalag'a bo'lmaydi, albatta.

Mustaqillik sharofati bilan nomoddiy madaniy merosimiz ham qayta tiklandi. Mazkur atama keyingi yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, biroq uning mohiyatida, tub ildizlarida xalqimizning og'zaki ijod namunasi sifatida qarab kelinayotgan qadimiy folklor hamda milliy hunarmandchilikka oid bilim va ko'nikmalar, odat, marosim, bayramlar, shuningdek, ijro san'ati namunalarini yotadi. Masalan, yoshi ulug' momolarimiz aytgan aytimlardan shuni anglash lozimki, xalq og'zaki ijodi namunalarini shakllangan. Bunga misol qilib yosh bolalarni ya'ni ne'vara, chevaralarini erkalaganda quyidagi aytimlarini tinglash mumkin. Bu tushuncha sohaga aylanib, bugun dunyo bo'yicha e'tirof etilayotgani – globallashuv jarayoni bilan bog'liq. Dunyo miqyosida madaniyatlarning umumlashuvi – olomon madaniyati xavf solib turgan bir paytda har bir xalq urf-odatlari, marosim va udumlari haqida so'z yuritishi hozirgi kunda dolzarb masala bo'lib turibdi. Buni his qilgan xalqlar hozirda o'z milliy

2 Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi, – T.: O'zbekiston, 1976. – B. 109.

xususiyatlari va merosini saqlab qolish, uni muhofoza qilish va kelajak avlodga yetkazish borasida keng ko'lamli kurash olib bormoqda. Xususan, YUNESKO 1990-yillardayoq insoniyat nomoddiy madaniy merosini muhofazaga olish taklifi bilan chiqdi. Mazkur tashkilot shu bugungacha moddiy merosni muhofaza qilish borasida konvensiya va konsepsiyalar ishlab chiqqan bo'lib, nomoddiy meros bo'yicha ko'tarilgan taklif bu sohadagi ilk qadamlardan bo'ldi³.

YUNESKO 2001-yilda nomoddiy madaniy meros ta'rifini kelishilgan holda ishlab chiqish maqsadida a'zo davlatlar va nodavlat tashkilotlari o'rtasida so'rov o'tkazadi. Maxsus bir ta'rifga kelishilgach, 2003-yil 17-oktabr Parij shahrida Nomoddiy madaniy meros muhofozasi bo'yicha Konvensiya qabul qilingan. Davlatimiz ham 2008-yili ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilib, unga a'zo bo'ldi. Shu munosabat bilan nomoddiy madaniy meros masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi⁴. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi 222-son qaroriga asosan 2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturining qabul qilinishi o'ziga xos tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu dasturni ijro etish maqsadida esa respublikamizning 38 tashkilot va muassasalari birliktirildi. Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika ilmiy-metodika markaziga davlat va nodavlat tashkilotlarning nomoddiy madaniy meros masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muassasa maqomi berildi. Birlashgan millatlar tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasi va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasiga yuboriladi. Nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrash chora-tadbirlari ilmiy va ilmiy-

texnik tadqiqotlar, hujjatlashtirish, targ'ib qilish va rag'batlantirish ishlarini o'z ichiga oladi⁵.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son qarori bilan "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi" tasdiqlangan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha asosiy ijrochi sifatida belgilanib, unga: Davlat dasturi monitoringini yuritish; muntazam ravishda har bir yil yakunida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga hisobotlarni taqdim etish; Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatiga kiritiladigan nomoddiy madaniy meros obyekti o'rganish va hujjatlashtirish ishlari, aksariyat hollarda, obyekt joylashgan joyda tashkil etiladi. Bu ishga davlat organlari, ilmiy institut va muassasalar hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, nomoddiy madaniy merosni asrash va ulardan foydalanish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan va tadqiqot ishlarini olib borayotgan alohida tadqiqotchilar va mutaxassislar mustaqil ekspertlar sifatida jalb etilishi mumkin⁶. Bunda, Markaz belgilangan tartibda mustaqil ekspertlar bilan shartnomalar tuzadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-405-sonli qarori qabul qilindi. Nomoddiy madaniy merosni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishni ta'minlash bo'yicha shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2024-yil 1-apreldan boshlab: a) noyob va (yoki) yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari bo'yicha: madaniyat vazirligi tomonidan birinchi

3 Ibroximov O. Musiqa ijodiyoti masalalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2002. – B. 73.

4 D.Chinpo'latov. Nomoddiy madaniy meros va yoshlar. BMI. //Toshkent – 2019. 79 b

5 Xolmo'minov M. O'zbekiston madaniyati va san'ati. // O'zDSMI xabarlar jurnali. – Toshkent: 2024/2(29). 68-bet

6 Matyokubov B. Doston navolari T.2008 122-bet

bosqichda ushbu toifadagi nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi 20 nafar shaxs aniqlanib, ularga nomoddiy madaniy meros namunalarini asrab-avaylash, ommalashtirish va keyingi avlodga yetkazish borasidagi faoliyatida ko'maklashiladi hamda ularning bu boradagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari belgilab beriladi; YUNESKOning xalqaro ro'yxatlariga taqdim etish uchun nomzodnoma hujjatlari tayyorlanadigan nomoddiy madaniy meros namunalari ro'yxati; 2024-2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish bo'yicha mahalliy va xorijiy etnofolklor ekspeditsiyalarini tashkil etish rejasi; 2024-2026-yillarda nomoddiy madaniy merosni ilmiy o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha fundamental va maqsadli grantlar bo'yicha davlat buyurtmalari rejasi; 2024-2026-yillarda nomoddiy madaniy meros namunalarini elektron hujjat shaklida rasmiylashtirish rejasi; 2024-2026-yillarda Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari (indikatlari); 2024-yilda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash bo'yicha "yo'l xaritasi". 2024-yil 1-oktabrga qadar "Qadriyat" elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratsin hamda tegishli elektron xizmatlar va manbalar bilan integratsiya qilish ko'zda tutilgan.

"Bolalar folklori – og'zaki ijod namunalari. Odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi"⁷. Folklor janrining tarkibiy qismi. O'zbek bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, rekalama, masharalama va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'yiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi⁸.

O'zbekistonda bolalar folklori namunalari to'plam holidan 1932-yildan nashr etila boshladi. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachiq va erkalamalar onalar mehrmuhabbati bilan yo'g'rilgan

bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzu-umidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi. Bolani belash, o'tqazish, atak-chechakyurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda "Toy-toy", "Bordi-bordi" va boshqa ovutmachoklar aytiladi"⁹. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil fasllari bilan bogliq. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qurbaqa", "Qaldirg'och" kabi qo'shiqlarni bolalar tom boshida, dalalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. "Bu bog'chada olcha", "Zuvzuv borag'on", "Chamandagul", "Oq sholi, ko'k sholi" va boshqa qo'shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti-harakatlariga taqlid aks etadi¹⁰. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolatga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. O'yinlar bolalar folklorining murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar "Choriy chambar", "Hakkalakam" kabi sanama o'yinidan, katta bolalar "Qushim boshi" degan topishmoqdan boshlaydi.

Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga, o'rtoqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlariga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o'qish kitoblariga kiritilgan.

Musiqa folklori va xalq og'zaki ijodi namunalarining pedagogik jarayonga tatbiq etilishi, yosh avlodga o'z xalqining musiqa merosini o'rgatish va ularni qayta ishlash orqali jamiyatda madaniy qiymatlarni mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon xalq musiqasining nomoddiy madaniy meros sifatida saqlanishiga yordam beradi.

7 Madrimov Bahrom Xudoynazarovich, O'ZBEK MUSIQA TARIXI, «Barkamol fayz media», TOSHKENT-2018 234-bet

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-405-sonli qarori

9 Axmadxo'jayev A. O'zbek xalq ijodi T.1967 88-bet

10 Qilichev T. Xorazm xalq teatri – T. 1988 87-bet

THE THEORETICAL FOUNDATION OF LEXICAL-STYLISTIC DEVICES

Olimjon Jalilov – PhD in Pedagogical Sciences,
Jizzakh State Pedagogical University.

Abstract: The article explores the word as the basic unit of lexical stylistics, detailing its nominative and expressive functions, lexical and stylistic meanings, and classifications like objective and abstract. It emphasizes words' roles in communication, stylistic variation, and conceptual representation.

Annotatsiya: Maqolada so'z leksik stilistikaning asosiy birligi sifatida o'rganilib, uning nominativ va ifodaviy funksiyalari, leksik va stilistik ma'nolari hamda obyektiv va mavhum kabi tasniflari tafsilotlari yoritilgan. Unda so'zlarning muloqot, stilistik o'zgaruvchanlik va tushunchalarni ifodalashdagi o'rni ta'kidlangan.

Аннотация: В статье слово рассматривается как основная единица лексической стилистики, подробно раскрываются его номинативные и экспрессивные функции, лексические и стилистические значения, а также классификации, такие как объективное и абстрактное. Подчеркивается роль слов в коммуникации, стилистических вариациях и концептуальном представлении.

Keywords: lexical stylistics, functional words, lexical meaning, barbarisms, stylistic meaning, grammatical meaning, phonetic design, emotional-evaluative.

Kalit so'zlar: leksik stilistika, funksional so'zlar, leksik ma'no, varvarizmlar, stilistik ma'no, grammatik ma'no, fonetik dizayn, emotsional-baho.

Ключевые слова: лексическая стилистика, функциональная слова, лексическое значение, варваризмы, стилистическое значение, грамматическое значение, фонетическое оформление, эмоционально-оценочное.

The basic unit of lexical stylistics is the word. A word is traditionally used to refer to a language unit that serves to name objects and their properties, phenomena, and relationships in reality, possessing a set of semantic, phonetic, and grammatical features. Consequently, the basic function of a word is nominative: words name objects, and elements of the sensory world. As a basic unit of naming, a word is characterised by a number of features:

- phonetic design, presence of one stress;
- grammatical meaning (its most important component is the part of speech);
- inclusion in the system of formal word-formation relations;
- lexical and stylistic meaning¹.

A word can perform a nominative function because it has a lexical meaning. But only significant (independent) parts of speech have a lexical meaning: nouns, adjectives, verbs, adverbs. The lexical meaning of proper names and numerals is specific. Proper names (anthroponyms, toponyms, zoonyms, theonyms, astronoms, cosmonyms, chrononyms) name individual objects, they are secondary to a common noun. Their emergence is associated with the transition of common nouns into them, with the transition of proper names from one category to another. Therefore they have no direct connection with a concept. Numerals name numbers, which are an abstraction created by man.

Many linguists believe that pronominal words (I, my, who, whose, how many, etc.), which point to

1 Языкознание. // Бол. энцикл. сл. М., 1998. С. 464.

objects, features, and quantities but do not name them, have no lexical meaning at all. For example, the pronouns I and you point to the conditions and participants of a speech act (I speak, and you listen); the pronouns such and another refer to a particular element of the text (such — similar to or equal to what has already been said; another — not that, not the same as what has been said); the pronouns someone, some — indicators of uncertainty, everyone, any — universality, who, what — interrogatives, no one, not at all — negation, etc.

Functional words (particles, conjunctions, prepositions) also have no lexical meaning, because they are not related in any way to phenomena of reality, but only indicate the relationships that exist between these phenomena, as do modal words (by the way, probably, etc.), which express the subjective attitude of the speaker to what is being discussed, how the statement is constructed, or interjections (ah! hurray! etc.), which express, but do not name the speaker's emotions.

Lexical meaning is the content of a word, in which two plans are distinguished: objective content (names the object) and conceptual content (designates the concept of the object, formulated in the mind of a person)². The lexical meaning of a word can be divided into semantic multipliers (semes, semantic elements, semantic components), connected by certain relations. For example, the word chair consists of several semes: firstly, a chair is a product for sitting, secondly, only one person can sit on a chair, thirdly, a chair has a hard seat, fourthly, a back, fifthly, a chair has no armrests. The verbs go, crawl, and fly have one common seme (they all designate the mode of movement) and at least two differential ones (the mode of movement — the pace of movement).

Lexical meanings can be characterized by different features. By correlation with reality — direct and figurative; by the degree of motivation — non-derivative

and derivative; about lexical compatibility — free and non-free (phraseologically related, syntactically conditioned, constructively limited).

The most significant difference seems to be between two types of lexical meanings, such as objective and abstract.

Words with an objective meaning are words that name elements of the sensory world, the visible, audible, olfactory, and tangible world: things, various objects, their properties, physical actions, sounds, smells, etc. Behind the lexical meaning of such words, there is always a real world: a component of this world, the properties of this component³.

The lexical meaning of such words can be easily explained by pointing to the corresponding object: to show, to let someone taste it, etc. The words camel, table, wire, tree, cat, sun, salty, bitter, soft, smooth, knock, clap, bark, stand up, laugh, and run are words with objective meaning. In speech, a word with an objective meaning can name a specific, given object, i.e. the word actualizes the objective content of its lexical meaning (in this case, they say that the word receives a specific reference). For example, in the sentence But as soon as the conductor pulled the rope and the tram started moving, the cat acted like anyone who is thrown out of the tram, but still needs to go — all words with objective meanings name specific objects: tram, cat, rope, conductor — and a physical action: pulled.

Let's look at a small fragment of the text: In the next hall there were no columns, instead, there were walls of red, pink, milky-white roses on one side, and on the other — a wall of Japanese terry camellias. Between these walls, fountains were already hissing, and champagne was bubbling in three pools, the first of which was transparent violet, the second — ruby, the third — crystal. Near them blacks in scarlet bandages were rushing, filling flat bowls from the pools with silver ladles⁴. The reader gets the opportunity to see the picture depicted with his own eyes, to smell the

2 Цветова Н.С. Лексик стилистика С.Петербург 2005. 7 ст.

3 Цветова Н.С. Лексик стилистика С.Петербург 2005. 7 ст.

4 From the novel M.A. Bulgakova

smells, to catch the sounds. That is, the reader has the illusion that he is in the reality created by the text.

Words with abstract meanings name concepts. There is no subject content in the lexical meaning of such words, they cannot name objects or their real properties. The lexical meaning of such words has only conceptual content. Words with abstract meaning include terms that make up the languages of different sciences, and ideological vocabulary.

The term designates a scientific concept that is explained in a definition placed in a dictionary entry, reference book, textbook, or scientific work. Having read the definition, we assimilate the semantic volume of the concept, i.e. we understand the lexical meaning of the term. For example, the term barbarisms designate a concept in stylistics that is explained in the following definition: "BARBARISMS — words and expressions borrowed from a foreign language, not fully mastered by the borrowing language and therefore perceived as alien"⁵.

Traditionally, two main types of terms are distinguished: general scientific (system, concept, etc.) and highly specialized (magneto, suffix, etc). Unlike a commonly used word, a term must have one meaning, that is, be unambiguous, and must also be related to other terms of a given terminology system, which represents the metalanguage of a certain scientific field. Mastering the language of science requires knowledge of the entire terminology system, not isolated terms.

Another class of words with abstract meaning are words of the ideological system. Unlike the conceptual content of terms, the conceptual content of ideological vocabulary is formed in the most authoritative works in a given ideology, as well as in the sphere of numerous ideological texts intended for a mass audience. At the same time, opposite ideological systems can put opposite conceptual contents into the lexical meaning of the same word.

In addition to the obligatory nominative function, a word can perform an additional expressive function: naming an object, simultaneously expressing the attitude of the subject of speech to the object and/or addressee. A word is capable of performing an expressive function due to its stylistic meaning (some linguists directly correlate it with the stylistic colouring of a word, or connotation).

Stylistic meaning is non-subject information contained in a word: expressive-emotional connotations, the result of the influence of the sphere of communication, genre, form, content of speech, the author's attitude to the subject of speech and to the addressee, and finally, the historically established stylistic characteristics of the word (obsolete, vulgar, taboo, etc.). Not all words have stylistic meaning. Words that do not have stylistic meaning are classified as neutral vocabulary (having zero stylistic meaning)⁶.

A word that is assigned to a certain speech environment, which is an organic element of a certain style, when it enters a stylistic environment alien to it, acquires expressive possibilities, i.e. stylistic meaning: officialese in colloquial speech, a high-flown bookish word in everyday speech, a slang word in bookish speech.

Components of the stylistic meaning of a word:

- emotional-evaluative, expressing an assessment, of the emotional state of the addresser or his attitude towards the subject or addressee of the speech;
- socio-genre, expressing the degree of stylistic elevation — debasement, attribution or belonging to a certain class of speech genres, the degree of archaism — novelty, the class colouring of the word, its social-group or geographical characteristics and, finally, the colouring associated with the age and gender of the native speaker⁷.

5 «Стилистический энциклопедический словарь русского языка». М., 2003. С. 23

6 «Стилистический энциклопедический словарь русского языка». М., 2003. С. 23

7 Долинин К. А. Стилистика французского языка. М., 1987. С. 98-102

ROBOTOTEXNIKA VA STEM YONDASHUVI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'QITISHNING YANGI IMKONIYATLARI

Mohinur Zafarovna Akmalova – p.f.b.f.d., dotsent v.b.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Rayxona Begmat qizi Ismatova – talaba,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni robototexnika va STEM metodologiyasi asosida o'qitishning yangi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ta'lim jarayoniga o'yinli yondashuvni joriy etishning asosiy aspektlari, jumladan, sodda robototexnik konstruktorlari va dasturlashni qo'llash tahlil qilinadi. Maxsus e'tibor bolalarda mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqotda ushbu metodikaning qo'llanilishi natijalari, shu jumladan, bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishining ortishi, texnologik ko'nikmalarining rivojlanishi va o'quv jarayonidagi faoliyatlari haqida ma'lumotlar taqdim etiladi. Shuningdek, metodikaning samaradorligi pedagoglar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi va yangi yondashuvni joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan afzalliklar hamda qiyinchiliklar aniqlanadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются новые возможности обучения детей дошкольного возраста на основе робототехники и методологии STEM. Проанализированы основные аспекты внедрения игрового подхода в образовательный процесс, включая использование простых робототехнических конструкторов и программирования. Особое внимание уделяется развитию у детей навыков логического мышления, решения проблем и творческого подхода. В исследовании представлены результаты применения данной методики, включая повышение интереса детей к обучению, развитие технологических навыков и активность учащихся в образовательном процессе. Также проводится анализ эффективности методики с точки зрения педагогов, выявляются преимущества и возможные трудности внедрения нового подхода.

Abstract: This article examines new opportunities for teaching preschool children based on robotics and the STEM methodology. The main aspects of integrating a playful approach into the educational process are analyzed, including the use of simple robotics kits and programming. Special attention is given to the development of logical thinking, problem-solving, and creative approach skills in children. The research presents the results of applying this methodology, including increased interest in learning, development of technological skills, and active participation in the educational process. The effectiveness of the methodology is also analyzed from the perspective of educators, identifying the advantages and potential challenges of implementing the new approach.

Kalit so'zlar: robototexnika, STEM, maktabgacha, o'qitish, metodika, mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, texnologik ko'nikmalar, o'quv jarayoni, pedagoglar.

Ключевые слова: робототехника, STEM, дошкольное образование, обучение, методика, логическое мышление, творческий подход, технологические навыки, образовательный процесс, педагоги.

Keywords: robotics, STEM, preschool education, teaching, methodology, logical thinking, creative approach, technological skills, educational process, educators.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonida robototexnika va STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yondashuvi ta'lim tizimiga keng joriy etilmoqda. Ushbu yondashuvlar yosh bolalarda ilmiy qiziqish, kreativ fikrlash, muhandislik ko'nikmalari va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini

shakllantirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim bosqichi bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi davr hisoblanadi. Robototexnika va STEM yondashuvi orqali bu davrda bolalarning o'rganish jarayonini samarali tashkil etishning yangi imkoniyatlarini izlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'qitish tizimi ko'pincha an'anaviy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, ularning ilmiy qiziqishlari va muhandislik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi¹ (Это к третьей литературе). Mazkur bosqichda ko'plab ta'lim dasturlari bolalarning texnologiyalarga qiziqishini rag'batlantirish yoki amaliy muhandislik asoslarini o'rgatishga yetarlicha e'tibor bermaydi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni, xususan, robototexnika va STEM yondashuvini joriy etish jarayonini tashkil qilishda tizimli va samarali metodikaga ehtiyoj mavjud. Robototexnika va STEM yondashuvini maktabgacha ta'lim dasturiga kiritish uchun maxsus metodikalar va texnologik vositalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish zarur. Bu yondashuv bolalarning yoshiga mos, qiziqarli va amaliy mashg'ulotlar orqali ularni o'qitish jarayonini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagoglarni zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Robototexnika va STEM yondashuvi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi² (Это к четвертой литературе). Ushbu yondashuv bolalarning ilmiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli o'qishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali, biz maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olish jarayonini innovatsion darajaga ko'tarishimiz mumkin. Shu sababli, ushbu metodikaning keng joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinli robototexnika orqali o'qitish. Ushbu metodika maktabgacha yoshdagi

bolalarning texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish va ularning muhandislik fikrlashini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. O'yinli yondashuvdan foydalangan holda bolalar o'quv jarayoniga qiziqib, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Metodikaning asosi bolalar uchun mo'ljallangan oddiy robototexnika konstruktorlari va dasturlash elementlaridan iborat. Mashg'ulotlar bolalarning yoshiga moslashtirilgan bo'lib, qiziqarli vazifalar va muammolarni o'yin shaklida hal qilishni o'z ichiga oladi. Masalan, bolalar robotni bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga olib borishni dasturlash orqali o'z mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar³.

Mashg'ulotlar davomida o'qituvchi yo'riqchi rolini bajaradi. U bolalarni turli konstruktor elementlari bilan tanishtiradi, har bir vazifaning bosqichma-bosqich yechimlarini tushuntiradi va bolalarning mustaqil ishlashi uchun yo'nalish beradi. Shu bilan birga, bolalarning ijodkorligini oshirish uchun ularni turli xil dizaynlar yaratishga undaydi.

Metodikaning muhim qismi bu faoliyatni boshqa o'quv sohalari bilan integratsiyalash. Masalan, bolalar robotning harakatini dasturlashda matematik ko'nikmalarni (sonlash, o'lchash) qo'llaydilar yoki tabiatshunoslik mashg'ulotlarida robotdan amaliy ko'rgazma vositasi sifatida foydalanadilar.

Mazkur metodika, shuningdek, ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Oilaviy mashg'ulotlar va loyihalar bolalarning qiziqishini kuchaytiradi va ularga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi. Shu tariqa, o'yinli robototexnika orqali o'qitish metodikasi

- 1 Rajabova L. Steam ta'lim dasturi asosida matematika masalalarini echishning ilg'or usullari //центр научных публикаций (buxdu. Uz). — 2020. — т. 1. — №. 1
- 2 Т.С.Волосовес, В.А.Маркова, С.А.Аверина. СТЕМ-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М. Бином. Лаборатория знаний 2019.
- 3 Dilnoza Furqatovna Xalilova. (2023). Talabalarda ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishga oid kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion ta'lim muhiti beradigan natijalar. Conferencea, 76-79. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1918>

ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijasida o'yinli robototexnika orqali o'qitish metodikasining maktabgacha yoshdagi bolalarning ilmiy qiziqishini va texnologik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlanib, quyidagi natijalar olindi. Tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning 85% i robototexnika va STEM yondashuvi orqali o'qish jarayoniga qiziqish bildirishdi. Ularning aksariyati ilgari bu mavzular bilan tanishmagan bo'lsa-da, metodikani qo'llash davomida ularning o'quv jarayoniga nisbatan yangi qiziqish paydo bo'ldi. Bundan tashqari, 78% bolalar o'quv mashg'ulotlari davomida faol ishtirok etib, o'z fikrlarini erkin ifodalashda o'sishni ko'rsatdilar.

Tadqiqotda, shuningdek, bolalarning texnologik ko'nikmalarida sezilarli o'sish kuzatildi. Mashg'ulotlar natijasida ishtirokchilar 72% ga ko'proq dasturlash va robot konstruktorlari⁴ bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishdilar. Ular dastlab oddiy vazifalarni bajarishdan boshlab, vaqt o'tishi bilan murakkabroq masalalarni hal qilishda ishtirok etdilar. Bunda bolalar mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Metodikaning samaradorligini baholashda 80% o'qituvchilar ushbu yondashuvning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasini yuqori baholadilar. Ular, shuningdek, bolalar orasida o'qish jarayonida faol va ijodiy yondashuvning shakllanishini qayd etdilar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, robototexnika va STEM yondashuvi bolalarning ilmiy qiziqishlarini yanada kuchaytirib, ular uchun ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

1-Jadval:

Tadqiqot natijalarining tahlili

Kriteriylar	Natijalar	Foyda (%)	Kamchilik (%)	Izohlar
Qiziqishning ortishi	85% bolalar robototexnika va STEM yondashuviga qiziqish bildirishdi.	85%	15%	Bolalar yangi mavzuga yuqori qiziqish bildirishdi.
Faol ishtirok etish	78% bolalar faol ishtirok etdilar va o'z fikrlarini ifodalashda o'sish kuzatildi.	78%	22%	Bolalar faoliyatga nisbatan qiziqish va o'sish.
Texnologik ko'nikmalarining rivojlanishi	72% bolalar dasturlash va robot konstruktori bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishdilar.	72%	28%	Texnologik ko'nikmalarni o'sishi, ammo ba'zi bolalar uchun qiyin bo'lishi mumkin.
O'qituvchilar baholashi	80% o'qituvchilar metodikaning ta'limga qo'shgan hissasini yuqori baholadilar.	80%	20%	O'qituvchilar uchun samarali yondashuv, ammo ba'zi pedagoglar uchun yangi metodika qiyin bo'lishi mumkin.

⁴ Robot konstruktorlari – bu dasturlashtiriladigan modullar, sensorlar va aktuatorlardan tashkil topgan to'plam bo'lib, ular yordamida foydalanuvchilar turli xil mexanik va avtomatlashtirilgan qurilmalarni yaratishi va boshqarishi mumkin. Ushbu konstruktorlar o'quvchilarda texnologik bilimlar va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi

2-Jadval.

Robototexnika va STEM yondashuvi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish uchun tavsiyalar

№	Tavsiyalar	Izohlar
1	O'yinli yondashuvni kengroq joriy etish	Bolalarning qiziqishini oshirish va ta'limni qiziqarli qilish uchun o'yinli robototexnika vositalarini qo'llash zarur.
2	STEM integratsiyasini kuchaytirish	Dasturlash va texnik bilimlarni o'rganishga bolalarni erkin jalb etish orqali ularning ilmiy qiziqishini oshirish.
3	Pedagoglarning metodik tayyorgarligini oshirish	O'qituvchilarni robototexnika va STEM metodologiyasi bo'yicha muntazam ravishda malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash.
4	Mashg'ulotlarda texnologiyalarni integratsiya qilish	Robototexnika va STEM yondashuvlarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilib, ko'p yo'nalishli o'quv jarayonini yaratish.
5	Ijtimoiy va mantiqiy ko'nikmalarni rivojlantirish	Bolalarda ijtimoiy munosabatlar va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: O'yinli robototexnika orqali o'qitish metodikasi bolalar orasida katta qiziqish uyg'otdi. Tadqiqotga qatnashgan bolalarning 85% i robototexnika va STEM yondashuviga qiziqish bildirishdi, bu metodikaning ta'limga yangicha yondashuv ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, bolalar o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'z fikrlarini ifodalashda va muammoni hal qilishda o'sish ko'rsatdilar. 78% bolalar faol ishtirok etib, o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdi. Bu metodika bolalarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi. Texnologik ko'nikmalarni rivojlantirishda ham sezilarli o'sish kuzatildi: 72% bolalar dasturlash va robot konstruktori bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishdilar. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, robototexnika va STEM yondashuvi bolalarga ilmiy va texnologik ko'nikmalarni o'zlashtirishda yordam beradi, shu bilan birga ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. O'qituvchilar ham metodikaning samaradorligini yuqori baholadilar, chunki 80% o'qituvchilar metodika ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasini ijobiy baholadilar. Bu yondashuv, ayniqsa, yangi pedagogik metodlarni qabul qilishda ba'zi pedagoglar uchun qiyin bo'lishi mumkin, lekin umumiy samara yuqori.

BADIIY DID TARBIYASIDA CHOLG'U IJROCHILIGI FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS METODIK JIHATLARI

Ermat Majidovich Fayzullayev – katta o'qituvchi, p.f.n.,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Shaxlo Abdurasulovna Bekmirzayeva – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola mazmunida musiqiy ta'lim yo'nalishlarida cholg'u ijrochiligi fanini o'qishning o'ziga xos jihatlari va musiqa asarlari ustida ishlashning metodik jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildiriladi.

Аннотация: В содержании данной статьи даны отзывы об особенностях изучения дисциплины инструментальное исполнительство по направлениям музыкального образования и методических аспектах работы над музыкальными произведениями.

Abstract: The content of this article provides feedback on the features of studying the discipline instrumental performance in the areas of music education and methodological aspects of working on musical works.

Kalitli so'zlar: musiqa, musiqa asari, musiqa tinglash, cholg'u ijrochiligi, ansambl, kuy, ritm, shtrix, janr, estetik tarbiya, badiiy did, texnik ijro.

Ключевые слова: музыка, музыкальное произведение, прослушивание музыки, инструментальное исполнение, ансамбль, Мелодия, ритм, штрих, жанр, эстетическое воспитание, художественный вкус, техническое исполнение.

Keywords: music, musical composition, listening to music, instrumental performance, ensemble, Melody, rhythm, stroke, genre, aesthetic education, artistic taste, technical performance.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sharq taronalari" o'n birinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, "Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi o'ta murakkab zamonda millati, tili va dini turlicha bo'lgan millionlab odamlarni hech qanday tarjimonsiz do'st qiladigan, ular o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydigan musiqa san'atining o'rni va ta'siri tobora ortib bormoqda"¹.

Sharq allomalari musiqa insonning ichki dunyosiga kirib borishi va uni boyitish borasida ko'plab fikrlarni aytganlar. Sharqda musiqa vositasida bemor kishilarni davolash qadimdan keng tarqalgan. Xususan, buyuk tabib Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobida

ruhiy kasallarni musiqa orqali davolaganligini yozadi. Musiqa ta'sirida inson ruhiyatida jasorat ko'rsatish istagi, g'ayratining jo'sh urishi hollari yuz berishi mumkin.

Musiqa pedagogikasi musiqiy qobiliyatning barcha turlarini tizimli mashq qildirish orqali rivojlantirish mumkinligini isbotlab berdi. Bu jihatlar tahliliy qobiliyat sifatida, oxir-oqibatda musiqa tinglovchilarning badiiy didini shakllantirishga imkon berishini ko'rsatdi.

Musiqa san'atining nodir namunalarini ijro etish va ularni tinglash jarayoni faqat musiqiy qobiliyatdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki u talabalarning badiiy didini ham rivojlantirib boradi. Xususan, musiqiy did — bu talabalarning asl, nodir badiiy asarlar va ularning ijrosini, sun'iy, sayoz va bo'sh asarlardan ajrata bilish qobiliyatidir.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Sharq taronalari" o'n birinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutq so'zladi // "Xalq so'zi", 2017-y., 29-avgust.

Musiqiy qobiliyat bilan musiqiy did har doim bir-biriga mos kelavermaydi. Hayotda kuchli musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan holda, haqiqiy durdona musiqiy asarlarni unchalik tushunmaydigan san'atkorlarni ham uchratish mumkin. Xususan, murakkab janrdagi mumtoz maqom asarlarini tan olmaydigan, ulardagi badiiy saviyaning nihoyatda baland ekanligini his etmaydigan, ammo, ayni paytda, katta musiqiy qobiliyat sohibi bo'lgan kishilar bor. G'arb musiqa asarlari bo'yicha yaxshigina mutaxassislikka ega bo'lganlari holda, o'zbek mumtoz musiqiy asarlarini idrok qila olmaydigan kishilar ham mavjud.

Musiqiy did musiqani tinglay olish va uni idrok qilish qobiliyatiga nisbatan anchagina murakkab bo'lib, u kishidan alohida sezgirlik xususiyatini ham talab qiladi.

Musiqiy didning rivojlanganligini faqatgina nodir asarlarni badiiy bo'sh asarlardan farqlay olish qobiliyatigagina qarab emas, balki boshqa bir qator nozik tuyg'ularning mavjudligiga qarab ham aniqlash mumkin.

Musiqiy didning rivojlanganligini ijro mahorati ham belgilaydi. Bunda muhim jihat asarni yuksak did bilan hamda musiqaning tili hisoblangan ovozlar temбри, soz, ansambl, n'yuanlardan unumli foydalanib ijro eta olish sirlarida namoyon bo'ladi.

"Badiiy did bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan o'zbek mumtoz musiqasi to'g'risidagi nazariy bilimlarga ega bo'lish, ularning badiiy qimmatini baholay olish, g'oyaviy mazmunini izohlay bilish, shuningdek, o'zbek mumtoz musiqasi namunalarini yuksak saviyada ijro eta olish ko'nikma va malakalariga egalikdir"².

Musiqani idrok etishning muhim jihatlaridan yana biri — bu sezgirlik bo'lib, u tinglovchi yoki ijrochidan alohida qobiliyat talab etadi.

Asar ijrosidagi alohida nafosat, kamdan-kam uchraydigan texnika va nozik didlilikni his etish tuyg'usi — sezgirlik hisoblanadi. Ijrolardagi badiiy saviya bir-biriga yaqin, nihoyatda yuksak darajada bo'lgan holatlarda, ularning nozik jihatlarini ilg'ab baholash uchun, aynan, shu sezgirlik lozim bo'ladi. Ayrim asarlar yuksak texnikada ijro etilgan bo'lsada, nimadir yetishmaydi, qandaydir sovuqlik borday, qalb harorati qo'shilmaganday tuyuladi. Bunday ijroni tinglagan kishining qalbida go'zallikka intilish, undan lazzatlanish hislari paydo bo'lmaydi. Tinglovchi — musiqachi sifatida bu ijroni o'zining ijrochilik mahoratiga bevosita solishtirib ko'radi va o'ziga tegishli xulosa chiqarib oladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining qalbida aynan shu xislatlarni shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy ta'lim yo'nalishida ta'limning uzluksizligini ta'minlash o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Avvalo boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim maktablari 1-7 sinf musiqa madaniyati fanlaridagi musiqaga qobiliyati bor o'quvchilarni bolalar musiqa va san'at maktablariga jalb etish (albatta maktabidagi darsidan keyin) ko'zlangan maqsadga erishishda, kelajakda musiqa ta'limi bo'yicha yetuk mutaxassislarni (kadrlarni) tayyorlashni kafolatlaydi. Bolalar musiqa va san'at maktabidan keyin esa san'at kollejlari va oliy o'quv yurtlarining musiqa (san'at) fakultetlarini tamomlagan bo'lajak musiqa o'qituvchilarining nota o'qish, cholg'u ijrochiligi mahoratlari mustahkam shakllanadi.

Musiqa asarlari ustida ishlashni shakllantirish ishlari o'quvchilarni musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda ularni musiqiy — nazariy savodxonligini o'sishiga, musiqani idrok etish, unga tavsif berish, tahlil qilish, ijrochilik mahoratlari takomillashuviga ham katta yordam beradi.

2 Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010-y.

Musiqiy ta'lim yo'nalishida cholg'u ijrochiligini tashkil etilishi va ulardagi mashg'ulotlarni o'quv ishlarining tabiiy davomiga aylantirishning real imkoniyatlari mavjud. Chunki, masalan rubob cholg'u sozini chalishga o'rgatishda o'z-o'zidan nazariy ma'lumotlarga tayanishga majbur bo'lamiz. Usiz ansamblga birlashgan o'quvchilarni bir tekis va bir xil (bir-biriga yaqin darajada) chalish darajasiga olib kelish g'oyat mushkul.

Bu o'rinda ritmni aniq ifodalash (sanoq), rubob pardalarida tovushlar joylashishi, mediator zarblari, tovush cho'zimi-sanalishi bilan, turli ohang hosil qilish (aksent), tremolo, liga, ligato, stakkato kabi shtrixlarni o'zlashtirishni, musiqa xarakterini ifodalash uchun temp, dinamik tuslar haqida aniq bilimlar zahirasi ega bo'lishlik tabiiy zarurat hisoblanadi³.

Bu esa o'z-o'zidan musiqa darslarida o'tilgan nazariy materiallarni chuqurroq o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Musiqa mashg'ulotlari ishi yaxshi qo'yilgan holatda o'quvchilar boshqa o'rtoqlariga ko'ra ko'proq musiqa bilan mashg'ul bo'lishadi va ko'proq mashq qilishadi. Bu esa, ularni musiqa savodi, musiqa tinglash, xor bo'lib kuylash faoliyatlarida ham nisbatan muvaffaqiyatli ishtiroketishlari va o'z bilimlarini namoyish etishlariga olib keladi.

Musiqa asbobida chalish, jo'rnavozlik qilish, boshqalarni eshitish, birgalikda chalish, boshqalarni ijrosini kuzatish, o'qituvchining amaliy ko'rsatmalarini bajarish, kuzatilgan kamchiliklarni birgalikda tugatish, soz, ansambllikka rioya qilish bularning barchasi — o'quvchilarning musiqiy xotirasi, ijrochilik qobiliyatlarini rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ansambl qatnashchilari rubob chalishning elementar qoidalari, talablari, unsurlarini teranli darajada egallab olganlaridan so'ng ular o'zlariga

berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish, asarlarni o'rganish borasidagi o'qituvchi (rahbar) ko'rsatgan yo'l-yo'riqlarni eslab, o'zi mustaqil ravishda o'rganishlari, ijrochilik texnikasi, malakalarini takomillashtirib borishlari mumkin.

Ansambl ishtirokchilari turli janr, xarakterdagi o'zbek xalq kuylari, zamonaviy kompozitorlarning bolalarga atab yozgan kuy — qo'shiqlarini, qardosh xalqlar, chet el kompazitorlari va xalq musiqa ijodiyotiga mansub asarlarni o'rganishlari jarayonida ularning musiqiy dunyoqarashi va tafakkuri ham rivojlanib boradi.

Ansambl ishtirokchilari bilan vaqti-vaqtida turli xalq, klassik, ayrim kompozitorlar asarlarini tinglashni tashkil etish, konsertlarga birga borish, turli tadbirlarga qatnashish, ijrodan so'ng yutuq va muvaffaqiyatlarni muhokama qilish ularni cholg'u ijrochiligini mukammal egallashga bo'lgan ma'suliyatni oshiradi, ularni intizomli bo'lishga odatlantiradi va boshqa fanlardan ham yaxshi o'zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Ma'lum bir asarni o'rganishdan oldin uni tinglash, so'ngra bu asar haqida o'quvchilarni taassurotlarini o'rtoqlashish, o'qituvchining tushuntirish so'zlari, qisqacha sharhlar, suhbatlar asarlarni mazmuni, janri, tuzilishi, xarakteri, kuyi (melodiya), ritmi, garmoniyasi haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Bu san'atga haqiqiy qiziqish va unga bog'lanib qolish hamda badiiy-estetik tarbiyaning o'zidir.

Musiqiy ta'lim yo'nalishi, bolalar musiqa maktabi cholg'u ijrochiligi va ansambli yoki havaskorlik to'garaklari o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchilarni g'oyaviy estetik tarbiyalash;
- o'quvchilarni musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini ruyobga chiqarish, kuylash va ijrochilik madaniyatini rivojlantirish;

3 Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010-y.

– ansamblda ijro etish, jamoa bo'lib kuylashga o'rgatish;

– mashg'ulotlar jarayonida darsda olingan bilim va malakalarni mustahkamlab borish;

– qatnashchilarni badiiy ijro mahoratini oshirish, o'quvchilarni konsert ijrochilik faoliyatiga tayyorlash.

Xulosa. Musiqa asarlari ustida ishlashda quyidagi metodik tavsiyalarni beramiz:

1. Musiqa asarlari ustida ishlashda musiqa eshitish va musiqa tinglashning bir-biridan farqlanishini ajratib olish va musiqani analitik tahlil qilib o'rganish haqidagi manbaalarni o'rganish;

2. Musiqa tinglash dasturiga o'zbek xalqiga mansub bo'lgan eng nodir mumtoz musiqa asarlari kiritilsa. O'quvchilarning didini shu tomonga burilsa;

3. Milliy ohanglardan yiroq "umumiy madaniyat" namunasi deb nom olgan musiqiy asarlarning asorati o'spirinlarga tushintirilsa;

4. Cholg'u ijrochiligi jarayonini tashkil qilishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari hisobga olinib ish tutilsa;

5. Cholg'u ijrochiligida o'quvchilarini musiqa tinglashga o'rgatish imkoniyatlari o'rganilib, bunda yangi-yangi uslublardan foydalaninsh ishlari yo'lga qo'yilsa⁴.

⁴ Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010-y.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Gulruh Majidova – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Bugungi raqamli davrda ta'limning zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirishda raqamli muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maqolada raqamli ta'lim vositalarining tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishdagi roli, amaliyotdagi yondashuvlar va tavsiyalar tahlil qilinadi.

Аннотация: В современную цифровую эпоху интеграция образования с современными технологиями открывает новые возможности. Цифровая среда особенно важна для развития навыков критического мышления у будущих учителей английского языка. В данной статье анализируется роль инструментов цифрового обучения в развитии навыков критического мышления, практические подходы и рекомендации.

Abstract: In today's digital era, the integration of education with modern technologies provides new opportunities. The digital environment is especially important in developing critical thinking skills in future English language teachers. This article analyzes the role of digital learning tools in developing critical thinking skills and provides practical approaches and recommendations.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, raqamli platformalar, onlayn kurslar, interaktiv o'quv dasturlari, multimediya vositalari, tanqidiy fikrlash.

Ключевые слова: цифровая среда обучения, цифровые платформы, онлайн-курсы, интерактивные образовательные программы, мультимедийные инструменты, критическое мышление.

Keywords: digital learning environment, digital platforms, online courses, interactive educational programs, multimedia tools, critical thinking.

Raqamli ta'limning asosiy xususiyatlari o'quv jarayonining moslashuvchanligi, interaktivligi va ko'p sonli resurslarga tezkor kirish imkoniyatidir. Masalan, o'quvchilar va o'qituvchilar darsni an'anaviy sinfga bog'lanmasdan, internet orqali istalgan joyda tashkil etishi mumkin. Shuningdek, raqamli platformalar (masalan, Learning Management Systems – LMS) yordamida ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va monitoring qilish imkoniyati yaratiladi. M. Jonson (2020) o'z tadqiqotida: "Raqamli ta'lim jarayonida talabalarning qiziqishlarini oshirish va ularga shaxsiy yondashuvni ta'minlash muhim", – deb yozadi. Shuningdek, ushbu platformalar orqali o'quvchilar mustaqil o'rganish jarayoniga jalb etilishi mumkin, bu esa tanqidiy fikrlashni

rivojlantirish uchun asosiy omil hisoblanadi. Raqamli muhitda ta'lim o'qituvchilarga o'z o'quvchilarini interaktiv vositalar yordamida tanqidiy fikrlashga o'rgatish imkonini beradi. M. Jonson (2020)¹ ta'kidlaganidek, "Raqamli ta'lim vositalari o'qituvchi va talaba o'rtasidagi masofani qisqartirish va tanqidiy tahlil qilish malakasini oshirish imkonini beradi".

An'anaviy ta'lim shakllaridan farqli o'laroq, raqamli ta'lim muhitlari o'quvchilar va o'qituvchilarga cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli vositalar va metodologiyalar asosida ishlash ularning shaxsiy va professional rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

1 M. Johnson (2020). Digital Learning Environments and Critical Thinking. XYZ Publishers.

Tanqidiy fikrlash bugungi kunda o'quvchilar va o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri sifatida ko'rilmogda. YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tanqidiy fikrlash XXI asr ko'nikmalaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu ko'nikma, ayniqsa, chet tili o'qitishda ahamiyatlidir, chunki ingliz tili faqat muloqot vositasi emas, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarini tushunish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ingliz tili o'rganuvchilari nafaqat lingvistik bilimlarni egallashi, balki o'z tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishi ham talab qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli ta'lim platformalari tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, onlayn kurslar, interaktiv o'quv dasturlari va multimediya vositalari orqali o'quvchilar tanqidiy tahlil qilish, qaror qabul qilish va o'z fikrlarini aniq ifodalashni o'rganadi. Raqamli muhitning afzalligi shundaki, u o'quvchilarni faqat ma'lumotni yodlashga emas, balki uni tahlil qilish va tanqidiy baholashga jalb qiladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular kelgusida o'z o'quvchilariga shaxsiy fikrlashni o'rgatishlari kerak bo'ladi. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida interaktiv munosabatlarni shakllantirish bilan birga, ta'lim jarayonining umumiy sifatini ham oshiradi. Shu bois, ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha amaliy yondashuvlar va strategiyalar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqolada bo'lajak o'qituvchilarning ehtiyojlari, ularga texnologik yordam ko'rsatishning usullari, shuningdek, raqamli ta'limning cheklovlari va imkoniyatlari batafsil yoritiladi. Ushbu tadqiqot natijalari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli metodlarni yanada samarali qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashning ahamiyati.

Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish, muammolarga ijodiy yondashish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatidir. O'qituvchilar tanqidiy fikrlashga ega bo'lish orqali murakkab masalalarni o'quvchilarga sodda va tushunarli usulda tushuntira oladi. Ennis R.H.(2011)² tanqidiy fikrlashni "inson tafakkurining asosiy komponenti" sifatida tavsiflab, uni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish uchun zarurligini ta'kidlaydi. Masalan, ingliz tilini o'qitishda tanqidiy fikrlash matnlar va kontekstlarni chuqur tahlil qilishga, turli madaniy va ijtimoiy aspektlarni hisobga olishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, chet tili o'rgatishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Tanqidiy fikrlash ta'lim jarayonida muhim element hisoblanadi. U o'qituvchilarga mustaqil ravishda qaror qabul qilish, dalillarga asoslangan mulohaza yuritish va masalalarga keng ko'lamdan yondashishni o'rgatadi. Ennis R.H. (2011) ta'kidlashicha, "Tanqidiy fikrlash o'qituvchi va o'quvchi orasidagi interaktiv munosabatlarni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi".

Raqamli muhitda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish vositalari.

Raqamli vositalar yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ko'plab usullari mavjud. Masalan, Padlet, Kahoot, yoki Edmodo kabi platformalar orqali talabalar onlayn tarzda muhokamalarga jalb qilinadi. Bu jarayon o'quvchilarga o'z fikrlarini mustaqil ifoda qilish va boshqalarning fikrlarini tahlil qilish imkonini beradi. Fisher A. (2008)³ o'z asarida qayd etganidek: "Raqamli vositalar orqali ta'lim tanqidiy yondashuvni rag'batlantiruvchi interaktiv muhit yaratadi". Shuningdek, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar (masalan, Nearpod yoki ThingLink) o'quvchilarga real

2 Ennis. R. H. (2011). Critical Thinking in Education. Educational Research Quarterly.

3 Fisher. A. (2008). Teaching Critical Thinking: Practical Approaches. Routledge.

hayotdagi muammolarni hal qilishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Raqamli platformalar (masalan, Google Classroom, Padlet va Zoom) tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Fisher A. (2008)⁴ qayd etadi: "Texnologiyalar bilan to'ldirilgan o'quv jarayonlari o'quvchilarni ijodiy va tanqidiy yondashuvlarga jalb qiladi".

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'ziga xos ehtiyojlari.

Ingliz tili o'qituvchilarining asosiy maqsadi – tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalar nafaqat til grammatikasini o'rganadi, balki adabiyot, madaniyat, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish orqali fikrlash darajasini oshiradi. Smit J. (2015)⁵ o'z tadqiqotida ingliz tilini o'qitish jarayonida "tahliliy yondashuv va turli madaniy manbalarni integratsiyalash" muhimligini ta'kidlagan. Masalan, o'qituvchilar zamonaviy raqamli resurslardan foydalanib, madaniy kontekstlarda tahliliy vazifalarni tashkil etishi mumkin. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda ularning o'ziga xos ehtiyojlari va talablari hisobga olinishi muhimdir. Ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki madaniy, akademik va ijtimoiy jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan fan sifatida o'qitiladi. Bu esa o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularga keng qamrovli ko'nikmalarni shakllantirishni talab etadi. Raqamli ta'lim ushbu ehtiyojlarni samarali qondirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tili o'qituvchilarining asosiy ehtiyojlari quyidagilardan iborat:

Til bilimini chuqur egallash: Bo'lajak o'qituvchilar nafaqat grammatik bilimga, balki lingvistik va pragmatik tahlil qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu ularga tilning nafaqat nazariy jihatlarini, balki amaliy qo'llanishini ham

tushunish imkonini beradi.

Madaniy kompetensiyani rivojlantirish: Ingliz tili dunyo bo'ylab turli xil madaniy kontekstlarda ishlatiladi. O'qituvchilar talabalarni global madaniy muloqotga tayyorlash uchun madaniy sezgirlikni rivojlantirishi zarur. Kramsch (1993) fikricha: "Tilni o'rganish – bu madaniyatni o'rganishdir", shuning uchun madaniy xabardorlik ingliz tilini o'qitishda markaziy ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish: Bo'lajak o'qituvchilar til materiallarini tahlil qilish, baholash va muhokama qilish bo'yicha yuqori darajadagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, o'qituvchilar talabalarga badiiy adabiyot yoki yangilik matnlarini tahlil qilishni o'rgatish orqali ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin.

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ehtiyojlarini qondirishda interaktiv resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Onlayn platformalar orqali matnlarni interaktiv tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Masalan, Google Classroom yoki Microsoft Teams kabi vositalar yordamida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida doimiy muloqot ta'minlanadi.

Virtual darslar orqali o'qituvchilar o'zlarini haqiqiy sinf muhitida his qilishi va dars berish amaliyotini sinab ko'rishi mumkin. Bu o'qituvchilarni real vaziyatlarda qanday javob berishni o'rgatadi. Raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar o'z o'qitish uslublarini qayta tahlil qilishi va takomillashtirishi mumkin. Masalan, dars videolarini yozib olib, o'z faoliyatlarini qayta ko'rib chiqish orqali o'qituvchilar o'z malakalarini oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilarni texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash

⁴ O'sha manba

⁵ Smith, J. (2015). Developing Critical Thinking in Language Teaching. TESOL Journal.

ularning raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim jarayoni texnologik yangiliklar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar texnologiyalarni nafaqat foydalana olishlari, balki ularni ijodiy va samarali tarzda qo'llay olishlari kerak. Umuman olganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ehtiyojlarini to'g'ri aniqlash va ularga mos keladigan yondashuvlarni ishlab chiqish, o'quv jarayonining sifatini oshirishga va kelajakdagi o'quvchilar uchun zamonaviy, interaktiv ta'lim muhiti yaratishga yordam beradi.

Amaliy yondashuvlar.

Amaliy yondashuvlar tanqidiy fikrlashni shakllantirishning eng samarali usulidir. Masalan:

– loyiha asosida o'rganish (PBL): O'quvchilarga dolzarb muammoni hal qilish bo'yicha loyihalar beriladi. Bu ularda muammoni tahlil qilish va ijodiy qaror qabul qilish malakalarini rivojlantiradi.

– onlayn muhokamalar: Talabalar Zoom yoki Google Meet platformalarida muhokamalarda qatnashib, bir-birining fikrlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

interaktiv o'yinlar: Masalan, kahoot savollari orqali talabalar bilimlarini tahlil qilish va mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi.

Vygotsky L.S. (1978)⁶ fikricha: "O'quvchilar uchun o'rtoqlar bilan hamkorlikda ishlash muhitini yaratish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi". Ingliz tili o'qituvchilari tanqidiy fikrlashni nafaqat o'zlari egallashi, balki o'quvchilarga ham o'rgatishi zarur. Smith J. (2015)⁷: "Chet tili o'qitish jarayonida tanqidiy fikrlash o'quv materiallarining mazmunini chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi", – deb

yozadi.

Mavjud yondashuvlar orasida tanqidiy tahlil asosidagi loyiha ishlari, onlayn muhokamalar va interaktiv o'yinlar yetakchi o'rin tutadi. Vygotsky L.S. (1978) tomonidan taklif etilgan sotsiokultural yondashuv o'quvchilarning fikrlash malakasini rivojlantirish uchun muhim asosdir.

Texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari bilan birga qiyinchiliklari ham mavjud. Masalan:

– texnik cheklovlar (past internet tezligi, qurilmalar yetishmasligi).

talabalar va o'qituvchilar texnologiyalarni ishlatish ko'nikmalarining yetarli emasligi. Kumar S. (2021) ta'kidlaganidek: "Raqamli o'qitish faqat texnologiya mavjud bo'lgan sharoitda samarali". Bu muammolarni bartaraf etish uchun infrastrukturani yaxshilash va o'qituvchilarga treninglar o'tkazish lozim.

Raqamli ta'lim ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da, uning cheklovlari ham mavjud. Kumar J. (2021)⁸. "Texnologik muammolar yoki past internet tezligi o'quv jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin".

O'qituvchilarning texnologiyalardan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish raqamli ta'lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Shuning uchun o'qituvchilar uchun doimiy ravishda treninglar tashkil qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ularning foydalanish qoidalarini o'rgatish lozim. Brookfield S. (2012) qayd etganidek: "Doimiy o'rganish o'qituvchi samaradorligini oshirishning asosiy kalitidir". Raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalarini oshirish uchun o'qituvchilarni muntazam ravishda o'qitish va treninglar o'tkazish zarur. Brookfield S. (2012)⁹: "Doimiy

6 Vygotsky. L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

7 Smith. J. (2015). *Developing Critical Thinking in Language Teaching*. TESOL Journal.

8 Kumar S. (2021). *Challenges of Digital Learning*. Online Learning Journal.

9 Brookfield S. (2012). *Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques*. Jossey-Bass.

o'rganish va texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilarning samaradorligini oshiradi", – deb ta'kidlaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar: Raqamli ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli tadqiqotlar o'tkazish zarur. Kelgusida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- raqamli ta'limning turli milliy va madaniy kontekstlardagi samaradorligi;
- tanqidiy fikrlash malakalarini baholash uchun yangi indikatorlar ishlab chiqish;

o'qituvchilar va o'quvchilarning texnologiyaga bo'lgan munosabatini tahlil qilish.

Bo'lajak tadqiqotlar raqamli ta'lim vositalarining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi uzoq muddatli ta'sirini tahlil qilishga qaratilishi kerak. Mishra va Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006)¹⁰ tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli ushbu jarayonni chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ushbu maqolada raqamli vositalar orqali tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirishning ahamiyati va amaliy usullari muhokama qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash bugungi global va texnologik rivojlangan dunyoda o'qituvchilarning professional kompetensiyasini oshirishning asosiy ko'nikmalaridan biri hisoblanadi.

Ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlash malakalarini rivojlantirish ularning talabalarni nafaqat lingvistik jihatdan tayyorlashiga, balki ular uchun kengroq madaniy va ijtimoiy kontekstni tushunishga yordam berishiga xizmat qiladi. Raqamli vositalar orqali o'qituvchilar o'z darslarini yanada samarali tashkil etishi va talabalarni mustaqil o'rganish jarayoniga faol jalb qilishi mumkin. Masalan, onlayn platformalar, interaktiv vositalar va virtual muhitlar orqali bo'lajak o'qituvchilarni real hayotdagi muammolarni tahlil qilish va ijodiy yondashuvni qo'llashga o'rgatish mumkin.

10 Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) Framework. Journal of Educational Computing Research.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING O'ZBEK MAQOM ASOSLARI BO'YICHA KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmadjon Qodirovich Jumayev – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarni o'zbek maqom asoslari bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirishning mazmun, mohiyati va o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье описаны содержание, сущность и конкретные аспекты повышения профессиональной компетентности будущих учителей музыки на основе узбекского статуса.

Abstract: This article describes the content, essence and specific aspects of improving the professional competence of future music teachers on the basis of Uzbek status.

Kalit so'zlar: pedagog, ma'naviy, ma'rifiy, musiqa ta'limi, kompetentlik, shakllantirish, rivojlantirish, muassasa, faoliyat, samaradorlik, tizim.

Ключевые слова: педагогическое, духовное, образовательное, музыкальное образование, компетентность, становление, развитие, институт, деятельность, эффективность, система.

Keywords: pedagogical, spiritual, educational, music education, competence, formation, development, institution, activity, efficiency, system.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida, oliy ta'lim muassasalari faoliyatlarining sifati hamda samaradorligini oshirish ta'lim tizimining asosiy vazifalari ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy talablar asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'zbek milliy musiqasi asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning amaldagi metodikasi ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsiya ta'lim texnologiyalari negizida takomillashtirish bilan yuqori malakali musiqa o'qituvchilarini tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr kuni imzolagan "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda milliy musiqamizning bebaho namunasi bo'lgan maqom ijrochiligiga bo'lgan yuksak e'tiborning namunasidir. Mazkur qarorda "Ayni vaqtda milliy o'zligimizni anglash, maqomlarimizning har tomonlama rivojlantirish xalqimiz, avval yosh avlodlarimizni yuksak insoniy tuyg'ular ruhida tarbiyalash, uning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti". Bu boradagi yo'nalishda ilmiy-nazariy tadqiqotlar, uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san'atini radio-televideniyada, ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali mamlakatimiz va chet ellarda targ'ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislari, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va

1 Mirziyoyev Sh.M. O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. –T.: 2017-yil 17-noyabr.

ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlash ishlari e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Jumladan, musiqa ixtisosligi bo'lgan barcha oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislar, professor o'qituvchilarni jalb etish, ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish tegishli darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash bo'yicha tashkiliy-uslubiy ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirish haqida davlat dasturida ta'kidlab o'tilishi maqom san'atiga bo'lgan e'tiborning oliy namunasidir.

Xalqimiz ma'naviy hamda madaniy merosida yuksak mavqega ega maqom san'atini yosh avlod ma'naviyatiga singdirish, ularni milliy musiqamizni teran anglovchi, his etuvchi qilib tarbiyalash bugungi kunda ta'lim muassasalari, xususan, yosh avlodni tarbiyalash uchun o'qituvchi-murabbiylar birinchi galda ma'suldirlar. Bu kabi muqaddas maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'li pedagogika oliy o'quv yurtlarining "Musiqa ta'limi" yo'nalishda tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni, eng avvalo, milliy xalq musiqasi, shu jumladan, mumtoz va maqom asoslari uni o'qitish bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega qilib tarbiyalash, ya'ni ularni milliy maqom san'ati bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirishdir. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni maqom va uning ijrochilik uslubiyoti bilan kasbiy kompetentligini ta'minlash ularda zamonaviy talablar asosida, maqom musiqasi asosi bo'yicha zarur bilimlarni o'zlashtirish va amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini, egallash imkoniyatlarini vujudga keltirishga zamin hozirlaydi. Ushbu vazifalarni hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy hujjatlarda belgilangan qarorlar ijrosini ta'minlashda mazkur ilmiy-madaniylikni mustahkamlashda xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati o'qituvchilarining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi mazkur maqola respublikada fan va texnologiyalarni

rivojlantirishning demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy axloqiy va madaniy rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni ustuvor yo'nalishi doirasida bajariladi.

O'zbek xalqi ko'p asrlik musiqiy merosga ega bo'lib, bu madaniy meros jamiyatdagi ma'naviy-madaniy boyliklarning barchasini qamrab oladiki, bunda mumtoz va maqom musiqasi asosida ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi². Abu Nasr Forobiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Az-Zamahshariy, Darvesh Ali Changiy, Abduqodir Marog'iy, Alisher Navoiy kabi sharq mutaffakkirlari asarlarida ilm-fan, san'atning insoniyat hayotidagi roli va ahamiyati, musiqa san'atining inson ruhiyatiga ta'siri xususida, shuningdek, musiqaning ilmiy-nazariy asoslari, ijro uslublari, milliy cholg'u sozlari ulardan tarbiya vositalari sifatida foydalanish haqida ilmiy asoslari fikrlar bayon etilgan.

O'zbek milliy mumtoz va maqom musiqasi milliy asoslari madaniy ijtimoiy-hayot va tarbiyaviy ishlari mkoniyatlarini asoslash masalalari sharqshunos olimlar V.Bartol'd, V.Berteli, M.Xayrullayev, V.A.Uspenskiy, Y.Rajabiy, F.Karomatovlar tomonidan tadqiq etilgan. Musiqiy asarlar va ulardagi ilgari surilgan g'oyalarning shaxs kamolotidagi o'rni va ularning yosh avlod ma'naviy-axloqiy tarbiyasida foydalanish masalalari S.X.Fayzulina, R.Qodirov, Q.Ma'mirov, I.Qudratov, E.Fayzullayev, N.B.Toshtemirov, B.Karomatova, M.B.Qosimova kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

O'zbek xalq musiqa san'atining mumtoz va maqom janrlari va ularning estetik ta'lim-tarbiya tizimida o'rganish, bu borada muayyan samaradorlikga erishish imkoniyatlari R.Tursunov, M.Ismoilova, A.R.Baxriyev, D.M.Mullajonova, D.Dilamokova, S.Begmatov, O.Ibrohimov kabi pedagog- san'atshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yetakchi o'rin egallaydi.

2 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. –T.: O'zbekiston. 2017-yil.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarining "musiq ta'limi" yo'nalishlarida musiqa nazariyasi va amaliyoti bo'yicha bo'lajak musiqa o'qituvchilarining maktab o'quv-tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik va metodik shart-sharoit va imkoniyatlari yetarlicha o'rganilmaganligi dolzarb pedagogik muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Respublikamiz pedagog olimlari tomonidan amalga oshirilgan bir qator ilmiy-tadqiqotlarda o'zbek xalqining mumtoz va maqom musiqa san'atining mahalliy ijrochilik uslublari, mumtoz va maqom san'atining o'ziga xos tuzilishi, janr xususiyatlari ijro uslublari, an'analari, maqomlar semantikasi ancha keng o'rganilgan bo'lsada, (R.S.Abdullayev, M.Axmedov, A.Baxriyev, S.Begmatov, M.Rajabova, I.Dulgarova, O.A.Ibrohimov, Z.B.Karimova, F.M.Karomatov, O.M.Matyoqubov, R.Tursunov, B.Nasriddinov, X.Xomidov) biroq nazariy tahlil hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalari "musiq ta'limi" yo'nalishlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarni o'zbek maqom san'ati asoslari bo'yicha kasbiy faolligiga tayyorlash, ya'ni kasbiy kompetentligini shakllantirish va yanada takomillashtirishning metodik asoslari yetarli darajada o'rganilmagan va ilmiy tadqiqot mavzusi etib belgilanmagan. Bu o'rinda kuzatilgan kamchiliklar pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'zbek maqom

musiq asoslari bo'yicha yetarli ma'lumotlar bera oluvchi manbalar va birinchi galda o'quv soatlari hajmi bilan to'la ta'minlanmaganligida. O'qituvchi va talabalarning bu boradagi ehtiyojlarini yetarli darajada qondirish imkoniyatlari yaratilmaganligida mutaxassis o'qituvchilarning aksariyat kishining mumtoz va maqom asarlari bilan ishlash metodikasi bo'yicha maxsus bilimlarga ega emasliklari, o'zbek maqom musiqasi bo'yicha ta'limni innovatsion va ilg'or pedagogik yondashuv asosida tashkil etish malakasiga ega emasliklari, shuningdek, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining talabalarni o'zbek mumtoz va maqom musiqasi bo'yicha turli darajadagi ko'rik-tanlovlarga tayyorlash uchun yetarli shart-sharoitlarga ega emasliklari, talabalarning o'zbek mumtoz va maqom musiqasi namunalarini o'rganish, ijro etish o'z bilim va malakalarini amalda tadbir eta olish malakalariga ega emas ekanliklari bu borada amaldagi metodikani yangi o'qitish uslublari, pedagogik yondashuv, ilg'or xorijiy tajriba va pedagogik, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatmoqda. Mazkur muammolarni ijobiy hal etish maqsadi bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'zbek maqom asoslari bo'yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MUSIQA TA'LIMIDA MILLIY MUMTOZ NAMUNALARIDAN FOYDALANISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Elnoza Ismatillayevna Qudratova – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Iqbolbek Ikromjon o'g'li Ummatov – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada milliy musiqa merosining ulkan tarbiyaviy-ta'sirchanlik xususiyatlari ta'kidlangani holda bugungi kunda ulardan yosh avlod ma'naviy kamolotida foydalanish holati, muammo va imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu o'rinda xalq musiqa merosi namunalarini ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etishda yanada samarali natijalarga erishish imkonini beruvchi ilmiy asosli tavsiyalar ilgari surilgan.

Аннотация: В статье подчеркнуты большие воспитательно-образовательные особенности народно-музыкального наследия и проанализированы состояние, проблемы и возможности их использования в духовном развитии подрастающего поколения на сегодняшний день. На данный момент выдвинуты научные рекомендации, позволяющие добиться более эффективных результатов в применении образцов народного музыкального наследия в процессе обучения и воспитания.

Abstract: The article emphasizes the great educative-impressive features of folk music heritage and analyzes the situation, problems and possibilities of using them in the spiritual development of the young generation today. At this point, scientific recommendations have been put forward that allow to achieve more effective results in the application of examples of folk music heritage to the process of education and upbringing.

Kalit so'zlar: xalq musiqa merosi, milliy g'oya, mafkura, ta'lim, tarbiya, shaxs ma'naviy kamolot, umumta'lim maktablari, pedagogik talab va mezon.

Ключевые слова: народное музыкальное наследие, национальная идея, идеология, воспитание, воспитание, духовная зрелость личности, общеобразовательная школа, педагогические требования и критерии.

Keywords: folk music heritage, national idea, ideology, education, training, personal spiritual maturity, comprehensive schools, pedagogical requirements and criteria.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida yangi ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga o'tishi sharofati bilan ta'limning milliy g'oya va mafkura hamda jahon pedagogikasining ilg'or yutqlari asosida qayta qurish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Ushbu milliy-ma'naviy tiklanishning tarkibiy mazmunida musiqa ta'lim-tarbiyasini milliy musiqa merosimiz ustuvorligida qayta ishlab chiqish yosh avlodda musiqiy madaniyatni shakllantirish bilan birga milliy, badiiy tafakkurni tarkib toptirish uchun ham muhimdir".

Milliy musiqiy ta'lim va tarbiya o'z mazmunida insonparvarlik, milliy g'urur va umuminsoniy

g'oyalarni mujassam etishi bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oya va milliy mafkura ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Milliy g'oya va mafkura o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra, eng avvalo, xalqimizning milliy qadriyatlariga tayanadi. Zero, "Milliy istiqlol mafkurasi – xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va urf-odatlar, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi"¹.

Madaniy va ma'naviy meros avlod – ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, bizgacha yetib kelgan bebaho xazina, eng oliy qadriyatdir. Musiqa merosi esa bu xazinaning sarchashmalaridan hisoblanadi. Shu

1 Romanova S.E. Qoraqalpoq milliy musiqiy an'analari asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashning pedagogic asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Aftoraferat. Toshkent 2005-yil. 3-bet.

bois, pedagogika fani ta'lim nazariyasi amaliyotiga ulkan hissa qo'shgan pedagog – olimlar, faylasuflar va musiqashunoslar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida shaxsning ruhiy va aqliy kamolotida estetik mazmun va mohiyat kasb etuvchi san'at turlariga, xususan, musiqaga, uning tarbiyaviy ta'sirchanlik kuchiga alohida e'tibor berishgan. Estetik tarbiyaga daxldor ta'limiy va tarbiyaviy ishlar tarkibida musiqa san'atining inson shaxsini barkamol rivojlanishiga samarali ta'sir o'tkizishini hayotiy misollar va ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra asoslaganlar.

Xalq musiqa merosidan yosh avlod tarbiyasida foydalanish orqali ularda ona Vatanga, xalqimiz tarixi, tili, adabiyoti, madaniyati, urf-odatlar va an'alariga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ularni qadrlash, asrab-avaylash va rivojlantirishga mas'ullik hissini tarbiyalash ta'lim tizimi oldidagi o'z dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydigan vazifalardan sanaladi.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday yozadi: "Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqolab to'plangan, tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarning og'ir damlarida madad bo'lgan. Bizning vazifamiz shu xazinani ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitishdan iboratdir"².

Albatta, bu vazifani amalga oshirish, birinchi navbatda, ta'lim muassasalari zimmasiga tushadi va bu yerda faoliyat yurituvchi pedagoglardan o'z ishlariga o'ta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

O'zbek xalq musiqa merosi namunalarini ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirish, shu orqali yoshlarning badiiy-estetik madaniyati va ma'naviy kamolotini shakllantirish borasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilayotgan va bu ishlar muayyan shart-sharoitlarga bog'liq holda davom ettirilayotgan bo'lsa-da, ushbu qamrovi va ko'lami hamda tarbiyaviy-ta'sirchanlik imkoniyatlari beqiyos katta bo'lgan

bebaho xazinadan yosh avlod tarbiyasida yanada samarali foydalanishning zamonaviy talablarga mos yangicha yo'l-yo'riqlari, mezonlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Shu masala O'zbekiston Respublikasi o'qituvchilarining 2001-yil 28-29-iyunda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan birinchi konferensiyasi tavsiyalarida alohida ta'kidlanadi "Boshlang'ich ta'limda "Odobnoma", "Ona-tili", "O'qish", "Matemateka", "Rus tili" (Ta'lim o'zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda "O'zbek tili"), darsliklarining yangi avlodini yaratishda ular mazmuniga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, "Tasviriy san'at", "Musiq madaniyati", "Jismoniy tarbiya", "Mehnat ta'limi" mashg'ulotlarini milliy istiqlol g'oyasidan kelib chiqqan holda tashkil etish"³.

Qudratli tarbiyaviy-ta'sirchanlikka ega bo'lgan xalq musiqa merosi bo'g'inlarida yoshlar tarbiyasiga tatbiq etish, xususan, ta'lim tizimining eng muhim shakllantiruvchi bo'g'ini bo'lgan umumta'lim maktablari va qolaversa, maktabgacha ta'lim muassasalarida tizimli yo'lga qo'yish, bu ishni dars va darsdan tashqari faoliyatlar uyg'unligida olib borish lozim. Bu o'rinda ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlashda qanday omillarga tayanish o'rinli bo'ladi? Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar va kuzatuvlarimiz umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi musiqiy-estetik ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlarni tahlili quyidagicha pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risidagi xulosaga kelishimizga sabab bo'ldi:

1. Umumta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarni xalq musiqa merosi namunalari bilan maqsadli tanishtirib borish orqali ularda xalq musiqa ijodiga qiziqish va muhabbat tuyg'usini uyg'otish, xalq qo'shiqlarini kuylash, sevib o'rganish bilan o'zi mansub bo'lgan xalqning madaniyatiga chuqur hurmat, iftixor tuyg'ularini shakllantirish sinf, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari musiqiy faoliyatlar uyg'unligida olib borilishiga e'tibor qaratish.

2 Karimov I. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008-yil, 14 – bet

3 Abdurkarimova E. Xalq ta'limi jurnali, 2001-yil, 5-son, 22-bet

2. Dars va darsdan tashqari (badiiy havaskorlik to'garaklari, madaniy-ommaviy va bayram tadbirlari, konsert dasturlarini tayyorlash, ko'rik tanlovlarga tayyorgarlik va qatnashish kabilarda) faoliyatda xalq musiqa merosi namunalari keng o'rin berish va ularni tanlashda tarbiyaviy ta'sirchanlik xususiyatlarini inobatga olish va muayyan pedagogik talab va mezonlarga amal qilish o'rinli bo'ladi. Bu o'rinda:

- xalq musiqasiga mansub kuy-qo'shiqlarni har bir sinf bo'yicha o'quv dasturi va darsliklariga kiritilgan hamda erkin repertuar tanlash imkoniyatidan kelib chiqib o'rganiladigan namunalarni o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar mazmuniga mosligiga e'tibor berish⁴;

- asarlarni tanlashda o'quvchilarning yoshi, musiqiy qiziqishi ijrochilik imkoniyatlarini hisobga olish;

- xalq musiqa merosiga mansub kuy-qo'shiqlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra o'quvchilarni musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini o'stirishi, pirovard natijada ularda tom ma'nodagi musiqa madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

- xalq musiqasi namunalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan xalq urf-odatlar, bayramlari, marosimlari, turli mahalliy uslublarga tegishliligi, shuningdek, madaniy-ma'rifiy tadbirlar, konsert dasturlariga kiritish imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda ish tutish;

- asarlarni o'rganishda ta'limning boshqa tarkibiy qismlarini: musiqa savodi, musiqa tarixi, musiqa asarlari tahlili, musiqiy ijodkorlikni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga qaratish ham pedagog jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

3. Xalq musiqa merosiga mansub namunalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishda sinf dasturlariga kiritilgan va o'rganiladigan mavzular bo'yicha o'quvchilarning nazariy bilim va amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini mustahkamlash nuqtayi nazaridan yondashgan holda amalga oshirib borilishi lozim. Bunday ish tutish musiqa darslarining

faoliyat turlari bo'yicha mashg'ulotlarni mazmunli hamda sifat va samaradorlik kasb etishiga olib keladi. Darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra erkin tanlov asosida o'rganilgan kuy-qo'shiqlar musiqiy ta'limning asosiy maqsad va vazifalariga mos bo'lishi e'tiborda tutilishi zarur.

4. Dars va darsdan tashqari faoliyatda o'rganiladigan namunalar o'quvchilarni xalq musiqasining an'anaviy ijrochilik, ya'ni mumtoz va maqom asarlari, mahalliy musiqiy uslublar, ularning o'ziga xos va mushtaraklik jihatlari haqida mustaqil va qo'shimcha ma'lumotlar olishlariga imkon yaratishi lozim⁵.

5. Xalq musiqa merosi namunalari murojat qilganda ularning janri, ijroda cholg'ularning ishtiroki, raqs jo'rligida yoki ansambl (jamoaviy) shaklda ijro etilishi kabilar haqidagi ma'lumotlarga o'rin berish lozim. Chunki bu jihatlar xalq musiqasining eng muhim xususiyatlarini aks ettiradi va o'quvchilarni umummusiqiy va musiqiy-nazariy bilim darajasini kengaytirishga xizmat qiladi.

6. Umumta'lim maktablarida faoliyat yurituvchi musiqa o'qituvchilari o'quvchilarni xalq musiqa merosiga mansub asarlar bilan tanishtirib borishda nazariy, amaliy ijrochilik va uslubiy jihatdan muntazam ravishda o'z bilim va malakalarini muttasil oshirib borishi, ko'rgazmali va texnik vositalardan, ta'limning ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalaridan o'rinli foydalanishlari o'quvchilarda musiqa san'atiga, xususan, xalq musiqasini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini oshib borishga ijobiy ta'sir etadi.

Xullas, xalq musiqa merosi namunalari orqali o'quvchi yoshlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda qayd etilgan talab va mezonlar doirasida cheklanib qolmasdan bu yo'lda doimiy ravishda izlanish, yangi-yangi usullardan, tajribalardan foydalanish asosida ish tutish musiqiy ta'lim va tarbiyani zamonaviy talablar asosida, milliy negizda takomillashtirib borishda yangi ufqlar ochadi.

4 Abduraimova E.I. Oliy Pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Xalq ta'limi. jurnal-T.: 2021. -№3, — B. 82–84.

5 Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. -T.: O'qituvchi, 1996-y. 102-bet

O'QUVCHI-YOSHLARDA MUSIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Muslim Normuxammadovich Abilov – katta o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqiy tafakkur tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, o'quvchi-yoshlarda musiqiy tafakkur va uni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va uni tarkib topshirishning uslub, shakl, vositalari bir necha tadqiqotlar misolida yoritilgan.

Аннотация: В данной статье на примерах излагаются научно-теоретические основы понятия музыкального мышления, особенности музыкального мышления, его развитие у студентов и молодежи, а также методы, формы и средства его построения. несколько исследований.

Abstract: This article discusses the scientific and theoretical foundations of the concept of musical thinking, the specific features of musical thinking and its development in schoolchildren, and the methods, forms, and means of its formation on the example of several studies.

Kalit so'zlar: musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur, musiqiy fikr, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, ko'rgazmali-amaliy tafakkur, abstrakt-mantiqiy tafakkur, davr uslubi, "badiiy obraz" fenomeni, kayfiyat, assotsiatsiya.

Ключевые слова: музыкальное мышление, музыкальное воображение, музыкальная мысль, наглядно-образное мышление, наглядно-практическое мышление, абстрактно-логическое мышление, стиль эпохи, феномен "художественного образа", настроение, ассоциация.

Keywords: musical thinking, musical imagination, musical thought, expressive-figurative thinking, expressive-practical thinking, abstract-logical thinking, period style, the phenomenon of "artistic image", mood, association.

Musiqiy ta'lim va tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyatda musiqa san'atini ongli ravishda tushunib tinglay oladigan, undan ma'naviy ozuqa va zavq oladigan, musiqiy asarlarni to'g'ri analiz-sintez qilish layoqatiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalashdir. Bu esa har bir shaxsning fikrlash darajasiga, bir so'z bilan aytganda musiqiy didi va tafakkuriga bog'liqdir. O'quvchi-yoshlarda musiqiy tafakkur va uni rivojlantirish musiqa o'qituvchisi oldiga muhim vazifani qo'yadiki, uni bajarishda musiqiy ijrochilik layoqati bilan bir qatorda maxsus psixologik bilimlar, kompetensiyalar talab etiladi.

Umumiy psixologiya fanida tafakkur bilish jarayoniga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, P.I.Ivanov darsligida: "Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga

imkon beradi", – deb ta'riflanadi. M. V. Gamezo esa tafakkurni voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi ekanligini bayon qiladi.

A. V. Petrovyokiy tahriri ostidagi darslikda tafakkurga ushbu shaklda ta'rif berilgan, tafakkur ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. V. V. Bogoslovskiy tahriridagi darslikda ham tafakkurga berilgan ta'rif uning umumlashgan va bilvosita aks ettirish xususiyatlari yoritilgan, xolos. Xuddi shunga o'xshash tafakkur xususiyatlari F. N. Gonobolin va K. K. Platonov tadqiqotlarida ham uchraydi.

Professor E. G'. G'oziyev fikricha, tafakkur predmetini belgilash uchun to'laroq ta'rif O. K. Tixomirov darsligida berilgan. Tafakkur predmetiga kiruvchi tarkibiy qismlar mana bunday ifodalanadi: Tafakkur bu o'z mahsuloti

bilan voqelikni umumlashtirib, bevosita aks ettirishni xarakterlaydigan, umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalariga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir.

S.L.Rubinshteyn nazariyasiga binoan, tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishning asosiy predmeti jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo'lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini asoslashda jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S.L.Rubinshteyn tafakkur to'g'risidagi g'oyani rivojlantirib, uni subyekt faolligining paydo bo'lishi, deb atadi.

A.N.Leontyev tafakkurni turli ko'rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning tuzilishi, fikr yuritish motivatsiyasi to'g'risida nazariy-metodologik muammolarni o'rtaga tashlaydi.

P.Y.Galperin fikriga ko'ra, tafakkur bu mo'ljallash-tadqiqot faoliyati, mo'ljallash jarayonidir. Muallif intellektual masalalarini yechishda subyektning tafakkurga mo'ljall qilishi, jarayonni o'rganishidan iborat, deb tushuntiradi. P.Y.Galperin tafakkurning boshqa jihatlarini o'zining aqliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tafakkur bu – fikrlash faoliyati, predmetli-amaliy faoliyatdir. U miya tomonidan atrof-olamni aks ettirishning oliy shakli bo'lib, murakkab bilish jarayonidir. Tafakkur psixik aks ettirishning ancha umumlashgan, bilvosita shakli bo'lib, anglanayotgan obyektlar o'rtasida munosabat va bog'lanishlarni amalga oshiradi. Zero, tafakkur insonga bevosita idrok etmayotganlarini "bilish" uchun imkon yaratadi.

Musiqiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar

uchun tafakkurning vazifasi tinglangan musiqa asarlari o'rtasidagi munosabatlar, aloqalarni aniqlaydi va tasodifiy o'xshashliklardan ularni ajratadi. Tinglanayotgan yoki ijro etilayotgan musiqaning badiiy mazmunini idrok etish, anglash, uni tinglovchiga badiiy-estetik mazmuni va jozibasi bilan yetkazish vazifasini ko'zda tutadi. Inson musiqiy tafakkuri rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi.

Har bir shaxs bosqichma-bosqich tarzda ushbu tafakkur rivojlanishi pog'onalarini bosib o'tadi. Bola musiqa tinglab, ijro etib, badiiy-ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, ijodiy muloqotga kirishadi. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri ikki yoshli bolalarda hali nutq yaxshi o'zlashtirilmagan paytdan boshlab kuzatiladi. Bu aynan bola musiqa tinglash, tinglangan musiqani tanlash hamda ularni bir-biridan farqlashga o'tgan paytida, musiqiy tafakkurida elementar oddiy umumlashtirish ishtirok etadi.

Bu umumlashmalar musiqaning ovoz tembridagi o'ziga xoslik asosida, bolani emotsional jalb etgan holda amalga oshiriladi. Masalan, u aynan fortepianoda ijro etilgan lirik xarakterdagi bolalar asarlarini tez tanib olishi mumkin.

Tafakkurning 3 ta asosiy shakllari mavjud:

- tushuncha;
- fikrlash;
- xulosaga kelish.

Tushuncha – tafakkur shakli bo'lib, unda tinglangan musiqaning umumiy va muhim xossalari aks etadi. Bir qarorga kelish – tafakkur shakli bo'lib, unda tanlash so'ralgan paytda ma'lum musiqada to'xtash, uning alohida jihatlarini ta'kidlash yoki rad etish nazarda tutiladi. Bir qarorga kelishning umumiy, xususiy yoki alohida holdagi shakllari mavjud.

Xulosaga kelish – musiqiy tafakkurning shakli bo'lib, ushbu jarayonda kishi ma'lum musiqa

borasida o'z qarorini taqqoslab, tahlil qilib, o'zining yangi xulosasiga kelishi tushuniladi.

Tafakkur ma'lum motivlar ta'sirida paydo bo'ladi. Bu motivlar ikki tipga bo'linadi:

- maxsus bilish motivlari;
- o'ziga xos bo'lmagan motivlar.

Maxsus bilish motivlari yangi nimanidir bilish istagi paydo bo'lganda, masalan, qiziquvchan kishilarda paydo bo'ladi. O'ziga xos bo'lmagan motivlar tashqi omillar ta'sirida, masalan, o'quvchiga tinglangan musiqa haqida gapirib berish vazifasi qo'yilganda paydo bo'ladi. Lekin har qanday sharoitda tafakkur masalani qo'yish orqali paydo bo'ladi. Bu masala ushbu kishi yoki boshqa kishi tomonidan qo'yilishi mumkin.

Fikrlash faoliyati, kishilarning boshqa psixik jarayonlari singari individual farqlar bilan ajralib turadi. Masalan, tinglangan musiqaning hissiy ta'sir quvvati borasida so'ralganda, har insonda turlicha bo'lishi aniq. Insonning individual tafakkuri xususiyatlari – bu, avvalo, o'qitish jarayonida va hayot davomida uni ijodiy va aqliy rivojlantirish, borliqni anglashdan iboratdir.

Fikrlash faoliyatidagi farqlar aql-zakovat sifati orqali namoyon bo'ladi. Tafakkur (aql-zakovat)ning bu ko'rsatkichlari shaxsning o'ziga xos xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni ma'lum cholg'u yoki vokal musiqa borasida fikr-mulohaza bildirish turlicha bo'ladi, albatta. Musiqiy tafakkurning muhim sifatlari quyidagilardir:

- musiqiy tafakkurning mustaqilligi;
- musiqiy tafakkurning kengligi va chuqurligi;
- musiqiy tafakkurning universalligi;
- musiqiy tafakkurning tezligi va tanqidiyligi.

Musiqiy tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining ma'lum musiqiy asar, janr, shakl, yoki

uning ritmi, tembri va boshqa ifoda vositalari borasida mustaqil suratda fikrlashi tushuniladi. Musiqiy tafakkurning kengligi insonning musiqiy bilish faoliyatida, keng musiqiy dunyoqarashda, har tomonlama qiziquvchanlikda namoyon bo'ladi.

Musiqiy tafakkurning chuqurligi musiqiy jarayonlar borasida murakkab savollar mohiyatiga dadil kirib borishda, boshqa kishilarda savollar mavjud bo'lmagan hollarda muammoni ko'ra olishda namoyon bo'ladi. Musiqiy tafakkurning chuqurligi musiqa borasidagi voqea va hodisalarning paydo bo'lish sabablarini tushunishga yordam beradi.

Musiqiy tafakkurning tezligi – bu tinglangan musiqada ifodalangan badiiy voqelikni tez ilg'ab olish, uning mazmuni va mohiyati borasida ma'lum qarorlar qabul qilishda namoyon bo'ladi. Biroq musiqiy tafakkurning tezligidan shoshmashosharlikni ajrata olish lozim. Bunday tafakkurga ega kishi davomli musiqa tinglash, musiqa ijrosi bilan shug'ullanish kabi faoliyatlarga chidamsizlik odati bilan namoyon bo'lishi mumkin.

Musiqiy tafakkurning tanqidiyligi — bu ma'lum musiqa asari yoki janri borasida o'zi va boshqalar fikrini obyektiv baholay olish malakasiga egaligi, barcha ilgari surilayotgan fikr va mulohazalarni har tomonlama va chuqur tekshirib bilishi orqali ko'rinadi. Tanqidiy musiqiy tafakkurga ega kishi hech qachon o'z fikrini mutlaq to'g'ri, deb baholamaydi¹.

Musiqiy tafakkur tuzilmasi ijtimoiy muhitda insonlarning bir-biri bilan muloqoti jarayonida shakllanadi. Har bir milliy madaniyat musiqiy ifoda usullari, o'ziga xos musiqiy tafakkur xususiyatlari bilan farq qiladi. Shuning uchun turli xalqlarda uning turli qonuniyatlari mavjudligini kuzatish mumkin. Bu ayniqsa, Sharq va g'arbiy Yevropa musiqasini qiyoslashda yaqqol namoyon bo'ladi.

1 Qosimova Z., A.Baxriyev. Musiqiy ta'limning psixologik asoslari. O'quv qo'llanma – Toshkent: Musiqi, 2019. – B. 184.

Sharq musiqasida ko'pgina lad og'ishmalari mavjudligi, ritmik tuzilishining rang-barangligi, temperatsiya qilinmagan tovushlarning o'zaro munosabatlarini kuzatish mumkin. Bu holat milliy musiqamizda ham kuzatiladi.

Yevropa musiqasida gomofon-garmonik shakl tuzilishi mavjud bo'lib, kuylarda musiqiy fikrni rivojlantirish garmonik izchil harakat orqali ifodalansa, sharq musiqa an'alarida monodiya shaklida, kuyni bir ovoz imkoniyatlari orqali ifodalash an'analari rivojlangan.

Musiqachi kasbini egallamoqchi bo'lgan kishi, albatta, ushbu ijtimoiy makon uchun xarakterli bo'lgan "musiqa tili"ni o'zlashtirishi, musiqiy faoliyat malakalarini egallab olishi lozim. Musiqiy idrok jarayonida tinglovchi tovushlar, intonatsiyalar, garmoniyalar haqida tasavvur hosil qiladi, ular, o'z navbatida, turli hislar, xotiralar, obrazlarni uyg'otadi. Bularning barchasi ko'rgazmali-obrazli tafakkurga misol bo'la oladi.

Ijrochi musiqiy tovushlarni xususiy amaliy faoliyati jarayonida anglab oladi va nota matnini eng qulay usullar bilan ijro etishga harakat qiladi. Bu ko'rgazmali-amaliy tafakkurdir.

Kompozitor o'z hayotiy taassurotlarini musiqiy tovushlarda ifodalash uchun garmoniya va musiqa shakli orqali namoyon bo'ladigan musiqiy mantiq qonuniyatlaridan foydalanadi va fikrlaydi. Bu abstrakt mantiqiy tafakkurdir.

Musiqiy tafakkurning ushbu barcha turlari ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega, ya'ni ma'lum tarixiy davrga mansub va shu davrning ijtimoiy tajribasiga asoslanadi. Shu bois, bir davrda faoliyat ko'rsatgan kompozitorlarning asarlari ko'p jihatdan bir-biriga o'xshash bo'ladi. Bu esa davr uslubi shakllanishiga zamin yaratadi, ya'ni hayotiy voqelikni aks ettirish uchun qo'llaniladigan usul va vositalarning tipik birligi, majmuasi hosil bo'ladi.

Bunga misol qilib o'tgan asrda faoliyat ko'rsatgan taniqli hofizlar Hoji Abdulaziz, Domla

Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Mixail Tolmasov, rus kompozitorlaridan A.Borodin, R.Korsakov, shuningdek, vena klassiklari, romantizm yoki impressionizm davri uslublarini eslab, ushbu musiqiy yo'nalishlarning har biri uchun o'ziga xos bo'lgan musiqiy tafakkur xususiyatlari borasida gapirishimiz mumkin.

Bir uslub doirasida badiiy ifoda vositalaridan turlicha foydalanadigan bir necha yo'nalish bo'lishi mumkin. Turli yo'nalishlarning farqli xususiyatlari musiqiy tafakkur usullarining o'ziga xosligi bilan belgilanadi va shu orqali ular bir-biridan farqlanadi.

Musiqiy tafakkurning individualligini u yoki bu ijodkor — kompozitor, rassom, aktyor faoliyatida kuzatish mumkin. Har bir yetuk ijodkor hatto jamiyat tomonidan belgilangan uslubiy yo'nalishlar doirasida faoliyat ko'rsatsada, u betakror shaxsdir. Masalan, Y.Rajabiy, O.Xo'jayev, R.Hamroyev, R.Choriyev, I.Bax, P.Chaykovskiy, L.Betxoven, A.Abdullayev, Ch.Ahmarovdek buyuk kompozitor, rassom, aktyorlar betakrordir.

Har bir ijodkor kitobxon, tomoshabin, tinglovchi tomonidan darhol tanib olinadigan obrazlar olamiga ega. Shuning uchun Bedilni Firdavsiydan, Pushkinni Nekrasovdan, E.Vohidovni A.Oripovdan darhol farqlaymiz. Xuddi shuningdek, M.Ashrafiy musiqasini M.Burxonov musiqasidan, M.Bafoyev musiqasini D.Omonullayeva musiqasidan, P.Chaykovskiy musiqasini F.Shopen musiqasidan, R.Shubert musiqasini I.Brams musiqasidan (hatto ushbu juftliklar bir davr farzandlari bo'lishsada) farqlaymiz. Biz ularning musiqasini garmonik ifoda uslubi, shakl va tembrni namoyon etishidagi o'ziga xoslik orqali farqlaymiz.

Musiqa asarining badiiy obrazi moddiylik, ma'naviylik va mantiqiylik birligi asosida o'rganiladi. Tovush sifatida sadolanayotgan materiyaning akustik xususiyati – musiqa asarining moddiy asosi bo'lib hisoblanadi va u kuy, garmoniya, metr-ritm, dinamika, tembr, registr,

faktura singari parametrlar orqali belgilanadi.

Biroq asarning ushbu barcha tashqi xususiyatlari o'zicha badiiy obraz fenomenini yarata olmaydi. Bunday obraz faqatgina ijrochi va tinglovchi ongida, ya'ni ular (tinglovchi; ijrochi) musiqaga o'z irodasini, hissiyotlari, kayfiyatini baxshida etsagina paydo bo'lishi mumkin. Aytish mumkinki, nota matni va musiqaning akustik parametrlari – uning moddiy asosini tashkil etadi.

Kayfiyatlar, xotira assotsiatsiyalari, turli o'ziga xos tasavvurlar musiqiy obrazning ma'naviy tomonini tashkil etadi. Musiqa asarini garmonik tuzilish, qismlar izchilligi orqali tasavvur qilish esa musiqiy obrazning mantiqiy tarkibini hosil qiladi.

Musiqiy obrazning ushbu barcha xususiyatlari kompozitor, ijrochi va tinglovchi ongida aks etsagina, biz tom ma'nodagi musiqiy tafakkur mavjudligi haqida gapirishimiz mumkin. Bunday tafakkur fantaziya, eshitish sezgisi va idroki asosida rivojlanadi.

“Agar bolalarni asar dasturini aniqlashga yo'naltirilsa, ular ma'lum mazmun ifodasi bo'lgan musiqani tinglash emas, balki uning tasviriy jihatlarini axtarishga tushib ketadilar. Bunday ish uslubi natijasida musiqaga mavhum, noaniq, mazmunsiz tovushlar sifatida qarash va munosabat shakllanadi”²³.

Shunday holatlar uchraydiki, musiqachi asar mazmunini his qiladi, lekin ijro paytida turli sabablar (tayyorgarlikning yetishmasligi, hayajonlanish va boshq.) natijasida real ijroni badiiy yetuk darajada amalga oshira olmaydi. Bu paytda qiyinchiliklarni yengishga imkon yaratadigan irodaviy jarayonlar, rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois musiqiy tafakkur, asosan, faoliyatning quyidagi jihatlariga qaratilishi zarur:

– assotsiatsiyalar, kayfiyatlar va ular natijasida hosil bo'luvchi fikrlar orqali asarning obrazi tuzilishini tasavvur qilish;

– kuy, ritm, faktura, dinamika, agogika va shakl tuzilishi xususiyatlari orqali asarning moddiy jihatini aniqlash;

– cholg'u sozi yoki nota matnida fikr va hissiyotlarni aks ettirishning usul va vositalarini, qulay yo'llarini topish.

Ko'pgina musiqa murabbiylarining fikricha, zamonaviy musiqa pedagogikasida o'quvchilarning ijroviy-kasbiy qobiliyatlarini o'stirishga keng e'tibor beriladi, bunda umumlashtiruvchi va nazariy xarakterga ega bo'lgan bilimlarni egallashiga asosiy e'tibor qaratiladi. Yil davomida bir necha asarni tayyorlashga asosiy e'tibor qaratilishi eshitib ijro etish, transpozitsiya qilish, notadan ijro etish, ansamblida ijro etish singari musiqachi uchun zarur bo'lgan faoliyatlarning ma'lum darajada nazardan chetda qolishiga olib keladi.

Bu esa musiqachilarning tor doiradagi mutaxassis sifatida shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Kuy, garmoniya, metroritm, dinamika, faktura singari musiqiy ifodaning asosiy vositalari musiqiy intonatsiyaning umumlashtirilishi, ularni birlashtirish usullari bo'lib, fikrni ifodalashning asosiy tashuvchilari bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy tafakkur bu musiqiy badiiy obrazning mohiyatini qalban his etish, tovushlar majmuasini joylashtirish tamoyillarini anglash, ijod etish yoki uni ijro etishda, ya'ni ijodning irodaviy jarayonlarida amalga oshirishdan iboratdir.

Musiqiy tafakkurni rivojlantirish – bu:

– musiqiy fikrning rivojlanish mantig'i umumiy shaklda — dastlabki impuls, harakat va yakunlanishdan iborat.

2 Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей. — М., 1947. — С. 20–21.

– musiqiy fikrni rivojlantirishning yana bir usuli bu variatsiyalash va almashtirib turish tamoyilidir.

Shuningdek, "tempni oshirish", "kompensatsiya" singari tamoyillar amaliyotda qo'llaniladi. Ushbu barcha musiqiy fikrni rivojlantirish tamoyillari nafaqat musiqa san'atida, balki san'atning boshqa turlarida ham qo'llaniladi. Masalan, folklorda qiyoslash tamoyili qo'llaniladi. Bahodir va dev, real va fantastik dunyo, ezgulik va yovuzlik singarilar shular jumlasidandir.

Tafakkur jarayonlarini ishga solish uchun muammoli vaziyat turtki vazifasini bajaradi. O'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilim hali noma'lum bo'lgan bilim sanaladi. O'quv faoliyatida muammoli vaziyat ziddiyat sifatida namoyon bo'ladi va u mavjud bilimlar zaxirasi hamda yangi talablarning muvofiq kelmaganligida aks etadi. Qator o'quv harakatlari va amallarini bajarib, o'quvchi mustaqil fikrlash jarayonida zarur bilimlarni egallashi mumkin.

Musiqani idrok etish jarayonida tafakkur malakalarini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

- asardagi bosh intonatsiya yo'nalishini aniqlash;
- tinglash orqali musiqa asarining uslubiy yo'nalishini aniqlash:
- taklif etilgan asarlar ichidan ma'lum kompozitor asarini aniqlash;
- bir asarni turli ijrochilar talqinida tinglab, ular ijro uslubidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlash;
- garmonik ketma-ketlikni tinglab aniqlash;
- musiqa asari mazmuniga mos bo'lgan adabiy yoki tasviriy san'at asarini uning obraziga muvofiq tanlash.

Ijro jarayonida tafakkur malakalarini rivojlantirish uchun:

- asardagi musiqiy fikrni rivojlantiruvchi yetakchi intonatsiyalar va tayanch nuqtalarni topish;
- bir musiqa asarini ijodiy yondashgan holda ijro etishning bir necha variantlarini taklif etish;
- asarni tasavvur etilgan turli variantlarda ijro etish.

Musiqa ijod qilish jarayonida tafakkur malakalarini rivojlantirish uchun:

- garmonik ketma-ketlikni general-bas asosida melodik rivojlantirish;
- tanish maqomlarni eshitib, ijro etish;
- taklif etilgan hissiy holat yoki badiiy obrazga mos tonal va atonal xarakterda kuy improvizatsiya qilish zarur.

Muammoli vazifalarni bajarishda bir vazifa yechimining turli variantlarini qiyoslash foydalidir. Muhokama va diskussiyalar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, o'z fikrini aniq ifodalash va zarur xulosalar qilishga imkon yaratadi. Pedagogik faoliyatda ushbu ish usullaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING NUTQIY MADANIYATINI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

E'zozxon Muzaffarovna Xamrayeva – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy madaniyat tushunchasi, nutqiy madaniyat jihatlari ahamiyati, nutqiy madaniyatni shakllantirishdan maqsadlar, nutqiy madaniyatni shakllantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar, nutqiy madaniyatni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning afzalliklari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрены понятие речевой культуры, значение аспектов речевой культуры, цели формирования речевой культуры, ученые, проводившие научные исследования по формированию речевой культуры, а также преимущества инновационных технологий в формировании речевой культуры. культура речи представлена.

Abstract: This article presents the concept of speech culture, the importance of aspects of speech culture, the goals of forming speech culture, the opinions and comments of scientists who have conducted scientific research on the formation of speech culture, and the advantages of innovative technologies in the formation of speech culture.

Kalit so'zlar: nutqiy madaniyat, multimedia, talaffuz, innovatsion texnologiyalar, emotsional ifodalilik, zamonaviy yondashuvlar.

Ключевые слова: культура речи, мультимедиа, произношение, инновационные технологии, эмоциональная выразительность, современные подходы.

Keywords: speech culture, multimedia, pronunciation, innovative technologies, emotional expressiveness, modern approaches.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutqiy madaniyati bolalarning bilim olish va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachining so'z boyligi, to'g'ri talaffuzi, nutqning mantiqiyliги va ifodaliligi bolalarning til ko'nikmalarini shakllantirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar yordamida nutqiy madaniyatni rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarildi.

Tarbiyachilarning nutqiy madaniyati ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. U bolalar bilan muloqotni sifatli tashkil qilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish va tarbiyaviy jarayonni muvaffaqiyatli boshqarishga yordam beradi. Ushbu maqola tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini shakllantirish jarayonini ilmiy yondashuv asosida tahlil qilishga bag'ishlanadi.

O'zbekiston Respublikasida tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim bo'yicha maxsus monografiyalar chop etilgan.

Tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini shakllantirish mavzusi bo'yicha ilmiy ish olib borgan ko'plab olimlar mavjud. Ushbu mavzu pedagogika, psixologiya va tilshunoslik sohalari bilan chambarchas bog'liq. Quyida ayrim taniqli olimlar va ularning ishlari haqida ma'lumot beramiz. Masalan, Abduqodir Muhammadjonov – o'zbek tili madaniyati va nutqiy me'yorlari masalasini ko'tarib chiqqan. N.Mahmudov o'zbek adabiy tili va nutq madaniyatining o'rganilishiga katta hissa qo'shgan. Undan tashqari xorijlik olimlardan Lev Vygotskiy (Rossiya) – nutqning rivojlanishi va ta'lim jarayonidagi kommunikatsiyaning ahamiyatini o'rgangan¹.

1 D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. – TDPU: 2020. – B. 92.

Nutqiy madaniyat – bu shaxsning jamiyat bilan samarali muloqot qilishi, o'z fikrini aniq va to'g'ri ifoda etishi hamda o'zaro aloqa jarayonida adabiy til me'yorlariga amal qilish qobiliyatidir². Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar bu jarayonni yangi darajaga olib chiqmoqda. Ular pedagogik yondashuvlarni zamonaviylashtirish va nutqiy madaniyatni rivojlantirishni yanada samarali qilish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy-empirik va nazariy tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik nazariyalar, shuningdek, nutq madaniyatiga oid zamonaviy yondashuvlar o'rganildi. Shuningdek, amaliyotda ishlovchi tarbiyachilar bilan suhbat va kuzatuvlar orqali ma'lumotlar yig'ildi.

Nutqiy madaniyati quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Til boyligi: Tarbiyachi so'zlarni to'g'ri tanlashi va ulardan samarali foydalanishi kerak.

2. Nutqning aniqligi va mantiqiyliigi: Bola uchun ma'lumotni tushunarli va aniqlik bilan yetkazish zarur.

3. Talaffuzning to'g'riligi: Tarbiyachi adabiy til qoidalariga amal qilishi lozim.

4. Emotsional ifodalilik: Nutqning o'qituvchi va bola o'rtasida hissiy aloqani shakllantiruvchi xususiyati³.

Nutqiy madaniyatni takomillashtirishdagi asosiy maqsadlar:

- shaxsning o'z fikrini mazmunli va estetik tarzda ifoda etishini rivojlantirish;
- o'zaro muloqotda samaradorlikka erishish uchun nutqiy vositalardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.
- intonatsiya, talaffuz va grammatik

me'yorlarni o'zlashtirishga ko'maklashish.

- o'ziga ishonchli muloqot ko'nikmalarini shakllantirish⁴.

Nutqiy madaniyat faqatgina tilga oid ko'nikmalardan iborat emas. Bu, shuningdek, o'z fikrini samarali, estetik va mazmunli ifoda etish mahoratini ham anglatadi.

Innovatsion texnologiyalar asosida olib borilgan ishlanmalar quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Bolalar bilan samarali muloqot qilish: Tarbiyachi o'z fikrini tushunarli va mazmunli ifoda etadi.

2. Tarbiyachilarning malakasi oshadi: Nutq madaniyati rivojlangan tarbiyachilar o'z kasbiy vazifalarini yanada samarali bajaradi.

3. Bolalarning nutqiy rivojlanishi: Tarbiyachilarning yuqori nutqiy madaniyati bolalarning til ko'nikmalarini tezroq shakllantiradi.

4. Zamonaviy ta'lim jarayoni: Innovatsion texnologiyalar orqali ta'lim jarayoni yanada qiziqarli va interaktiv bo'ladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, nutqiy madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi yondashuvlar zarur. Metodik ta'lim: tarbiyachilarga adabiy nutq me'yorlari va pedagogik muloqotning texnikalarini o'rgatish. Amaliy mashg'ulotlar: nutqiy vaziyatlar modellashtirilgan treninglar va seminarlar tashkil etish. Nutq madaniyatining o'ziga xosliklari: har bir pedagogning nutqiy faoliyati shaxsiy yondashuvni talab qiladi, bu esa individuallikni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Innovatsion texnologiyalar nutqiy madaniyatni rivojlantirishga quyidagi yo'llar

2 D.R. Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanma TDPU 2018 yil 104-bet.

3 "Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish" Mahkamova M.R. Toshkent-2002.73-bet.

4 Rasulov R. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. T.2017. 62-bet.

bilan xizmat qiladi: Multimedia vositalari, interaktiv platformalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalar, mobil ilovalar, nutqni yozuv orqali tahlil qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining nutqiy madaniyatini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu nafaqat tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshiradi, balki bolalarning ham til rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonini zamonaviy, samarali va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, texnologiyalar yordamida nutqiy kamchiliklarni aniqlash va ularni tezda bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismidir. Nutq madaniyatini rivojlantirish orqali pedagoglarning kasbiy mahorati oshadi, bu esa bolalar tarbiyasi va ta'limida yuqori natijalarga erishishga olib keladi.⁵

Shu boisdan, innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash, tarbiyachilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va ularni o'rgatish bo'yicha davomiy ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Tavsiyalar:

1. Tarbiyachilarning nutqiy madaniyatini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish.
2. Muntazam ravishda amaliy seminar va treninglar tashkil etish.
3. Muloqot psixologiyasi va notiqlik mahorati bo'yicha metodik qo'llanmalarni yaratish va ulardan foydalanishni ta'minlash.

Ushbu maqola pedagogika sohasi vakillariga nutqiy madaniyatni rivojlantirishning ilmiy va amaliy jihatlarini yoritish uchun xizmat qiladi.

5 "Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish" Berdaliyeva G.A. Toshkent-2019.74-bet.

THE GLOBAL PILGRIMAGE GEOFFREY CHAUCER'S THE CANTERBURY TALES

Sunnat Ravshan o'g'li Qosimov – teacher,
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: Geoffrey Chaucer's *The Canterbury Tales* is a remarkable literary work that provides a unique glimpse into 14th-century English society. Through a series of interconnected stories told by a diverse group of pilgrims, Chaucer captures the societal structure, occupations, beliefs, and conflicts of his time. This paper examines *The Canterbury Tales* as a reflection of the complexity of medieval English society, exploring its social hierarchy, religious fervor, moral hypocrisy, and the often rigid, sometimes porous boundaries of class and gender. By placing a diverse cast of characters on an equal footing within the storytelling structure, Chaucer presents a vivid, almost cinematic view of England in the Middle Ages.

Annotatsiya: Jefri Choserning "Kenterberi ertaklari" asari XIV asr ingliz jamiyatida o'ziga xos ko'rinish beradigan ajoyib adabiy asardir. Turli xil ziyoratchilar guruhi tomonidan aytilgan bir-biriga bog'langan bir qator hikoyalar orqali Choser o'z davrining ijtimoiy tuzilishi, kasblari, e'tiqodlari va to'qnashuvlarini qamrab oladi. Ushbu maqola "Kenterberi ertaklari"ni o'rta asrlardagi ingliz jamiyati murakkabligining aksi sifatida ko'rib chiqadi, uning ijtimoiy ierarxiyasi, diniy shijoat, axloqiy ikkiyuzlamachilik, sinf va jinsning ko'pincha qattiq, ba'zan g'ovak chegaralarini o'rganadi. Hikoya tuzilmasi ichida turli xil personajlarni teng asosda joylashtirish orqali Choser o'rta asrlarda Angliyaning jonli, deyarli kinematik ko'rinishini taqdim etadi.

Аннотация: Кентерберийские рассказы Джеффри Чосера — замечательное литературное произведение, которое дает уникальный взгляд на английское общество XIV века. Через серию взаимосвязанных историй, рассказанных разнообразной группой паломников, Чосер отражает социальную структуру, занятия, убеждения и конфликты своего времени. В этой статье "Кентерберийские рассказы" рассматриваются как отражение сложности средневекового английского общества, исследуются его социальная иерархия, религиозный пыл, моральное лицемерие и часто жесткие, а иногда и проницаемые границы классов и полов. Помещая разнообразных персонажей на равные позиции в структуре повествования, Чосер представляет яркий, почти кинематографический взгляд на Англию в средние века.

Keywords: Geoffrey Chaucer, *The Canterbury Tales*, English society, medieval literature, social hierarchy, pilgrimage, satire, 14th century, Middle English.

Kalit so'zlar: Jefri Choser, Kenterberi ertaklari, ingliz jamiyati, o'rta asr adabiyoti, ijtimoiy ierarxiya, ziyorat, satira, XIV asr, o'rta asrda ingliz tili.

Ключевые слова: Джеффри Чосер, "Кентерберийские рассказы", английское общество, средневековая литература, социальная иерархия, паломничество, сатира, XIV век, среднеанглийский язык.

Geoffrey Chaucer's *The Canterbury Tales* stands as one of the foundational texts in English literature, composed in Middle English in the late 14th century. Chaucer's work is distinctive for both its literary style and its vivid portrayal of English society, often regarded as a panoramic view of medieval life. The stories, narrated by a group of pilgrims traveling to Canterbury, feature characters from varied social, economic, and moral backgrounds, offering unique insights into the everyday lives and concerns of individuals across different strata of medieval England. This article examines *The Canterbury Tales* as a microcosm of English society in Chaucer's time, highlighting its social structure, religious themes, and

underlying satirical critique of contemporary morals and customs.

Chaucer's choice of a pilgrimage as the setting for *The Canterbury Tales* is itself significant. Pilgrimages, common in medieval Europe, attracted people from all walks of life, including both laypeople and clergy. The pilgrimage framework provided Chaucer with an opportunity to assemble a diverse cast of characters who could otherwise never have occupied the same social space. This gathering of pilgrims — including a knight, a prioress, a merchant, and a miller, among others — reflects England's diverse society, from the nobility to the working class, capturing the nuances of medieval social interactions. In the General

Prologue, Chaucer's introduction to each pilgrim is both descriptive and revealing, hinting at their social backgrounds and personalities. For instance, the Knight, who is described as "a true, perfect gentle knight", symbolizes the noble class and upholds ideals of chivalry and honor¹. Meanwhile, the Miller, "a stout carl", represents the working class and is depicted as boisterous and bawdy, showing the varied personality types and behavior across different classes. David Wallace suggests that Chaucer's characters in *The Canterbury Tales* reflect the growing cultural pluralism and diversity of 14th-century England. Wallace explores how Chaucer uses his characters to portray various cultural, economic, and regional backgrounds, offering a more inclusive depiction of medieval English society than other contemporary works. The inclusion of these diverse characters allows Chaucer to present a balanced cross-section of medieval England and its social hierarchy. *The Canterbury Tales* reflects the rigid social hierarchy of medieval England, which was heavily influenced by the feudal system. In his portrayal of the different pilgrims, Chaucer indirectly critiques this social stratification. Characters like the Knight and the Squire belong to the noble class, while figures such as the Reeve, Miller, and Cook represent the working and lower classes. Carolyn Dinshaw examines the complex portrayal of gender in *The Canterbury Tales*, particularly through the character of the Wife of Bath². Dinshaw argues that Chaucer's work presents an early exploration of feminist ideas, questioning the traditional roles and agency of women in medieval society and offering a critique of patriarchal norms. Through the tales they tell and the descriptions in the Prologue, Chaucer offers subtle commentary on each class. The Knight is the epitome of feudal honor, having fought in various campaigns, while the Squire, his son, appears more interested in courtly love than martial valor. The Miller, who tells a bawdy and unrefined tale, exemplifies the roughness often stereotypically associated with the working class. Chaucer's social commentary is particularly pointed in the portrayal of clergy members, like the Friar and the Pardoner, who are depicted as corrupt and morally

compromised. These portrayals reveal Chaucer's awareness of social injustices and the inequalities perpetuated by England's class structure. Chaucer's satire is evident in his depiction of characters like the Prioress, who strives to appear as an idealized noblewoman rather than adhering to the humility expected of her religious role. Her tale and behavior reflect the superficiality of some religious figures and their neglect of true Christian values. Through these varied characterizations, Chaucer critiques not only the class distinctions themselves but also the pretensions and moral failings often associated with them³. Religion was central to medieval life, yet Chaucer's portrayal of religious figures is often less than flattering. Many of the tales reflect Chaucer's skepticism towards the Church, highlighting the hypocrisy of some clergy members. For example, the Friar is described as a "wantowne and a merye" man (Chaucer, line 208), who abuses his position to secure wealth rather than aid the needy. Similarly, the Pardoner is characterized as morally corrupt, selling indulgences and exploiting the faith of believers. The Pardoner's Tale, one of the most famous stories, centers around the theme of greed, underscoring the moral duplicity of its teller. He preaches against avarice while indulging in it himself, a classic case of "do as I say, not as I do." Chaucer's irony here reflects his criticism of how certain members of the clergy exploit their positions⁴. By highlighting these moral contradictions, Chaucer provides a satirical commentary on the Church's practices and its impact on English society. Even more subtly, Chaucer uses the Wife of Bath's character to explore the intersection of religion, gender, and power. Although she claims religious justification for her numerous marriages, the Wife of Bath subverts the typical portrayal of women in religious contexts by using Biblical references to justify her actions. Her tale emphasizes women's desire for sovereignty in marriage, presenting an unorthodox view that critiques patriarchal interpretations of religious doctrine. Lee Patterson discusses Chaucer's portrayal of religious figures in *The Canterbury Tales*, arguing that he highlights the pervasive corruption within the medieval Church. Patterson's analysis

1 Chaucer, G. *The Canterbury Tales*

2 Dinshaw C. (1989). *Chaucer's Sexual Poetics*. University of Wisconsin Press

3 Frank R. W. Jr. (1969). *Chaucer and The Canterbury Tales*. New York University Press

4 Patterson, L. (1987). *Chaucer and the Subject of History*. University of Wisconsin Press

focuses on characters such as the Pardoner and the Friar, who embody the moral failings of the Church and serve as a critique of its exploitation of laypeople. Gender roles are another critical aspect of Chaucer's social commentary. The *Canterbury Tales* includes several female characters who challenge or reflect the traditional roles assigned to women in medieval society. The Wife of Bath is perhaps the most notable, representing a challenge to the passive, submissive role expected of women. She has been married five times and speaks openly about her desire for authority over her husbands. Through her, Chaucer explores the concept of marital power dynamics, presenting an early critique of gender norms. The Wife of Bath's Tale itself is a feminist allegory that challenges conventional views on marriage and female autonomy. It tells of a knight who learns that what women most desire is "sovereynete" (Chaucer, line 1038)⁵, or sovereignty, in relationships. This conclusion reflects the Wife of Bath's own views on marriage and implies a desire for an egalitarian relationship between men and women. The Prioress, in contrast, embodies the traditional, passive role of a religious woman, but her refined manners and exaggerated affectations suggest a critique of superficial piety⁶. Chaucer's wit and humor are fundamental to *The Canterbury Tales*, serving as both entertainment and a tool for social critique. Robert Worth Frank Jr. explores Chaucer's use of irony and humor to add depth to his characters, particularly in the General Prologue. Frank suggests that Chaucer's humor is both entertaining and insightful, allowing readers to question the moral and social inconsistencies of the characters and, by extension, the society they represent. His satire is often gentle, poking fun at the characters' vices and hypocrisies without harsh condemnation. The tales themselves range from romantic and moralistic to bawdy and irreverent, each reflecting the personality and values of its teller. Chaucer's humor allows him to broach sensitive topics, such as corruption in the

Church and class inequality, without overtly alienating his audience. For example, the tale told by the Miller directly follows the Knight's Tale, contrasting the latter's noble themes with a coarse, ribald story. This pairing highlights the contrast between idealism and the gritty realities of life, subtly mocking the romantic ideals held by the nobility. Similarly, Chaucer's use of irony in the Pardoner's Tale underscores the contradictions in his character, as he preaches against greed while embodying it. This layered humor invites readers to question societal norms and consider the discrepancies between appearance and reality.

Geoffrey Chaucer's *The Canterbury Tales* is a panoramic exploration of English society, reflecting the complexities, contradictions, and hypocrisies of the 14th century. Through the pilgrimage framework and his cast of diverse characters, Chaucer presents a microcosm of medieval life, examining issues of class, religion, and gender with wit and satire⁷. His portrayal of different social classes reveals both the rigidity and permeability of the medieval social hierarchy, while his depiction of religious figures critiques the moral shortcomings within the Church. In characters like the Wife of Bath, Chaucer challenges traditional gender norms, presenting a progressive view of women's autonomy and desires. Through his nuanced characterizations and satirical storytelling, Chaucer offers a timeless commentary on human nature, illustrating how the themes he explored remain relevant today⁸. *The Canterbury Tales* endures as a literary masterpiece not only for its artistic merit but also for its insightful portrayal of the moral and social landscapes of Chaucer's England, capturing the essence of a society on the brink of change.

5 "Geoffrey Chaucer in Context". Cambridge University Press. 2019. Retrieved 20 April 2020

6 Wallace, D. (1997). *Chaucerian Polity: Absolutist Lineages and Associational Forms in England and Italy*. Stanford University Press

7 Simpson, James (27 April 2023). "Literary Traditions – Continuity and Change". *The Oxford History of Poetry in English: Volume 3. Medieval Poetry: 1400–1500*. Oxford University Press

8 Butterfield, Ardis. "Chaucer and the idea of Englishness". *History Extra*. Retrieved 22 May 2022. The extraordinary dominance of English now as a world language has made it hard to appreciate that its status in the medieval period was very low. Not only was English just one of three languages used in England before the 15th century, it was not the major one. Although it was, of course, the most widely used spoken language, English fell far short of Latin and French as a written language. [Chaucer's] decision to write exclusively in English was indeed unusual [...] He made English successful because he made it urban and international.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Muxabbat Normatovna Mirazimova – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar kompetentligini shakllantirish mazmuni, bilish kompetentligini shakllantirish tamoyillari, faollik tamoyili, ijtimoiy hamkorlik tamoyili, shaxsiylashtirish tamoyili, o'yin asosidagi ta'lim tamoyili, bilish kompetentligini shakllantirish usullari haqida fikrlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье собраны представления о содержании формирования компетентности дошкольников, принципах формирования познавательной компетентности, принципы активности, принципе социального сотрудничества, персонализации, игрового обучения, методы формирования познавательной компетентности.

Abstract: This article presents ideas about the content of forming the competence of preschool children, the principles of forming cognitive competence, the principle of activity, the principle of social cooperation, the principle of personalization, the principle of game-based education, and methods of forming cognitive competence.

Kalit so'zlar: bilish kompetentligi, idrok, kompetentlik, fikrlash, faollik tamoyili, ijtimoiy hamkorlik tamoyili, xotira, shaxsiylashtirish tamoyili, o'yin asosidagi ta'lim tamoyili, ko'rgazmali usul, amaliy usul, savol-javob usuli, dialogik o'qitish usuli.

Ключевые слова: познавательная компетентность, восприятие, компетентность, мышление, принцип активности, принцип социального сотрудничества, память, принцип персонализации, принцип игрового обучения, демонстрационный метод, практический метод, метод вопросов и ответов, диалогический метод обучения.

Keywords: cognitive competence, perception, competence, thinking, principle of activity, principle of social cooperation, memory, principle of personalization, principle of game-based education, demonstration method, practical method, question-and-answer method, dialogic teaching method.

“Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat...”. Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Maktabgacha yosh – bu bolalar uchun intellektual rivojlanishning asosiy bosqichi bo'lib, ularning bilish kompetentligini shakllantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Bu davrda bolalar dunyoqarashi, tafakkur

qobiliyatlari, til va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, bolalar tasavvurlari, e'tibor va xotira kabi psixologik jarayonlar ham chuqur shakllanadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar o'z bilish kompetentliklarini shakllantiradigan muhim omillarni o'z ichiga oladi. Bu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishning asosiy tamoyillari, usullari va muhim jihatlari haqida so'z yuritiladi.

“O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da esa “...maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish” masalasi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi”¹. Prezidentimiz

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini

tomonidan qabul qilingan yuqoridagi Qaror va Farmonlar uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat hamda nodavlat tarmog'ini kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashda dasturilamalga aylandi.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida "kompetensiya", "kompetensiyaviy yondashuv", "kompetensiyaviy ta'lim", "kompetentlik" kabi tushunchalar faol qo'llana boshladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim bolaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini faoliyatda amaliy qo'llay olish imkoniyatini rivojlantirishga zamin yaratdi. Tabiiyki maktabgacha yosh davrida bolalar atrofni anglash va ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladilar².

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishda bilimi, irodasi va e'tiqodini, yetuklik sifatlarini rivojlantirishida muhimdir. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

– kommunikativ kompetensiya — muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi;


– o'yin kompetensiyasi — bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-

tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi;

– ijtimoiy kompetensiya — hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati;

– bilish kompetensiyasi — atrofda olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish³.

1. Bilish kompetentligi — bu bolalarning o'z atrof-muhitini anglash, idrok etish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ko'nikmalar va malakalarning yig'indisi hisoblanadi. Bu kompetentlik bolalarning o'zini atrofda dunyo bilan bog'lashiga, yangi bilimlarni egallashga, tahlil qilish va solishtirish orqali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bilish kompetentligini shakllantirishda eng muhim elementlar quyidagilar bo'lishi mumkin:



2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qarori

2 Zilola Axmadovna Sayfiyeva. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishida kompetensiyaviy yondashuv — "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz August 2023 / Volume 4 Issue 8.

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020-yildagi 802- son Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida

Idrok: Atrofdagi dunyoni sezish va tushunish (ko'rish, eshitish, ta'b, hidlash, tegish orqali).

E'tibor: Mavzularni anglashda doimiy e'tibor va konsentratsiya.

Xotira: O'rganilgan bilimlarni eslab qolish va qayta ishlash.

Fikrlash: Mantiqiy va kreativ fikrlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish.

2. Bilish kompetentligini shakllantirish tamoyillari.

Bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishda bir qancha tamoyillarga amal qilish zarur. Bu tamoyillar, asosan, bolaning tabiiy rivojlanish jarayonlari va psixologik ehtiyojlarini hisobga olishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Faollik tamoyili: Bolalar o'rganish jarayonida faqat passiv ravishda qatnashmasdan, faol ishtirok etishlari kerak. Ular turli tajribalar orqali dunyo haqidagi bilimlarini kengaytiradilar.

Ijtimoiy hamkorlik tamoyili: Bolalar o'z bilish faoliyatlarini o'zaro muloqotda, boshqa bolalar va o'qituvchilar bilan hamkorlikda rivojlantiradilar. Bu, o'z navbatida, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini ham oshiradi.

Shaxsiylashtirish tamoyili: Har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olish va o'qitish jarayonini shunga moslashtirish, uning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

O'yin asosidagi ta'lim tamoyili: O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali ta'lim usulidir. O'yin orqali bolalar qiyin vazifalarni o'rganadilar va

bilish kompetentliklarini rivojlantiradilar.

3. Bilish kompetentligini shakllantirish usullari

Bilish kompetentligini shakllantirishda o'qituvchilar va ota-onalarning tutgan o'rni nihoyatda muhim. Bolalar bilan ishlashda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

Ko'rgazmali usul: Bolalarga predmetlar va hodisalarni ko'rsatish orqali o'rgatish. Masalan, hayvonlar yoki o'simliklar dunyosini ko'rgazmalar yordamida o'rgatish, ularning o'zi bilmagan narsalarni aniqroq tushunishlariga yordam beradi.


Amaliy usul: Bolalar bilan turli amaliy faoliyatlarni o'tkazish, masalan, tabiatga sayohatlar, bog'da ishlash qilish, turli san'at asarlarini yaratish. Bu usul bolalarga bilish jarayonini yanada jonlantirishga yordam beradi.

Savol-javob usuli: O'qituvchi yoki ota-onalar bolalarga savollar berish orqali ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bu usul bolalarni mustaqil fikr yuritishga undaydi.

Dialogik o'qitish usuli: Bolalar o'rtasida va o'qituvchi bilan muloqot o'tkazish orqali ularning til va fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Bilish kompetentligini shakllantirishda o'yinning roli.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin nafaqat ko'ngilochar faoliyat, balki ta'limning asosiy shakli hisoblanadi. O'yin jarayonida bolalar yangi bilimlarni o'rganadilar, dunyoqarashlarini kengaytiradilar va bilish kompetentliklarini rivojlantiradilar. O'yinlar orqali bolalar quyidagi ko'nikmalarni egallaydilar:



5. Ota-onalar va o'qituvchilarning rolini ta'kidlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishda o'qituvchilar va ota-onalarning roli juda muhim. O'qituvchi bolaning ilmiy qiziqishini oshirish va uning qobiliyatlarini rivojlantirishda faol yordamchi bo'lishi kerak. Shuningdek, ota-onalar bolalarining o'rganish jarayonida qatnashishlari va ularni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashlari zarur. Ularning faol ishtiroki va yordamidan bolalar o'z o'quv jarayonlarini muvaffaqiyatli yakunlashlari mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirish – bu ularning kelajakdagi intellektual rivojlanishiga asos soluvchi muhim jarayondir. Faol o'rganish, amaliy tajribalar, ijtimoiy muloqot va o'yin orqali bolalar o'z bilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu jarayonning samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning birgalikdagi harakati muhimdir. Bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun yaratgan sharoitlar ularning dunyoqarashi, bilim va ko'nikmalarini yanada boyitishga yordam beradi.

GENDER-INCLUSIVE LANGUAGE IN CLASSROOMS

Gulruy Akhrorkulovna Donisheva – teacher,
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: Gender-inclusive language in classrooms has emerged as a critical aspect of creating equitable educational spaces. This approach ensures that students of all gender identities feel respected, included, and represented in learning environments. By addressing the historical biases embedded in language and promoting inclusivity, educators can foster a sense of belonging and improve learning outcomes. This article explores the principles, benefits, challenges, and strategies for implementing gender-inclusive language in classrooms, drawing on recent academic studies and policy guidelines. It highlights the importance of cultural sensitivity and teacher training to create a more inclusive educational experience.

Annotatsiya: Gender-inklyuziv til sinfda teng huquqli ta'lim muhitini yaratishda muhim omilga aylandi. Ushbu yondashuv barcha o'quvchilarga o'zlarini hurmatli, qo'llab-quvvatlangan va ta'lim jarayonida vakilligini his qilishlarini ta'minlaydi. Tarixan shakllangan tilga oid noto'g'ri qarashlarni bartaraf etish va inklyuzivlikni targ'ib qilish orqali pedagoglar o'ziga xoslik hissini kuchaytirib, ta'lim natijalarini yaxshilashlari mumkin. Ushbu maqolada gender-inklyuziv tildan foydalanish tamoyillari, afzalliklari, muammolari va uni sinflarda joriy etish strategiyalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va normativ tavsiyalar asosida yoritilgan. O'qituvchilarni tayyorlash va madaniy sezgirlikni oshirish orqali yanada inklyuziv ta'lim tajribasini yaratish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Аннотация: Гендерно-инклюзивный язык в классе стал важным аспектом создания равноправной образовательной среды. Этот подход гарантирует, что учащиеся всех гендерных идентичностей чувствуют себя уважаемыми, включенными и представленными в образовательной среде. Устраняя исторически сложившиеся предвзятости в языке и способствуя инклюзивности, педагоги могут укреплять чувство принадлежности и улучшать результаты обучения. В статье рассматриваются принципы, преимущества, проблемы и стратегии внедрения гендерно-инклюзивного языка в классы, с опорой на современные академические исследования и нормативные рекомендации. Особое внимание уделяется важности культурной чувствительности и подготовки учителей для создания более инклюзивного образовательного опыта.

Keywords: gender-inclusive language, inclusive education, classroom equity, linguistic bias, gender identity, teacher training.

Kalit so'zlar: genderno-inklyuziv til, inklyuziv ta'lim, sinfda tenglik, tilga oid noto'g'ri qarashlar, gender identifikatsiyasi, o'qituvchilarni tayyorlash.

Ключевые слова: гендерно-инклюзивный язык, инклюзивное образование, равенство в классе, языковая предвзятость, гендерная идентичность, подготовка учителей.

Language shapes how individuals perceive the world and interact with others. In educational contexts, the language used by teachers, administrators, and peers can significantly influence students' sense of identity and belonging. Gender-inclusive language acknowledges the diversity of gender identities and challenges traditional linguistic norms that reinforce gender binaries (Anderson, 2021)¹. This article examines the importance of adopting gender-inclusive language in classrooms, the

benefits it brings to students, and strategies educators can use to implement it effectively.

The sociolinguistic study of language and gender has traditionally been categorized into three main approaches: deficit, difference, and dominance. Deficit-based theories argue that women's language is inferior to men's and reflects "weakness", whether due to biological factors or societal positioning. Features such as hedges, tag questions, and indirect communication are often cited as evidence of this perceived linguistic

1 Anderson, R. (2021). Language, Identity, and Inclusivity: Perspectives on Gender in Education. *Journal of Inclusive Education*, 15(3), 45–62.

weakness. Difference-based theories, in contrast, suggest that the distinct linguistic behaviors of men and women arise from early socialization into separate subcultures, rather than inherent weakness or biological differences.

Dominance-based theories emphasize women's relative lack of power in society, using this dynamic to explain differences in male and female language use. More recently, researchers have recognized the limitations of strictly separating these approaches. They share a foundational assumption of a binary male-female distinction and often seek universal explanations for gendered language differences. Modern perspectives challenge this binary framework, shifting focus toward diversity, which considers the linguistic practices of individuals across various gender and sexual identities. Cameron (2005)² argues that research in language and gender might be better understood through the lens of difference versus diversity, rather than adhering to the traditional tripartite model. To fully grasp contemporary perspectives on language and gender, it is essential to review the foundational theories of deficit, difference, and dominance. However, these concepts often overlap, and current research moves beyond these traditional categories to explore the broader complexities of linguistic diversity.

Gender-inclusive language recognizes and respects all gender identities, avoiding assumptions based on traditional male-female binaries. For example, replacing "he/she" with "they" or using gender-neutral terms like "firefighter" instead of "fireman" helps create a more inclusive environment. Research indicates that students who feel represented and respected in classroom language are more

likely to engage positively and perform better academically (Smith & Taylor, 2020)³. Educational settings often reflect societal norms, which historically excluded non-binary and transgender identities from mainstream discourse. This marginalization can lead to feelings of alienation among students who do not conform to traditional gender categories (Johnson, 2022)⁴. By adopting gender-inclusive language, schools can play a pivotal role in normalizing diverse gender identities and reducing stigma. Using gender-inclusive language demonstrates respect for all students and fosters an environment where diversity is celebrated. This approach encourages students to respect one another's identities, contributing to a culture of mutual understanding and collaboration. Language that validates a student's identity can have significant positive impacts on mental health. A study by Martin and Singh found that students whose pronouns were correctly used by teachers reported lower levels of anxiety and depression. Inclusive language helps reduce instances of bullying and discrimination, promoting emotional well-being. An inclusive classroom atmosphere enables students to focus on their studies rather than social or emotional challenges arising from exclusion. Research by Taylor et al. (2020)⁵ found that inclusive pedagogical practices, including the use of gender-inclusive language, improved student participation and overall academic outcomes. Many educators lack the knowledge or training to implement gender-inclusive language effectively. Traditional teaching materials often perpetuate gender stereotypes, making it challenging for teachers to shift their practices (Brown, 2020)⁶.

Resistance from parents, policymakers, and even students can hinder the adoption of inclusive practices. Critics argue that

2 Cameron (2005). *Language, Gender, and Sexuality: Current Issues and New Directions*

3 Smith, J., & Taylor, R. (2020). "The Role of Language in Educational Equity" *Pedagogical Innovations Quarterly*, 7(3), 55-78.

4 Johnson, H. (2022). "Gender Diversity and Educational Equity" *Contemporary Issues in Education Research*, 18(1), 12-28.

5 Taylor, K., & Gomez, P. (2021). "Diverse Identities in Textbooks: A New Paradigm" *Educational Materials Research*, 9(4), 112-127.

6 Brown, P. (2020). "Challenges in Implementing Inclusive Language in Schools" *Educational Policy Review*, 12(4), 23-34.

such changes complicate communication or challenge cultural norms, creating tension in some communities. In languages with gendered grammar structures, adopting gender-inclusive language can be particularly challenging. For instance, in languages like Spanish or French, grammatical gender is deeply embedded, requiring innovative approaches to achieve inclusivity. Providing teachers with training on gender inclusivity is critical. Workshops and seminars can equip educators with practical tools to integrate inclusive language into their teaching. Studies highlight that trained educators are more confident and effective in using inclusive practices (Smith, 2021)⁷. Updating textbooks and educational resources to include diverse gender representations is essential. This can involve using stories, examples, and visuals that reflect a range of gender identities. Creating opportunities for students to discuss gender identity and inclusivity can promote understanding. Classroom discussions and activities centered on respect and diversity allow students to learn from one another's experiences.

Teachers can lead by example by using gender-neutral terms, asking for preferred pronouns, and avoiding assumptions about students' identities. Consistent modeling of inclusive language helps normalize its use in the classroom. Technology can support gender inclusivity through adaptive learning platforms that allow students to select their preferred pronouns and names. Additionally, digital tools can provide access to inclusive educational content. A high school in California implemented a gender-inclusive policy that included training sessions for teachers and revised school documents to use non-binary pronouns. Over two years, the

school reported a significant reduction in bullying incidents and higher engagement levels among LGBTQ+ students. A French primary school introduced innovative approaches to make the language more inclusive, such as using double forms (e.g., "étudiant-e-s" for students). While controversial, this approach increased awareness and discussions around gender inclusivity among parents and students. Despite its benefits, gender-inclusive language faces criticism. Opponents argue that it complicates communication and prioritizes a minority at the expense of broader simplicity (Davis, 2021)⁸. Others express concerns about potential conflicts with cultural or religious values. However, advocates counter that inclusivity does not diminish clarity but rather enriches communication by reflecting the diversity of human experiences. Additionally, while significant progress has been made in English-speaking contexts, implementing gender-inclusive practices in gendered languages remains a complex challenge. Researchers suggest that cultural adaptation is key to overcoming these hurdles (Garcia, 2021)⁹.

Several publications from 2019 examine how norms related to both gender and professionalism are shaped and negotiated in workplace contexts. Litosseliti, Gil, and Favaro (2019)¹⁰ analyze workplace policies addressing gender "diversity," highlighting that while such diversity is publicly emphasized, there is often little consideration of which expressions of masculinity and femininity are valued or marginalized in professional environments. Shrikant and Marshall (2019)¹¹ offer a case study of a Southern businesswoman who navigates conflicting expectations of professionalism and gender appropriateness. This woman shifts her communication style between a

7 Smith, J., & Taylor, R. (2020). "The Role of Language in Educational Equity". *Pedagogical Innovations Quarterly*, 7(3), 55-78.

8 Davis, M. (2021). "Resistance to Inclusive Practices: Navigating Community Norms". *Social Perspectives in Education*, 10(2), 67-78.

9 Garcia, L. (2021). *Technology and Inclusivity in Modern Education*. New York: Academic Press.

10 Litosseliti, Lia, Gil, Rosalind and Favaro, Laura Garcia (2019) Postfeminism as a critical tool for gender and language study. *Gender and Language* 13(1): 1-22. <https://doi.org/10.1558/genl.34599>

11 Shrikant, Natasha and Marshall, Dana (2019) 'I went to debutante school': using Southern femininity as a resource to negotiate authority in a Texan workplace interaction. *Gender and Language* 13(3): 396-417. <https://doi.org/10.1558/genl.36393>

direct, authoritative tone and a more traditionally feminine "Southern belle" manner. By leveraging this flexibility in her linguistic choices, she effectively engages with both gendered and professional norms, striking a performative balance between being perceived as a "culturally appropriate woman" and a "culturally appropriate leader"

Gender-inclusive language in classrooms is a vital component of fostering equitable and

respectful learning environments. By addressing linguistic biases, educators can support students' mental health, academic performance, and overall sense of belonging. While challenges exist, ongoing efforts in training, curricular revisions, and cultural adaptation highlight the potential for meaningful change. As societies become increasingly diverse, adopting gender-inclusive language will be integral to promoting inclusivity and equity in education.

6-7 YOSHLI BOLALARDA DO'STONA MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARNING DIDAKTIK AHAMIYATI

Farxod Karamatullo o'g'li Xoliqov – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar o'rtasida harakatli o'yinlar orqali sport mashg'ulotlarida do'stona munosabatlarni shakllantirishning ahamiyati hamda harakatli o'yinlar orqali bolalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish, o'zlashtirish, ijodiy va tajribaviy ko'nikmalarni kengaytirish, o'yinlarda bolalarning amaliy ko'nikmalari va umumiy ma'lumotlari bilan bog'liq masalalarni yechish, o'zlarining fikr va tushunchalarini ifodalashga imkon berishi, harakatli o'yinlar bolalarning ijodiylik va ta'lim muhitini rivojlantirishi katta ahamiyatga ega ekanligi haqida yoritilgan.

Аннотация: В данном исследовании подчеркивается важность формирования дружеских отношений между детьми в дошкольной образовательной организации во время занятий спортом посредством подвижных игр и совершенствования практических навыков детей посредством подвижных игр, мастерства, творческого и экспериментального расширения умений, решения связанных с ними задач. К практическим навыкам и общим знаниям детей в играх, позволяющих им выражать свои мысли и концепции, игры-действия стимулируют творческие способности детей. и подчеркивается, что развитие образовательной среды имеет большое значение.

Abstract: This research work highlights the importance of forming friendly relations between children in sports activities through active games in a preschool educational organization, and the importance of active games in improving and mastering children's practical skills, expanding creative and experimental skills, allowing children to solve problems related to their practical skills and general knowledge in games, and expressing their thoughts and ideas, and the importance of active games in developing children's creativity and educational environment.

Kalit so'zlar: sport o'yinlar, harakatli o'yinlar, didaktik o'yinlar, maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalari, do'stona munosabat.

Ключевые слова: спортивные игры, подвижные игры, дидактические игры, дети дошкольной образовательной организации, дружеское отношение.

Keywords: sports games, active games, didactic games, preschool children, friendly relations.

Harakatli o'yinlar, pedagogik amaliyotda o'ziga xos o'rganish usullaridan biri hisoblanadi. Bu o'yinlar bolalarning ilmiy fanlarni o'rganishini oshiradi, ularning fikr-mulohazalarini shakllantiradi va ularni ijodiy va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Respublikamizda bu borada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlod tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari yuqori darajaga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunlarida "Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun tegishli qonunchilik bazasi yaratilib, u zamonaviy

talablarni inobatga olgan holda takomillash O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni¹ (2015.04.09.)da belgilangan vazifalardan birida "Jismoniy sog'lom va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlar qalbida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini qaror toptirish maqsadida vazirliklar va idoralar, davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, o'quv yurtlari, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan bolalar ommaviy sportini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirish" haqida qayd etilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 04.09.2015.

Haqiqatdan ham jismoniy tarbiyaning muhim muammolaridan biri harakat faoliyatiga to'g'ri o'rgatishni optimallashtirishdir. Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarining jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini belgilab beruvchi ikki asosiy hujjatlar bor, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat talablari va "Alpomish" hamda "Barchinoy" maxsus testlari. Me'yoriy talablarining bajarish, asosan, bolalarni jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishiga bog'liq.

Harakatli o'yinlar pedagogik amaliyotda bolalarning o'zlashtirilishi va ma'lumotlarini o'rganishiga yordam berish maqsadida tuzilgan amaliyotlardir. Ushbu o'yinlarning barcha turlari bolalarning bilim olishi uchun yaratilgan va ularni o'rganish usullari va harakatlarini joriy etishga yordam beradi. Bu o'yinlar, asosan, amaliy va o'zlashtiruvchi tashqi muhitda o'tkaziladi.

Harakatli o'yinlarni bolalarning o'zlashtirishini oshirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida tashkil etish mumkin. Ushbu o'yinlarning eng muhim xususiyati, bolalarning faoliyati va qiziqishlari orqali bilim olishlari va tushunchalarni o'rganishlari uchun o'zlashtirilishi. Bu o'yinlar bolalarning tushunchalarini tahlil qilish, ta'limning o'zini o'zlashtirish, fikrlashni va muhokamalashni oshirish, shaxsiy taraqqiyotlarini rag'batlantirish va ijodiylikni kengaytirish maqsadida tuzilgan.

Harakatli o'yinlar amaliy harakterga ega bo'lib, bolalarning amaliy ko'nikmalarini oshirish, o'zlashtirish, ijodiy va tajribaviy ko'nikmalarni kengaytirish maqsadida tashkil etiladi. Bu o'yinlarda bolalarning amaliy ko'nikmalari va umumiy ma'lumotlari bilan bog'liq masalalar yechiladi va o'zlarining fikr va tushunchalarini ifodalashga imkon beriladi. Harakatli o'yinlar bolalarning ijodiylik va ta'lim muhitini rivojlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega.

Bu o'yinlar bolalarning ko'nikmalarni oshirish, o'zlashtirish, ijodiylikni kengaytirish, aloqani rivojlantirish va mustaqil fikrlashni oshirishga yordam beradi. Bularning joriy etilishi tajribaviy va amaliylikning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

6-7 yoshli bolalarni jismoniy tayyorgarlik muammosi ko'pchilik olimlar tomonidan X.Meliyev (1990), T.S.Usmonxodjayev (1999), X.Tulenova (2000), Y.Aripov (2007), B.Kipchanov (2011) va boshqalar nazariy jihatdan o'rganilgan bo'lsa, ba'zi tadqiqotchilar X.Meliyev, (1989), T.S.Usmonxo'jayev (1991), X.Tulinova, (2001), F.Xodjayev, (2002) va boshqalar turli xil jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarlikni oshirish masalalariga to'xtalib o'tishgan. Bundan tashqari T.S.Usmonxo'jayev, X.A.Meliyev, F.Xojiyevlar maktabgacha yoshdagi bolalarni harakatli o'yinlar orqali jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishga qarab to'garaklariga qabul qilish darajalarini ishlab chiqqanlar.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari ushbu yo'nalishda qilingan ilmiy ishlar ichida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega, musobaqa — bu o'quv-trenirovka jarayonining tarkibiy qismidir. Musobaqalarda har bir sportchi o'z raqibini yengishga intiladi va bu intilish sportchidan butun kuchni safarbar etishni talab qiladi. Bu nafaqat insonning funksional imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradi, balki ularni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Harakatli o'yinlar, o'rganish jarayonini amaliyotga aylantirish, talabalar orasidagi kompaniya va hamkorlikni rivojlantirish hamda o'zlashtirish uchun o'rganish jarayoniga o'zaro bog'liq bo'lib, pedagogik ahamiyatni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi².

Maktabgacha ta'limdagi 3-7 yoshli bolalarni har tomonlama turli soha olimlari ilmiy

2 Usmonxo'jayev T.S., X.Meliyev, D.A.Karimov, S.T.Usmonxo'jayev, D.X.Abdullayev. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiati". O'quv qo'llanma. Jizzax. 2021-yil. "Ruhsora servis". 180 bet

ishlar olib borgan bo'lsa-da, biroq 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilarida ham sog'lomlashtirish ishlarida, bolalar faoliyatida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni ilmiy asoslash hamda maxsus tadqiq etish zaruratining saqlanib qolayotganligi bu borada chuqur ilmiy yondashuvlar, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda.

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda harakatli o'yinlar orqali sport musobaqalari bilan shug'ullanishga qiziqishini rivojlantirish va do'stona munosabatlarga asosan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishni pedagogik tuzilishi ishlab chiqish va ilmiy-metodik tavsiyalar yaratishdan iborat. Demak, quyidagi vazifalar amalga oshirilsa ko'zlangan natijaga erishiladi:

6-7-yoshli bolalarda do'stona munosabatlarni shakllantirishda harakatli o'yinlarning didaktik ahamiyati pedagogik zaruriyat ekanligi nazariy empirik jihatdan asoslash;

Maktabgacha ta'lim sohasidagi mavzuga oid xalqaro tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

6-7-yoshli bolalarda do'stona munosabatlarni shakllantirishda harakatli o'yinlarning didaktik ahamiyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari, vositalari va yo'nalishlarini aniqlash;

6-7-yoshli bolalarda do'stona munosabatlarni shakllantirishda harakatli o'yinlarning didaktik ahamiyatiga asoslangan hamkorlik muhitiga tayyorlashning didaktik parametrlarini asoslash;

6-7-yoshli bolalarda do'stona munosabatlarni shakllantirishda harakatli o'yinlarning didaktik ahamiyatini shakllantirish tizimining samaradorligini aniqlashga oid eksperimental tadqiqot natijalari asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini, maktabgacha tayyorlov guruhlarini harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, jismoniy tarbiya va sportga oid tadbirlar, sportga oid didaktik o'yinlar va qo'shimcha tashkil etilgan sport turlari bo'yicha to'garaklar tashkil

etilsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalariga harakatli sport o'yinlari bilan shug'ullanishga qiziqishini rivojlantirish va do'stona jarayonining mazmuni, shakli, metod va vositalari o'z samarasini beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalariga sport bilan shug'ullanishga qiziqishini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, sport sohasida tadqiqotchilik kompetentligining o'ziga xos xususiyatlari, mezonlari o'rganilganligi bilan izohlanadi. MTT bolalariga sport bilan shug'ullanishga qiziqishini rivojlantirish bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, ishlab chiqishda MTT bolalariga sport bilan shug'ullanishga qiziqishini rivojlantirishning loyihalashtirish bosqichlari, mexanizmlari hamda metodik ta'minotidan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Demak, harakatli o'yinlar pedagogik ahamiyatda o'rganish jarayonini yaxshilash uchun o'quv jarayonida amalga oshirilgan ishlar, o'quv materiallarini tahlil qilish va qo'llash, bolalarni o'zlashtirish va bilimlarini amalga oshirish uchun tuzilgan yengil ichki qo'llanmalardir. Bu o'yinlar qisqa vaqt ichida bolalarga kerakli ma'lumotlarni yetkazish, ularni motivatsiyalash va o'zlashtirish, bolalarning ko'nikmalarni buzish, bilim va ko'nikmalarini tekshirish, tahlil qilish va muhokama qilish, bilim olish va o'zlashtirish kabi ko'nikmalar yaratishga yordam beradi. Harakatli o'yinlar ko'p turlarda bo'lishi mumkin, masalan, o'yinlar, ijro, ko'nikma, muhokama va boshqa turlari kiritilishi mumkin. Pedagogik ahamiyatda, harakatli o'yinlar, bolalarning bilim va ko'nikmalarini yanada yaxshilash uchun to'liq ma'lumotlar berish, o'quv jarayonini qiziqarli qilish va bolalarning o'zlashtirishida ishlatilishi lozim bo'lgan o'quv vositalaridir.

Harakatli o'yinlar bolalarning o'zlashtirishida juda muhim bo'lib, ularning ilg'or tajribalarini ko'paytirishga yordam beradi. Ular bolalarga yaratuvchi va innovatsion usullarni o'rganishga yordam beradi va bolalarning bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, harakatli o'yinlar bolalarning ijtimoiy, iqtisodiy, shaxsiy, jismoniy, ma'naviy va boshqa sohalaridagi ko'nikmalarini yanada kengaytirishga yordam beradi.

MAQOM SAN'ATI TARIXI RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK XUSUSIYATLAR

Feruza Baymanova – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqom – O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy merosi bo'lib, asrlar davomida shakllangan mumtoz musiqa janri hisoblanadi. Ushbu maqolada maqomning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi va uning O'rta Osiyoda qanday ahamiyat kasb etgani ko'rib chiqiladi. Maqomning qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari, buyuk allomalarning ilmiy asarlari va ularning maqomga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqomning Shashmaqom kabi keng tarqalgan shakllari, uning ijrochiligi va xalq orasidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: Маком представляет собой богатое культурное наследие народов Узбекистана и Средней Азии и является классическим музыкальным жанром, который формировался веками. В данной статье рассматриваются происхождение, историческое развитие и значение статуса в Центральной Азии. Анализируются этапы развития макама с древнейших времен до наших дней, научные труды великих учёных и их вклад в маком. Также говорится о распространенных формах макама, таких как шашмаком, его исполнении и месте среди людей.

Abstract: Makom represents the rich cultural heritage of the peoples of Uzbekistan and Central Asia and is a classical musical genre that has been formed over centuries. This article examines the origins, historical development and significance of status in Central Asia. The stages of development of maqam from ancient times to the present day, the scientific works of great scientists and their contribution to maqam are analyzed. It also talks about common forms of maqam, such as shashmakam, its performance and place among people.

Kalit so'zlar: maqom, Shashmaqom, o'zbek mumtoz musiqasi, musiqiy meros, maqom tarixi, Al-Forobiy, Ibn Sino, O'rta Osiyo madaniyati, maqom ijrochiligi, YUNESKO.

Ключевые слова: маком, Шашмаком, узбекская классическая музыка, музыкальное наследие, история макама, Аль-Фараби, Ибн Сина, культура Средней Азии, исполнение макама, ЮНЕСКО.

Keywords: maqom, Shashmaqom, Uzbek classical music, musical heritage, history of maqom, Al-Farabi, Ibn Sina, culture of Central Asia, performance of maqom, UNESCO.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sharq taronalari" o'n birinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek: "Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi o'ta murakkab zamonda millati, tili va dini turlicha bo'lgan millionlab odamlarni hech qanday tarjimonsiz do'st qiladigan, ular o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydigan musiqa san'atining o'rni va ta'siri tobora ortib bormoqda"¹.

Maqom – bu O'zbekistonning milliy musiqiy madaniyatining noyob va qadimiy janri bo'lib, xalqimizning tarixiy va madaniy o'ziga xosligini o'zida mujassam etadi. Musiqa har doim inson hayotining muhim bir qismi bo'lgan va maqom ham shu musiqiy an'analarning cho'qqisi sifatida shakllangan. Asrlar davomida maqom nafaqat musiqa san'ati, balki xalqning dunyoqarashi, falsafasi va ma'naviyati bilan chambarchas bog'lanib kelgan. Maqomning ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi, uning shakllanishi O'rta Osiyo xalqlarining madaniy va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq. Bu janr ko'p asrlar davomida xalq musiqasi, diniy marosimlar va saroy

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Sharq taronalari" o'n birinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutq so'zladi // "Xalq so'zi", 2017-y., 29-avgust.

madaniyatining bir qismi sifatida rivojlangan². Maqom san'ati doimo musiqashunoslar, ijrochilar va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan va hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ushbu maqolada maqomning kelib chiqishi va tarixi, uning madaniy meros sifatidagi o'rni va bugungi kunda qanday saqlanib kelayotgani haqida fikr yuritiladi. Maqom janrining rivojlanish bosqichlari, u bilan bog'liq bo'lgan ilmiy va musiqiy tadqiqotlar, shuningdek, Shashmaqom kabi maqom shakllarining o'ziga xosligi ko'rib chiqiladi.

Maqom O'rta Osiyo xalqlarining boy musiqiy merosi bo'lib, uning tarixi ming yilliklar chuqurligiga borib taqaladi. Maqom janri qadimgi davrlarda xalq musiqasi va diniy marosimlar bilan uyg'unlikda rivojlanib, o'ziga xos ijro uslublari ega bo'lgan. Ayniqsa, islom madaniyatining ta'siri ostida maqom musiqa janri yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan. Bu davrda maqom xalifalik saroylarida ijro etilib, o'ziga xos murakkab uslublar va kuylar yaratildi. IX-X asrlarda yashagan buyuk mutafakkirlar, xususan, Al-Forobiy va Ibn Sino maqom nazariyasi va uning ilmiy asoslarini rivojlantirganlar.

Al-Forobiyning musiqa bag'ishlangan asarlari maqomning turli xil shakllarini o'rganishga va ularning tizimli tahliliga asos solgan. Maqomning ilmiy jihatdan rivojlanishi uning asrlar davomida to'planib kelgan bilim va mahorat bilan yanada boyishini ta'minladi.

Maqomning ilmiy asoslari IX-X asrlarda yashagan buyuk allomalar Al-Forobiy va Ibn Sino tomonidan o'rganilgan va rivojlantirilgan. Al-Forobiy o'zining "Kitob al-Musiqa al-Kabir" (Buyuk Musiqa Kitobi) asarida maqomlarning nazariyasi va ularning musiqiy tuzilishini tahlil qilgan. U maqomning kuylar tizimini batafsil o'rganib, ularni ohang, tovush qatori va ritmik xususiyatlariga ko'ra tasnif qilgan.

Al-Forobiy maqomning falsafiy tomonlariga e'tibor berib, musiqaning inson ruhiy holatiga qanday ta'sir qilishini ham tahlil qilgan. Ibn Sino ham maqom nazariyasini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan³. U maqomlarni turli kategoriya va toifalarga ajratib, ularning psixologik va estetik ta'sirlarini o'rgangan. Ibn Sino o'z ilmiy asarlarida maqomlarning tibbiy jihatdan ham inson organizmiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilib, ularni davolashda qo'llash imkoniyatlari haqida yozgan. Bu esa maqomning nafaqat musiqiy san'at, balki sog'lomlashtirish vositasi sifatida ham qadrlanganini ko'rsatadi.

Maqom musiqa janri o'zining murakkab va o'ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi. U ko'p bosqichli musiqiy asarlar tizimini ifodalaydi, har bir maqom esa turli qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lum bir tuzilma va ijro etish qoidalariga amal qiladi. Maqom odatda muqaddima, nasr, qashqarcha, tarona kabi bo'limlarga bo'linadi va har bir qism o'zining ritmik va melodik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Maqom asarlarini ijro etishda kuy va ashulalar uyg'unligi muhim rol o'ynaydi. Ijro jarayonida ashulachi ohangni davom ettirib, so'zlarni ifoda qiladi, musiqachilar esa asboblarda maxsus ritmlar va ohanglarni ijro etadi. Bunda ohanglarning chuqurligi va rivojlanishi maqomning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Har bir maqom o'ziga xos ohang tizimiga ega bo'lib, bu tizim, asosan, diatonik yoki xromatik tovush qatorlariga asoslanadi. Maqomda kuylar asta-sekin rivojlanadi va ohanglar asta-sekin yuqoriga ko'tarilib, musiqaning cho'qqisiga yetadi. Bu jarayon maqomning falsafiy mazmunini ochib beradi va tinglovchilarni chuqur ruhiy holatga tushiradi. Ayniqsa, tarona qismi ritmning kuchayishi va energiyaga to'lishi bilan ajralib turadi va ijro jarayonida qudratli kayfiyat hosil qiladi. Bu maqomning chuqur estetik go'zalligi va ma'naviy mazmunini namoyon etadi.

2 Al-Forobiy. "Kitob al-Musiqa al-Kabir". Qadimgi arab musiqa nazariyasi asari, maqom haqida ilmiy tadqiqot. 31-bet

3 Al-Forobiy. "Kitob al-Musiqa al-Kabir". Qadimgi arab musiqa nazariyasi asari, maqom haqida ilmiy tadqiqot. 39-bet

Maqom janrining eng ko'zga ko'ringan shakllaridan biri bu Shashmaqomdir. Shashmaqom – bu oltita asosiy maqom: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroqdan iborat bo'lib, har biri o'ziga xos musiqiy qoidalar va ijro usullariga ega. Bu maqomlar ichki tuzilishi, kuyi va ovoz balandligi jihatidan farqlanib, musiqachilardan katta mahorat talab qiladi.

Shashmaqom ijrosi an'anaviy tarzda asosan ansambl tomonidan amalga oshiriladi. Ijrochilikda klassik asboblari, jumladan, tanbur, doira, rubob va nay ishlatiladi. Har bir maqomning o'ziga xos usuli va ohanglari bo'lib, ular bir-biri bilan uyg'unlashib, ma'naviy va estetik jihatdan boy ifoda yaratadi. Maqomning har bir turida ohanglar asta-sekin rivojlanib, musiqaning yuqori cho'qqisiga ko'tariladi, bu esa ijrochilikning chuqur falsafiy va ruhiy tomonlarini namoyon etadi.

Maqom faqat musiqa san'ati sifatida emas, balki xalqning ijtimoiy hayoti, madaniyati va falsafasini ifodalovchi san'at janri sifatida ham ahamiyatlidir. U asrlar davomida O'rta Osiyoda yashagan xalqlar hayotida muhim rol o'ynagan, diniy marosimlar, bayramlar va kundalik hayotda ijro etilgan. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari davrida maqom san'ati saroy madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. Saroylar uchun maxsus musiqiy ansambllar tuzilib, ularda maqom asarlari ijro etilgan. XIX asrda maqom O'zbekistonda va Tojikistonda yanada keng tarqalib, xalq musiqasi va professional musiqachilar ijodi bilan uyg'unlashdi. Bu davrda maqom ijrochiligi avloddan avlodga o'tib, ustoz-shogird an'anasi orqali saqlanib kelingan. Bu esa maqom san'atining umrboqiyiligini va uning xalq orasidagi katta e'tiborini ta'minladi.

Maqom O'rta Osiyoda xalq musiqasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, asrlar davomida xalq qo'shiqlari va kuylaridan ilhomlanib rivojlangan. Maqom janri saroy madaniyatida yuqori san'at darajasida ijro etilgan bo'lsa-da, uning ildizlari xalq musiqasi va madaniyatida joylashgan.

Xalq orasida maqomning turli ko'rinishlari bayramlar, diniy marosimlar va kundalik hayotda ijro etilgan. Ayniqsa, maqomning xalq musiqasi bilan uyg'unlashuvi ijrochilik san'atida namoyon bo'ladi. Maqom asarlarida xalq kuylaridan foydalanish, ularning ohanglari va ritmlarini maqomga uyg'unlashtirish an'ana bo'lib qolgan. Bu jarayon, asosan, ustoz-shogird an'anasi orqali amalga oshirilgan bo'lib, maqom ijrochiligi avloddan avlodga o'tib, saqlanib qolgan. Bu esa maqomning xalq musiqasi va madaniyati bilan doimiy aloqada bo'lib qolishini ta'minlagan.

Maqom san'atida ustoz-shogird an'anasi katta ahamiyatga ega. Asrlar davomida maqom ijrochilari o'z bilim va mahoratlarini shogirdlariga o'rgatib, ularni yetuk musiqachilar qilib tarbiyalaganlar. Maqom ijrochiligi murakkabligi va yuqori darajadagi mahoratni talab qilishi sababli, shogirdlar ustozlaridan uzoq yillar davomida bilim olib, maqomning ohanglari, ritmi va ijro usullarini mukammal o'rganishgan. Ustoz-shogird an'anasi nafaqat musiqiy bilimlarni, balki maqomning falsafiy va ma'naviy tomonlarini ham shogirdlarga yetkazish imkonini beradi.

Maqom asarlari odatda ansambl tomonidan ijro etiladi. Ansambl tarkibida turli musiqa asboblari, xususan, tanbur, nay, rubob, doira kabi milliy cholg'ular ishtirok etadi. Har bir asbob maqom asarining ohangiga va ijro uslubiga mos ravishda o'z vazifasini bajaradi. Bunday ansambl ijrochiligi maqomning o'ziga xos estetik va falsafiy mazmunini to'liq ochib beradi. Ansamblda har bir musiqachi o'z asbobi orqali maqomning ohangini yuksak darajada ifoda etib, kuy va ritmlarni uyg'unlikda ijro etadi. Bunda ashulachi (vokalist) ham alohida o'rin tutadi. Ashulachi maqom matnini aniq talaffuz qilib, uning ohanglari bilan uyg'unlashgan holda kuylaydi. Ashulachi maqomning ruhiy va ma'naviy jihatlarini o'z ovozi orqali ifodalaydi, bu esa maqom ijrosiga alohida chuqurlik baxsh etadi. Ushbu ansambl ijrochiligi maqomning qadimiy an'alarini saqlab qolishga va uni

yangi avlodlar uchun taqdim etishga xizmat qiladi. Maqom ansambllari O'zbekistonda va xalqaro miqyosda ham faoliyat olib borib, bu san'atni dunyo miqyosida keng tarqatmoqda. Maqomning boy musiqiy, madaniy va ilmiy merosi uning O'zbekistondagi va dunyodagi ahamiyatini belgilab beradi. Asrlar davomida saqlanib kelgan ushbu san'at bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan va yangi avlodlar tomonidan izlanish va ijro orqali boyitilmoqda.

XIX asr birinchi yarmida maqomga ilmiy va madaniy jihatdan alohida e'tibor berildi. Shashmaqom asarlari ilk bor notaga tushirildi va yozma ko'rinishda saqlanib qolindi. Shu bilan birga, maqom ansambllari tashkil etilib, maqom asarlari ijrochiligi keng ommaga tarqatildi. Bu davrida maqom faqat milliy meros emas, balki xalqaro miqyosda ham tanildi.

Bugungi kunda maqom san'ati O'zbekistonda va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida katta e'tiborga sazovor bo'lib, uning asrlar davomida shakllangan boy an'analari saqlanib qolmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maqom san'ati yangi bosqichga ko'tarildi. Sovet davrida maqom ilk marta ilmiy asosda tadqiq etilib, notalar orqali saqlanib qolishi va ommalashishi ta'minlandi. Ammo bugungi kunda maqom yanada kengroq ko'lamda o'rganilib, xalqaro miqyosda ham tan olinib boshladi.

Maqom san'ati bugungi kunda O'zbekistonda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, turli festivallar va tanlovlar orqali ommaga tanishtirilmoqda. 2018-yilda Toshkent shahrida ilk marotaba Xalqaro Maqom san'ati forumi tashkil etildi, bu esa maqomning xalqaro miqyosda tan olinishiga katta hissa qo'shdi. Ushbu forumda nafaqat O'zbekistondagi, balki butun dunyodan kelgan musiqashunoslar, ijrochilar va olimlar maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish yo'nalishlarida o'zaro fikr almashdilar. Bu kabi tadbirlar maqom san'atini

zamonaviy madaniyatning ajralmas qismi sifatida xalqaro maydonda targ'ib qilish imkonini beradi. Bugungi kunda maqomning turli ko'rinishlari xalqaro musiqiy tadbirlar va konsertlarda ijro etilib, jahon musiqashunoslari va tinglovchilari tomonidan yuqori baholanmoqda.

Maqom san'atini saqlab qolish va rivojlantirishda yosh avlod ijrochilari katta rol o'ynamoqda. O'zbekistondagi musiqa maktablari va konservatoriyalarida maqom o'quv dasturlariga kiritilgan bo'lib, yosh musiqachilar ustozlaridan maqomning nozik jihatlarini o'rganib kelmoqdalar. Ustoz-shogird an'anasi bugungi kunda ham faoliyat olib bormoqda, bu esa maqom ijrochiligida asrlar davomida shakllangan an'analarning saqlanishini ta'minlaydi. Ayni paytda, zamonaviy musiqachilar maqomning klassik shakllarini o'rganish bilan birga, uning yangi uslublarni kashf etish va zamonaviy musiqa bilan uyg'unlashtirishga intilmoqdalar. Ba'zi yosh ijrochilar maqomni jazz, simfonik musiqa va elektron musiqa kabi janrlar bilan birlashtirib, yangi musiqiy eksperimentlar o'tkazmoqdalar. Bu ijodiy izlanishlar maqomning zamonaviy san'atga moslashishiga va kengroq auditoriyaga yetib borishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston hukumati maqom san'atini asrab-avaylash va rivojlantirish bo'yicha turli davlat dasturlarini amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilda maqom san'atini rivojlantirish va ommalashtirish to'g'risidagi qarori mazkur san'atning milliy va xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlashga qaratilgan⁴. Mazkur qaror doirasida maqom ansambllari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, musiqashunoslar va ijrochilarning ilmiy izlanishlarini rag'batlantirish, shuningdek, maqom asarlarini keng auditoriyaga taqdim etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar maqomning ommaviylashishiga va global miqyosda tinglovchilar

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "Maqom san'atini rivojlantirish va saqlash bo'yicha davlat dasturi". 2017.

sonining ortishiga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Maqom asarlari hozirda internet platformalari orqali tarqatilib, raqamli texnologiyalar yordamida saqlanmoqda. Bu esa maqomni dunyoning istalgan burchagida tinglash va o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy media platformalari orqali maqom san'ati targ'ib qilinib, turli virtual konsertlar va musiqiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu nafaqat maqomni ommalashtirish, balki uni yangi avlodlar bilan bog'lab turish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda maqom nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. 2003-yilda Shashmaqom YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida tan olinib, bu san'at janrining butun dunyo miqyosida qadr-qimmatini oshdi. O'zbekiston va Tojikistonda maqom ijrochiligi davom etib, an'anaviy va zamonaviy usullar bilan birga rivojlanmoqda.

Zamonaviy maqom ijrochilari va musiqashunoslari maqomni yangi avlodlarga yetkazish uchun izlanishlar olib borishmoqda. Yirik san'at festivallari, konsertlar va ilmiy anjumanlar maqomning saqlanishiga va uni xalqaro miqyosda tanilishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, maqom musiqa maktablarida o'rgatilib, yosh avlodlar tomonidan ijro etilmoqda, bu esa uning kelajakda ham saqlanishini ta'minlaydi.

Maqom san'ati xalqning asrlar davomida to'plangan ma'naviy boyligi va madaniy merosi bo'lib, uning ahamiyati bugungi kunda ham juda katta. O'zining murakkab ijro uslublari, falsafiy mazmuni va musiqiy go'zalligi bilan maqom o'zbek va tojik xalqining milliy boyligiga aylangan. Maqom faqat musiqa san'ati emas, balki xalqning tarixiy xotirasi va madaniy yuksalishini ifodalovchi boy merosdir. Maqom san'ati bugungi kunda ham o'zining qadimiy an'alarini saqlab qolgan holda zamonaviy davr talablariga moslashib bormoqda. Yosh ijrochilar va zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi maqomning yanada kengroq auditoriyaga yetib borishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga, davlat ko'magi va xalqaro miqyosdagi tadbirlar maqomning madaniy meros sifatida ahamiyatini yanada oshirmoqda. Maqom san'ati O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo xalqlari uchun

bebaho madaniy va ma'naviy meros hisoblanadi. Asrlar davomida shakllangan bu san'at murakkab musiqiy tuzilishi, chuqur falsafiy mazmuni va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Maqom xalq musiqasi, diniy an'analar, saroy madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u nafaqat musiqiy ifoda vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy boyligini ifoda etadi. Hozirgi kunda maqom san'ati zamonaviy davr talablari bilan hamohang tarzda rivojlanib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Yosh ijrochilar tomonidan maqomning klassik shakllari o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar yordamida saqlanmoqda va keng ommaga yetkazilmoqda. Maqom xalqaro miqyosda ham e'tirof etilib, YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida tan olingan. Bugungi kunda maqomning rivojlanishi faqat O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo bilan chegaralanmay, butun dunyo musiqachilari va san'at ixlosmandlarining diqqat markazida bo'lib, yangi avlodlar uchun ilhom manbayi bo'lib qolmoqda. Maqomning asrlarga tatigulik boy tarixi va kelajakka bo'lgan istiqboli uning abadiyligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi.

Yosh avlodda milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini shakllanishida ajdodlarimizning musiqiy merosi yetakchi o'rin egallaydi.

Milliy g'ururni shakllantirish esa avvalo, milliy o'zlikni anglashdan boshlanadi. Zero, milliy o'zligini anglagan xalq nafaqat o'zligini, balki o'zga millatni ham hurmat qiladi.

Biz o'rgangan ushbu mavzu yoshlarni o'tmish qadryatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda aynan maqom san'atini avlodlardan avlodga o'tishida va o'rganilishi borasida muhim omil va vosita bo'lib hisoblanadi.

NOTA SAVODXONLIGINI O'RGATISHDA INSON TEMPERAMENTLARINING MUHIMLIGI

Muqaddas Riskulovna Mo'minova — o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: O'quvchining shaxsiy xususiyatlari ularning turli temperamentlarga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Nota savodxonligini o'rgatishda ham temperament katta rol o'ynaydi. Temperamentlar tushunchasi nima? Ma'lumki, odamlar xulq-atvori va faoliyat motivlari nisbatan teng bo'lganda, tashqi ta'sirlar bir xil bo'lganda, ta'sirchanligi va ko'rsatayotgan energiyasiga ko'ra bir-birlaridan, sezilarli darajada farq qiladilar. Maqolada mana shu tushunchalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Аннотация: Личностные особенности студентов отражаются в том, что они обладают разным темпераментом. Темперамент также играет роль в обучении нотной грамоте. Каково понятие темперамента? Известно, что при относительном равенстве поведения и мотивов деятельности людей, при одинаковых внешних воздействиях они существенно отличаются друг от друга по впечатлительности и проявляемой энергии. В статье говорится об этих понятиях.

Abstract: The student's personal characteristics are reflected in the fact that they have different temperaments. Temperament also plays a role in teaching note literacy. What is the concept of temperaments? It is known that when people's behavior and motives of activity are relatively equal, when external influences are the same, they differ significantly from each other in terms of their impressionability and the energy they show. The article talks about these concepts.

Kalit so'zlar: temperament, o'qituvchi, o'quvchi, Abu Nasr Forobiy, pedagogika, psixologiya, introvertlik, ekstrovertlik, nevrotizm.

Ключевые слова: темперамент, учитель, студент, Абу Наср Фараби, педагогика, психология, интроверсия, экстраверсия, нейротизм.

Keywords: temperament, teacher, student, Abu Nasr Farabi, pedagogy, psychology, introversion, extroversion, neuroticism.

O'qitishning qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar bolaning yoshi, shaxsiy xarakteri, imkoniyatlari va temperamenti muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchiga ta'lim berishda, albatta, ushbu omillarni hisobga olgan holda individual yondashishi kerak bo'ladi. Bola rivojlanishining ilk davrlaridanoq turli shakllar, ranglar va tovushlarning xarakterli xususiyatlarini ajrata olishni o'rgana boshlaydi. Maktabgacha bo'lgan davrda bolaning aqliy faoliyati va hissiy organlari shakllangan bo'ladi.

Bolaning shaxsiy aktivligi mavjud bo'lmasa, muhit ham, irsiyat ham shaxsga, uning psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsata olmaydi.

Faqat o'zining faolligini ko'rsatgandagina bola atrof-muhitning ta'sirini his qilishi mumkin,

shundagina uning nasliy xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin¹.

Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlar, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishning eng yetuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi².

1 Sh.A. Do'stmuhamedova, Z.T. Nishanova, S.X. Jalilova, Sh.T. Karimova, Sh.T. Alimbayeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent-2013-221 b.

2 Dots. F.A. Akramova, N.X. Lutfullaeva, X.R. Xaydarova "Pedagogik psixologiya" fani (ma'ruzalar matni). — T.: TDIU, 2005-188 b.

O'qituvchi o'quvchilar hayoti va faoliyatining tashkilotchisi bo'lishi, har bir bolaning psixologiyasini yaxshi bilishi va o'zi ham yetarlicha pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik qobiliyat – o'qituvchi shaxsining ma'lum bir psixologik xususiyatlari bo'lib, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashda yuqori natijalarga erishish shartidir³.

Psixologik pedagogik adabiyotlarda kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayoniga ta'sir etadigan omillarning 4 guruhi ajratiladi. Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy bo'lib u taraqqiyotning turli bosqichlarida jamiyat hayotiga kirib kelayotgan yoshlarga o'zlaridagi mavjud kuch va imkoniyatlarini sarflashga turli sohalarni taklif etadi. Ikkinchi navbatda, bu kasblar spektri ularning o'zgarishi va rivojlanish istiqbollari jamiyatning u yoki bu mutaxassislariga ehtiyojiga daxldordir.

Ijtimoiy-psixologik omillar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Avvalo, inson maktab ta'limigacha va keyin o'sib tarbiya olgan muhit, oila, do'stlar davrasi, maktab jamoasi va shu kabilar.

Ijtimoiy muhit ta'sirida shaxsning qadriyatli yo'nalganligi kasblarning turli guruhlariga munosabati o'ziga xos ijtimoiy kutishlar ustanovka va stereotiplar shakllanadi.

Uchinchi guruh asl psixologik omillardan iborat bo'lib, bu shaxsiy qiziqish va moyilliklar umumiy va spetsifik qobiliyatlar aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi xotira xususiyatlari, diqqat motorikasining o'ziga xosligi va shu kabilar.

Nihoyat to'rtinchi guruh individual psixofiziologik xususiyatlarni o'z ichiga olib, ulardan ko'p o'rganilgani nerv tizimining asosiy xossalari faoliyat turlariga munosabatini ta'siri masalasidir. Ular psixik jarayonlar kechishining

dinamik tavsifnomalarini belgilaydi turli temperamentlar ko'rinishida ifodalanadi va ma'lum faoliyat turini bajarishga ko'maklashishi, yo aksincha uni qiyinlashtirishi mumkin.

Xarakter xislati — ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topgan shaxsning xatti-harakatlarida muntazam uchraydigan doimiy xususiyat va sifatlar yig'indisi. Xarakterning ijobiy xislatlari – shaxsning jamiyat axloq normalari doirasidagi doimiy ijobiy xususiyatlari⁴.

Bolaga ta'lim va tarbiya berishda psixodiagnostika muhim o'rin tutadi.

Psixologik diagnoz qo'yishning umumiy sharoitlariga aloqador asosiy mezonlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- psixologik diagnoz insonga xos bo'lgan maxsus hodisa va xususiyatlarni ochib berishi kerak;

- har qanday diagnoz olingan natijalarni bayon qilishi bilan chegaralanmasligi, u yoki bu belgining vujudga kelish sababi, oqibati, keyingi rivojlanishi ham qo'shilishi kerak⁵.

O'quvchining shaxsiy xususiyatlari ularning turli temperamentlarga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Temperamentlar tushunchasi nima?

Ma'lumki, odamlar xulq-atvori va faoliyat motivlari nisbatan teng bo'lganda, tashqi ta'sirlar bir xil bo'lganda, ta'sirchanligi va ko'rsatayotgan energiyasiga ko'ra bir-birlaridan, sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilishni yoqtiradi. Bir xil odamlarga hissiyotlarning tez qo'zg'alishi xos bo'lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa bironi keskin imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasini harakatlarda og'ir-bosiqlik, yuzning juda ham kam harakat qilishi ajratib turadi. So'z yuritilayotgan individual

3 Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Elektron manzil: <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-286815-1.html?page=2>

4 S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Kasb psixologiyasi o'quv qo'llanma — Toshkent 2010. www.ziyouz.com kutubxonasi 124-bet

5 Z.Nishanova, Z.Kurbanova, S.Abdiyev, Sh.Tulaganova. Psixodiagnostika. Toshkent -2008. 114 b.

farqlar o'zlarining tug'ma asosiga ega bo'lishi shubhasizdir. Bu shu narsa bilan tasdiqlanadiki, bu farqlar bolaligidayoq ma'lum bo'la boshlaydi, xulq-atvorning va faoliyatning turli sohalarida ko'rinadi va alohida barqarorligi bilan ajralib turadi.

Psixikaning individual jihatdan o'ziga xos, tabiiy jihatdan shartlashgan dinamik ko'rinishlar majmui kishining temperamenti deb ataladi⁶.

Introvertlik – kishida dilkashlikning yo'qligi, o'zi bilan o'zigina bo'lib qolishi, boshqa kishilar bilan mutlaqo qiziqmasligi, o'z ustida chuqur o'ylashga bo'lgan moyillik.

Ekstrovertlik – ayrim kishilarning xarakterini belgilab beruvchi xususiyat bo'lib, bu kishining nihoyatda xushchaqchaqligi, ochiq ko'ngilliligi va boshqa kishilarga zavq bilan qarashlarida, ularga qiziqishlarida namoyon bo'ladi.

Nevrotizm – tez, kuchli qo'zg'aluvchanlik, impulsivlik, xavotirlik holatlarini namoyon bo'lish darajasini xarakterlovchi xususiyat.

Temperament – shaxsning yakka psixologik xususiyatlari mazmun bo'lib, bu kishi faoliyati va xulq-atvorining dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlaydi.

Turli odamlar tevarak-atrofdan ro'y berayotgan hodisalarga turlicha javob beradilar. Masalan: kimdir shoshib, tez javob beradi, ular ta'sirchan bo'ladilar. Kimdir aynan shunday hodisalarga shoshmasdan sekin javob beradilar, ular sust va befarq bo'ladilar. Kimdir g'ayratli, keskin bo'lsa, boshqa birovlar bir maromli, mulohazali bo'ladilar. Demak, temperament psixikaning individual xususiyatlaridan biridir⁷.

Nerv sistemasi ro'y beradigan nerv protsesslarining kuchli, muvozanati, harakatchanligiga qarab inson oliy nerv faoliyati 4 tipga ajratiladi:

Kuchli, muvozanatli – epchil – sangvinik.

Kuchli, muvozanatsiz – epchil – xolerik.

Kuchli, muvozanatli – sust – flegmatik.

Kuchsiz tip – melanxolik.

Xolerik temperament tipi – kuchli his-tuyg'ular, kayfiyatni tez o'zgaruvchanligi, muvozanatsizlik va umumiy serharakatlik bilan xarakterlanadi. Sangvinik temperament tipi – serharakatlik, hislik, mehribonlik, muloqotga tez kirishadigan, tez reaksiya bera olishlik bilan xarakterlaydi. Flegmatik temperament tipi – o'ta muvozanatli, shoshmaydigan, emotsional holatlari tashqarida sust ko'rinishga ega bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Melanxolik temperament tipi – o'ta ta'sirlanuvchanligi, hatto arzimagan narsalarni deb ham chuqur qayg'urishi, ta'sir qilayotgan stimullarga reaksiyasi sekinligi bilan xarakterlanadi.

Musiq va nota savodini o'rganish, asarlarni cholg'u yoki vokal ijrochisi sifatida ijro etish o'ziga xos emotsional tuyg'ular, ichki kechinmalar va albatta insonning individual qobiliyatlariga ham bog'liqdir. Turli temperament va turli xarakterdagi bolalarning musiqani o'rganishi va asarlarni ijro etishida turlicha yondashishlarni kuzatish mumkin. Bu, avvalo, bolaning individual qobiliyatiga ham bog'liqdir.

Qobiliyatlarni bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin: Iste'dod qobiliyatlar uchun zarur bo'lgan tug'ma yoki orttirilgan zehn, layoqatlar yig'indisi.

Talant – qobiliyatlarni yuqori rivojlanish darajasi, faoliyatni mustaqilligi, originalligi.

Geniallik – shaxsni eng yuksak darajadagi ijodiyot bilan o'zini namoyon qilish hodisasi.

Yuqori darajadagi rivojlangan qobiliyatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki – mavjud

⁶ <https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/psixologiya/temperament-3>

⁷ O'sha manba

qobiliyatlar shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichlaridanoq namoyon bo'la boshlaydi. Hammamizga ma'lumki, Motsart 3 yoshida musiqa pyesalarini ijro eta olgan, Rafael 8 yoshida rasm chiza boshlagan. Repin 4 yoshda, Pushkin 7 yoshidan, Lermontov 8 yoshdan she'r yozishgan. Qobiliyatlarni kech namoyon bo'lishi ham kuzatiladi⁸.

Bolalarning temperamentli xususiyatlarini bilish ularning xulq-atvorining ba'zi xususiyatlarini to'g'ri tushunishga imkon beradi, tarbiyaviy ta'sir usullarini to'g'ri yo'l bilan o'zgartirishga imkon beradi. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchining o'quvchilar diqqatini tashkil etish usullarini, ularning temperamentining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlay olishi juda muhimdir. Bolalarning motorli reaksiyalariga qo'shimcha ravishda, musiqani eshitish orqali hissiy idrok etish, uni tushunish odat tusiga kiradi.

Sangvinik o'quvchi bilan ishlaydigan o'qituvchiga quyidagilar tavsiya etiladi:

Sangvinik odam aqlli, yangi narsalarni tezda tushunadi, diqqatni osongina o'zgartiradi. U monotonlikdan tezda charchaydi. Faoliyat o'zining jozibadorligini yo'qotishi bilanoq, bola uni to'xtatishga, boshqa narsaga o'tishga harakat qiladi. Bunday vaziyatlarning barchasida, boshlangan ishning tugashini ta'minlash, uni e'tibor berishga odatlantirish kerak. Topshiriqning yuzaki va beparvo bajarilishiga yo'l qo'ymaslik va sifatga e'tibor qaratish lozim. Yomon bajarilgan ishni yangidan, boshqa usullarda qilishni taklif qilish mumkin. Faoliyatning tez-tez o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Hamma narsani o'z zimmasiga olish va oxirigacha tugatmaslik odati xarakterning xususiyatiga aylanishi mumkin.

Sangvinik shaxs uchun musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy usullari quyidagilardir: intellektual ta'sir usuli, ko'rsatish usuli, qiyosiy

tavsiflash usuli, badiiy taqqoslash usuli.

Xolerik temperament turi ham o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Xolerik o'quvchi bilan ishlaydigan o'qituvchi uchun asosiy takliflar:

Hech qanday holatda siz qichqiriq, tahdid kabi kuchli ta'sir choralarni qo'llamasligingiz kerak. Bunday bola bilan xotirjam gapirish kerak, lekin talabchan, ishontirmasdan, ularni haddan tashqari hayajon uchun qoralamaslik kerak. Siz uni jilovlashga yordam berishingiz kerak va bu yerda hazillar o'rinli bo'ladi.

Xolerik temperamentiga ega o'quvchilar tejamkor kundalik rejimga muhtoj. Bunday bolalar aql-zakovatni, diqqatni jamlashni rivojlantirishga yordam beradigan va qat'iyatlilikni talab qiladigan barcha turdagi faoliyatdan foyda oladi. Xolerik uchun rivojlanishning asosiy usullari quyidagilardir: hissiy-irodaviy ta'sir usuli, musiqiy asarni yaxlit tahlil qilish usuli, umumlashtirish usuli.

O'quv-tarbiyaviy ish jarayonida flegmatik o'quvchiga ko'pincha uning sustligi to'sqinlik qiladi. Tez o'ylash, tez eslash, tezda biror narsa qilish kerak bo'lgan hollarda flegmatik to'liq nochorlikni namoyon qiladi. Shu bilan birga, agar u eslab qolsa, unda uzoq vaqt va yaxshilab eslab qola oladi. O'qituvchi imkon qadar tez-tez flegmatik o'quvchilarning faolligini kuchaytirishi, befarqlik, haddan tashqari xotirjamlik va sustlik bilan kurashishi, ularni doimiy sur'atda ishlashga majburlashi, o'rganayotgan narsaga, faoliyat jarayoniga hissiy munosabatni uyg'otishi kerak. Flegmatik odamlarni tarbiyalashda keng tarqalgan xato – bu bolaning tabiiy xususiyatlarini, sustlik, noqulaylikdan norozilikning namoyon bo'lishini hisobga olmasdan talablar qo'yishdir.

Qattiqqo'llik va qo'pol munosabat flegmatik o'quvchiga mashg'ulotni o'zlashtirishda yordam bermaydi. Baqiriq kabi kuchli qo'zg'atuvchi bolaga

8 Umumiy psixologiya. <https://kk.convdocs.org/docs/index-61185.html?page=5>

tormozlovchi ta'sir ko'rsatadi va u shoshilish o'rniga, yanada sekinroq harakat qiladi. Bola birdaniga o'ziga xos bo'lmagan faoliyat sur'atini ko'rsatadigan holatlar mavjud, ammo tez sur'at boladan juda ko'p kuchlanishni talab qiladi. Faoliyatni rivojlantirish flegmatik odamlarning harakatchanligi sur'atni oshirishning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda asta-sekin bo'lishi kerak.

Tezlik, harakatchanlikning ozgina bo'lsa ham namoyon bo'lishini rag'batlantirib borish muhimdir. Sekin bolalar letargiya va harakatsizlik dangasalikka aylanmasligi va his-tuyg'ularning bir tekisligi ularning zaifligiga aylanmasligi uchun shunday sharoitlarni yaratishi kerak. Topqirlik va tezkorlikni talab qiladigan vaziyatlardan qochmaslik kerak. Bunday bolani bu fazilatlarini namoyon etgani uchun maqtash juda muhimdir. Raqobat o'yinlarida yordam berishingiz mumkin, ba'zan esa, masalan, boladan vazifani ma'lum vaqtdan oldin tugatishini so'rang.

Flegmatiklar uchun rivojlanishning hissiy-irodaviy ta'sir qilish usuli, taqlid qilish usuli, musiqiy tasvirni og'zaki talqin qilish usuli kabi pedagogik usullari ustunlik qiladi.

O'quvchilarda nota savodxonligini shakllantirishning asosiy tendensiyalari haqida gap borar ekan, xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, fan sifatida musiqa, vaholanki nota savodi ilmini o'qitish ham o'zining bosqichma bosqich metodik rivojlanishiga ya'ni tendensiyasiga egadir. Nota savodini va musiqani o'rganish bolalarning individual qobiliyati, ichki musiqani his qilish qobiliyatlari va emotsional-psixologik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Shuning uchun ushbu maqolada inson temperamentlari va faoliyat turlari haqida insonning individualligi, uning xarakteri va ichki kechinmalari muhimligini ko'rishimiz mumkin.

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUV PEDAGOGIK JARAYONLARNI REJALASHTIRISH VA FAOLIYATLARNI TO'G'RI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Xolida Bosimovna Rahmonqulova – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotasiya: Ushbu maqolada nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-pedagogik jarayonlarni rejalashtirish va faoliyatlarni to'g'ri tashkil etishning mazmuni haqida yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрено содержание планирования учебно-педагогического процесса и правильной организации деятельности в негосударственных дошкольных образовательных организациях.

Abstract: This article describes the content of planning educational and pedagogical processes and proper organization of activities in non-state preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: nodavlat, davlat, o'quv, tarbiya, ta'lim, pedagogik jarayon, bola hayoti rejalashtirish, mazmun.

Ключевые слова: негосударственное, государственное, обучение, воспитание, образование, педагогический процесс, планирование жизни ребенка, содержание.

Keywords: non-state, state, training, upbringing, education, pedagogical process, child life planning, content.

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o'zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. Mirziyoyev rahbarligida 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi¹.

"Pedagogik jarayon" tushunchasi ham umumiy pedagogikada ham, maktabgacha pedagogikada ham o'zining to'liq ifodasini topmagan. Umumiy pedagogikada Y.K. Babanskiy, M.A. Danilov va boshqalar pedagogik jarayon

1 Kayumova N. M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma.-T,TDPU -2013y 2 bet

sinonimi deb qaraladi. Bunda u asosiy tarkibiy qismlari tarbiya va rivojlantirish birligidagi o'qitish bo'lgan yaxlit jarayon deb qaraladi. Pedagogik jarayonni va uni harakatlantiruvchi kuchlarning asosiy qonuniyatlarni topishga ham urinib ko'rilgan.

A.P.Usova maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish muammasini ishlab chiqar ekan, maktabgacha ta'lim tashkilotdagi pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlarini tilga oladi. Ular o'yin, mehnat va o'quv faoliyatidir².

Maktabgacha ta'lim tashkilotdagi pedagogik jarayonda o'yinning o'rnini ta'riflar ekan, N.B.Mchedlidze o'zining "Место игры и педагогическом процессе детском саду" nomli kitobida shunday deydi: "Pedagogik jarayon yaxlit, dialektik va rivojlantiruvchi hodisadir", uning rivojlanishi jarayonida asosiy tashkil qiluvchi qismlari: tarbiya va o'qitish, bolalarning uyushtirilgan va mustaqil faoliyatilari, ayrim faoliyat turlari (o'yin, o'quv, mehnat) o'rtasidagi nisbat o'zgaradi³.

Pedagogik jarayonda pedagog maqsad va mazmunini, vosita va metodlarini, pedagog va bolalarning o'zaro aloqasini, natijani ajratib ko'rsatadi.

Pedagogik jarayonning xususiyati uning mazmuni, tuzilish va shakllari rivojlanishdagi o'zgaruvchanlikdir. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotdagi pedagogik jarayon maktabgacha yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish, ularni jismoniy, aqliy va estetik rivojlantirish masalalarini amalga oshirishga yo'llangan. Qolaversa bolani o'sib kelayotgan yosh avlodni yuksak odob-axloqli, milliy ma'naviy va madaniy tarbiyalangan, yurt tinchligi va kelajak uchun xizmat qiladigan inson qilib tarbiyalashga qaratiladi. Bu vazifani pedagogik jarayonda bolalar faoliyatining turli-o'yin, turmush,

mehnat, o'quv faoliyatlari orqali ta'minlanadi. Ular maktabgacha yoshidagi bola shaxsini shakllantiruvchi vositasi xizmatini o'taydi va bolalar egallaydigan mazmun hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi umumtipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi Nizomda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash haqida alohida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan:

Maktabgacha ta'lim sohasidagi nodavlat ta'lim xizmatlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalar yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tganidan keyin beriladi;

Maktabgacha ta'lim sohasida nodavlat ta'lim xizmatlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berish, litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki to'xtatish, shuningdek, uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab bergan tartibda amalga oshirilishi haqida ko'rsatib berilgan.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish bo'yicha Nizomda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlashi hamda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'limning mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining belgilab berilgan mazmuni asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etiladi va o'tkaziladi⁴.

2 Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5198-sonli Farmoni.

3 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori.

4 Qodirova F., Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".- T., "Ma'naviyat". 2013 3 bet

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejalari va jadvali bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o'yin hisoblanadi. Har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarning har kungi soni, davom etadigan davri va izchilligi maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida belgilab beriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ishlash tartibi va bolalarning unda bo'lish vaqti uning ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim-tarbiya berish va tarbiyalash "Davlat tili to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat tilida va boshqa tillarda olib boriladi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati ularning muassislari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga direktor joriy rahbarlik qiladi va muassis oldida hisob beradi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonning tashkil etilishi maktabgacha yoshidagi bolalar uchun xos bo'lgan umumiy rivojlanishining yuqori sur'atlarini hisobga olishi kerak. U har bir yosh guruhidagi rivojlanishni, shuningdek, butun bolalar NMTT dagi pedagogik jarayonni o'zgartiruvchanligini ham belgilaydi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotdagi pedagogik jarayon bolalar hayotini tashkil etishning o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Ya'ni bunda bolalarining asosiy faoliyatlari o'yin, mehnat, sayr, navbatchilik, mashg'ulot nazarda tutilishi kerak. Bolalarni faoliyatda uyushtirishning umumiy va yakka shakllari o'zgaruvchanligi va xilma-xil birikmalari bilan ifodalanadi. Bundan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotdagi pedagogik jarayonni bir butun sifatida va har bir yosh guruhida rejalashtirish lozim degan xulosa kelib chiqadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni saqlash uchun ota-onalar to'lovi quyidagicha amalga oshiladi. Tarbiyalanuvchilarni nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida saqlash deganda tarbiyalanuvchilarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish tushuniladi. Bolalarni nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida saqlash uchun ota-onalar to'lovi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi⁵.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ta'limda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni saqlash uchun ota-onalar to'lovi miqdori va uni to'lash shakli ularning muassislari tomonidan belgilanadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalar farzandlarini saqlash uchun ota-onalar to'lovi imtiyozli shartlarda qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonni rejalashtirishning maqsadi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining bajarilishini ta'minlashdan iboratdir.

MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFANING IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI

Ulug'bek Bahodir o'g'li Vaxobov – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy-axloqiy qiyofaning shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy asoslari tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируются социально-исторические основы формирования и развития духовно-нравственного облика.

Abstract: This article analyzes the socio-historical foundations of the formation and development of the spiritual and moral image.

Kalit so'z: Axloq, aql, ilm, ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy qiyofa, ma'naviy qadriyat, ma'rifat, mas'uliyat, ta'lim-tarbiya, vatanparvarlik.

Ключевые слова: Нравственность, интеллект, наука, духовность, духовно-нравственный образ, духовная ценность, просвещение, ответственность, воспитание, патриотизм.

Keywords: Morality, intelligence, science, spirituality, spiritual and moral image, spiritual value, enlightenment, responsibility, education, patriotism.

Mamlakatimizda adolatli fuqarolik jamiyati qurish, har taraflama inson manfaatini ta'minlash, xalqimiz ertaga emas, bugun yaxshi yashashi bo'yicha islohotlar, yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilgani hammamizga ayondir. Bu kabi ezgu g'oyalarning zamirida inson va uning manfaatlari mujassam bo'lib, uning samaradorligi davlatimiz ma'naviy qarashlarida yangilanish, aholi tafakkurida o'sish, yoshlarning ijtimoiy faolligi, Vatan va mamlakat taqdiriga daxldorlik hissining kuchayishi, umuman olganda, ma'naviy-axloqiy qiyofaning yuksalishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun uning asosini tashkil etuvchi ma'naviyat va axloq tushunchalariga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim.

I. Abdullayev: "Ma'naviyat arabcha so'z bo'lib, "Ma'no" fe'lidan olingan va ruh, aql, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g'amxo'rlik, qayg'urish, did kabi bir qancha ma'nolarni anglatadi"¹, – deb ta'kidlaydi.

A. Erkayev esa ma'naviyatni ikki o'zakka bo'lib, quyidagicha yozadi: "Birinchi o'zagi – arabcha "ma'no"ni anglatga, ikkinchisi – qadimgi hind falsafasining "Manas" tushunchasiga borib taqaladi. Uning fikricha, Sharq falsafasidagi mu'taziylar tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarning, ruhiyat olamidagi sir-u asrirlarning mohiyati "ma'na"ga atama sifatida asos soldilar"². Ma'naviy-axloqiy qiyofasi to'g'ri shakllangan shaxsning ma'naviyati va axloqiy qarashlari yetuk bo'lib, doimo barkamollikka intiladi.

Aynan tarixda "ma'naviy-axloqiy qiyofa" iborasi qo'llanilmagan bo'lsa-da, unga oid qarashlar juda uzoq yillarga borib taqaladi. Uning taraqqiyot yo'li xalqlarning bosib o'tgan turmush yo'li bilan tengdosh. Ammo uning shakllanib borishi har doim ham bir zaylda kechmagan. Ya'ni ba'zan o'sish, ba'zan yemirilish, ba'zan yangilanishlar sodir bo'lgan. Yoshlar ma'naviy olamini muayyan maqsadlarga muvofiq

1 Abdulloh Ismatulloh. Ma'naviyat va ma'rifat // – T.: Milliy tiklanish, 1996, 12-noyabr.

2 Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 10-11. B.

o'zgartirishga intilishlar mavjuddir. "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda³. Shuning uchun ham yoshlar dunyoqarashini milliy qadriyatlarga xos shakllantirish dunyo ahamiyatidagi eng ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Buning dalili sifatida "Ma'naviyat: asosiy tushunchalar lug'ati"dan quyidagi fikrlarni keltirib o'tishimiz mumkin: "Ma'naviyat – jamiyatda ijtimoiy munosabatlar va insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi talab va qoidalar majmui; ma'naviy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, ideallar, ezgu g'oya va maqsadlar tizimi; axloq, madaniyat, ma'rifat, din va ta'lim-tarbiya tizimidan iborat yaxlit ma'naviy hodisalar majmui, ma'naviy jarayonlar, insonning o'zini va o'zi yashayotgan dunyoni takomillashtiruvchi ijodiy faoliyati va uning natijalari; inson kamoloti, uning ma'naviy qiyofasining takomillashuv darajasi, shaxsiy-axloqiy xususiyatlar va ma'rifiy fazilatlar majmui; jamiyatning barcha sohalari bilan o'zaro aloqador ma'naviy talablar va tamoyillar hamda inson hayoti va faoliyatini belgilovchi mezonlar tizimi"⁴.

Hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriy o'zining "Al-adab al-mufrad" asarida: "Odamlarning najoti faqat bilim va undan boshqasi bo'lmagan"⁵, – degan edi. Afsuski, ba'zi insonlar ongida hali ham ma'naviy yo'nalishdagi o'zgarish va islohotlarga faqatgina shu sohadagi markazlar hamda mas'ul bo'lgan shaxslar izlanish qilishi kerak degan noto'g'ri tushuncha saqlanib qolgan. Buni e'tirof etgan holda Prezident Sh.Mirziyoyev:

"Alohida ta'kidlab aytmoqchimanki, agar kimki ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, katta xato qiladi. Bu davlatimiz va jamiyatimiz, hamma rahbarlar, bizning ishongan tog'imiz bo'lgan ilg'or ziyolilarimiz, barcha-barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir"⁶, – deya ta'kidlab o'tgandi.

Endi ma'naviy-axloqiy qiyofa tushunchasidagi "axloq"ga ta'rif bersak. Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui⁷. Axloq ijtimoiy ongning eng qadimiy shakllaridan biri bo'lib, vaqt o'tgan sari u ham o'zgaradi, takomillashib boraveradi. Xitoylik faylasuf Konfutsiy aytganidek, axloq – har bir insonning boshqalar oldidagi burchi va mas'uliyatini his qilishdir.

Aytib o'tish joizki, bir kishi uchun xos bo'lgan axloq bo'lmaydi. Barcha davrlarda axloq odamlar o'rtasidagi ma'naviyatga asoslangan munosabatlarning bosh mezon bo'lgan. Odamlar o'rtasidagi mehr-muruvvat, hamkorlik, bir-biriga oqibatlilik, samimiylikka asoslangan munosabatlar axloq va odob borasidagi an'analarga rioya qilish orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida axloqiy tarbiya komil inson tarbiyasining asosiy yo'llaridan biri sifatida qaralgan.

Axloq bo'yicha ilk chuqur tadqiqot olib borgan faylasuf Arastu (Aristotel) hisoblanadi. Faylasuf "Axloqi kabir" (Katta axloq kitobi) nomli asarida bu tushunchaga kengroq to'xtalib o'tib, shunday deydi: "Munosib odam bo'lmoq – fazilatlar egasi – fozil bo'lmoq, demakdir"⁸, – deydi.

3 Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J 1.- T: O'zbekiston. 2017.-B.504-505.

4 Ma'naviyat: asosiy tushunchalar lug'ati. G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T.: 2009. – 49 B.

5 Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. –T.: Movarounnahr, 2005. – B.305.

6 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. B. 313.

7 Axloq — Vikipediya (wikipedia.org)

8 Arastu. Axloqi kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 106 B.

Arastu axloq bo'yicha faqatgina o'zining fikrlarini emas, balki boshqa faylasuflar fikrlariga ham to'xtalib o'tib, tahlil qilgan shaxsdir. Xususan, Platonning fazilatlar haqidagi fikrlarini noto'g'ri ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ya'ni Pifagor insondagi fazilatlarini ham raqamlar qatorida ko'rib chiqqanini va ana shu joyida adashganini yozadi. Lekin hozirgi kunda – axborot asrida Pifagorning axloq masalasidagi ba'zi qarashlari ma'lum ma'noda o'zini oqlamoqda.

Mamlakatimiz tarixida, "Axloqqa oid fikrlar "Avesto"da, qadimgi turkiy tosh bitiklar va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, xalqimiz orasida tarqalgan pandnoma va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, diniy-falsafiy risolalar hamda allomalar merosida Axloq masalalariga keng o'rin berilgan"⁹. Shulardan biri Abu Homid G'azzoliy bo'lib, u insonning ma'naviy-axloqiy qiyofasi haqida eng ko'p ma'lumotni o'zining "Dinni tiriltirish" asarida beradi. Ushbu kitobda G'azzoliy insonning axloqiy tarbiyasi, qalbni poklash, nafsni jilovlash va ruhiy yetuklikka erishish masalalarini muhokama qilgan.

Abu Nasr Farobiy Sharqda falsafa (ilm-fan), insonlarning erkin yashashi, adolat bilan boshqariladigan jamiyat haqidagi g'oyalarni ilgari surgan holda, barcha uchun kurashdi. Uning fozil shahar va ma'rifatli hokim nazariyasi xayoliy bir nazariya bo'lsa-da, Yevropada paydo bo'lgan Tomas Mor, Myunster va Kampanellining utopik g'oyalaridan deyarli 600 yil muqaddam paydo bo'lganligi diqqatga sazovordir¹⁰.

Farobiyning Sharq madaniyatidagi eng oliy xizmatlaridan yana biri shundaki, u O'rta asr Sharqida birinchi bo'lib fazilatli, ideal jamoa, davlat, adolatli rahbar va davlatni aql asosida boshqarish haqidagi utopik ta'limotni olg'a surdi.

Farobiy o'zining erkin fikrlari uchun reaksiyon ruhoniylar tomonidan dinsizlikda, xudosizlikda ayblandi, so'ngroq uning asarlari yondirildi. Lekin uning ilg'or ratsionalistlik va gumanistik fikrlari Ibn Sino, Ibn Rusht, Nizomiy, Umar Xayyom, Maymonid, Rodjer Bekon, Spinoza kabilar dunyoqarashining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Dunyo madaniyatining rivojlanishida katta ijobiy rol o'ynadi¹¹. Bundan ko'rinadiki, Farobiyning qarashlari faqat Sharq uchun emas, G'arblik olimlar uchun ham dasturulamal vazifasini o'tab bergan.

Tasavvuf ta'limotida ham ma'naviy-axloqiy qiyofa masalasi eng muhim vazifa sifatida ko'rigan. Shuning uchun ham tasavvuf olimlarining qarashlari va bildirgan fikrlari hozirgi kun uchun ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ularning qarashlarida axloq masalasi markaziy o'rinda turgan. Buning isboti sifatida "Shuni aniq bilib oldimki, allohning yo'lini suluk etganlar faqat so'fiylardir. Ularning hayot tarzlari eng to'g'ri hayot tarzidir. Axloqlari eng go'zal axloqdir"¹², – degan edi Al Jazariy.

Yusuf Xos Hojib o'z davrining donishmandi, ilm-ma'rifatning jarchisi, shu bilan birga homiysi ham bo'lgan. U ilm-ma'rifatga saodatning kaliti deb qaraydi, shuning uchun ham o'z dostonini "Qutadg'u bilig" deb ataydi hamda unda ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, insonlar doimo yaxshi xulq, shirin so'z bilan hamnafas bo'lishlari lozimligi, ilm-fan ahllarini saroyga jalb etishga, ulardan barcha ta'lim olishiga va ularning maslahatlari bilan davlat ishlarini olib borishga da'vat etgan. Buni misoli sifatida Yusuf Xos Hojibning quyidagi jumlasini eslaymiz:

Abadiy hayotni tilasang o'zing,

Ey dono, yaxshi qil xulqing va so'zing¹³.

9 Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T.: 2013. – 26 B.

10 Shermuhammedov Y. "Ikkinchi muallim" insoniyat kamoloti haqida. // Fan va turmush. T.: –1975. –№10.

11 Xayrullayev M. Zulmatni engolgan aql. //Fan va turmush. T. – 1975. №2/ B.7.

12 Muhammad Nurulloh Saydo Al Jazariy. Tasavvuf sirlari. – Toshkent: Movarounnahr, 1999. 100 B.

13 Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig –Toshkent. "Yulduzcha", 1990.–B. 135.

Sohibqiron Amir Temurning tafakkur mahsuli bo'lgan "Temur tuzuklari" asarida ham ahli-ilm va yoshlarga qay darajada homiylik qilganligini ko'rishimiz mumkin: Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta'zim bajo keltirdim, ortiq hurmatladim. Ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalari bo'lsa o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohi uchun dargohimga yo'l berdim. Raiyatini o'zimga qaratib oldim. Hammani qo'rquv va umid orasida saqladim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafs yomonlar, buzukdar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda haddilaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Har elning ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarini hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulm-u sitam yo'lini to'sdim¹⁴. Sohibqiron o'zining ushbu asarida hayotdan chiqargan xulosasi qilib quyidagi fikrni aytib o'tgan: Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir.

Temur va temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, umuman olganda, aholi ma'naviy qiyofasi o'zgardi. Bu yillarda yuzlab olimlar, shoirlar, adab ustozlari yetishib chiqdi. Ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lgan, g'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladigan, sharqda "nizomi millati va din" (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadigan Alisher Navoiydir. Alloma yoshlar tarbiyasi haqida shunday deydi; kichik

yoshlarga ulug'lar harakoti anga dalildurkim, ne aqli bo'lg'ay, ne uyoti. Qarikim, saqolin vusma bila bo'yag'ay, yigitdek durkim, ani gulob bila yuvg'ay¹⁵. Bundan ko'rinadiki, Alisher Navoiy o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini sog'lomlashtirish uchun axloqiy muammolarni hal qilish kerakligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub" asarida shunday deydi: "Har toifaning xislatlaridan ma'lumotlari va har tabaqaning ahvolidan bilimlari bo'lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so'z ochmasinlar, shayton sifatlar xiyla va adovatlarga o'yinchoq bo'lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu kaminaning tajribasi o'shalar uchun yetarlidir"¹⁶.

Alisher Navoiy inson agar nafsini tiymasa komillikka erisha olmasligini ta'kidlab:

To hirs-u havas xirmoni barbod o'lmas,

To nafs-u havo qasri bartaraf o'lmas,

To zulm-u sitam joniga bedor o'lmas,

*El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas,*¹⁷ – deydi mutafakkir.

Akademik Erkin Yusupov axloqni shunday ta'riflaydi; "Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir"¹⁸. Olim gapini davom ettirib shunday deydi: "Hayotda axloq manfaatga emas, balki manfaat axloqqa bo'ysunishi lozim. Agar manfaat axloqdan ustun deb qaralsa, kishilar barchaga ayon bo'lgan oddiy haqiqatni ham inkor

14 Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Темур тузуклари. –Т.,; Ғафур Ғулом. 1991. – Б.94.

15 Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: Yoshlar. 2018. – B.115

16 Alisher Navoiy. Mukammal asrlar to'plami. 14-t. Toshkent: G'G'ulom, 1998. B. 36-37.

17 Qarang. Jo'rayev Narzullo. Tarix falsafasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. B. 15.

18 Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – 38 B

etish yo'liga o'tib oladilar. Odamzod orasida shundaylar bo'lgan, bundan keyin ham bo'ladi. Tarbiyaviy ishlarining dolzarbligi ham shunday sabablar bilan belgilanadi"¹⁹.

Bulardan tashqari ma'naviy-axloqiy qiyofa masalasi bo'yicha boy g'oyalarga ega xalq og'zaki ijodida ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Manas", "Malikai ayyor", "Rustamxon", "Kuntug'mish", "Shohsanam va G'arib" va boshqalar. Ularda yurtga sadoqat, bosqinchilarga qarshi mardona kurashish, mardlik, jasorat, sevgi-muhabbat, ahillik tasvirlangan. Shu bilan birga inson axloqi, ma'naviy qiyofasini tasvirlovchi hamda rivojlantirishga qaratilgan fikrlar turli nasihatnoma va pandnomalarda ham bayon etilgandir. Bular misoliga "Qobusnoma", "Sad pand", "Aflotun vasiyatları" va boshqalari keltirishimiz mumkin.

Insoniyat tarixida ijod qilgan barcha faylasuf-olimlar o'zlari yaratgan asarlarda insonlarning og'irini yengil qilish, yordam, mehribonlik, dalda berish, hayotga bo'lgan muhabbatlarini oshirish, doimo oldinga intilish, qo'lidan kelganicha boshqalarga yordam berish, umuman, insonlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini o'zgartirish bo'yicha tavsiyalar bergan.

Mamlakatimiz aholisining hozirgi ma'naviy-axloqiy qiyofasini tahlil qilsak, unda bosiqlik, har qanday vaziyatda muammolarni tinch yo'l bilan hal etish, muzokara qilib yashash, o'zida boriga toqat qilish, yo'q narsaga harakatda bo'lish, hayotdagi ehtiyojlarini mehnat qilish orqali qondirish, ota-onasiga, farzandlariga doimo mehribon bo'lish, o'zgalarga qo'lidan kelganicha yordam berish, ehtiyojidan ko'p bo'lgan mol-dunyoga ruju qo'ymaslik kabi xislatlar singib ketgan. Xalqimizdagi o'zaro hamjihatlik, odob-axloqqa asoslangan munosabatlar, tanish-notanishga birdek bo'lish, mehmondo'stlik, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlar jamiyatimizda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishda muhimlik darajasi kun sayin oshib bormoqda.

Shu boisdan ham 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"²⁰gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash hamda yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoya qilish kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining rivojlanish bosqichida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy sohalar bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan vazifalar ham muhim ahamiyatga egadir. Bejizga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev: "Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyatimiz tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz"²¹, – deya ta'kidlamagandi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz ma'naviy-axloqiy qiyofasi evolyutsiyasi qadimdan rivojlanib, takomillashib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, ma'naviyat, milliy o'zlik, milliy g'ururni anglash borasida katta qadamlar tashlandi. Bu jarayonlar xalqimiz ma'naviy-axloqiy qiyofasining yuksalishiga sabab bo'lmoqda. Buni mamlakat aholisi, ayniqsa yoshlarda zamonaviy bilimlarga intilish, albatta, qaysidir kasbning egasi bo'lish, dunyo yoshlari bilan raqobat qilish uchun chet tillarini o'rganish, zamonaviy kasblar egasi bo'lish, yangi-yangi g'oyalar bilan yashash va albatta, jamiyat taraqqiyotiga o'zining hissasini qo'shish kabi jarayonlarda ko'rishimiz mumkin.

19 O'sha asar. –T.: Universitet, 1998. –B.81.

20 O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi" Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr. O'RQ-406-son.

21 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – B.267.

O'QUVCHILARNI MUSIQA TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR BILAN TANISHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNIKA VOSITALARI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Saxob Baxromovich Karimov – o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola mazmunida musiqiy ta'lim yo'nalishlarida fanlararo integratsiyalashuvning o'ziga xos jihatlari, musiqa darslarini zamonaviy texnika vositalari yordamida tashkil etish, bu borada o'qituvchi qanday metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanishi lozimligi to'g'risidagi fikr mulohazalar o'z ifodasini topgan.

Аннотация: По направлениям музыкального образования в содержании данной статьи нашло свое выражение мнение об особенностях междисциплинарной интеграции, организации уроков музыки с использованием современных методик, о том, какие методы и компетентностные подходы должен использовать учитель в этом отношении.

Abstract: In the content of this article in the directions of musical education the peculiarities of interdisciplinary integration, the organization of music lessons with the help of modern technical means, are reflected in the feedback on what methods and competency approaches the teacher should use in this regard.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, innovatsiya, kommunikatsiya vositalari, texnologiyalar, musiqa, tarbiya, idrok, o'zbek musiqasi, dasturlash, san'at, ta'lim, o'quvchi, bilim, malaka, ko'nikma, dars.

Ключевые слова: педагогические технологии, инновации, средства коммуникации, технологии, музыка, воспитание, восприятие, узбекская музыка, программирование, искусство, образование, ученик, знание, квалификация, умение, урок.

Keywords: pedagogical technology, innovation, communication tools, technology, music, upbringing, perception, Uzbek music, programming, art, education, reader, knowledge, skills, skills, lesson.

Hozirgi paytda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning amalga oshishida yuqori malakali mutaxassislarining roli benihoya kattadir. Hozirgi kunda respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim innovatsiyalari tajribalari jamlanib, ular ichida ish faoliyatimiz uchun eng samaradorlari sinovdan o'tkazilib, biz o'qituvchi amaliyotchilar uchun ijodiy faoliyatlarimizga yordam berish maqsadida pedagogik texnologiyalarni o'rganish va amalga joriy etish kurslari tashkil etildi.

Pedagogik texnologiya axborotlarini o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat.

Pedagogik texnologiya bu – ta'lim metodlari,

usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuyi hisoblanadi. Demak, pedagogik texnologiy insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Ta'limni demokratlashtirish individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlari qatori, jumladan, musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Musiqa madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati o'quv pradmeti umumiy

o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular amaliy xalq kuy va bugungi zamonaviy musiqada o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiya pedagogikasi va uning mukammal ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarining elementar asoslarini o'rganish me'yorlashtirilgan. Musiqa ta'limida davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'ati nafosat bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo'lgan qiziqishni o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil etish davr talabidir. Musiqa ta'limi jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish, darsni turli bosqichlarga bo'lib o'tish o'zining ijodiy

natijalarini beradi:

1. O'quvchilarni darsga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'quvchilarda xayrixohlik munosabatlarini hosil qilishni, bajariladigan ishlar bilan tanishtirishni yakka tartibdagi va jamoa vazifalarini belgilashni ta'minlaydi.

2. O'quvchilarni mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlari doirasini kengaytirishga mavzuga ijodiy yondashish ko'nikmalarini o'stirishga, fikrlash qobiliyati faolligini takomillashtirishga erishiladi¹.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim darajasini o'rganish hamda oldingilari bilan taqqoslab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodning boshlanishi yorqin namoyon bo'ladi. Yosh o'quvchilar judayam kashfiyotchi bo'ladilar: Talaffuzni taqlid qilishda obrazli ertak mazmunlarini yengil qabul etishadi: tarixni, qo'shiqlarni, musiqiy asarlarni tabiatan faol qabul qilishadi. Bu o'quvchilarda tabiatan faollik berilgan bo'lib, ularda ijodiy qobiliyatlariga ishonch bo'ladi. Mana shular kichik yoshdagi o'quvchilar ijodining shakllanishining rivojlanishidir. Ijod o'quvchilar xotirasini faollashtiradi: fikrlashni, kuzatuvchanlikni, maqsadga intilishni rivojlantiradi.

Shuningdek, o'quvchilarni musiqiy iqtidorni rivojlantirish, musiqa san'atiga mehrini, ishtiyoqni oshirish, shu bilan birga musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarga zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga moyillik bo'lgan madaniy durdonalardan bahramand bo'lishni ta'minlaydi. Jamiyat taraqqiyoti hech qachon to'xtab qolmaydi, uning g'ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi bu tabiiy, tarixiy jarayondir.

1 Vaxromeyev V. A. Musiqaning elementar nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.

Shunday qilib, musiqa madaniyati o'qituvchisi innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatining shakllantirishi, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishni, musiqiy ta'lim orqali badiiy didini o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi, ijodga bo'lgan munosabatlarini muntazam ravishda shakllantirib borishi lozimdir.

Ana shunday yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda informatika va informatsion texnologiyalarning beqiyos o'rni majuddir. Bugungi kunda respublikamizning barcha oliy o'quv yurtlari, san'at maktabi, akademik litseylar hamda umumta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari mustaqil fan sifatida o'quv rejalariga kiritilgan. Informatika va axborot texnologiyalari ularning tarkibiga kiruvchi barcha ma'lumotlar ko'plab adabiyotlarda va internet sahifalarida chop etilgan. Ushbu fan nisbatan yosh bo'lganligi sababli uni o'qitish metodikasi to'liq shakllanmagan hamda yagona umumiy bir fikrga kelinmagan. Buning asosiy sabablaridan biri axborot olami taraqqiyotida keskin o'zgarishlarning ro'y berishi, yangi axborot texnologiyalari yuzaga kelishi hamda bu predmetning turli ta'lim yo'nalishlarida o'ziga xos qirralarning mavjudligidadir. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda informatsion texnologiyalar va ularni o'quv jarayonida qo'llash degan tushunchalar paydo bo'ldi. Hozirgi paytda har bir o'tilayotgan darsni zamonaviy pedagogik va informatsion texnologiyalarning birlashmasisiz tasavvur etish qiyin. Bu esa davr talabidir.

Zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etilishi, xalqaro axborot tizimlari, jumladan, "internet" va tarmoq texnologiyalaridan kengroq foydalanish yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanmoqda.

Bu esa masalaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Tadqiqotlar kompyuterlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish tizimining muvaffaqiyatlarini e'tirof etmoqda. Masalan, an'anaviy ta'lim usullari bilan o'quvchi va talabalarning bilim va ko'nikmalarini obyektiv taqqoslash juda qiyin, ammo multemidia bazasida yaratilgan interaktiv dasturlar orqali bu masala qisqa vaqt ichida aniq hal etiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim berish shakllaridan biri masofadan o'qitish hisoblanadi. Uning afzalliklari, qulayliklari haqida ko'p gapirishning hojati yo'q. Biroq bu sohada faoliyat olib boradigan kadrlarning malakasi juda yuqori bo'lishi zarur. Chunki ular o'z fanidan tashqari informatika va informatsion texnologiyalari haqida chuqur bilimlarga ega bo'lmog'i zarur. Bundan tashqari masofaviy ta'limda joriy etiladigan har bir fanning o'quv-uslubiy materiallari informatikaning qator pedagogik funksiyalarini o'z ichiga olgan bo'lishi shart².

Kompyuterlashgan, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda dars o'tishning ta'limiy funksiyasi o'z ichiga o'quv protsessida beriladigan bilimlarni to'la va tezroq o'zlashtirish imkoniyatini beruvchi vosita va tushunchalarni qamrab oladi. Demak, kompyuterlashgan yoki kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkaziladigan har qanday dars o'quvchi va talabalarning faolligini oshirib, fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Uning rivojlantiruvchi funksiyasi fikrlashning har xil mantiqiy yondashuvlari ta'sirida o'quvchi va talabaning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Zamonaviy darsda talabalarga bilim berishning uzluksiz tizimi ko'zda tutilgan.

Kompyuterlashgan yoki kompyuterlardan foydalanilgan o'quv tizimining tarbiyaviy

2 Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2020. – B. 186.

ahamiyati kattadir. Bu jarayonda ular kompyuter texnologiyalarining rolini his etib, unga u orqali boshqa fanlarga bo'lgan qiziqishlari oshadi. Talaba va o'quvchilar bunday darslar orqali intellektual estetik zavq oladi. Malakali tayyorlangan elektron o'quv adabiyotlari bilan tanishib, o'zlari ham shunday, mazmunli va ko'p ma'lumotli mahsulot yaratishga kirishishlari mumkin. Bu esa ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va foydali o'tkazishlari uchun zamin tayyorlaydi.

Ma'lumki, har bir fan va uning ilovalari bir qancha mutaxassisliklar fanlarini tashkil etishlari mumkin. Kompyuterlashgan yoki kompyuterlardan foydalanib o'tiladigan har qanday fan talaba va o'quvchilarda fanning yangi qirralarini ochib beradi. Bu esa ularda fanlar orasidagi tanlov muammosini ijobiy hal etishga undov beradi. Bu esa informatika va informatsion texnologiyaning pedagogik funksiyalaridan biri kasbga yo'naltiruvchi funksiyalardir. Talaba va o'quvchilar fan bo'yicha tayyorlangan interaktiv xarakterli, multemidia talablariga javob beradigan, kompyuter grafikasi va animatsiya asosida tayyorlangan elektron darsliklar va internet ma'lumotlari bilan tanishishar ekan, ularda estetik zavqlanish, olingan ma'lumot va axborotlardan qoniqish hissi hosil bo'ladi³.

Kompyuter texnologiyalari asosida olib boriladigan darslarda multemidiyalik elektron manbalardan foydalaniladi. Ular o'z ichiga tarixiy hamda mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni qamrab olishlari mumkin. Bu esa o'quvchi va talabalarga informatsion xarakterga ega bo'lgan ko'plab axborotlar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari o'quvchilar bu yerda fandagi eng so'nggi ilmiy-amaliy yangiliklar bilan ham tanishishlari mumkin. Chunki elektron darsliklar an'anaviy bosma nashrlarga nisbatan dinamik va egiluvchanlik harakteriga egadir.

Yuqori ta'minlangan texnologiyalar kompleksi o'zlashtirishda yaxshi natijalarga olib kelishi

ma'lum. Informatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanib, ularni o'qitish jarayoniga tadbqiq etib, ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Informatsion texnologiyalarga Web sahifalarda ishlash, internet, skaner texnologiyalarini kiritish mumkin. Ularni o'qitishga jalb etish, ta'lim jarayoniga tadbqiq qilish esa "pedagogik texnologiya"ni shakllantirishga hissa qo'shadi, yani informatsion texnologiyalarni ta'limda qo'llab, musiqa darslarini o'tishda, murakkab jarayonlarni va mavzularni, an'anaviy sharoitda ko'rish imkoniyati bo'lmagan darslarni o'quvchilarga kompyuter va qo'shimcha kanallar orqali bilim yetkazib berishga imkoniyat yaratadi. XXI asrga kelib kompyuter musiqiy ijodni tahlil qilishga yordam beruvchi o'ziga xos uskunalaridan biri bo'lib qolmoqda. U tabiatning turli tovushlarini tahlil qilib, ma'lum bir guruhlariga bo'lishga yordam beradi. Bundan tashqari, kompyuter bir ohangdan ikkinchi ohanga o'tuvchi nota matnini ko'chirishdek qiyin ishni ham bajara oladi. Musiqiy ijroni o'xshatib ijro etish imkoniyati paydo bo'ladi. U musiqachilarni umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ajratib olishga, ularni ijro uslubini tahlil qilib, aniqlashga yordam beradi. Yangi kompyuter dasturlarini amalga oshirilishi bastakorlarni mashina imkoniyatlarga boshqa nuqtayi nazardan qarashga majbur etadi. Chunki kompyuter tovushlarni yangi usul bilan ishlab chiqaradi va tovushlar yug'indisini boshqaradi, akustik bo'shliqdan foydalanishga va uni nazorat qilishga imkon yaratadi.

Bastakorlarning fikricha yangi dasturlar va tovushlarni sintezlovchi yangi texnika musiqani ilm bilan yaqinlashtiradi, shu bois ilgari ilmiy hisoblangan faoliyatni hozirgi kunda elektron musiqa doirasida o'z imkoniyatlarini sinayotgan bastakorlar amalga oshiryaptilar. Shu tariqa musiqiy ijoddagi muntazam jarayonlar tabiatini aniqlashga imkon yaratildi, ya'ni analitik va sentetik boshlanishlarni taqqoslash, musiqadagi

3 Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2020.

gepotetik alomatlarni ta'riflash, bastakorlarni qaysi biri analitik yoki sintetik qutblarga tortilishini aniqlovchi tavsifnomalarning bo'lishi shular jumlasidandir.

Zamonaviy kompyuterlar mavjud musiqiy asarlarni turlarga ajrata olsa ham, kompyuter yangi tovush tuzilmalarini yarata olsa ham, bastakor yoki ijrochi rolini bajarsa ham, unda bir xususiyat, eng asosiy hisoblangan xususiyat, ya'ni ijodga ehtiyoj yo'qdir. Hozirgi zamon bastakorlari aytib o'tilgan imkoniyatlarni inobatga olgan holda bir necha amaliy dasturlar majmuasini yaratishmoqda. Bu dasturlar boshlang'ich sinflarda musiqa tinglashni optimal imkoniyatlarini beradi. Kompyuter nafaqat texnik rivojlanishda, balki shaxsni rivojlantirish va tarbiyalashda katalizator bo'la oladi. Maktab partasida turgan, kompyuter hayotni ijtimoiylashtirish, madaniyatimizni tez o'sishining asosiy shartidir. Biz faqat uning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam berishimiz kerak⁴.

Ta'limga g'ayrat bilan yondashish, psixologik-pedagogik tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishini aniqlab beradi, bu yo'nalishlar uzluksiz ta'lim sistemasiga qaratilgan bo'lib, o'quv-tarbiyaviy jarayonni yangi mazmun va informatsion texnologiyalarni yaratishga va psixologik ta'minlashga qaratilgan.

Hozirgi kunda bolalarni 2-3 yoshdan informatikaga o'rgatish mumkinligi isbotlab berildi. Ya'ni bu yoshda bolada turli operatsiyalar o'tkazish malakasi shakllanadi. Shuningdek, 6-12 yoshdagi bolalarga ta'lim berish jarayonida ham kompyuter bolaning faolligi va ijodiy imkoniyatlarini chegaralanmagan taqdirda foydalanish tavsiya etiladi. Bu o'quv jarayonini uning o'yin faoliyatiga tayanib, kattalarning va bolalarning guruh bo'lib ishlash jarayonini rivojlantiradi. Maktab o'quvchisini turli bosqichlarda kompyuterni qo'llash sharoitida

o'quvchilarning rivojlanishi va ta'lim olish uslubi tadqiqotlari asosiy yo'nalishi bo'lib qoladi.

Kichik maktab yoshi. Boshqa asosiy madaniy-texnik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bir qatorda oddiy kompyuter savodxonligini, ya'ni mashina bilan ishlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish kiradi. Bu ko'nikmalar bolaga klaviatura belgilarini o'rganish, kompyuterda paydo bo'layotgan elementlarga aniq ta'sir etish imkonini beradi. O'z harakatlarini dasturlashda nisbatan erkinlikka ega bo'lishi boladan murakkab rejalashtirishlarni va uzun ketma-ketliklarni eslab qolishni talab qilmasligi zarur. Shu bilan birga bola harakati o'z ichiga konkret amaliy harakatlarni ham olishi kerak. Bu yoshga tavsiya etilyotgan kompyuter dasturlarining mazmuni differensiyalangan maktab fanlariga bog'lash tavsiya etilmaydi. U integral xususiyatga ega bo'lib, bolaga, vazifalarni yechish jarayonini ta'minlab berishi kerak. Bu yoshdagi bola uchun, o'quv faoliyatini o'yin shaklida tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bu faoliyat o'qituvchi va o'quvchilar o'zlarining harakatlariga aniqlik kiritib, kompyuter tarmoqlarini keng qo'llash asosida tuziladi.

Dasturlashga o'rgatish, professional ko'nikmalarning shakllanishi emas, balki ma'lum bir bilimlar doirasini mazmun mantiq asosida tahlil qilish tashkil etadi. O'z navbatida, bu bolalarda tasavvur qilish rejalashtirish, tahlil qilish refleksiya kabi mustaqil ta'lim olish va mustaqil faoliyat ko'rsatishga yordam beradi.

Yuqori maktab yoshi. Insonni professional faoliyati bilan keng ko'lamda tanishish va kompyuter yordamida taqlidiy modellashtirishga ega bo'lgan o'quvchilar inson faoliyatini jamoa va ishlab chiqarishga oid muhimroq, ya'ni ekologik va demografik modellashtirishni, konkret muammolarni matematik modellashtirishni o'tkazish va ularga yechim topishni taklif etish, o'zining siyosiy va huquqiy ongini singdirish kabi

4 Анисимов В. П. Технология слушания музыки: Учеб, программа и методические блок-схемы спетс курса

faoliyatlarni boshqarishni o'rganishlari zarur.

Bolalarning rivojlanishida va ta'lim olishida yangi pedagogik texnologiyalari muammosi bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotlar bo'yicha quyidagilarni ishlab chiqish ko'zda tutilgan:

- bolalar rivojlanishida va ta'lim olishida kompyuter texnologiyalarini tuzilish prinsiplari va ularni psixologik-pedagogik asoslari⁵;

- yangi, fanga oid rivojlantiruvchi o'quv shartlari va kompyuter vositalarni qo'llashga qaratilgan yangi o'quv fanlarining namunalari;

- boshlang'ich, o'rta va yuqori maktab o'quvchilarining birgalikda va individual faoliyatlarini kompyuter modellari;

- turli yoshdagi bolalarni umumiy va maxsus qobiliyatlarining shakllanishi uchun ayniqsa kichik yoshdagi maktab bolalari uchun rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlari;

- pedagogik dastur vositalarini ishlab chiqaruvchilar uchun tavsiyalar;

- yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha o'qituvchiga amaliy tavsiyanomalar;

bolalarning rivojlanishi, o'quv faoliyatlarini kompyuterda tuzatishni qo'llash va kompyuter diagnostikasi yuzasidan maktab psixologlari va psixologik xizmat xodimlariga tavsiyanomalar. Shu tariqa, ko'rsatilgan muammo yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlarning asosiy natijasi bo'lib, psixologik asoslangan ta'lim texnologiyasi bo'ladi. Bu ta'lim texnologiyasi fanlarni o'qitishda kompyuterlarni qo'llashni va kompyuter modellari misolda o'quvchilarni birgalikda va individual tashkillashtirilgan o'quv faoliyatini o'z ichiga oladi.

Shuning bilan birga kompyuter yordamida musiqani ijro etish, bilimlarini shakllantirish ba'zi bir qiyinchiliklarni tug'diradi. Bu muammoning yechimini topish uchun o'qituvchidan ijro etish

uslub, tembr, ritm davomiyligi va boshqalarga e'tibor qaratishni talab etadi. Shu bilan birga musiqa jismoniy va tovush xususiyatlari nazariyasini rivojlantirish va uni kompyuter yordamida ijro etish uchun ham katta ahamiyatga ega. Kompyuterda o'quvchilarning musiqalarni tinglashlari ularning qobiliyatlarini, fikrlash doirasini rivojlantiradi.

O'quvchi imkon qadar kompyuter yordamida musiqiy asarlarni tizimlashtirishi lozim. Umumta'lim maktablarida musiqani kompyuter yordamida o'rgatish, o'quvchi shaxsi rivojlanishining shakllantiruvchi ajralmas qism sanaladi. O'z navbatida, kompyuterda musiqa va sinxron ijroni amalga oshirish ma'lum bir qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi. Musiqa o'qituvchisi kompyuter dasturini musiqa va ashulaning ijrosini joylashtirishga e'tibor berish zarur. Kuy va qo'shiqlarni kompyuter yordamida ijro etish nafaqat oktavaga, balki tovush davomiyligi, uning tezligi va har xilligiga ham bog'liqdir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yoshlarimizni informatsion texnologiyalar yordamida o'qitishga jalb etish, ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish esa "pedagogik texnologiya"ni shakllantirishga hissa qo'shadi, ya'ni informatsion texnologiyalarni ta'limda qo'llab, musiqa darslarini o'tishda, murakkab jarayonlarni va mavzularni, an'anaviy sharoitda ko'rish imkoniyati bo'lmagan darslarni o'quvchilarga kompyuter va qo'shimcha kanallar orqali bilim yetkazib berishga imkoniyat yaratadi.

Musiqa va ashulani kompyuter yordamida ttinglash va o'rganish jarayoni o'quvchilar ongining rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quv jarayonida yangi imkoniyatlarni ochishga texnik imkon berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5 Davlat o'quv dasturi – "Ilk qadam" Toshkent.: 2018-yil 3-iyul.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TRIZ TEKNOLOGIYASI USULLARIDAN FOYDALANISH

Durdona Sayfiddin qizi O'rolboyeva – stajor o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Zuhra Odil qizi Xudayqulova – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirishda TRIZ texnologiyasi usullaridan foydalanishning ahamiyati, mazmuni va amaliyotda qo'llaniladigan metodlar hamda STEAM texnologiyasi qo'llanilishidan maqsadlar yoritib berilgan.

Abstract: This article highlights the importance, content, and practical methods of using TRIZ technology in developing the creativity of preschool children, as well as the goals of using STEAM technology.

Аннотация: В данной статье освещена важность использования методов технологии ТРИЗ в развитии творческих способностей дошкольников, содержание и методы, используемые на практике, а также цели использования технологии STEAM.

Kalit so'zlar: TRIZ texnologiyalari, ijodiy qobiliyatlar, aqliy hujum, FQOU, katalog usuli, mantiqiy, ijodiy fikrlash, usul, og'zaki usul, o'yin, suhbat.

Ключевые слова: ТРИЗ–технологии, творческие способности, мозговой штурм, ФКОУ, метод каталога, логическое, творческое мышление, метод, вербальный метод, игра, беседа.

Keywords: TRIZ technologies, creative abilities, brainstorming, FQOU, catalog method, logical, creative thinking, method, verbal method, game, conversation.

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishlash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki innovatsion bo'lishi lozimligini talab etadi. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib

borish ham muhim masaladir. Bolalarni o'ynab turib o'ylashga undovchi, muammoli vaziyatlarni o'yinlarda aks ettiruvchi, kreativ ruhdagi ta'limiy rivojlantiruvchi o'yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta'lim mazmunini oshiradi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligiga erishishda tarbiyachilarning ijodkor bo'lishlarini taqozo etmoqda. Bu o'rinda esa maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligiga erishishda tarbiyachining noodatiy texnologiyalardan foydalanish, ta'limni tashkil etishning eng samarali usullarni joriy etishni talab qiladi¹. STEAM farzandlarimizga – ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak

1 Ilk qadam davlat o'quv dasturi 4-fevral 2022-yil

avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi. Bugungi kunda STEAM – ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunda ular fikrlarni to'playdi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga lego texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida ijodiy mehnat bashariyatni olg'a yetaklovchi asosiy omil bo'lib kelgan. Shunday ekan yosh avlodni ijodiy mehnatga o'rgatish, uni o'z zamonasining eng ilg'or bilimlari bilan qurollantirish hamma xalqlar uchun eng dolzarb vazifa hisoblangan².

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM texnologiyasidan foydalanishdan maqsad:

*tarbiyalanuvchilarga maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual jihatdan tarbiyalashda turli faoliyatlari mazmunini integratsiya qilishga o'rgatish;

*STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslarini o'rgatish;

*STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rgatish;

*integratsion mashg'ulotlarni tashkil etish;

*maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM ta'lim texnologiyasini amaliy qo'llash usullari

haqida bilim va ma'lumotlar berish.

Aqliy hujum bolalarda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi, muammoning yechimini izlashda ijodiy faollikni rag'batlantiradi, hayotda umidsiz vaziyatlar yo'qligini anglashga yordam beradi. Tarbiyachi "Aqliy hujum" metodidan foydalanganlarida noaniqlikka duch kelishlari mumkin. Tarbiyalanuvchilarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va keyinchalik ularni mustaqil "sayohatga" qo'yib yuborish ularda kreativ va hattoki noaniq bo'lsada, turli g'oyalarni o'ylab topishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.

Katalog usuli. Usul ijodiy hikoya qilishni o'rgatish muammosini ko'proq hal qilish imkonini beradi. Hech kimga sir emaski, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun monolog nutqining kichik tajribasi va faol so'z boyligining qashshoqligi tufayli ijodiy hikoya qilish qiyin. Katalog usuli 1920-yillarda Berlin universiteti professori E.Kunze tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu usul maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun muvaffaqiyatli sanaladi³.

Fokusli obyektlar usuli. Ushbu usulning mohiyati bir yoki bir nechta obyektning xususiyatlarini boshqasiga o'tkazishdir. Bu usul nafaqat tasavvurni, nutqni, fantaziyaning rivojlantirishga, balki fikrlashni boshqarishga ham imkon beradi.

"Tizim tahlili" usuli. Usul tizimdagi dunyoni ma'lum bir tarzda o'zaro bog'langan, bir-biri bilan qulay ishlaydigan elementlar to'plami sifatida ko'rib chiqishga yordam beradi. Uning maqsadi obyektlarning roli va o'rnini, ularning har bir element uchun o'zaro ta'sirini aniqlashdir.

Morfologik tahlil usuli. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda bu usul ijodiy tasavvurni, fantaziyaning rivojlantirish va stereotiplarni yengish uchun juda samarali. Uning mohiyati

2 Sharipov Sh.S, Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi.

3 Efremov V.I. TRIZ asosida bolalarni ijodiy tarbiyalash va o'qitish. — Penza: Unicon-TRIZ, 2000-yil, 130b


ushbu obyektning yangi qiyofasini yaratishda ma'lum bir obyektning xarakteristikallari uchun turli xil variantlarni birlashtirishdan iborat.

Yangi g'oyalarni asoslash usuli "Oltin baliq". Usulning mohiyati vaziyatlarni tarkibiy qismlarga (haqiqiy va fantastik) ajratish, keyinchalik fantastik komponentning haqiqiy ko'rinishlarini topishdir.

Analogiya bo'yicha fikrlash. Analogiya predmet va hodisalarning ayrim xossalari va belgilariga ko'ra o'xshashligi bo'lganligi sababli, avvalo, bolalarni predmetlarning xossalari va xususiyatlarini aniqlashga, solishtirish va tasniflashga o'rgatish kerak.

Fantaziya qilishning odatiy usullari (FQOU). Bolaning tasavvurini rivojlantirish uchun oltita sehrar yordam berish uchun tanishtiriladi. Sehrarlarning maqsadi obyektning xususiyatlarini o'zgartirishdir. Sehrli nayranglar: oshirish-kamaytirish, bo'lish-birlashtirish, zamon belgilarining o'zgarishi, uyg'onish-petrifikatsiya, ixtisoslashuv-universallashtirish, aksincha. TRIZ usullaridan foydalangan holda darslar haqiqat va mohiyatni izlash, bolani muammoga olib kelish va uni hal qilish uchun birgalikda izlash sifatida o'tkaziladi.

TRIZ texnologiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda muvaffaqiyatli qo'llaniladigan yana ko'plab usullar mavjud (1-rasm).



TRIZ texnologiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda qo'llaniladigan usullar.

Yuqorida keltirilgan usullar yordamida bolalarni quyidagi o'yin orqali tizimli fikrlashga o'rgatamiz.

TRIZ texnologiya usuli "Tizim operatori".



Maqsad: Tarbiyalanuvchilarda har qanday obyektga nisbatan tizimli fikrlash qobiliyatini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so'z boyligini boyitish, izchil monolog nutqini rivojlantirish, ijodiy tasavvurni rivojlantirish.



Ekranga qarang...

Nega bizga mashina kerak? (Odamlarni tashish, uzoq masofalarga sayohat qilish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish uchun kerak).

Bu nimadirning bir qismi...?

Avtomobil nimaning bir qismi? (Avtomobil transportning bir qismi, u quruqlikdagi transportdir).

Bu nimadandir...?

Avtomobil qanday qismlarga ega? (Mashinada g'ildiraklar, rul, pedallar, motor, o'rindiqlar, eshiklar, kapot, magistral, faralar mavjud).

Nimadir nimadir edi...

Odamlar doimo mashinalarda sayohat qilishganmi? (Yo'q). Ilgari odamlar nimaga minishgan? (otlarda, aravalarda). Keyin odamlar birinchi mashinani o'ylab topishdi. Bu zamonaviy mashinalarga o'xshamasdi. U juda katta dvigatelga ega edi. Unga juda ko'p yoqilg'i kerak edi. U juda tez haydamasdi.

Bunga nimadir bo'ladi...

Zamonaviy avtomobillar hamma uchun yaxshimi? (Yo'q). Ular haqida nimani o'zgartirishni xohlaysiz? (bardoshli bo'lishi, baxtsiz hodisalarda buzilmasligi, havoni ifloslantirmasligi, nafaqat haydashi, balki uchishi va suzishi ham kerak ...).

Keyin bitta bola mustaqil ravishda butun hikoyani "Tizim operatori" rasmlari asosida tuzadi.

Namuna bola hikoyasi: Avtomobil – bu transport. Bu odamlarni tashish, uzoq masofalarga sayohat qilish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish uchun kerak. Mashinada: g'ildiraklar, rul, pedallar, motor, o'rindiqlar, eshiklar, kapot, magistral, faralar mavjud. Mashinalar bo'lmaganidan oldin odamlar ot va aravada yurishgan. Keyin ular birinchi mashinani o'ylab topishdi. U juda katta dvigatelga ega edi. Bu mashinaga juda ko'p yoqilg'i kerak edi. U tez yura olmadi. Kelajakdagi avtomobillar kichik bo'ladi. Ular juda bardoshli bo'ladi. Ularga ozgina yoqilg'i kerak bo'ladi. Ular havoni ifloslantirmaydi. Ular quruqlikda minish, havoda uchish va suvda suzish imkoniyatiga ega bo'ladilar⁴.

TRIZ texnologiyasi va maktabgacha yoshdagi rivojlanishning klassik yondashuvi o'rtasidagi asosiy farq bolalarga mustaqil ravishda savollarga javob topish, muammolarni hal qilish, tahlil qilish va kattalar aytganlarini takrorlamaslik imkoniyatini berishdir. TRIZ texnologiyasi universal vositalar to'plami sifatida deyarli barcha faoliyat turlarida ham ta'limda, ham o'yinlarda va rejim lahzalarida foydalanish mumkin. Bu maktabgacha yoshdagi bolaning ongida dunyoning yagona, uyg'un, ilmiy asoslangan modelini shakllantirishga imkon beradi. Muvaffaqiyatli vaziyat yaratiladi, qaror natijalari almashiladi, bir bolaning qarori boshqasining fikrini faollashtiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi, uning rivojlanishini rag'batlantiradi. Texnologiya har bir bolaga o'zining individualligini ko'rsatish imkoniyatini beradi, maktabgacha yoshdagi bolalarni qutidan tashqarida o'ylashga o'rgatadi.

4 Efreinov V. I. TRIZ asosida bolalarni ijodiy tarbiyalash va o'qitish. — Penza: Unicon-TRIZ, 2000 yil, 130b

CROSS-CULTURAL ANALYSIS OF ENGLISH AND RUSSIAN PROVERBS ON THE CONCEPT "MOTHERLAND"

Dildora Saidnazarovna Mavlanova – trainee researcher,
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: This article aims to analyze the cultural aspects of English and Russian proverbs that express the theme of homeland. The study also lists the differences and similarities between English and Uzbek cultures through the proverbs used in verbal and non-verbal communication. The author employs the methods of comparative cultural analysis and componential analysis to achieve the research objectives. Within the dissertation, proverbs are also defined as units of paremiology and linguoculturology.

Annotatsiya: Ushbu maqola ona yurt mavzusini ifodalovchi ingliz va rus maqollarining madaniy jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda ingliz va rus madaniyatlari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar, og'zaki va noog'zaki muloqotda ishlatiladigan maqollar yordamida bayon etiladi. Muallif tadqiqot vazifalarini bajarish uchun taqqosiy-madaniy tahlil va komponentli tahlil metodlaridan foydalanadi. Dissertatsiya doirasida maqollar, shuningdek, paremiologiya va lingvokulturologiya birligi sifatida aniqlanadi.

Аннотация: Настоящая статья направлена на анализ культурных аспектов английских и русских пословиц, выражающих тему родины. В исследовании также перечисляются различия и сходства между английской и узбекской культурами с помощью пословиц, используемых в вербальной и невербальной коммуникации. Автор использует метод сравнительно-культурного анализа и компонентного анализа для выполнения задач исследования. В рамках диссертации пословицы также определяются как единицы паремиологии и лингвокультурологии.

Keywords: paremiology, proverb, linguoculturology, cultureme, metaphors, friendship, lexeme.

Kalit so'zlar: paremiologiya, maqol, lingvokulturologiya, madaniyema, metaforalar, do'stlik, leksema.

Ключевые слова: паремиология, пословица, лингвокультурология, культурема, метафоры, дружба, лексема.

The paremical picture of the world, as part of the linguistic picture of the world, allows us to reveal the worldview of a particular ethnic group through its direct connection with its folk consciousness, since paremias are predominantly of a folkloric nature. Another important aspect when considering paremias is their close connection with typical situations and various episodes of everyday life¹. In paremical statements, the established norms of speech etiquette, as determined by tradition, are reinforced in various ways, and behavioral guidelines that regulate interpersonal relationships in a given society are fixed. Paremias serve as value orientations, helping to determine what is considered good and what is considered bad in a specific speech situation. At the same time, a significant part of the paremial fund can independently function as

a speech act due to its semantic content. This is largely facilitated by the didactic, sententia-like nature typical of paremias. Thus, the analysis of paremias should be conducted taking into account all of their communicative functions. Paremiologists note the diversity of intentions and communication situations that can be expressed through proverbs, sayings, and so on. In this study, special attention is given to the speech situation of praise. Identifying the national specificity of this situation and the corresponding speech act is of great interest, as in Russian culture, the attitude towards praise is ambiguous and depends on many factors. Thus, it can be concluded that paremias are closely connected with the situation of their use and the intentions of the speaker. At the same time, they actualize in their semantics the cultural attitudes of the linguistic community,

1 "The Cambridge Handbook of Linguistic Anthropology" edited by N.J.Enfield, P. K. L. B.

reflecting the attitude of native speakers towards a particular subject, phenomenon, or event, often implicitly. As a result, the greatest difficulty in analyzing paremias lies in identifying these hidden yet simultaneously obvious cultural connotations, evaluations, stereotypes, etc., for the native speaker.

The languages of English and Russian are believed to have a long history. English has a Latin basis, hence a large number of English paremiologic stocks have Latin bases; some are identical to historical forms, while others have undergone alterations in comparison to the old ones. Furthermore, other languages have had an impact on the English language for many years. As a result, several proverbs are frequently borrowed from them when proverbs are translated into English. W.Mieder introduces the four major sources four common European proverbs, including English, namely the Greek and the Roman Antiquity, the Bible, the Medieval Latin and the loan translations². The Russian language possesses a huge number of proverbs, sayings and aphorisms that are considered as a great wealth of the Russian culture. Proverbs are usually alike and can be synonymous throughout nations. Sometimes, their meanings are similar and they can substitute one another in a context. However, many of synonym proverbs cannot be absolute synonyms even they resemble one another semantically. Besides pragmatic aspects, proverbs verse within the cultures and traditions³. The following examples clearly prove our statement:

The proverbs "Home is where the heart is" and "Дом там, где сердце" (translated as "Home is where the heart is" in Russian) carry the same core meaning, emphasizing the idea that home is not defined by a physical place, but by the

emotional connections and attachments that make a person feel truly at home. Both express the sentiment that home is wherever one feels love, comfort, and a sense of belonging, rather than being tied to a specific location. The English version, "Home is where the heart is", is widely used in Western cultures and reflects the idea that one's emotional or spiritual connection to a place or person is what truly makes it home⁴. The Russian version, "Дом там, где сердце", carries the same meaning but is part of Russian linguistic and cultural traditions. While the exact wording may differ, the concept is similarly recognized in many cultures around the world. "Home is where the heart is" or "Дом там, где сердце" means that home is not necessarily a physical location but wherever one feels emotionally safe, loved, and content. The proverb reflects the idea that the true essence of home is an emotional and personal connection, not a geographical spot. It highlights the importance of love, belonging, and emotional ties in defining where a person feels most at peace.

The proverbs "East or West – home is best" (English) and "В гостях хорошо, а дома лучше" (Russian, translated as "It's good to visit, but home is better") both emphasize the special value of being at home compared to being anywhere else, though they approach the idea from slightly different angles. "East or West – home is best": This English proverb suggests that no matter where you go in the world, whether it's the East or West (which may symbolize distant or foreign places), there is no place better than your own home. It reflects the idea that home is a unique and irreplaceable comfort. "В гостях хорошо, а дома лучше" (translated as "It's good to visit, but home is better"): The Russian proverb focuses on the idea that visiting or being in other places (like being a guest) is enjoyable, but being at home

2 Mieder, W., 1997, "Modern Paremiology in Retrospect and Prospect"

3 Mieder, W., 2014a, *Behold the Proverbs of a People. Proverbial Wisdom in Culture, Literature, and Politics*, Jackson, University Press of Mississippi. Mieder, W., 2014

4 "A Dictionary of English Proverbs" by P. H. P. O'Neill

is always preferable. It emphasizes that while traveling or spending time away from home can be pleasant, nothing beats the comfort of being in one's own familiar surroundings. "East or West – home is best" means that no matter where you travel or what places you experience, your home will always be the best place for you, a special and unmatched refuge. "В гостях хорошо, а дома лучше" ("It's good to visit, but home is better") expresses that, while visiting other places or being a guest can be enjoyable, the sense of comfort, peace, and belonging found at home is irreplaceable.

Both proverbs celebrate the comfort and unique value of being at home, but the English proverb places emphasis on the idea that no matter where one travels in the world, home is the best place. The Russian proverb, on the other hand, focuses on the specific contrast between being a guest and being at home, emphasizing that even though being a guest can be enjoyable, nothing compares to the warmth and security of one's own home⁵.

The proverbs "As long as you are ready to die for humanity, the life of your country is immortal" (English) and "До тех пор, пока вы готовы отдать свою жизнь за человечество, ваша Родина – бессмертна" (Russian) both convey a powerful idea of self-sacrifice for the greater good of one's country and humanity, and the enduring strength that such selflessness brings to the nation. While the message is similar in both proverbs, the nuances of language and culture in each add distinct layers to their meaning. "As long as you are ready to die for humanity, the life of your country is immortal": This proverb suggests that when individuals are willing to sacrifice their lives for the greater good—specifically, for the well-being and progress of humanity—this selflessness ensures that the nation they belong to will live on forever. The focus is on the idea that true sacrifice

for a higher cause (humanity) guarantees that a country's ideals, spirit, or identity will remain eternal. "До тех пор, пока вы готовы отдать свою жизнь за человечество, ваша Родина – бессмертна": The Russian version expresses the same core idea. It emphasizes that the immortality of one's homeland (Родина) is tied to the readiness to give one's life not just for the country itself but for humanity as a whole. The term "Родина" (which can be translated as "Motherland" or "Homeland") is often associated with a deep, almost familial connection to the country, implying a sense of patriotism and duty. "As long as you are ready to die for humanity, the life of your country is immortal" means that when people are willing to sacrifice their lives for a noble cause like the welfare of humanity, their nation's legacy, values, and existence will be everlasting. It stresses the idea that the spirit of a country is immortal when its citizens are willing to fight for the common good "До тех пор, пока вы готовы отдать свою жизнь за человечество, ваша Родина – бессмертна" conveys a similar message, emphasizing that the true immortality of a person's homeland is tied to the selflessness and sacrifices made for the greater good, especially for humanity as a whole. The use of "Родина" highlights the emotional, patriotic bond to one's homeland⁶.

Both proverbs highlight the connection between self-sacrifice and the immortality of a nation. The English proverb places emphasis on humanity as a whole, suggesting that a person's willingness to die for humanity guarantees the immortality of their country. The Russian proverb, while expressing the same core message, emphasizes the emotional and patriotic concept of "Родина" (Motherland), making it deeply rooted in Russian cultural values of loyalty and sacrifice for one's country. The underlying idea in both is that personal sacrifice for a higher cause ensures

5 "Cultural Semantics and Social Cognition" by Anna Wierzbicka

6 "The Oxford Dictionary of Proverbs" by J.Simpson and J.Speake

the enduring legacy and spirit of the nation.

The proverbs "My home is my castle" (English) and "Мой дом – моя крепость" (Russian) carry a similar meaning, both emphasizing the idea that one's home is a place of safety, security, and personal autonomy. They reflect the notion that one's home should be a sanctuary, a space where individuals feel protected from the outside world. While they share the same core message, there are some subtle differences in their cultural and linguistic contexts. "My home is my castle": This English proverb suggests that the home is a private, secure place where the individual can feel safe and in control. The use of the word "castle" implies that the home is a fortress, a place that offers protection from external threats or intrusions. It conveys the idea of a person having the right to defend their home and maintain their privacy. "Мой дом – моя крепость": The Russian version conveys the same basic idea, using the word "крепость": (fortress) instead of "castle". Like "castle", "крепость" implies a stronghold, a fortified place that provides safety and protection. In both versions, the home is considered a sacred space that should be defended and where one can enjoy peace and security. "My home is my castle" means that one's home is a place of safety, control, and privacy, a personal sanctuary where one has the right to defend themselves from outside interference. It emphasizes the importance of a home as a fortress that shields the individual. "Мой дом – моя крепость" conveys the same meaning, highlighting that the home is a secure and protected space, a fortress where one can seek refuge from the world. It also suggests the right and responsibility to defend one's home.

Both proverbs express the same core idea: one's home is a personal sanctuary, a place of protection, and a space that should be defended from external threats. The key difference lies

in the choice of words: "castle" in the English version may evoke a sense of grandeur and personal sovereignty, while "крепость" (fortress) in the Russian version may carry a historical association with defense and communal strength. Both proverbs emphasize the inviolability and importance of the home, but with slight cultural nuances based on the choice of metaphor⁷.

The cross-cultural analysis of English and Russian proverbs related to the concept of "motherland" reveals both similarities and differences in the ways these cultures express the notion of home, patriotism, and national identity. Through proverbs, both English and Russian cultures emphasize the deep emotional connection people have to their homeland, highlighting themes such as love, sacrifice, and security. Despite the differences in linguistic structure and cultural context, both languages express similar underlying values about the concept of home and motherland⁸.

In conclusion, the comparative analysis of these proverbs sheds light on the shared cultural values and distinct nuances that shape the perceptions of "motherland" in English and Russian-speaking communities. Both languages use proverbs as a medium to communicate the deep emotional ties that individuals have with their homeland, and these expressions reflect the universal human experience of finding belonging, security, and meaning in one's relationship to home and country. Through such proverbs, we gain a better understanding of how language and culture intertwine to shape our perceptions of identity, belonging, and sacrifice.

7 "A Dictionary of English Proverbs" by P. H. P. O'Neill

8 Voropaeva, V.A. (2007). Comparative characteristic of English, German and Russian paroemias and phraseological units expressing tolerance [dissertation]. Moscow.

INTERCULTURAL COMPETENCE: UNDERSTANDING AND NAVIGATING CULTURAL DIFFERENCES COMMUNICATION COMPETENCIES

Dilfuza Kurbonboyeva — practical teacher,
Jizzakh State Pedagogical University

Abstract: This article discusses the significance of intercultural competence in a globalized world, highlighting its importance for effective communication and collaboration among diverse populations. It defines intercultural competence as the ability to engage appropriately with individuals from different cultural backgrounds and outlines its key components: cultural awareness, knowledge of other cultures, empathy, and open-mindedness. In professional settings, diversity enhances creativity and innovation. Teams composed of individuals from various cultural backgrounds bring unique insights and problem-solving approaches. However, navigating these diverse perspectives requires strong collaboration skills and an ability to manage potential conflict resolution effectively. This includes recognizing cultural misunderstandings and addressing them constructively.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashgan dunyoda madaniyatlararo kompetensiyaning ahamiyati ko'rib chiqilib, uning turli populyatsiyalar o'rtasida samarali muloqot va hamkorlik uchun ahamiyati yoritilgan. U madaniyatlararo kompetensiyani turli xil madaniy kelib chiqishiga mansub shaxslar bilan to'g'ri munosabatda bo'lish qobiliyati sifatida belgilaydi va uning asosiy tarkibiy qismlarini belgilaydi: madaniy xabardorlik, boshqa madaniyatlarni bilish, empatiya va ochiq fikrlash. Turli madaniyatlarga ega bo'lgan shaxslardan tashkil topgan jamoalar muammoni hal qilishda o'ziga xos tushuncha va yondashuvlarni olib keladi. Biroq bu xilma-xil istiqbollarni boshqarish kuchli hamkorlik ko'nikmalarini va potensial mojarolarni hal qilishni samarali boshqarish qobiliyatini talab qiladi.

Аннотация: В этой статье обсуждается значение межкультурной компетентности в глобализованном мире, подчеркивая ее важность для эффективной коммуникации и сотрудничества между различными группами населения. Межкультурная компетентность определяется как способность соответствующим образом взаимодействовать с людьми из разных культурных слоев и описываются ее основные компоненты: культурная осведомленность, знание других культур, эмпатия и открытость. Команды, состоящие из представителей разных культур, приносят уникальные идеи и подходы к решению проблем. Однако управление этими разнообразными точками зрения требует сильных навыков сотрудничества и способности эффективно управлять потенциальными разрешениями конфликтов. Это включает в себя признание культурных недопониманий и их конструктивное разрешение. Обучение на основе опыта посредством программ культурного обмена, путешествий или иммерсивного опыта может значительно улучшить межкультурные навыки. Такой опыт способствует саморефлексии, позволяя людям оценить свои культурные представления и адаптировать свое поведение в различных условиях.

Keywords: intercultural Competence, Cultural Awareness Cultural Differences Empathy Open-mindedness, Globalization, Communication, Diversity Collaboration Conflict Experiential Learning Cultural Exchange Innovation, Trust, Personal Growth, Professional Success Education and Training Self-reflection, Cross-cultural Communication, Team Dynamics.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo kompetensiya, madaniy xabardorlik, madaniy farqlar, hamdardlik, ochiq fikrlash, globallashuv, muloqot, xilma-xillik, hamkorlik, mojarolar, tajribali o'rganish, madaniy almashinuv, innovatsiyalar, ishonch, shaxsiy o'sish, kasbiy muvaffaqiyat, ta'lim va trening, o'z-o'zini aks ettirish, madaniyatlararo muloqot, jamoa dinamikasi.

Ключевые слова: межкультурная компетентность, культурная осведомленность Культурные различия Эмпатия Открытость, глобализация, коммуникация, разнообразие Сотрудничество Конфликт Опытное обучение Культурный обмен Инновации, доверие, личностный рост, профессиональный успех Образование и обучение Саморефлексия, межкультурная коммуникация, командная динамика.

In our increasingly globalized world, intercultural competence has become a crucial skill for individuals and organizations alike.

Defined as the ability to communicate effectively and appropriately with people from different cultures, intercultural competence involves

understanding cultural differences, adapting communication styles, and fostering mutual respect. This article explores the significance of intercultural competence, its components, and its impact on personal and professional relationships.

The Importance of Intercultural Competence.

1. **Globalization and Diversity:** As the world becomes more interconnected, individuals are more likely to interact with people from diverse backgrounds. According to a report by the Pew Research Center (2019), "The share of the U.S. population that is foreign-born has increased significantly over the past few decades, highlighting the importance of understanding cultural diversity" (Pew Research Center, 2019)¹.

2. **Workplace Dynamics:** In the workplace, intercultural competence can enhance teamwork and collaboration. A study by the Harvard Business Review (2018) found that "teams with diverse members are more innovative and perform better"

Pew Research Center (2019), This underscores the necessity for employees to develop intercultural skills to work effectively in diverse teams.

3. **Conflict Resolution:** Misunderstandings arising from cultural differences can lead to conflicts. According to a study published in the International Journal of Intercultural Relations (2020), "Cultural misunderstandings are often at the root of workplace conflicts, making intercultural competence essential for effective conflict resolution" (IJIR, 2020).

Components of Intercultural Competence.

4. **Cultural Awareness:** Understanding one's own culture and recognizing how it influences perceptions and behaviors is the first step toward developing intercultural competence. As noted by Deardorff (2006), "Cultural self-awareness is critical in understanding how culture shapes our interactions" (Deardorff, 2006)².

5. **Knowledge of Other Cultures:** Familiarity with the customs, values, and communication styles of other cultures enhances one's ability to engage with individuals from those cultures. According to Bennett (1993), "Knowledge of cultural norms can significantly reduce miscommunication and foster better relationships"³ (Bennett, 1993).

6. **Empathy and Open-mindedness:** Empathy allows individuals to appreciate different perspectives. A study published in the Journal of International Business Studies (2017) emphasized that "open-mindedness is a key trait for effective intercultural communication" (JIBS, 2017).

7. **Education and Training:** Many organizations are recognizing the need for intercultural training programs. A report by the European Commission (2018) states that "training in intercultural competence can significantly improve employees' ability to work in multicultural environments"⁴ (European Commission, 2018).

8. **Experiential Learning:** Engaging in travel or cultural exchange programs can provide firsthand experience with different cultures. According to a study by the ⁵Institute of International Education (2019), "students who study abroad develop higher levels of intercultural competence compared to their peers"⁶ (IIE, 2019).

9. **Continuous Reflection:** Developing intercultural competence is an ongoing process

1 Pew Research Center. (2019). "The Changing Face of America". – P. 123-124.

2 Deardorff, D.K. (2006). "The Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization". 65-66.

3 Bennett, M.J. (1993). "Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity".

4 European Commission. (2018). "Intercultural Competence Training in Europe". 79-80

5 Institute of International Education. (2019). "Open Doors Report on International Educational Exchange". 32-33

6 Institute of International Education. (2019). "Open Doors Report on International Educational Exchange". 88-89

that requires self-reflection and adaptation. As noted by Bennett (2009), "Reflective practice is essential for individuals seeking to improve their intercultural skills" (Bennett, 2009)⁷.

Impact on Personal and Professional Relationships.

10. Enhanced Communication: Effective intercultural communication leads to stronger relationships and collaboration. A study published in the *Journal of Cross-Cultural Psychology* (2021)⁸ found that "individuals with high intercultural competence are better equipped to build trust and rapport across cultures" (JCCP, 2021). In conclusion, intercultural competence is an essential skill in today's diverse world. By fostering cultural awareness, empathy, and open-mindedness, individuals can navigate cultural differences more effectively. As globalization continues to shape our societies, investing in intercultural competence will not only enhance personal relationships but also contribute to professional success. Cultural Competence: An Overview Intercultural competence refers to the ability to effectively and appropriately communicate, interact, and collaborate with individuals from diverse cultural backgrounds. In an increasingly globalized world, where interactions across cultures are commonplace, developing intercultural competence is essential for personal and professional success. Cultural Awareness is the foundation of intercultural competence. It involves recognizing and understanding one's own cultural biases, values, and beliefs, as well as those of others. This awareness fosters empathy, allowing individuals to appreciate different perspectives and experiences. Cultural Differences can manifest in various forms, including communication styles, social norms, and value systems. Understanding these differences is crucial for effective cross-cultural communication, which encompasses verbal and non-verbal interactions. Practicing open-mindedness helps individuals approach cultural differences without prejudice, facilitating more productive dialogues.

In professional settings, diversity enhances creativity and innovation. Teams composed of individuals from various cultural backgrounds bring unique insights and problem-solving approaches. However, navigating these diverse perspectives requires strong collaboration skills and an ability to manage potential conflict resolution effectively. This includes recognizing cultural misunderstandings and addressing them constructively. Experiential learning through cultural exchange programs, travel, or immersive experiences can significantly enhance one's intercultural skills. Such experiences promote self-reflection, allowing individuals to evaluate their own cultural assumptions and adapt their behaviors in diverse environments. (International Journal of Intercultural Relations. 2020)⁹.

Furthermore, intercultural competence is not only about personal growth; it has profound implications for professional success. In today's interconnected job market, employers increasingly value candidates who demonstrate the ability to work effectively in multicultural teams. This skill set is essential for fostering trust and building strong relationships across cultural divides. (Journal of International Business Studies. (2017))¹⁰.

Educational institutions play a vital role in promoting intercultural competence through dedicated training programs that emphasize the importance of diversity and global citizenship. These programs prepare students to thrive in multicultural environments, equipping them with the tools necessary for effective communication and collaboration. In summary, intercultural competence is a multifaceted skill set that encompasses awareness, empathy, open-mindedness, and effective communication. By embracing cultural diversity and enhancing our intercultural skills, we contribute to a more inclusive and harmonious global society. This annotation provides a comprehensive overview of the concept of intercultural competence while elaborating on the key themes associated with it.

7 Bennett, M.J. (1993). "Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity". 44-45

8 Journal of Cross-Cultural Psychology. (2021). "Trust and Rapport Across Cultures". 66-67

9 International Journal of Intercultural Relations. (2020). "Cultural Misunderstandings in Workplace Conflicts". 93-99

10 Journal of International Business Studies. (2017). "The Role of Open-mindedness in Intercultural Communication". 67-68

XALQ HOFIZI ESON LUTFULLAYEV IJODIY MEROSIDAN MUSIQIY-PEDAGOGIK FAOLIYATDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Qutlug' Hamdamovich Haydarov –stajor o'qituvchi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq hofizi Eson Lutfullayevning ijodiy merosidan musiqiy-pedagogik faoliyatda foydalanishning o'rni va ahamiyati tadqiq etilgan. San'atkorning maqom yo'llarini ijro etish qobiliyati xalq donishmandligi bilan yaratilgan navolarni bilishi, o'rganishi, taniqli xalq hofizlari bilan doimiy muloqotda bo'lishi, o'z bilimi va mahoratini doimiy rivojlantirib, takomillashtirib borishi bilan ushbu maqolada o'quvchilarni tanishtirishning shakl, uslub va vositalari o'rganilgan, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение использования творческого наследия Народного певца Узбекистана Эсона Лутфуллаева в музыкально-педагогической деятельности. Способность художника выполнять статусные пути заключается в том, чтобы знать и изучать мелодии, созданные народной мудростью, находиться в постоянном общении с известными народными хуфизами, постоянно развивать и совершенствовать свои знания и навыки, изучались методы и инструменты, давались рекомендации. развитый.

Abstract: This article examines the role and importance of using the creative heritage of the People's Court of Uzbekistan Eson Lutfullaev in musical and pedagogical activities. The artist's ability to perform status paths is to know and learn the navos created by folk wisdom, to be in constant communication with well-known folk hafiz, to constantly develop and improve his knowledge and skills. , methods and tools were studied, recommendations were developed.

Kalit so'zlari: musiqa, ta'lim, ijro, mahorat, shakl, san'at, usul, qo'shiq, bastakorlik, pedagog, shakl, hofizlik.

Ключевые слова: музыка, образование, исполнение, мастерство, форма, искусство, метод, песня, композиция, педагог, форма, ухаживание.

Keywords: music, education, performance, skill, form, art, method, song, composition, pedagogue, form, courtship.

O'zbek milliy musiqa rivojida Eson Lutfullayevning ko'p qirrali va mahsuldor ijodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari uning xalq orasidan yetishib chiqqanligi, xalq musiqa va qo'shiqchilik san'atining bevosita ta'sirida o'sib ulg'ayganligi, butun umrini shu san'atga baxshida etganligi, xotirasida ko'plab xalq ashulalari, mumtoz maqomlarini saqlab, ularni xos ijrosi, yoqimli va betakror ovozi bilan xalqqa yetkazib berganligi, o'zi ham ko'plab ashulalarga kuy yaratganligidadir. Eson Lutfullayev musiqa ijrochiligida shunday yorqin iz qoldirganki, uning san'ati og'zaki an'anaviylikka tayanadigan eski formatsiya musiqachilari safida hisoblash noto'g'ri bo'lur edi. Uning ijodiy faoliyati bilan birga musiqiy-ma'rifiy pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan qarashlarini aytish mumkinki, zamonaviy

talab va yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holatda shakllandi. Bu esa:

– birinchidan, davlat musiqiy muassasalari tizimi bilan bog'liqligi;

– ikkinchidan, faoliyati ilmiy asoslangan maqom ijrochiligi va zamonaviy nota savodiga tayangan holda oshirilganligidadir. Bu esa Eson Lutfullayev ijodiy faoliyatini musiqiy-ma'rifiy, pedagogik asoslarga ega ekanligining yaqqol ifodasi deyishimiz mumkin.

O'zbek xalq musiqiy ijrochiligi va qo'shiqchilik san'atida an'anaviylik bilan birga improvizatsiya yo'nalishi o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, bu og'zaki an'anaviy musiqa ijrochiligiga xos eng muhim sifatlardir. Bu o'rinda uning ijodining

eng xarakterli musiqiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan sifati xususiyatlarini shunday baholash ta'riflash mumkin.

1. Yuqori darajada rivojlangan musiqa eshitish, eslab qolish va yodida saqlab qolishi, kerakli joyda nomoyon eta qolish qobiliyati.

2. O'zbek xalq an'anaviy musiqa ijrochiligiga xos an'analar, milliy bezaklar, qochirim, nolish, salmoqlash, ta'kidlash kabilarni mahorat bilan bajarish va qat'iy rioya qilish.

3. Improvizatsiya qilish qobiliyati va mahorati.

Musiqiy asar ijrosida improvizatsiya bu materialning shakliy tuzilishining harakatchanligi va ohang rivojida o'zaro almashinuvida, shuningdek, yangi shaklning turlicha toblanish jarayonida ko'rish mumkin bo'lgan holatlardir.

Bu borada xalq musiqa ijrochilarini ikki toifaga ajratish mumkin.

Musiqiy shakl tuzilishining hamma ko'rinishlarida kanonizatsiyani qat'iy talab etuvchi o'ziga xos dogmatik uslub (Shodi Azizov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov ijodi, ijro yo'li).

Yuqori darajadagi harakatchanlikka, chaqqonlikka intiluvchi improvizatorlar (Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilovlar qatorida Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov va Eson Lutfullayev shular qatorida).

Xususan, Eson Lutfullayev ustozlari Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqov rahbarligida ularning kuylash uslubiga tayana turib, sekin-astalik bilan ustozlarining ijrochilik uslubiga taqlid qilish bilan cheklanmasdan, o'z ijro uslubini topishga harakat qildi. U ashula ijro etar ekan, kerakli joylarda ohangni ko'tarar, ustalik bilan usul va kodensiyalar bilan bezar va unga o'ziga xos shukuh baxsh etar edi. Bularning barchasi uning maqom ansamblidagi faoliyatida namoyon bo'ldi. Shu sababli Eson Lutfullayev

ijrolaridagi mumtoz va maqom ashulalarida bir tomonda ustoz maqom ijrochilarining yo'l va ijrochilik uslublari kuzatiladigan bo'lsa, ikkinchi tomondan uning kuylashi va ijrosi taqliddan iborat emasligining, aksincha milliy kuylash uslublari, an'analar kengligi va ijodiy davom etishi bo'ladi¹.

An'anaviy ijrochilikning chuqur bilim tamoyillari asosida xalq musiqa durdonalarini ijodiy tahlil qilish va sharhlash misol qilib Yunus Rajabiyning "Muqanna" musiqali dramasi yozgan musiqalarini olish mumkin. Unda ritmik xilma-xilligi, boyligi va aniq arxitektonika yaqqol nomoyon bo'ladi. Bu dramaning ko'p ariyalari xalq yo'lidagi ashulalardan iborat bo'lib, xalq musiqasiga xos keng va chuqur sakrashlar bilan kuy izchilligi ravonligining saqlanishi va bir-biriga mosligi namoyon bo'ladi.

Ayni damda Eson Lutfullayevning xonandalik faoliyatida mana shu kabi uslublar yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Eson Lutfullayev hofizlik salohiyati, barcha o'zbek xonanda ijrochilaridan deyarli farq qilmas edi, faqatgina uning ovozi va qo'shiq ijrosida oshib, bir o'ziga xoslik namoyon etar edi. O'zbek maqom ijrochilarining umumiy ijro uslubi mahorati, olamni idrok etish, o'z holda uning hayoti va taqdiridagi o'zgarishlarni tasavvur etish, nafaqat obrazlarda ifoda etilgan g'oyalarni ijodkor shaxsining ichki kechinmalari talqin etishga intilishini bo'rttirib, yorqin namoyish etishida zohir bo'ladi.

Eson Lutfullayevning xonanda-hofizlik faoliyati musiqiy-ma'rifiy va pedagogik yo'liga ega bo'lib, unda xalq ijodi va professional musiqaning eng ilg'or g'oyalarini o'rganish, yozish, targ'ib qilish bilan pedagogik ahamiyatga ega, chunki uning ijro uslublari kelgusi avlodlar, yosh musiqachi-ijrochilar o'rganishlari, davom ettirishlari uning pedagogik va tarbiyaviylik xususiyatiga ega ekanligining ifodasidir.

1 Yunus Rajabiy. Musiqiy merosimizga bir nazar. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. – B. 6.

San'atkorning maqom yo'llarini ijro etish qobiliyati xalq donishmandligi bilan yaratilgan navolarni bilishi, o'rganishi, taniqli xalq hofizlari bilan doimiy muloqotda bo'lishi, o'z bilimi va mahoratini doimiy rivojlantirib, takomillashtirib borishi bilan izohlanadi. Orif Xoji Alimaxsumov, Tolibjon Badinov, Ochilxon Otaxonov, Alijon Hasanov, B.Zirkiyev, Is'hoq Kattayev, Karim Mo'minov, Siroj Aminov, Nazira Yusupova, Ortiq Imomxo'jayev, Umar O'tayev, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Orifxon Hotamov, Hasan Rajabiy, Nasiba Sattorova, Beknazar Do'stmurodov, aka-uka Isroil Ismoil Vaxobov, Mahmudjon Tojiboyev va shu kabi bir qancha hofizlar bilan bo'lgan yaqin munosabati, ijodiy suhbatlar uning xalq sevgan san'atkor bo'lib yetishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiatan yaxshi ovoz sohibi bo'lgan san'atkor maqom va xalq qo'shiqlarning qismini shu kabi hamkasb ustozlaridan o'rgandi.

Yosh avlodga milliy mumtoz va maqom sirlarini o'rganishi, ularni xalq musiqasi ijrochilik sirlarini o'rgatish, ularga murakkab va baland diapozon ovozga ega bo'lgan maqom asarlarini yoshlik chog'larida singdirib borish bo'yicha yuksak musiqiy-ma'rifiy vazifani bajarish ma'suliyatli hofizni doimo o'ylantirib kelar edi. Buning amaliy natijasi o'laroq hozirgi vaqtda respublikamizning viloyat, tuman va shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan Bolalar musiqa va san'at maktablarida, Ixtisoslashtirilgan san'at maktablari qoshida yosh maqom ijrochilari guruhlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom ijrochilari festivalini o'tkazilishi o'zbek maqom san'atining xalqaro miqyosda obro' qozonishi uchun zamin yaratdi.

Ma'lumki, maqom ijrochiligi to'laqonli badiiy yetuk ijrosini ta'minlashda maqomchilar ansambli muhim ro'l o'ynaydi. O'zbekiston radio kompaniyasi qoshida tashkil etilgan, Y.Rajabiy rahbarligidagi maqom ansambli xalq cholg'u asboblari ansambliga xos vazifalarni ham bajarib kelardi. Ya'ni:

1. Xalq musiqasi va maqom jamoalari tizimi, ijrochilikka xos jihatlarini aniqlash bo'yicha ijodiy laboratoriya bo'lib, maqom musiqalarini qayta ishlab chiqishda sodir bo'luvchi kamchiliklarni aniqlashga ko'maklashar, cholg'u ansambli asboblari yangrashini nazorat qilar, amaliy jihatdan milliy cholg'u asboblari va vokal ijrosining sayqallashida xizmat qilar edi.

2. Xalq musiqasi, maqom san'atining musiqiy targ'ibot markazlari rolini bajarar edi.

3. Xalq musiqa ijrochilari an'analarining davomchilari va yetkazuvchilari vazifalarini bajarar edi.

Ushbu jamoalar bilan yaqin aloqada bo'lishi barcha maqomdan musiqachilar singari Eson Lutfullayevning pedagogik qobiliyati yanada rivoj topishida muhim o'rin tutdi.

Eson Lutfullayevning musiqiy-ma'rifiy, ijrochilik mahoratining shakllanishi va rivojlanishi hamda uning amaliy targ'ibot va tashviqotchilik faoliyatini 3 ta yo'nalishda o'rganish mumkin.

1. Eson Lutfullayev faoliyat yuritgan o'zbek maqomchilar ansambli bilan ishlash jarayoni.

2. Original musiqiy ijod individual ijod bilan shug'ullanish, yangi qo'shiq va kuylar yaratish.

3. Xalq musiqa ijodiyoti va zamonaviy musiqa ijodi bilan ma'lum bastakor va kompozitorlari ijodiga mansub asarlarni targ'ib etish.

Eson Lutfullayevning ijod faoliyatini uning yuksak ijrochilik mahorati, tashabbuskorligi va pedagogik malakasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq ekanligini anglash – bu ilmiy pedagog tashxis uchun eng muhim xususiyatdir. Bu xususiyatlar san'atkor faoliyatining to'laqonligi, badiiy yetukligi, ijod namunalarining xima-xilligi, mavzular rang-barangligi bilan uning ijrosida o'zining o'chmas izini qoldirdi.

Eson Lutfullayev ijodiga xos boshqa bir xususiyati uning doimo ijodiy tashabbus ko'rsatadiki, turli murakkabligi, O'zbekistonning turli vohalarida qaror topgan xalq qo'shiqlarini, maqom va mumtoz asarlarni kuylashga intilar va uni maromiga yetkazib bajarishga intilar edi. Uning repertuarida Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, xalq ashulalari o'rin olganligi buning dalilidir.

Maqom ansambli safida har yili hisobot konsertlar berishi, turli bayram va tadbirlar, ma'daniyat va san'at ahlining yubileyleri munosabati bilan o'tkaziladigan konsertlarda muntazam ishtirok etar, bu o'rinda ko'pchilikka namuna bo'lishga intilar edi. Uning bu o'rindagi faoliyatida quyidagi jihatlarni alohida ko'rsatish mumkin.

O'zbek milliy musiqa ma'daniyatining yuksalishi va rivojlanishiga ko'maklashish.

O'zbek milliy maqom san'atini keng targ'ib va tatbiq qilish.

Musiqa shinavandalari, xalq vakillarining estetik ma'daniyati va musiqiy dunyoqarashini tarbiyalash va rivojlantirish.

O'zbek xonandalari, ayniqsa, maqom ijrochilari va ansambl shuhratini oshirish.

San'atkorlar, xususan, yosh ijrochilar uchun tajriba maktab vazifasini bajarish, ularni ijodiy o'sishiga ko'mak berish.

An'anaviy va maqom ijrochiligi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili xalq musiqa pedagogikasining o'ziga xos jihatlarni ochib berishiga qaratilganligi misol qilib keltirishimiz mumkin.

1. Ilmiy manbalarda musiqachi ijrochilar uchun muayyan qoidalar va qayd etilgan tamoyillar. Bu tamoyil o'z mazmunida "o'quvchining hayoti va ta'limi ustozning uyida o'tishi shartligini (doimiy

nazorat va kuzatuv ostida) ta'kidlanadi". O'zining kasbiy musiqa ijrochiligidagi ulkan mahoratga erishgan xalq sozanda va xonandalari o'z kasbiga o'qitish uchun shogirdlar olishar edi².

Bunga misol qilib ustoz bastakor Xoji Abdulaziz Abdurasulov faoliyatini ko'rsatish mumkin. U o'zining shogirdlariga juda e'tiborli va g'amxo'r bo'lib, ulardan kelajakda iqtidorli va ajoyib yetuk xonanda sozandalar yetishib chiqishiga astoydil ishonar edi. Shogirdlar ustozning uyida yashar, ustoz ularga qo'shiq kuylash usullarini, maqom va mumtoz ko'nikmalarini, ijro etish yo'llarini o'rgatar, shogirdlar ustoz bilan bayram yig'ilishlarda birga bo'lib, ashula aytar edilar.

"To'rt yil bir uyda yashadik, -eslaydi Yunus Rajabiy, dutor chalar edik, kuylashni Xoji akadan o'rganar edik, aynan shu yerda biz haqiqiy Buxoro Shashmaqomi nimaligini bildik va tushundik, biz har tomonlama shogirdlari edik".

2. Musiqa ijrochilik bo'yicha uning tarbiyaviy mazmun kasb etishi. Asosiy didaktik maqsadlar orasida tarbiyaviylik muhim o'rin tutadi. Shogirdlarining individual chiqishi ustoz tomonidan birinchi darajali masala deb qaralar edi. Uning muvaffaqiyati musiqiy merosning yashash davomiyligini saqlab qolish imkoniyatini paydo qiladi.

Xarakterli tomoni shundaki, shogirdlar muloqot va mahoratlarini jamoat joylarida o'zlarini tutishi, o'z imkoniyatlarini to'liq nomoyon etish, bor kuch-iqtidorlarini qo'shiqni badiiy ijrosiga qarashi, nutq (talaffuz) hattoki kiyinishida ham ustozlarga ergashar edi³.

Agar "ta'lim", "ta'lim berish" so'zlarining ma'nosi mazmunida maxsus o'quv yurtlarida o'quvchilar bilan maxsus o'quv mashg'ulotlari o'tkazilishi ko'zda tutilsa, aytish mumkinki, Eson Lutfullayevning bu sohadagi faoliyati epizodik va qisqa muddatli edi, u umaman o'quv

2 Axmedov M.T. O'zbekiston musiqiy ma'daniyatida xalq musiqachilari. San'atshunoslik doktori, Dissertatsiya. – Toshkent, 1985.–B.14.

3 Mirzayev M.T. Xalq musiqachilari hayoti va ijodi haqida ocherklar. San'atshunoslik NTI qo'lyozma. – T.: 1962.

muassasalarida dars bermagan bo'lsada, u yosh musiqachi xonandalar uchun murabbiy va rahbar maqomida bo'lgan san'atkor edi. Shuning uchun ham O'zbekiston maqomchi xonandalari safida o'zining ijrochilik yo'li, uslubi va maktabini yaratgan ustozdir. Ko'plab taniqli xonanda, hofizlar uni o'zlarining ustozlari deb bilishlari shundandir.

Eson Lutfullayevning ustoz deb bilgan musiqachi sozanda, xonanda, hofizlar, orasida hozirgi maqomchilar ansamblida faoliyat yuritayotgan O'zbekiston xalq hofizi Beknazar Do'stmurodov, Abduhoshim Ismoilov, Ahmadjon Dadayev, Zamira Suyunova, Gulbahor Erqulova, Matluba Dadaboyeva, Soibjon Niyozov kabilar borligi uning pedagogik-murabbiylik faoliyati natijasidir. Eson Lutfullayevning yosh xonandalarni tarbiyalashdagi xizmatlari uning o'z xonanda ijrochilik maktabini shogirdlariga berishga intilib yashaganligidadir.

Eson Lutfullayev ijodining eng asosiy axloqiy-estetik va pedagogik tamoyili bu, eng avvalo, yetakchi ustoz san'atkorlar Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Orifxon Xotamov, Yunus Rajabiy kabilardan o'zlashtirilgan ustoz-shogird an'analariidagi munosabatlarga qat'iy amal qilishdan iborat.

Ushbu fukrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, barcha atoqli o'zbek xonanda-hofiz ijrochilar kabi Eson Lutfullayevning badiiy-ijodiy va tarbiyaviy-pedagogik faoliyati asosida quyidagi tamoyillar yotadi.

1. O'z kasbiy faoliyatiga doir san'atkorga ustozlik qilish, muhimi qalbdan his qiluvchi musiqiy obrazlarda, insoniy his-tuyg'u va kechinmalarni idrok etib, ijro etuvchi insonlarni tarbiyalash.

2. Yuksak did, talabchanlik, ijodiy mehnat qobiliyatining o'tkirligini talab qiluvchi musiqachini shakllantirish.

3. To'laqonli ijodiy faoliyatga tegishli ko'nikmani shakllantirish, ko'p yillik mehnat qilish natijasida to'plangan tajribalarini shogirdlariga yetkazish.

4. Ijodda yuqori natijaga erishish uchun butun professional mahoratini ishga solish, mashg'ulotlar davomida vaqt va yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanishga o'rgatish.

5. Repititsiya, konsertlarda chiqish talablariga qat'iy amal qilishga odatlantirish, yaxshi kuylash kayfiyatiga ega bo'lish, barcha ishlarni asosiy maqsadga yo'naltirish, o'z ovoziining doimiy ravishda salomatligini saqlash, maishiy, oilaviy muammolardan yiroqlashishi, tomoshabinning kayfiyatini ko'tarish, ularning yaxshi dam olishi va olqishiga ega bo'lishni asosiy maqsad qilib olishiga erishishlari kerakligiga ustuvor ahamiyat qaratish.

Yosh xonanda, ijrochilar, yangi shogirdlariga muntazam ravishda quyidagilarni o'rgatib borish Eson Lutfullayev ijodiga ham xos xislat edi.

– tushuntirish – asar xarekteri, ijro uslubini, nafas olish, tejamlil sarflash, ashula aytish qoidalari.

– ko'rsatish – butun musiqiy asar yoki uning qismlarini erinmasdan o'z ijrosida eshittirish, uni bir necha martalab takrorlash.

– to'xtatish, qaratish – yo'l qo'yilgan kamchiliklariga va uni tuzatishga e'tibor berish (tanbeh, uqtirish, tahlil qilish).

– vokal-xor mashqlar, talaffuz, asarni ansambl jo'rligida kuylash, artistik, ko'rinishga e'tibor qaratish, hayotda unga doimiy e'tiborli bo'lish.

– qaytarish – qo'yilgan maqsadni amalga oshirish imkonini yaratish, hafas ustida ish olib borish, ovozni tabiiy ravishda tiniq, yangrashini ravon va tekis bo'lishida erishish.

– o'zbek xalq va an'anaviy ijro uslublarini egallash, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish.

Repititsiya va yosh ijrochilar bilan ishlashda Eson Lutfullayev o'zining murabbiylik, ustozlik maslahatlarini shu asosda bo'lishiga amal qilar edi, ashula ijrochililigida muhim bo'lgan badiiy-g'oyaviy jihatlariga tegishli maslahatlarini berish u kishiga xos fazilatlaridan edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek mumtoz va maqom ijrochilari milliy qo'shiqchilikning an'anaviy va zamonaviy ijro uslublarini umumlashtirish ishlari asosida quyidagi tamoyillar ustuvor kasb etadi:

- an'anaviy ijrochilik qoidalarini mukammal egallash, kerakli bo'lgan paytda uni improvizatsiya yo'li bilan zamonaviy uslublarda birlashtirish;

- musiqiy bilim va ijrochilik ko'nikmalarini egallash bo'yicha oldingi va hozirgi davrdagi ustoz san'atkorlar, mumtoz va maqom ijrochilari, hofizlarining musiqiy-pedagogik metodlarini qo'llash mahoratiga ega bo'lish.

Masalan, ustozlarning xalq ijrochilik an'alarini mukammal bo'lishi va musiqiy asarlarni o'rganish, ustozlar talablariga muvofiq qo'llash, ikkinchidan, tinglovchi-tomoshabinlarning musiqiy estetik talablarini tushunish, his etish, musiqiy til ishlata bilish (talaffuz), xalq kuylari ijrosida milliy bezaklar, avjlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Javohir Abdullayev – tayanch doktorant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilar uchun zamonaviy ta'limning murakkabliklarini yo'lga qo'yishga tayyorlanayotganda juda muhimdir. Maqolada o'qituvchilar uchun tanqidiy fikrlashning ahamiyati ta'kidlanib, uning muammolari hal qilish, o'zgarishlarga moslashish va o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. U tanqidiy fikrlashni o'qituvchilar ta'limi dasturlariga integratsiyalashning turli strategiyalarini o'rganadi, jumladan, aniq ko'rsatma, reflektiv amaliyot, muammoli o'rganish va hamkorlikdagi mashqlar. Maqolada, shuningdek, ta'lim texnologiyasi bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni qanday qo'llab-quvvatlashi, ularning haqiqiy o'qitish muammolariga yaxshi tayyorlanishini ta'minlashi haqida gap boradi.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность развития навыков критического мышления у будущих учителей, поскольку они готовятся ориентироваться в сложностях современного образования. В статье подчеркивается важность критического мышления для учителя, его роль в решении проблем, адаптации к изменениям и развитии самостоятельного мышления у учащихся. В нем исследуются различные стратегии интеграции критического мышления в программы подготовки учителей, включая конкретное обучение, рефлективную практику, проблемное обучение и совместные упражнения. В статье также обсуждается, как образовательные технологии могут способствовать развитию критического мышления у будущих учителей, гарантируя, что они хорошо подготовлены к реальным задачам преподавания.

Abstract: This article highlights the importance of developing critical thinking competencies for future teachers as they prepare to navigate the complexities of modern education. The article highlights the importance of critical thinking for teachers, its role in solving problems, adapting to changes and developing independent thinking in students. It explores various strategies for integrating critical thinking into teacher education programs, including concrete instruction, reflective practice, problem-based learning, and collaborative exercises. The article also discusses how educational technology can support the development of critical thinking in future teachers, ensuring that they are well prepared for real-world teaching challenges.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, kompetensiyani rivojlantirish, o'qituvchi ta'limi, reflektiv amaliyot, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'rganish, kelajak o'qituvchilari, ta'lim texnologiyasi, professional o'sish, ta'lim strategiyalari.

Ключевые слова: критическое мышление, развитие компетенций, педагогическое образование, рефлективная практика, проблемное обучение, совместное обучение, будущие учителя, образовательные технологии, профессиональное развитие, стратегии обучения.

Keywords: Critical Thinking, Competency Development, Teacher Education, Reflective Practice, Problem-Based Learning, Collaborative Learning, Future Teachers, Educational Technology, Professional Development, Instructional Strategies.

Rivojlanayotgan dunyoda tanqidiy fikrlash, ayniqsa, ta'lim sohasida asosiy kompetensiya sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilar uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish o'quvchilarda bir xil ko'nikmalarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Tanqidiy fikrlash o'qituvchilarga ma'lumotni samarali baholash, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish va sinfdagi muammolarga innovatsion yechimlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash qobiliyati tug'ma emas, balki ataylab o'qitish va fikrlash amaliyoti orqali rivojlanishi mumkin.

Bugungi zamonaviy dunyoda inson fikrlash masalasi o'z dolzarbligi jihatidan ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuvi va axborot oqimining tobora ortib borishi natijasida zamonaviy muhim jihatini kasb etmoqda. Yosh avlodning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishish masalasi pedagogikaning

asosiy maqsadlaridan biri ekanligi, bugungi kun shaxsida ijtimoiy munosabatlarga tez va aniq javob beruvchi insonlar dunyoqarashini shakllantirishni taqozo etadi. Bu o'rinda inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, iqtidorini yuzaga chiqarishda fikrlash turlari va yo'nalishlari ichida eng zarurlaridan biri sifatida tanqidiy fikrlashni keltirish mumkin. Ushbu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi blishi kerak", – degan fikrlari asnosida bo'lajak kardrlarni tayyorlashda bugungi kun ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashning ahamiyati yuqori ekanligini keltirib o'tish lozim¹.

"Tanqidiy fikrlash – fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi"².

"Tanqidiy fikrlash – muhokama qilinayotgan masala bo'yicha o'z pozitsiyasini egallash va uni asoslash qobiliyatini, suhbatdoshni tinglash, dalillarni sinchkovlik bilan ko'rib chiqish va ularning mantig'ini tahlil qilish qobiliyatini ta'minlaydigan fikrlash; nafaqat axborotni o'zlashtirish, balki uni tanqidiy baholash, tushunish va qabul qilish qobiliyati"³.

"Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tahlil qilish, baholash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash nafaqat ilmiy va akademik yutuqlar uchun, balki kundalik hayotda ham to'g'ri qarorlar qabul qilish va muammolarni samarali hal qilish uchun zarurdir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida maxsus pedagogik sharoitlar yaratish zarur".

Mazkur tushuncha murakkab va turli

xil ta'riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tanqidiy fikrlash bu – kishi ongidagi fikrlar uzviyligi asosida mavjud jarayonga javob reaksiyasi sifatida, o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan va o'zini o'zi to'g'iraydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti psixik jihatdan inson ongini takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lishi va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot muhitini yaratishning va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashning yo'li sifatida, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi⁴.

"Tanqidiy fikrlash" tushunchasi XX asr o'rtalarida pedagogika faniga kirib kelgan. Birinchilardan bo'lib tanqidiy fikrlash atamasi K.Popper tomonidan ishlatilgan. Unga ko'ra har bir tirik organizm muammolarni "hal qiluvchi" vazifasini bajaradi. Atrofdagi ma'lumotlar dunyo tirik organizmning ma'nosini tasdiqlash yoki rad etish sifatida qaraladi, u hodisani oldindan beradi. Bunday vaziyatda tanqidiy fikrlash – haqiqatni izlash va xatoni bartaraf etish usuli sifatida ishlaydi⁵.

Nega bo'lajak o'qituvchilarga tanqidiy fikrlash kerak:

O'zgarishlarga moslashish: Ta'lim texnologik taraqqiyot, o'quv dasturlarini yangilash va jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli doimiy ravishda o'zgarib turadi. Tanqidiy fikrlash o'qituvchilarga moslashuvchanlikni saqlab qolishga va o'qitishni

- 1 Mirziyoyev Sh.M., "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016–yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017–yil 14–yanvar.
- 2 Tursunova D.Z., "Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasi". <https://jdp.uz/tanqidiy-fikrlashni-shakllantirish-texnologiyasi/>
- 3 Akramova Gulbahor Renatovna, Akramova Surayo Renatovna. Talabalarni tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik shartlari // PSIXOLOGIYA VA TA'LIM (2021) 58(2):4889–4902
- 4 Орлова, В. А. Психология в вопросах и ответах: учебное пособие / Б. А. Орлова. – М.: КНОРУС, 2009. – 200 с.
- 5 Kamol o'g'li, MO, & Yusupaliyevna, YI (2024). TALABALARDA TANQIDIY FIKRNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI VA MAHORATI. Tadqiqot va ishlanmalar bo'yicha xalqaro ko'p tarmoqli jurnal, 11 (05).

ushbu siljishlarga moslashtirishga yordam beradi⁶.

Muammolarni hal qilish: O'qituvchilar muntazam ravishda resurslarning cheklanganligi, talabalarning turli ehtiyojlari va xulq-atvor muammolari kabi muammolarga duch kelishadi. Tanqidiy fikrlash ularni ushbu qiyinchiliklarga metodik yondashish va innovatsion yechimlarni topish vositalari bilan jihozlaydi.

Talabalarning mustaqilligini rivojlantirish: Tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega o'qituvchilar talabalar o'rtasida mustaqil fikrlash va izlanishni modellashtirishi va rag'batlantirishi mumkin, bu esa o'quvchilarga sinfdan tashqarida murakkab muammolarni hal qilish imkonini beradi.

O'qituvchilar tayyorlashda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish:

Bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'qituvchilar ta'limi dasturlarida asosiy maqsad bo'lishi kerak. Ushbu rivojlanish tanqidiy fikrlash strategiyalarini aniq o'rgatish va fikrlash amaliyoti, dialog va so'rovni rivojlantiruvchi muhit yaratishni o'z ichiga oladi⁷.

Bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning bir yo'li bevosita ta'limdir. O'qituvchilarni tayyorlash dasturlari mantiq, fikrlash va aks ettirish amaliyotlari bo'yicha maxsus kurs ishlarini birlashtirishi mumkin. Tanqidiy fikrlashni kognitiv strategiyalarga e'tibor qaratish orqali mahorat sifatida o'rgatish mumkin⁸, masalan:

Taxminlarni so'roq qilish: O'qituvchilarni o'z e'tiqodlari va ta'lim amaliyotlari asosidagi an'anaviy donolikka qarshi chiqishga undash.

Istiqbollarni tahlil qilish: Turli nuqtayi

nazarlarni kiritish va bir nechta istiqbollarga ochiqlikni rivojlantirish uchun munozaralarni rivojlantirish.

Dalillarni baholash: o'qituvchilarga ta'lim tadqiqotlari, siyosatlar va talabalar ma'lumotlarining ishonchliligi va dolzarbligini baholashni o'rgatish.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda reflektiv amaliyot asosiy rol o'ynaydi. Bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining ta'lim tajribalari haqida mulohaza yuritishga, nima ishlagan, nima ishlamagan va nima uchun savol berishlari kerak. Mulohaza bo'lajak o'qituvchilarga muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini tanqidiy tahlil qilish imkonini berib, tajribani o'rganishga aylantiradi. Jurnal yuritishni, tengdoshlar bilan muhokama qilishni va o'z-o'zini baholashni rag'batlantirish o'qituvchilarga o'z amaliyoti bilan chuqur shug'ullanish imkoniyatini beradi⁹.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning yana bir kuchli vositasi muammoli ta'limdir. Bo'lajak o'qituvchi nomzodlarini haqiqiy dunyo ta'lim muammolari bilan tanishtirish va ularni yechimlarni ishlab chiqishga undashni o'z ichiga oladi. Kelajakdagi o'qituvchilar sinfdagi murakkab vaziyatlarni tahlil qiladigan amaliy tadqiqotlar ularga xavfsiz muhitda qaror qabul qilish ko'nikmalarini mashq qilish imkonini beradi. Ushbu tajribalar orqali o'qituvchilar turli strategiyalar bilan tajriba o'tkazishlari va ularning samaradorligini tanqidiy baholashlari mumkin¹⁰.

Hamkorlikdagi o'quv muhitlari dialog va g'oyalar almashishga yordam beradi, bo'lajak o'qituvchilarni guruh sharoitida tanqidiy fikrlashga undaydi. O'qituvchilar bir-birlarining dars rejalari va o'qitish usullarini tanqid

6 Brukfeld, SD (2012). Tanqidiy fikrlashni o'rgatish: o'quvchilarga o'z taxminlarini so'roq qilishda yordam beradigan vositalar va usullar.

7 Moon, JA (2008). Tanqidiy fikrlash: nazariya va amaliyotni o'rganish. London: Routledge.

8 Edward M. Glaser. "Defining Critical Thinking". The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/ Critical Thinking Community. Qaraldi: 2017-yil 22-mart.

9 San-Fransisko: Jossey-Bass.

10 Pol, R. va Elder, L. (2019). Tanqidiy fikrlash: o'qish va hayotingizni boshqarish vositalari. Nyu-York: Pearson.

qiladigan o'zaro nazorat tadbirlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ajoyib vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Turli nuqtayi nazarlar bilan shug'ullanish va turli yondashuvlarni hisobga olgan holda, o'qituvchilar o'zlarining fikrlashlarini kengaytirishlari va o'qitish strategiyalarini yaxshilashlari mumkin¹¹.

Texnologiyalar integratsiyasi bugungi ta'lim sharoitida texnologiya tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ham muammo, ham vositadir. O'qituvchilar tadqiqot bilan shug'ullanish, keng ko'lamli istiqbollardan foydalanish va dinamik o'quv muhitini yaratish uchun ta'lim texnologiyasidan foydalanishlari mumkin. Masalan, onlayn forumlar, bloglar va ta'lim platformalari aks ettiruvchi munozaralarni osonlashtirishi va bo'lajak o'qituvchilarga o'z amaliyoti haqida ma'lumot berish uchun boy resurslardan foydalanishga yordam berishi mumkin¹².

Tanqidiy fikrlash malakasi bo'lajak o'qituvchilar uchun zarur bo'lib, ular doimo o'zgaruvchan ta'lim landshaftiga moslasha oladi va o'quvchilarda bir xil qobiliyatni rivojlantiradi. Aniq ko'rsatma, aks ettiruvchi amaliyot, muammoli o'rganish, hamkorlik va texnologiya integratsiyasi orqali o'qituvchilar ta'limi dasturlari bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin. Bunda ular murakkab ta'lim muammolarini tahlil qilishga, ongli qarorlar qabul qilishga va o'quvchilarni intellektual mustaqillikka yo'naltirishga qodir bo'lgan pedagoglarni tayyorlaydilar.

11 Dyui, J. (1933). Biz qanday fikrdamiz: Reflektiv fikrlashning ta'lim jarayoniga aloqadorligini qayta tiklash. Boston: DC Heath and Co.

12 Facione, PA (2011). Tanqidiy fikrlash: bu nima va u nima uchun muhim. Insight Baholash. <https://www.insightassessment.com> dan olindi.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI EVFEMIZMLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

Shoira Toxir qizi Xaydarova – tayanch doktorant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi evfemizmlar chog'ishtirilib tahlil qilinadi. Evfemizm odatda yoqimsiz yoki aytilishi nojoiz bo'lgan tushunchalarni yumshoqroq so'zlar bilan almashtirish uchun ishlatiladigan bilvosita ifoda usulidir. Nafaqat ingliz tilida evfemizm, balki o'zbek tilida ham nutq shakli, madaniy hodisa sifatida ham qaraladi. U inson nutqida va turli ijtimoiy vaziyatlarda universal hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Odamlar muloqotda keskinlik va bosimni yumshatish maqsadida evfemizmlardan foydalanishadi.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ эвфемизмов в английском и узбекском языках. Эвфемизм – это лингвистическое средство, которое используется для замены неприятных или неуместных понятий на более мягкие выражения. Это явление важно не только в английском, но и в узбекском языке, где оно выступает как форма речи и культурный феномен. Эвфемизмы являются универсальным явлением, которое способствует адаптации в социальных контекстах. Они используются в коммуникации для снижения напряженности и давления. Этот метод позволяет обсуждать деликатные темы в более мягкой форме.

Abstract: This article presents a comparative analysis of euphemisms in English and Uzbek languages. Euphemism is an indirect linguistic device used to replace unpleasant or inappropriate concepts with softer expressions. This phenomenon is significant not only in English but also in Uzbek, functioning as a form of speech and a cultural phenomenon. It is a universal occurrence that facilitates adaptation in social contexts. Euphemisms are used in communication to reduce tension and mitigate pressure. This method allows sensitive topics to be addressed in a gentler manner.

Kalit so'zlar: ingliz tilidagi evfemizmlari, o'zbek tilidagi evfemizmlar, kontekst, pragmatik yondashuv, chog'ishtirma tahlil.

Ключевые слова: английские эвфемизмы, узбекские эвфемизмы, контекст, прагматический подход, сравнительный анализ.

Keywords: english euphemisms, uzbek euphemisms, context, pragmatic approach, comparative analysis.

Bugungi kunda kishilik jamiyat bosqichma-bosqich rivojlanib borishi bilan shaxslararo o'zaro muloqot doirasi tobora kengayib, insonlar orasidagi muloqotni yanada takomillashtirishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Muloqotni samarali amalga oshirish va unda ishtirok etayotgan ishtirokchilarning o'zlarini qulay his qilishlarini ta'minlash maqsadida evfemizmlardan foydalanish, evfemizmlarni yanada chuqurroq tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu sababli dastlab evfemizm tushunchasiga batafsil to'xtalib o'tish joizdir. "Evfemizm" so'zi yunoncha "eu" ("yaxshi") va "phemi" ("gapirypman") so'zlaridan kelib chiqqan.

Evfemizmlar – bu og'zaki yoki yozma nutqda

qo'llaniladigan, ma'nosi neytral yoki yumshoq bo'lgan so'z va iboralar bo'lib, qo'pol yoki nojo'ya so'zlarning ya'ni "Tabu" so'zlarning o'rniga ishlatiladi. Ular hissiy vazifaga ega bo'lib, odatda biror narsa yoki hodisani yumshoqroq ifodalash maqsadida qo'llaniladi. Evfemik nutq tafakkurning, inson aql-zakovatining oliy formasi, "qaymog'i", voqelikning pardoqlangan, "parda ichiga olingan", beozorlashtirilgan, yumshatilgan obrazli ifodasidir¹. Evfemizmlar tabu bilan chambarchas bog'liq. Evfemizmning asosiy xususiyatlari uning yoqimlilik, bilvositaligi va noaniqligidadir. Evfemizm haqida Webster's Third New International Dictionaryda quyidagicha ta'rif keltiriladi:

1 Professional nutq evfemikasi. A.J.Omonturdiyev.- Toshkent. Fan.2006- 3-bet,

“Evfemizm – bu noqulay, og‘riqli yoki qo‘rqinchli haqiqatni bevosita nomlashdan qochish uchun ishlatiladigan muloyim, xushmuomala yoki kamroq aniq so‘z”². Mashhur Oxford English Dictionaryda evfemizm – bu qattiqroq yoki ko‘proq haqoratimiz bo‘lgan ibora o‘rniga, nisbatan qulayroq yoki kamroq yoqimsiz mazmunga ega so‘z yoki iborani qo‘llashni o‘z ichiga olishi ta’kidlangan. Allan va Burridge tomonidan yaratilgan lug‘atda “Evfemizm – bu noqulaylikni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ifodadan qochish yoki yuzni saqlash uchun ishlatiladigan bilvosita ibora”³ sifatida ta’rif berilgan.

O‘zbek tilida evfemizmga bir qator adabiyotlarda quyida keltirilgandek ta’rif beriladi. Ulardan biri “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif keltiriladi: “Evfemizm – narsa va hodisaning yumshoqroq shaklda ifodasi. Qo‘pol, beadab so‘z yoki ibora o‘rniga madaniy, odobli so‘z yoki ibora qo‘llash”. Misol: “Homilador” o‘rniga” og‘ir oyoqli”. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da evfemizm quyidagicha izohlanadi: “Evfemizm – madaniy me’yorlarga mos bo‘lmagan so‘z yoki ibora o‘rnida yumshoqroq ma’no beruvchi til birligi”. Misol: Olamdan o‘tmoq (o‘lish). Bundan tashqari “O‘zbek tili sinonimlar lug‘ati”da evfemizmlar quyidagicha tavsif beriladi “Evfemizm – qo‘pol, noqulay yoki madaniy nojo‘ya so‘z o‘rniga uning odobli yoki yumshoq muqobilini qo‘llash”. Masalan “Ishdan bo‘shatmoq” o‘rniga “xizmatga ehtiyoj yo‘q” tarzida berilgan. Lingvistik ensiklopedik lug‘atga ko‘ra “Evfemizm – semantik yumshatish uchun ishlatiladigan lingvistik vosita bo‘lib, axloqiy yoki madaniy tabularni saqlash uchun ishlatiladi. Namuna sifatida “imkoniyati cheklangan” (qashshoq) so‘zini olishimiz

mumkin. Yuqoridagi ta’riflarning barchasi semantika nuqtayi nazaridan evfemizmlarni tushuntiradi. Evfemizmga berilgan ingliz va o‘zbek tilidagi ta’riflarni umumlashtirgan holda evfemizmlarni nutqning bo‘yoqdorligini oshiruvchi, noqulay vaziyatlar kelib chiqishining oldini oluvchi, tinglovchi uchun aytilishi noqulay bo‘lgan so‘zlar o‘rniga yoqimli, muloyim so‘zlardan foydalanishni taqozo etadigan stilistik va lingvistik vosita ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Evfemizmlar faqatgina so‘zlardan iborat bo‘lib qolmay, iboralar, so‘z birikmalari, nutq va ba’zan tananing nutqsiz ifodalari kabi holatlari ham evfemizmga kiritilishi mumkin. Evfemizm yaratish jarayoni dinamik bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan evfemizmlar o‘zining asl ma’nosini yo‘qotishi yoki yangi evfemizmlarga aylanishi mumkin.

“Evfemizmlar nafaqat og‘riq yoki noqulaylikni yumshatadi, balki jamiyatning axloqiy va madaniy me’yorlarini aks ettiradi”, – deb izohlaydi mashhur tilshunos olim Burrij⁵. Bunga qo‘shimcha tarzda yana bir tilshunos olim Eric Partridge: “Evfemizm – bu insoniyatning haqiqatni yumshatishga bo‘lgan doimiy ehtiyoji. U sharmandalikni yashirishga xizmat qiladi”, – deb ta’kidlaydi⁶. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlardan shuni anglash mumkinki, evfemizm – bu lingvistik hodisa bo‘lib, u aniq vaziyatlarda muhim kommunikativ usul sifatida ishlatiladi. Odamlar boshqalarga noqulaylik tug‘dirishi yoki munosabatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tilni qo‘llashdan ongli ravishda qochadi va buning o‘rniga fikr va ma’lumot almashishni ifodalash uchun lingvistik jihatdan yumshoqroq shakllardan foydalanadi.

Deborah Cameronning fikricha: “Evfemizmlar bizga og‘riqli mavzularni yumshoqroq muhokama qilish imkonini beradi, lekin ular ko‘pincha

2 Webster’s Third New International Dictionary (1961)

3 Allan, K., & Burridge, K. Euphemism and Dysphemism: Language used as shield and weapon. [M]. Oxford: Oxford University Press, 1991 p-10

4 Hojiyev A. (1985). Lingvistik terminlar izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi

5 Allan K., & Burridge, K. Euphemism and Dysphemism: Language used as shield and weapon. [M]. Oxford: Oxford University Press, 1991.

6 Partridge E. (1942). Usage and Abusage: A Guide to Good English. London: Hamish Hamilton.

haqiqatning qopqog'i sifatida ishlatiladi"⁷. Shu bilan birga, evfemizm ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida insonlarning kundalik hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy jarayonlar yoki inson ongini aks ettiruvchi keng ko'lamdagi hodisalarni ifodalaydi, masalan, boshqalarni ranjitmaslik, tabularni aylanib o'tish, odob doirasida muloqot qilish kabi. Shuning uchun evfemizm kundalik hayotda keng qo'llaniladigan ritorik vosita bo'lib, uning uzoq tarixga ega. Har bir jamiyat, har bir nutqiy jamoa va har bir madaniyat evfemizmlarni o'ziga xos tarzda qabul qiladi va ulardan foydalanadi.

O'zbek tilshunosligida ushbu lingvistik tushuncha birinchi marta Ne'mat Ismatullayev tomonidan tadqiq etilgan. Anvar Omonturdiyev chorvador nutqi misolida evfemizmlarni o'zining doktorlik dissertatsiyasida atroflicha o'rgangan. N.Ismatullayevning "Zamonaviy o'zbek tili evfemizmlari" ilmiy ishida, B.O'.O'rinboyev ishlarida ham evfemizmlar haqida qimmatli fikrlar aytilgan. A.E.Mamatov o'zining doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida e'tibor qaratgan. X.Qodirova, Z.Xolmanova, D.Rustamovalar ham ushbu lingvistik hodisa haqida fikrlar bildirgan, Sh.Q.Shamsiyeva esa xitoy va o'zbek tillaridagi evfemizmlarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etgan. Bundan tashqari, N.G'aybullayeva tibbiy evfemizmlarni davriy nashr materiallari asosida o'rgangan bo'lsa, Sh.G'ulomova e'tiborni evfemizmlarning gender xoslanishiga qaratgan.

Evfemizmlar juda keng sohalarda, jumladan, unvonlar, o'lim, kasallik, kasb-hunar, siyosat, harbiy ishlar va boshqa kategoriyalarda qo'llanilishi mumkin. Turli standartlarga ko'ra ular har xil shakllarda tasniflanadi. Ingliz tilshunoslari evfemizmlarni turli nuqtayi nazarlardan tasniflaganlar. Quyida ingliz olimlari tomonidan evfemizmlarning tasniflari va ularning asoslari keltirilgan: Hugh Rawson 1981-

yilda chop etilgan "A Dictionary of Euphemisms & Other Doubletalk" asarida evfemizmlarni turli mavzular bo'yicha tasniflagan. Ushbu tasnif evfemizmlarning qo'llanilish sohalarini yoritadi: Jinsiy mavzudagi evfemizmlar asosan jinsiy mavzularni yumshoqroq ifodalash uchun ishlatiladigan evfemizmlardir. Masalan, "to sleep with" (jinsiy aloqa qilish) yoki "in a family way" (homilador).

Tana vazifalarini ifodalash uchun qo'llanadigan evfemizmlar tana vazifalari va tanadan chiqadigan suyuqliklarni nozikroq ifodalash uchun qo'llaniladigan iboralardir. Masalan, "to relieve oneself" (hojat chiqarish) yoki "pass away" (vafot etish). Kasalliklar va o'limni yumshoqroq tarzda ifodalash uchun ishlatiladigan evfemizmlarga misol qilib "terminal illness" (o'limga olib keluvchi kasallik) yoki "departed" (vafot etgan) so'zini olishimiz mumkin.

Ijtimoiy mavqe yoki kasb-hunarlarini yumshoqroq yoki hurmatliroq tarzda ifodalash uchun ishlatiladigan iboralarga namuna sifatida "sanitation worker" (tozalash xodimi) yoki "domestic engineer" (uy bekasi) so'zlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Jinoyatlar yoki nojo'ya xatti-harakatlarni yumshoqroq ifodalash uchun ishlatiladigan evfemizmlar. Masalan, "to take something without permission" (o'g'irlik qilish) yoki "correctional facility" (qamoqxona).

Siyosiy yoki harbiy harakatlarni yumshoqroq yoki neytral tarzda ifodalash uchun ishlatiladigan iboralar. Masalan, "collateral damage" (tinch aholi talafotlari) yoki "enhanced interrogation" (qiynoqlar)⁸. Rawsonning ushbu tasnifi evfemizmlarning turli sohalarda qanday qo'llanilishini va ularning ijtimoiy hamda madaniy ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Bu asar evfemizmlarni mavzular bo'yicha tasniflab, ularning qo'llanilish kontekstini yoritadi.

7 Cameron, D. (1995). Verbal Hygiene. London: Routledge. Hugh Rawson..

8 A Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. [M]. New York: Crown Publishers, 1981

Bundan tashqari Rawson evfemizmlarni semantik jihatdan ikkita asosiy turga bo'ladi: Ijobiy evfemizmlar va salbiy evfemizmlar. Ijobiy evfemizmlar ma'lumotni yoqimli va mos keladigan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Misol: "senior citizen" (qariyalar o'rniga) yoki "passed away" (vafot etdi). Salbiy evfemizmlarning vazifalari noqulay yoki sharmandali holatlarni yumshatish yoki yashirish maqsadida ishlatiladi. Misol: "collateral damage" (urushdagi tinch aholi o'limi) yoki "downsizing" (ishchilarni qisqartirish).

Keith Allan va Kate Burridge tomonidan 1991-yilda chop etilgan "Euphemism & Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon" asarida evfemizmlar ularning shakllanish usullari va funksiyalariga ko'ra tasniflangan. Ushbu tasnif evfemizmlarning qanday shakllanishini va ularning ijtimoiy hamda psixologik vazifalarini yoritadi.

Shakllanish usullariga ko'ra tasnif:

Fonologik o'zgarishlarga asoslangan evfemizmlar: So'zlarning tovush tarkibini o'zgartirish orqali yumshatadi. Masalan, "darn" so'zi "damn" o'rniga ishlatiladi.

Morfologik o'zgarishlarga asoslangan evfemizmlar: So'zlarning tuzilishini o'zgartirish yoki qisqartirish orqali yumshatish. Masalan, "int" so'zi "intercourse" o'rniga ishlatiladi.

Leksik o'zgarishlarga asoslangan evfemizmlar: Yangi so'zlar yoki iboralar yaratish orqali noqulay mavzularni yumshatish. Masalan, "pass away" iborasi "die" o'rniga ishlatiladi.

Sintaktik o'zgarishlar: Gap tuzilishini o'zgartirish orqali yumshoq ifodalar yaratish. Masalan, "He is no longer with us" iborasi "He died" o'rniga ishlatiladi.

2. Funksiyalariga ko'ra tasnif:

Tabu mavzularni yumshatish: Jamiyatda noqulay yoki taqiqlangan mavzularni yumshoqroq ifodalash. Masalan, jinsiy mavzular yoki o'lim haqida gapirganda.

Ijtimoiy odob-axloqni saqlash: Boshqalarga hurmat ko'rsatish va odobni saqlash uchun ishlatiladigan evfemizmlar. Masalan, "restroom" so'zi "toilet" o'rniga ishlatiladi.

Haqorat yoki salbiy ma'noni yumshatish: Salbiy yoki haqoratomuz so'zlarni yumshatish uchun ishlatiladi. Masalan, "economically disadvantaged" iborasi "poor" o'rniga ishlatiladi.

Allan va Burridge ushbu tasnif orqali evfemizmlarning tilshunoslik, ijtimoiy va psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari evfemizmlarning shakllanish usullari va ularning jamiyatdagi o'rnini tushunishga yordam beradi⁹.

Deborah Cameron o'zining "Verbal Hygiene" (1995) asarida evfemizmlarga alohida e'tibor qaratadi va ularni siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstlarda tahlil qiladi. U evfemizmlarni quyidagicha tasniflaydi: Siyosiy to'g'rilik (Political Correctness) evfemizmlari. Bu turdagi evfemizmlar tilni noaniqroq qilish orqali jamiyatda tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Misol: "differently abled" (nogiron o'rniga), Cameronning fikriga ko'ra siyosiy to'g'rilik evfemizmlari tilni inson huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida ishlatadi, lekin ular ko'pincha manipulyatsion xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Xushmuomalalik evfemizmlari. O'zaro hurmat va muloyimlikni saqlash uchun ishlatiladigan iboralar. Masalan: "restroom" (hojatxona), "passed away" (vafot etdi).

Cameronning nuqtayi nazarida bunday evfemizmlar nutqni estetik va odob doirasida muloqot qilishga qaratilgan¹⁰. Manipulyativ

9 Cameron, D. (1995). Verbal Hygiene. London: Routledge. Hugh Rawson..

10 Cameron, D. (1995). Verbal Hygiene. London: Routledge. Hugh Rawson..

evfemizmlar ma'lum bir haqiqiy voqeani yashirish yoki uni ijobiyoq ko'rsatish uchun ishlatiladi. Misol tariqasida: "collateral damage" (urushda tinch aholi talafoti), "enhanced interrogation" (qiynoq). Cameronning mulohazasiga ko'ra manipulyativ evfemizmlar ijtimoiy yoki siyosiy manipulyatsiyaning vositasi sifatida qo'llaniladi va asl haqiqatni yashiradi. Estetik evfemizmlar nutqni yoqimli, estetik jihatdan ma'qul qilish uchun ishlatiladi. Misol: "green burial" (ekologik dafn), "domestic engineer" (uy bekasi). Cameronning xulosasiga ko'ra bunday evfemizmlar odatda marketing va reklamada ishlatiladi, ularning maqsadi tinglovchiga yoqimli taassurot qoldirishdir. Ijtimoiy va jinsiy tabular evfemizmlari jinsiy mavzular yoki madaniy tabularni yumshatish uchun ishlatiladigan iboralardir. Misol: "sleeping together" (jinsiy aloqa qilish), "in a delicate condition" (homilador).

Cameronning nuqtayi nazaridan kelib chiqib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, evfemizmlar tabularni ifodalashda o'z vazifasini bajaradi, lekin ular muloqotni murakkablashtirishi mumkin. Deborah Cameron evfemizmlarni ijtimoiy qadriyatlar va lingvistik manipulyatsiya nuqtayi nazaridan o'rganadi. U evfemizmlarning maqsadi shunchaki "yumshoqroq gapirish" emas, balki ular ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi qudratli lingvistik vosita ekanligini ta'kidlaydi. O'zbek tilshunos olimlari evfemizmlarni turli nuqtayi nazarlardan tahlil qilganlar. Quyida o'zbek tilshunoslari tomonidan evfemizmlarning tasnifi va asoslari keltiriladi: A.Hojiyev o'zining "Lingvistik terminlar izohli lug'ati" (1985) asarida evfemizmlarni ularning funksional vazifalari asosida tasniflagan¹¹. Ushbu tasnif evfemizmlarning kommunikativ vazifasi va ijtimoiy ahamiyatiga asoslanadi.

A. Hojiyev evfemizmlarni ularning ishlatilish funksiyasiga ko'ra tasniflaydi: Noqulaylikni yumshatish uchun ishlatiladigan evfemizmlar: Noqulay yoki qo'pol mavzularni yumshatish.

Misol: "bandalikni bajo keltirdi" (vafot etdi). Odob-axloq me'yorlariga moslashish uchun qo'llaniladigan evfemizmlar: Jamiyatdagi odob-axloq qoidalarini saqlash masalasi yuzasidan bunday evfemizmlar yaratiladi: "og'ir oyoqli" (homilador). M.Mirtojiyevning 1986-yilda chop etilgan "O'zbek tilida so'z ma'nolarining kengayishi va torayishi" asarida evfemizmlar semantik jihatdan tahlil qilingan. Ushbu asarda muallif evfemizmlarning hosila ma'no sifatida shakllanishi, ularning metafora va metonimiya usullari orqali yuzaga kelishi hamda o'zbek tilidagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi.

M. Mirtojiyev evfemizmlarni ularning semantik o'zgarishlariga asosanib tasniflaydi: Ma'nodosh so'zlar bilan almashtirilgan evfemizmlar. Misol: "rahmatli" (marhum). Metaforik evfemizmlar. Ma'noni metafora orqali yumshatadi. Misol: "yashil muhitga intilmoq" (tuproqqa dafn qilmoq). Qisqa shakllar orqali ifodalangan evfemizmlar. Misol: "dushmani yo'q qilish" (urushda tinch aholini o'ldirish).

Xurshida Qodirova o'zining "O'zbek tilida evfemizim va disfemizim" nomli asarida evfemizmlarni tasniflagan. Ushbu asarda evfemizim va disfemizim hodisalarining o'zbek tilidagi o'rni, maqsad va vazifalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Xurshida Qodirova evfemizmlarni ijtimoiy va madaniy funksiyalariga ko'ra ajratadi: Madaniy tabularni yumshatuvchi evfemizmlar. Diniy yoki ijtimoiy tabularni yumshatish maqsadida ishlatiladi. Misol: "ko'z yumdi" (vafot etdi). Odob-axloq me'yorlarini aks ettiruvchi evfemizmlar esa so'zlovchining muloyimlikni saqlash niyatini ifodalab keladi. Misol: "yoshi ulug'" (qarilikni ifodalash uchun).

Nafisa Ruziyeva o'zining ilmiy izlanishlarida evfemizmlarni pragmatik nuqtayi nazardan tasniflagan. Uning "Ingliz va o'zbek tillarida evfemizmlarning konseptual-chog'ishtirma tadqiqi" nomli dissertatsiyasida evfemizmlar

11 Hojiyev, A. (1985). Lingvistik terminlar izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi..

quyidagi funksional guruhlarga ajratilgan:

1. Shaxsiy munosabatlarda noqulay mavzularni yumshatish uchun qo'llaniladigan evfemizmlar. Masalan, "yoshi ulug'" (qarilikni ifodalash uchun) yoki "rahmatli" (marhum o'rniga).

2. Ijtimoiy evfemizmlar jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga moslashish maqsadida ishlatiladi. Masalan, "og'ir oyoqli" (homilador) yoki "xizmatga ehtiyoj yo'q" (ishdan bo'shatish).

3. Siyosiy evfemizmlar siyosiy nutqlarda noqulay haqiqatlarni yumshatish yoki yashirish

uchun qo'llaniladi. Masalan, "iqtisodiy pasayish" (iqtisodiy inqiroz) yoki "kutilmagan yo'qotishlar" (urushdagi tinch aholi o'limi).

4. Estetik evfemizmlar nutqni estetik jihatdan yoqimli qilish uchun ishlatiladi. Masalan, "ruhi orom topdi" (vafot etdi) yoki "ko'zi yoridi" (tug'di).

Ruziyeva evfemizmlarning bu tasnifi orqali ularning kommunikativ vazifalari va ijtimoiy ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari evfemizmlarning pragmatik xususiyatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

DUAL TA'LIMDA INNOVATSION O'QITISH USULLARINING AFZALLIKLARI

Parvina Shuxratovna Saidjonova – mustaqil tadqiqotchi,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta'limda innovatsion o'qitishning usullari hamda innovatsion texnologiya jarayoni mazmuni, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion o'qitishning usullarini qo'llashning afzalliklari, o'ziga xos metodlari, izlanishni rag'batlantirish, innovatsion yondashuvlar orqali talabalarning dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy o'qitish usullari, talabalarning o'z-o'zini hurmat qilishini oshirish, virtual haqiqat texnologiyalaridan va aralash ta'lim metodidan foydalanish, ta'lim jarayonida dual ta'lim tizimining zamonaviy sharoitdagi ahamiyati, o'qitish texnologiyasining asosiy bosqichlari hamda dizayn fikrlash ko'nikmasini shakllantiruvchi darsni tashkil etish qadamlari haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрены методы инновационного обучения в дуальном образовании и содержание процесса инновационных технологий, преимущества использования методов инновационного обучения в образовательном процессе, уникальные методы, стимулирующие исследования, расширяющие мировоззрение учащихся посредством инновационных подходов, творческие методы обучения, повышение самооценки учащихся, использование технологий виртуальной реальности и метода смешанного обучения, значение дуальной системы образования в образовательном процессе в современных условиях, основные этапы технологии обучения и дизайн-мышления, этапы организации обсуждается урок по формированию умений.

Abstract: This article discusses the methods of innovative teaching in dual education and the content of the process of innovative technologies, the advantages of using innovative teaching methods in the educational process, unique methods that stimulate research, expand students' worldviews through innovative approaches, creative teaching methods, increasing students' self-esteem, using virtual reality technologies and the blended learning method, the importance of the dual education system in the educational process in modern conditions, the main stages of teaching technology and design thinking, the stages of organizing a lesson on the formation of skills.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, innovatsion o'qitish, pedagogik jarayon, dars, interfaol metodlar, ijodiy yondashuv, dizayn fikrlash.

Ключевые слова: дуальное образование, инновационное обучение, педагогический процесс, урок, интерактивные методы, творческий подход, дизайн-мышление.

Keywords: dual education, innovative learning, pedagogical process, lesson, interactive methods, creative approach, design thinking.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ma'lumki, pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-maydagi 288-son qarori – dual ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarni o'qitish jarayoniga kiritish va talabalarga amaliy bilimlar berishning yangi usullarini ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi PQ-4646-sonli qarori ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish va dual ta'lim tizimini kengaytirishga qaratilgan. Qarorda ta'limning sifatini oshirish, amaliy va nazariy bilimlarni integratsiya qilish, shuningdek, ishlab chiqarish

va ta'lim sohasida yangiliklar kiritish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-maydagi PQ-7196-sonli qarori kasb-hunar ta'limi tizimini modernizatsiya qilish va dual ta'limni kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda dual ta'lim tizimini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv jarayonini ishlab chiqarish sektori bilan integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutilgan.

O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham foydalanib, o'zining faoliyatida innovatsiyalarni qanchalik ko'p qo'llasa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak¹. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi.

Hozirgi kunda talabalarning yetuk mutaxassislar bo'lib shakllanishida ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining ijtimoiy hamkorligiga asoslangan dual ta'limni tashkil etish yuqori samarasini ko'rsatyapti. Dual ta'limning asosiy maqsadi ta'lim muassasasida o'qiyotgan talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat. Ta'lim jarayonida dual ta'lim tizimining zamonaviy sharoitdagi ahamiyati ko'rinib, olimlar tomonidan ushbu tizimning samaradorligi va dolzarbligini ta'minlash uchun uni yanada o'rganish va takomillashtirish muhimligini ta'kidlamoqdalar. Biz maqolamizda dual ta'limda innovatsion o'qitishining afzalliklari masalasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Aynan dual ta'limda innovatsion o'qitish pedagogikasi deganda o'qitish va o'qitishda an'anaviy usullardan tashqariga

chiqadigan zamonaviy va ijodiy yondashuvlar tushuniladi. Masalan, loyihaga asoslangan ta'lim:

– talabalar qiziqarli va murakkab savol, muammo yoki muammoni tekshirish va javob berish uchun uzoq vaqt davomida ishlash orqali bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar;

– so'rovga asoslangan ta'lim: talabalar taxminlarni so'roq qilish va tergov savollarini berish orqali o'rganadilar. O'qituvchi to'g'ridan to'g'ri ta'lim berishdan ko'ra yordam beradi. Quyida ushbu innovatsiyalarning talabalar uchun afzalliklari va ular nima uchun sinab ko'rishga arziydi.

Izlanishni rag'batlantirish – o'rganishga innovatsion yondashuvlar talabalarni o'z dunyoqarashini kengaytirish uchun yangi narsalar va vositalarni kashf qilish va kashf etishga undaydi. Muammolarni yechish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish – ijodiy o'qitish usullari talabalar tez o'rganishi imkonini beradi va ularni darsliklarda yozilgan javoblarni izlash o'rniga muammoni yechishning yangi usullarini izlashga undaydi. Yangi yondashuvlardan foydalanadigan o'qituvchilar hali ham talabalarga ma'lumot berishadi, lekin uni kichikroq qismlarga ajratishga moyildirlar. Endi ma'lumot osonroq o'zlashtirilishi mumkin va qisqalik talabalarga asoslarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Dual ta'lim tizimi Germaniyada 1870-yildan beri mavjud bo'lib, xodimlar va ish beruvchilar uchun muvaffaqiyatli ish samaradorligini ko'rsatib kelmoqda. Uning mohiyati shundan iboratki, shogird nazariy ta'limda va amaliyotda bir vaqtning o'zida ma'lum bir kasb bo'yicha tayyorlanadi Dual ta'lim jarayonida ustoz shogirdga kasb-hunarining an'anaviy usullarini o'rgatish deb tushuniladi. Dual ta'limda hukumat buyrug'i asosida talabalar to'lov-kontrakt asosida yoki davlat granti asosida o'qishlari mumkin.

1 Gimush R.I., Matmurodov F.M. Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2008. — 143 b.

Loyihaga ko'ra, dual ta'limdan ko'zlangan maqsad iqtisodiyotni rivojlantirishdan, shuningdek, O'zbekistonda katta va kichik bandlikni tashkil etish orqali korxonalarga malakali kadrlar tayyorlash, ayniqsa, yoshlar va ayollarni mehnat bilan birgalikda qashshoqlikni kamaytirish iboratdir². Dual tizimning yangiligi quyidagicha:

- o'quv jarayonini tashkil etishdagi o'zgarishlar (sinfdagi darslar soni kamayadi, stajirovkalar hajmi o'quv rejasining 60-70% gacha ko'tariladi);
- ishlab chiqarish amaliyoti individual shartlari yondashuvga asoslanadi va imkon qadar realga yaqin holda ishlab chiqariladi;
- kompaniya ikki tomonlama moliyalashtirish choralari ko'radi;
- ishlab chiqarishda murabbiylik instituti rivojlantiriladi³.

Dual ta'lim joriy etilishi natijasida talabalar akademik bilim olish bilan parallel ravishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Talabalar o'rganayotgan va olgan ma'lumotlarini o'z ishlariga qanday tatbiq etish mumkinligini biladilar. Bunday yondashuv natijasida oliy ta'lim tizimi nafaqat pedagogik bilimlarni o'zlashtirgan, balki talabalar bilan ishlashni biladigan o'qituvchilarga ham e'tibor berilgan. Dual kasbiy ta'limning ijobiy ta'siri orqali davlat iqtisodiyot va jamiyat uchun siyosiy afzalliklarga ega bo'ladi. Ta'limning ushbu shakli mutaxassislarni ish joyida o'qitish orqali talabni qondiradi. O'qitishning dual tizimi nafaqat pedagogik tizim sifatida, balki bozor sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashtirilgan muqobil ta'lim shakli sifatida iqtisodiyot rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Dual ta'limda ko'proq yumshoq ko'nikmalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Talabalar o'z ishlarini yakunlash uchun guruhda murakkabroq vositalardan foydalanishlari kerak, bu ularga yangi narsalarni o'rganishga yordam beradi va ijodkorlikni uyg'otadi. Bundan tashqari, individual yoki guruh loyihalarini bajarish orqali talabalar o'z vaqtlarini qanday boshqarishni, vazifalarni birinchi o'ringa qo'yishni, yaxshiroq muloqot qilishni, boshqalar bilan ishlashni va boshqa ko'p narsalarni o'rganadilar. Talabalarning tushunishini tekshirish bosqichi ham muhim. Baholash va imtihonlar talabaning qobiliyati va bilimi haqida hamma narsani emas, balki ba'zi narsalarni aytib berishi mumkin⁴. Innovatsion o'qitish g'oyalari o'qituvchilarga darslarni nazorat qilish va talabalari nimani boshdan kechirayotganini yaxshiroq tushunishga imkon beradi, shuning uchun ular eng mos yechimlarni topishlari mumkin. O'z-o'zini hurmat qilish hissini oshirish – mukammal o'qitish usullari tufayli talabalar nimani o'rganganlarini va nima yetishmayotganini tushunishlari mumkin. Hali ham bilishlari kerak bo'lgan narsalarni kashf qilish orqali ular nima uchun ba'zi narsalarni o'rganishlari kerakligini tushunishlari mumkin va ular buni qilishga ko'proq tayyor bo'ladilar.

Dual ta'limda innovatsion o'qitish usullari talabalarga ularni hayajonlantiradigan yangi narsalarni beradi, ularni gapirishga va ko'proq muloqot qilishga undaydi. Innovatsion o'qitish usullari – guruhda oson ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi. Quyida innovatsion o'qitish usullarining ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. Talabalar dars mashg'ulotlarida faqat qo'llarini ko'tarish yoki javob berishga chaqirish orqali emas, balki turli usullarda ishtirok etishlari mumkin. Shu kunlarda siz bir tonna vaqtni tejash va ikkita yoki uchta emas, balki barcha

2 Komiljonov B.I. "Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish". Monografiya. – Tashkent, FAN, 2007. — 186 b.

3 Nishonqulov, S.F., & Solidjonov, D.Z. (2021). Ta'lim biznesida raqamli innovatsion texnologiyalar. Science and Education, 2(6),—233-238.

4 Saidjonova, P.S. (2024). Oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning mazmuni va maqsadi. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 270-274.

talabalarni jalb qilish uchun guruhingizda interfaol tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan onlayn platformalarni topishingiz mumkin⁵.


Jonli viktorinalar va o'yinlarni aylanayotgan g'ildiraklar yoki hatto so'z bulutlari, jonli savol va javoblar, so'rovlar yoki birgalikda aqliy hujum orqali o'ynash orqali butun guruhning kayfiyatini ko'tarish mumkin. Onlayn platformalar yordamida barcha talabalarni ushbu qiziqarli mashg'ulotlarga jalb qilish mumkin. Bundan tashqari, talabalar qo'llarini ko'tarish o'rniga javoblarni anonim tarzda kiritishlari yoki tanlashlari mumkin. Bu ularga ishtirok etishda, o'z fikrlarini bildirishda ishonchli bo'lishga va endi "noto'g'ri" yoki hukm qilinish haqida tashvishlanmaslik imkonini beradi.

Virtual haqiqat texnologiyalaridan foydalanish ham ta'limda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Virtual haqiqat texnologiyasi bilan guruhda butunlay yangi dunyoni kashf etish mumkin. Xuddi 3D kinoteatrda o'tirish yoki virtual o'yinlarni o'ynash kabi talabalar o'zlarini turli joylarga singdirishlari va narsalarni tekis ekranda ko'rishdan ko'ra "haqiqiy" obyektlar bilan muloqot qilishlari mumkin. Masalan, guruh bir necha soniya ichida boshqa mamlakatga sayohat qilishi, koinotga chiqishi yoki bir necha fut narida turgan dinozavrlarni tomosha qilgan holda Yura davri haqida bilib olishi mumkin.

Virtual haqiqat texnologiyalari qimmat bo'lishi mumkin, ammo u har qanday darsni ajoyib qilish va barcha talabalarni hayratda qoldirishi uning dolzarbligini oshiradi. Bu qiziqarli ko'rinadi, lekin o'qituvchilar virtual haqiqat texnologiyasidan foydalangan holda dars berishda talabalar virtual reallik sessiyasi videosini tomosha qilishadi. Innovatsion o'qitish usullari – elektron ta'limning innovatsion namunalari sifatida ta'limda

axborot texnologiyalaridan foydalanishni keltirish mumkin⁶. Axborot texnologiyalari bizga ishimizning ko'p qismini sifatli va tezkor bajarishga yordam beradi, shuning uchun biz uni ta'limda ishlata olmaymiz deb kim aytadi? Bugungi kunda bu usul hayratlanarli darajada keng tarqalgan va rivojlangan.

Dual ta'limda korxonalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish bilan birga axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarga ish hajmi va yukini kamaytirish, kurslarni shaxsiylashtirish va talabalarni yanada samaraliroq mustaqil o'qitishga yordam beradi. Shuningdek, innovatsion ta'lim turlaridan biri – qo'shma (aralash) ta'lim hisoblanadi. Aralash ta'lim an'anaviy guruhda o'qitish va yuqori texnologiyali onlayn ta'limni birlashtirgan usuldir. Bu talabalarga samarali o'quv muhitini yaratish va o'rganish tajribasini sozlash uchun ko'proq moslashuvchanlikni beradi. Biz yashayotgan texnologik dunyoda internet yoki elektron ta'lim dasturlari kabi kuchli vositalarni e'tiborsiz qoldirish qiyin. O'qituvchilar va talabalar uchun video uchrashuvlar, kurslarni boshqarish uchun LMS, o'zaro muloqot va o'yinlar uchun onlayn saytlar va o'rganish uchun mo'ljallangan ko'plab ilovalar kabi narsalar dunyoni bo'ron bilan qamrab oldi.



5 Sh T.Z., & Kh S.K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.

6 Siddiqova S.G. (2019). Elektron ta'lim resurslarining yangi avlodi: tahlillar, arxitektura, innovatsion sifatlar. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal, 1, 91-95.

Aralash ta'lim metodi – innovatsion o'qitish usuli sifatida talabalar uchun oflayn darslarni yanada qiziqarli qilish maqsadida raqamli vositalardan yordam olish kabi ajoyib imkoniyatdir.

AhaSlides – bu talabalarni yuzma-yuz va virtual guruhlarda jalb qiladigan ajoyib aralash o'rganish vositasi. Talabalar ushbu platforma orqali turli viktorinalar, o'yinlar, aqliy hujumlar va boshqa ko'plab tadbirlarda ishtirok etishlari mumkin. Shuningdek, bosmaga turli buyumlar va shakllarni 3D bosib chiqarish yangi vosita hisoblanib, 3D bosib chiqarish darslarni yanada qiziqarli qiladi va talabalarga yangi ko'nikmalarni yaxshiroq o'rganish uchun amaliy tajriba beradi. Bu usul guruhdagi o'zaro munosabatlarni o'quv qo'llanmalar hech qachon moslasha olmaydigan yangi darajaga olib chiqadi. 3D bosib chiqarish talabalarga haqiqiy dunyo haqida tushuncha beradi va ularning tasavvurlarini kuchaytiradi. Talabalar turli jism yoki maketlarini ko'rish va ularning tuzilmalarini o'rganish uchun namunalarni ushlab tursa, o'rganish ancha osonlashadi. 3D bosib chiqarishga misol keltiramiz. Quyida qiziquvchan talabalarni qiziqtirish uchun ko'plab mavzularda 3D bosib chiqarishdan foydalanish bo'yicha ko'plab g'oyalar keltirilgan.

Texnologik yondashuv mehnat jarayonining har bir ishtirokchisidan ilgari "begona" bo'lgan turli omillarning ta'sirini tushunish va hisobga olishni talab qiladi. Har bir inson mehnat bozorining yuqori dinamikasi sharoitida ishlashga tayyor turishi lozim. Buning uchun, biz axborot oqimi bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lishimiz kerak, atrofda nima bo'layotganini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lish uchun, boshqalar dinamik, estetik didli, dizayn fikrlash bo'lishi iqtisodiy jarayonlarning yuqori dinamikasi va mehnat bozorida xodimlarning yuqori aylanmasi ishlab chiqarish jarayonini loyiha faoliyati sifatida tashkil etishga olib keldi. Dual ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashda dizayn fikrlash jarayonidan foydalanish mumkin.



1-rasm. Dizayn fikrlash ko'nikmasini shakllantiruvchi darsni tashkil etish qadamlari

Dizayn fikrlash – talabalarda muammolarni hal qilish, hamkorlik va ijodkorlikni ta'minlaydigan yechimga asoslangan strategiyani ishlab chiqishga xizmat qiladi. Beshta qadam bor, lekin u boshqa usullardan farq qiladi, chunki biz bosqichma-bosqich ko'rsatma yoki biron-bir tartibni bajarishimiz shart emas. Bu chiziqli bo'lmagan jarayon, shuning uchun uni ma'ruzalarimiz va darslarimiz asosida sozlash, moslashtirish mumkin. Mazkur besh bosqichlar quyidagilardan iborat:

empatiya – empatiyani rivojlantirish va yechimlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash;

aniqlash – muammolarni va ularni hal qilish imkoniyatlarini aniqlash;

g'oya – o'ylab ko'rish va yangi, ijodiy g'oyalarni yaratish;

prototip – g'oyalarni yanada o'rganish uchun loyiha yoki yechim namunasini yaratish.

sinov – yechimlarni sinab ko'rish, baholash va fikr-mulohazalarni to'plash.

Dual ta'limda dizayn fikrlash jarayoni – innovatsion o'qitish usuli namunasi bo'lib, bu haqiqiy guruhda qanday sodir bo'lishini ko'rish mumkin. Dizayn kampusidagi innovatsion o'qitish usullariga loyihaga asoslangan ta'lim jarayonida talabalar loyihalar ustida ishlashadi. Loyihaga asoslangan ta'lim ham loyihalar atrofida aylanadi, lekin bu talabalarga real hayotdagi muammolarni hal qilish va uzoq vaqt davomida yangi yechimlarini topish imkonini beradi.

Bu darslar qiziqarli bo'ladi, shu bilan birga talabalar yangi mazmunni o'rganadilar va tadqiqot, mustaqil va boshqalar bilan ishlash, tanqidiy fikrlash va boshqalar kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ushbu faol o'rganish usulida o'qituvchi yo'naltiruvchi bo'lib xizmat qiladi va talabalar o'zlari mustaqil o'rganishlari uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar. Shu tarzda mustaqil o'rganish yaxshi o'zaro ta'sir va tushunishga olib keladi, ularning ijodkorligini uyg'otadi va umrbod ta'lim olishga yordam beradi. So'rovga asoslangan ta'lim ham innovatsion ta'limning faol ta'lim turidir. O'qituvchi ma'ruza o'qish o'rniga darsni savollar, muammolar yoki ssenariylar bilan boshlaydi. Bu, shuningdek, muammoli o'rganishni o'z ichiga oladi va o'qituvchi fasilitator bo'lishi ehtimoli ko'proq. Talabalar javob topish uchun mavzuni mustaqil yoki guruhda o'rganishlari kerak bo'ladi. Bu usul ularga muammolarni hal qilish va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Dual ta'lim tizimida strategiya ba'zi talabalar uchun ishlayotgan bo'lsa-da, boshqa guruh uchun unchalik samarali bo'lmasligi mumkin. Misol uchun, guruh faoliyati ekstrovertlar uchun juda yaxshi, lekin super introvertlar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Bu usul har bir talabaning o'quv jarayonini muvofiqlashtiradi. Biroq rejalashtirish va tayyorgarlik ko'rish uchun ko'proq vaqt sarflangan holda, talabalar o'zlarining qiziqishlari, ehtiyojlari, kuchli va zaif tomonlari asosida o'rganishlari va yaxshi natijalarga erishishlari mumkin.

Demak, pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak. Har bir talabaning fan mavzusini o'rganish yo'li har xil bo'lishi mumkin, ammo yakuniy maqsad o'zgarishsiz qoladi, bu talabani kelajakdagi hayotiga tayyorlaydigan bilim va ko'nikmalarni egallashi bilan bog'liq holda aks etadi. Talabalar kuzatish kabi virtual tajribalar o'tkazishlari asosida o'zlarining ilmiy chizmalarini va tadqiqot yozuvlarini yozib olishadi. Aytish mumkinki, dual ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda interfaol texnologiyalar ta'lim muassasasida seminarlar, bahs-munozaralar, muammoli ma'ruzalar, munozaralar orqali amalga oshiriladi, bunda talabalar o'z fikrlarini bildirishni, bahslashishni o'rganishlari mumkin. Dual ta'limda innovatsion o'qitish usullarining afzalliklari ta'limdagi o'quv jarayoni, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligini tartibga solish, uni to'g'ri va aniq maqsad hamda natijaga yo'naltirish imkonini berishida namoyon bo'ladi.

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING TADQIQOT QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Munavvar Ibragim qizi Hakimova – magistrant,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada talabalarining tadqiqot qobiliyatlarni rivojlantirish usullari, mexanizmlari va ularning pedagogik ahamiyati, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va amaliy faoliyatning o'rni hamda maktabgacha ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarining ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishning o'quv jarayonidagi ahamiyatini va samaradorligini oshirishga qaratilgan haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В статье рассмотрены методы и механизмы развития исследовательских умений учащихся и их педагогическое значение, роль современных технологий и практической деятельности, а также значение формирования научно-исследовательских умений учащихся в сфере дошкольного образования в образовательном учреждении процесса и сосредоточены на повышении эффективности.

Abstract: The article discusses the methods, mechanisms and pedagogical significance of developing students' research skills, the role of the use of modern technologies and practical activities, and the importance and effectiveness of the formation of research skills of students studying in preschool education in the educational process

Kalit so'zlar: tadqiqot qobiliyatlari, maktabgacha ta'lim, talaba, pedagogika, innovatsion texnologiyalar, amaliyot, ilmiy metodologiya, rivojlantirish mexanizmlari.

Ключевые слова: исследовательские способности, дошкольное образование, студент, педагогика, инновационные технологии, практика, научная методология, механизмы развития.

Keywords: research skills, preschool education, student, pedagogy, innovative technologies, practice, scientific methodology, development mechanisms.

Hozirgi vaqtda jahon miqyosida ta'lim islohotlari rivojlanib borayotgan bir vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini har tomonlama shakllantirish hamda sog'lom va barkamol qilib yetishtirish dolzarb masaladir. Jumladan, taraqqiy etgan mamlakatlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tarbiyaviy, ma'naviy va intellektual aspektlarni jiddiy ko'rsatishga e'tibor qaratadilar. Bu esa ularning ma'naviy-hayotiy tarbiyasini, tafakkur erkinligini va mustaqil fikrlashni o'stirishni maqsad qiladi. Ushbu manbadan olingan ma'lumotlarni qayta ishlashdan tashqari, tarixiy, iqtisodiy yoki ilmiy manbalar bilan ergashib, yangi fikrlash va qarorlar yaratish ham muhim bo'ladi.

Jamiyat rivoji zamonaviy va innovatsion

bilimlarga ega mutaxassislarni tayyorlash darajasiga bevosita bog'liqdir. Xususan, maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayonida talabalarining tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Chunki tadqiqot qobiliyatiga ega bo'lgan pedagoglar o'z faoliyatida ilmiy yondashuvlarni qo'llab, ta'lim-tarbiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni, uning usullari va mexanizmlari atroflicha tahlil qilinadi. Ta'lim tizimi jamiyat rivojlanishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida malakali pedagoglar tayyorlash jamiyatning kelajak avlod tarbiyasini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Bu pedagoglarning tadqiqot qobiliyatlarini

rivojlantirish nafaqat ularning kasbiy o'sishiga, balki o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari va ushbu jarayonning ahamiyati ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasini 2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishning yangicha mexanizmlarini tadbiq qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini modernizatsiya qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi xodimlarning malakaviy bilimlarini doimiy yangilashga qulay shart-sharoit yaratish, malaka oshirish orqali ta'lim mazmuni sifat va samaradorligiga erishish, maktabgacha ta'limga qamrovni ko'paytirish, maktabgacha ta'lim tizimining faoliyatini tubdan takomillashtirish yuzasidan bir qator Qaror va Farmonlar qabul qilindi¹.

2020–yilda qabul qilingan "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6084-son farmon yoshlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotchilik salohiyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu hujjat talabalar va yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishlarga jalb etishni rag'batlantirish, ularning ilmiy-tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasining 2030–yilgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish milliy strategiyasi" zamonaviy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Ushbu strategiya ta'lim jarayonini sifat jihatidan oshirish bilan birga, o'quv jarayonida talabalarni tadqiqotchilik

faoliyatiga tayyorlash, ular uchun ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim, jamiyatning kelajagi uchun muhim bo'lgan intellektual va ijtimoiy rivojlanishning poydevorini tashkil etadi. Bu bosqichda, bolalar nafaqat umumiy bilimlar bilan tanishadi, balki ijtimoiy ko'nikmalarni, hissiy rivojlanishni va mustaqil fikrlashni o'rganadilar. Bu ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan ta'lim muassasalarining samarali faoliyati va talabalarning ilmiy-tadqiqot qobiliyatlariga bog'liq. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim masalalaridandir². Maktabgacha ta'lim tizimi jamiyatning barcha sohalari bilan uzviy bog'liqdir. Bu tizimni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qabul qilingan meyoriy-huquqiy hujjatlar va strategiyalar asosida, yuqori malakali pedagoglar va ilmiy izlanishlar asosida ishlaydigan ta'lim muassasalari shakllantiriladi. Demak, pedagog, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak. Muloqot jarayonida pedagogning so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin. Hozirgi sharoitda jamiyatning pedagoglik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi pedagogga bog'liq³.

Ushbu mavzu yuzasidan ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy ishlar va tadqiqotlarni olib borganlar. Xususan, Maktabgacha ta'lim tizimida bola ta'lim-tarbiyasiga oid juda ko'plab izlanishlar olib borgan. Bolalarni har tomonlama

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022–yil 28–yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 Farmoni.

2 N.I.Saydullayeva. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent. Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 78.

3 X.A.Meliyev, O.Jamoliddinova, K.Riskulova. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2021. – B.26.

sog'lom, ma'nan yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash barcha davrlarda ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu to'g'risida sharq mutaffakirlari, O'rta Osiyo allomalari hamda zamonaviy pedagog olimlar ham o'z izlanishlarini olib borgan. Bugungi kunda zamon talabini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini samarali tashkil qilish talab etilmoqda.

Har tomonlama sog'lom, ma'nan yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash barcha davrlarda ham dolzarb hisoblangan. Bu borada O'rta Osiyo allomalari, Sharq mutaffakirlari hamda zamonaviy pedagog olimlar ham o'z izlanishlarini olib borganlar. Bugungi kunda zamon talabini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini samarali tashkil qilish, ta'lim faoliyatini rejalashtirishda xorijiy davlatlarining tajribalari bilan bir vaqtda akseologik yondashuvni hisobga olgan holda, sharq mutaffakirlarining fikrlarini inobatga olib, ta'lim tizimiga yondashuvni taminlash zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish jamiyat va ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim jarayonining isloh etilishi, ta'lim sifatini oshirish va kadrlarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash kabi masalalar davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Bu sohada amalga oshirilgan huquqiy-me'yoriy asoslar va ilmiy tadqiqotlar talabalar tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning zarurligini yoritadi. Davlat miqyosida qabul qilingan bir qator huquqiy asoslar, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

2020-yilda qabul qilingan "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6084-son farmon yoshlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotchilik salohiyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu hujjat talabalar va yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishlarga jalb etishni rag'batlantirish, ularning ilmiy-tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Bundan tashqari, "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish milliy strategiyasi" zamonaviy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va yuqori malakali

kadrlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Ushbu strategiya ta'lim jarayonini sifat jihatidan oshirish bilan birga, o'quv jarayonida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash, ular uchun ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini belgilaydi.

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik tuzilishi ishlab chiqish va ilmiy-metodik tavsiyalar yaratishdan iborat. Demak quyidagi vazifalar amalga oshirilsa ko'zlangan natijaga erishiladi:

- maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha mavjud pedagogik va ilmiy adabiyotlarni o'rganish, ular asosida nazariy bazani shakllantirish;
- maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini baholash uchun aniq mezonlarni belgilash;
- tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus o'quv materiallari, uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish;
- maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlashga oid eksperimental tadqiqot natijalari asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim jihatlari kognitiv funksiyalarini (rejalashtirish, tashabbus ko'rsatish), intensifikatsion qobiliyatlarini (ma'suliyat, mehnat unumdorligi, samaradorlik) rivojlantirish orqali ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida asoslantirilsa, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda integratsiyalashgan metodik tizim va me'yoriy-huquqiy asoslardan maqsadli foydalanish orqali maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari, metodlari va texnologiyalari takomillashtirilsa, maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning qulay va samarali metodlari mavzusiga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa talabalarda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

OLIY TA'LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYALARINING AHAMIYATI

Munajat Oltibekovna Mustafoyeva – tayanch doktorant,
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimiga kirib kelgan "talabaning individual ta'lim trayektoriyasi" tushunchasi, uning ahamiyati, natijalari, kredit-modul tizimi sharoitida talabalar mustaqil ishini tashkil etishda individual ta'lim trayektoriyasining talabalarga beradigan imkoniyatlari haqida mulohaza yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассмотрено понятие "индивидуальная образовательная траектория студента", вошедшее в систему высшего образования, ее значение, результаты, возможности индивидуальной образовательной траектории студента при организации самостоятельной работы студентов в условиях кредитно-модульной системы обсуждаются.

Abstract: In this article, the concept of "individual educational trajectory of a student", which entered the higher education system, its importance, results, opportunities of individual educational trajectory for students in organizing independent work of students in the conditions of the credit-module system are discussed.

Kalit so'zlar: trayektoriya, kredit-modul tizimi, oliy ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, mustaqil ta'lim.

Ключевые слова: траектория, кредитно-модульная система, высшее образование, индивидуальная образовательная траектория, самостоятельное образование.

Keywords: trajectory, credit-module system, higher education, individual education trajectory, independent education.

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushining kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanmaganligi, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi. Shunday ekan oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini

oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra yurtimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalari bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga

o'tmoqda¹. Ta'limning kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlashiga asosiy e'tibor berilgan. Bizga ma'lumki, o'quv jarayoni talabalarni mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv-biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin. Talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratish orqali ularda kreativ g'oyalarni shakllantirish mumkin.

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimida ta'lim oluvchilar o'quv rejasida ko'rsatilgan fanlar (modullar) bo'yicha o'qish natijalariga (kreditlarga) erishish uchun ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bajarishlari kerak bo'ladi. Kredit-modul tizimida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40 % ga 60 % ekanligi, ya'ni talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har bir soat dars uchun unga darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi uchun vaqt zarur bo'ladi². Demak, kredit-modul o'qitish tizimi har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan hamda modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Kredit-modul tizimida talabani mustaqil ta'lim olish, bilim olishning ijodiy yo'llarini mustaqil izlash, pedagogni esa kreativ yondashuv bilan

raqamli texnologiyalar asosida bilim berish kabi talabalarning kreativ kompetensiyalari rivojlantirilsa ta'limda sifat paydo bo'ladi.

Shu vaqtgacha mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida pedagoglarning asosiy vazifalari muayyan fanlardan talabalarga bilim va ko'nikmalar berish uchun ma'lumotlar qidirib topish, ularni o'zlashtirish, qayta ishlash va talabalarga tarqatishdan iborat bo'lgan, ya'ni ular mutaxassislarni tayyorlashda lozim bo'lgan ma'lumotlarni shunchaki qabul qiluvchi va uzatuvchi vazifasini bajarishgan. Talabalarning vazifalari esa auditoriya va laboratoriyalarda faqat o'quv mashg'ulotlariga qatnashib, bilim olish va o'zlashtirishdan iborat bo'lgan, ya'ni ularga yetuk mutaxassis bo'lish uchun zarur bo'lgan ilmiy-texnik yangiliklardan foydalanish, tahliliy va mantiqiy fikrlash, innovatsion loyihalarni yaratish kabi vazifalarni bajarishda yordam beruvchi mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga ahamiyat berilmagan.

O'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi quyidagi vazifalarning ijobiy hal etilishini ta'minlashga qaratilgan:

- har bir modulning o'zlashtirilishini tekshirgan holda, o'quv materialini modullarga bo'lish;
- bilimlarni baholash shkalasidan foydalanish;
- bilimlarni baholashning obektivligini oshirish;
- semestr davomida talabalarning tizimli mustaqil ishlarini rag'batlantirish;
- o'qishda sog'lom raqobatni joriy etish.

Kredit-modul tizimida talaba ta'lim olishi jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z yelkasiga olishi, fan bo'yicha auditoriyadan tashqarida mustaqil ishlashi shartdir. Kredit-

1 824-son 31.12.2020. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/5193564>;

2 Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur, 2020. – B. 120.

modul tizimida auditoriyadan tashqarida ishlash o'qituvchidan talabani mustaqil ishlashini tashkil etishni, mustaqil ishlash uchun materiallar va vositalar berishni hamda talabalarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilishning samarali usullarini yaratish kerakligini talab qiladi. Talabalardan esa mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat material va vositalar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakalarini shakllantiradigan mustaqil ishlash tajriba va ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi.

Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim ulushining ortishi tufayli o'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga, har qanday ishni bajarishda innovatsion-kreativ yondashishga olib keladi. Bunda talaba doimo o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi, natijada bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash tufayli axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlarda kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat auditoriya mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarga yetkazish qiyindir. Shuning uchun kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim olish zamonaviy mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili hisoblanadi.

Shunday qilib, oliy ta'limda kredit-modul tizimiga o'tish va ushbu tizim o'qish jarayonidagi talabani mustaqil ishlashiga keng o'rin berish talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy omilidir. Talabalarning mustaqil ishlashi barcha ta'lim sohaları (texnika, qurilish, qishloq xo'jalik, tibbiyot, huquq,

pedagogika, madaniyat, san'at va boshqa sohalar) bo'yicha har tomonlama komil inson bo'lib shakllanishida samarali ta'sir ko'rsatadi.

Talaba fandan fanga oldindan belgilangan trayektoriya (hamma uchun bir xil bo'lgan umumiy o'quv reja asosida) bo'ylab harakat qiladigan va konveyer sifatida tasavvur qilsa bo'ladigan an'anaviy ta'lim tizimidan farqli o'laroq, kredit-modul tizimida majburiy fanlardan tashqari turli xil modullarni yig'ishga, ya'ni individual o'quv rejasini shakllantirishga imkon beradi. Shu tariqa talabada individual ehtiyojlarga yo'naltirilgan o'z ta'lim yo'nalishi shakllanadi. O'qish jarayonida har bir talaba kreditlar to'playdi, ular talaba faoliyatining o'lchovi hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur tizim loyihaviy o'qish shakli – dolzarb mavzular bo'yicha individual yoki guruhli loyihalarni ishlab chiqish va himoya qilishni ham ko'zda tutadi.

A.S.Gayazov trayektoriya tushunchasi o'zining klassik ma'nosida "...ba'zi bir jismning harakatlanish chizig'i yoki ishorasi", – deb tushunilishini ta'kidlaydi³. Mazkur ta'riflardan daslabki xulosa chiqarish mumkinki, pedagogika faniga trayektoriya atamasi fizika-matematika fanlari kategoriyasi sifatida kirib kelgan.

Ta'kidlash kerakki, individual ta'lim trayektoriyasi yoki individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi tushunchalari mamlakatimizdagi pedagogika faniga oid manbalarda uchramaydi. Shunga ko'ra ushbu tushuncha tahlilini Mustaqil davlatlar hamdo'stligi hamda xorij olimlari ilmiy tadqiqotlari orqali ko'rib chiqamiz. Shu o'rinda aytish lozimki, aksariyat xorijiy va MDH olimlari tadqiqotlarida "individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi"ga muqobil tushuncha sifatida "individual ta'lim trayektoriyasi" tushunchasi qo'llaniladi. Masalan, pedagog olim A.V.Xutorskiy talqiniga ko'ra: "Individual ta'lim trayektoriyasi – bu har bir ta'lim subyektining ta'lim jarayonida

3 Гаязов А.С. Индивидуальные траектории образования личности [Электронный ресурс] / А.С. Гаязов // Режим доступа: <http://www.raop.ru/index.php?id=878>

shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning individual usuli", – hisoblanadi⁴. T.P.Korostiyanets individual ta'lim trayektoriyasini nafaqat shaxsiy rivojlanish yo'li, balki ta'lim subyektning individual faoliyat dasturi sifatida ham ko'rib chiqadi⁵. Uning fikricha, individual ta'lim trayektoriyasi bu shaxsning o'z qarorini ongli ravishda qabul qilishiga tayyorligini bildiruvchi tushuncha hisoblanadi. A.V.Xutorskiy va T.P.Korostiyanetslarning individual ta'lim trayektoriyasi tushunchasiga berilgan ta'rifida ko'proq shaxsning individualligi, uning ongli va ruhiy imkoniyatini nazarda tutishadi. Lekin mazkur olimlarning ta'riflarida individual ta'lim trayektoriyasi o'quv faoliyati bilan bog'liq jarayon ekanligiga kamroq e'tibor qaratilgan. E.A.Aleksandrova individual ta'lim trayektoriyasi bo'yicha bergan tahlilida, uni ta'lim subyekti uchun ta'lim beruvchi bilan birgalikda ishlab chiqilgan va ta'lim subyektning hayotidagi ta'lim va ta'limdan tashqari sohalarni qamrab oladigan faoliyati dasturi, deya hisoblagan. Shu bilan birga, tadqiqotchi individual ta'lim trayektoriyasini 1) shaxsga va ijtimoiylashuvga yo'naltirilgan hamda 2) bilim, ijodiy va amaliyotga yo'naltirilgan trayektoriya turlariga ajratgan. Ta'kidlash kerakki, E.A.Aleksandrova o'zining individual ta'lim trayektoriyasi bo'yicha bergan tahlillarida^{6,7,8} A.V.Xutorskiy va T.P.Korostiyanetslardan farqli o'laroq mazkur tushunchani "ta'lim oluvchi va beruvchi bilan birgalikda ishlab chiqiladigan, ta'lim va ta'limdan tashqari sohalarni qamrab oladigan dastur" ekaniga e'tibor qaratgan. Yana

bir rus olimasi, O.A.Isakova o'z tadqiqotlarida individual ta'lim trayektoriyasi tushunchasiga ta'lim subyektning qobiliyati, ta'lim ehtiyojlari, moddiy va tashkiliy darajadagi pedagogik yordamni o'z ichiga oluvchi tanlov imkoniyatiga asoslangan individual jarayon sifatida qaragan⁹. Tadqiqotchi N.N.Surtayeva esa individual ta'lim trayektoriyasini har bir o'quvchining qobiliyatlari, imkoniyatlari, motivatsiyasi va qiziqishlariga mos keladigan, individual ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun amaliy harakatlarning ma'lum bir ketma-ketligi sifatida izohlagan¹⁰. Mazkur tadqiqotchilar o'z qarashlarida individual ta'lim trayektoriyasi tushunchasini ta'lim subyektning qobiliyati, ta'lim ehtiyojlari bilan bog'liq individual jarayon sifatida izohlashib, unga amaliy harakatlar ketma-ketligi sifatida baho berishgan. Shu nuqtayi nazardan yuqoridagi olimlarning fikrlariga nisbatan O.A.Isakova va N.N.Surtayevalarning "individual ta'lim trayektoriyasi" tushunchasi bo'yicha ilgari surgan qarashlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan ma'no kasb etgan. T.A.Timoshina "individual ta'lim trayektoriyasi" tushunchasini antropotsentrik va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqib, unga: ta'lim jarayoni subyektning ijtimoiy-iqtisodiy va vaqtinchalik imkoniyatlari" sifatida qaraydi¹¹. A. M. Maskayeva esa individual ta'lim trayektoriyasini "...o'zgaruvchan ta'lim jarayonida ta'lim subyektning tajriba va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish natijasi" sifatida ta'rif bergan¹². Mazkur tadqiqotchilar

4 Хуторской А.В. Дидактика. СПб.: Питер, 2017. 720 с.

5 Коростиянец Т.П. Технология формирования профессионально-педагогической компетентности будущих учителей математики по индивидуальным образовательным траекториям // Педагогическое мастерство: материалы V междуна. научн. конф. (г. Москва, ноябрь 2014 г.). М.: Буки-Веди, 2014. С. 258–261.

6 Александрова Е.А. Эволюция методов и приемов воспитания: 1917–2017 // Сибирский педагогический журнал. 2017. № 6. С.7–14;

7 Александрова Е.А. Путь ребенка к самому себе: индивидуальная траектория // Социальная педагогика. 2015. № 3. С. 32–39;

8 Александрова Е.А. Психологическое и педагогическое сопровождение: индивидуальная траектория развития // Народное образование. 2014. № 9. С. 180–187.

9 Исакова О.А. Индивидуальная образовательная траектория школьника как средство достижения личностных результатов: автореф. ... канд. пед. наук: 13.00.01. СПб., 2015. 27 с.

10 Суртаева Н.Н. Технология индивидуальных образовательных траекторий (на уроках химии) // Химия в школе. 2001. №5. С.12–17.

11 Тимошина Т.А. Концепция выстраивания индивидуальной образовательной траектории студента // Педагогика и психология как ресурс развития современного общества: сб. ст. 2-й Междуна. науч.- прак. кон. (Рязань, 7–9 окт. 2010 г.). Рязань, 2010.

12 Маскаева, А.М. Проектирование ИОТ обучающихся / А.М.Маскаева // Инициативы 21 века. – 2010. – №3. – С.23–24.

ham o'z qarashlari bo'yicha "individual ta'lim trayektoriyasi"ga "ta'lim subyekting ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyati, tajriba va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish natijasi" sifatida baho berishgan, lekin ular aslida mazkur tushuncha faqat ta'lim subyektingagina taalluqli emasligini, u pedagogik ko'mak va hamrohlik bilan amalga oshiriladigan ham nazariy, ham amaliy jarayon ekanligini inobatga olishmagan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda individual ta'lim trayektoriyasining ahamiyati juda katta.

Individual ta'lim trayektoriyasi – bu o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va iqtidorlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan ta'lim yo'lidir. Bu trayektoriya o'quvchining o'qishdagi individual moslashuvi va maksimal natijalarga erishish maqsadida har biri o'zining o'qish stillari, sur'atlari va resurslari asosida shakllanadi¹³.

Individual ta'lim trayektoriyasi o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, unga mustaqillik, mas'uliyat va faol ishtirok etish imkonini beradi.

Ushbu trayektoriya talabalarga o'z bilimini oshirish, uning rivojlanishi va uzluksiz ta'lim olish jarayonida samarali harakat qilish imkoniyatini beradi. Individual ta'lim trayektoriyasi talabalarga ixtisoslashtirilgan va shaxsiy maqsadlarga muvofiq ta'limni tashkil etishda muhim vosita bo'lib, quyidagi asosiy jihatlar bilan ahamiyatga ega:

1. Individual ta'lim trayektoriyasi talabalarining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va malakasini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu, o'z navbatida, har bir talaba uchun munosib ta'lim olish sharoitlarini yaratishga yordam beradi. Talabalarining har biri o'zini o'zi rivojlantirish, o'ziga xos qiziqishlar va iqtidorlarini hisobga olib, ta'lim mazmunini tanlay oladi.

2. Individual trayektoriya talabalarga mustaqil ishlashni, muammolarni hal qilishni, mustaqil ta'limga erishish uchun zarur bo'lgan resurslar va metodikalarni izlashni o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, talabalarining motivatsiyasini oshirishga yordam beradi, chunki ular o'zgarishga intilgan maqsadlarga muvofiq ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

3. Individual ta'lim trayektoriyasi orqali har bir talaba o'z bilim darajasini va qoidalarini hisobga olgan holda ta'limning samaradorligini oshiradi. Bu ularga o'qish jarayonini yaxshiroq tashkil etish va vaqtni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Shuningdek, talabalarga o'qishga bo'lgan munosabatini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

4. Individual ta'lim trayektoriyasi talabalarga o'z o'qish maqsadlariga erishish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Talaba o'zini qiziqtirgan sohaga asoslangan tajriba va bilimlar olish orqali, shaxsiy faoliyatini muvofiqlashtirib borishi mumkin.

5. Individual ta'lim trayektoriyasi talabalarga o'qishning yangi usullarini, onlayn kurslar, elektron manbalar va innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi. Bu talabalarga zamonaviy va interaktiv usullar bilan o'qish jarayonini samarali olib borish imkonini yaratadi.

6. Individual ta'lim trayektoriyasi talabalarga o'zining shaxsiy rivojlanishini kuzatish va professional ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Talaba o'z imkoniyatlarini yoki kelajakdagi kasbiy yo'nalishlarini aniqlash orqali o'zi uchun eng samarali va maqsadga muvofiq ta'limni tanlaydi.

7. Bu usul, shuningdek, talabalarga ma'lumotni to'g'ri tahlil qilish, mustaqil qarorlar qabul qilish, jamoada ishlash va amaliy ko'nikmalarni

13 Mustafoyeva M.. Kredit-modul o'qitish tizimida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy rivojlantirishda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishning ahamiyati "Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari" mavzusidagi ilmiy-texnik konferensiya 2024-yil 18-19-oktabr

rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar, individual trayektoriya orqali ta'limning har bir bosqichida o'zining eng muvaffaqiyatli yo'nalishini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda individual ta'lim trayektoriyasidan foydalanish usullari talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga e'tibor berishga yo'naltirilgan. Bu, o'z navbatida, talabalarga mustaqil ishlarni samarali va mazmunli tashkil qilishga yordam beradi. Quyida talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda individual ta'lim trayektoriyasidan foydalanishning asosiy usullari keltirilgan:

1. Shaxsiy maqsadlar va ish yo'nalishlarini aniqlash. Individual ta'lim trayektoriyasini tashkil qilishda talabalarning shaxsiy maqsadlari va o'qish yo'nalishlari aniqlanishi kerak. Bu, o'z navbatida, ularga qanday ko'nikmalarga ega bo'lishini va qaysi sohalarida ishlashni istashini tushunishga yordam beradi. Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishda ularga aniq maqsadlar qo'yish va har bir talabaning o'qish maqsadlariga mos keladigan faoliyatlarni tanlash muhimdir.

2. Individual o'qish rejasini ishlab chiqish. Talaba o'zining qiziqishlari va qobiliyatlariga qarab mustaqil ishini qanday tashkil etishini rejalashtirishga yo'naltiriladi. Masalan, bir talaba fanni chuqur o'rganishni istasa, unga qo'shimcha manbalar va topshiriqlar taqdim etilishi mumkin. Bu, shuningdek, talabalarning o'z ishlari uchun ixtisoslashgan va shaxsiy yo'nalishlarini tanlash imkonini beradi.

3. Individual ta'lim trayektoriyasini tashkil etishda onlayn platformalar va masofaviy o'qitish vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Talabalarga video darslar, testlar, forumlar, interaktiv materiallar va boshqa resurslar orqali mustaqil ishlarni bajarish imkoniyati yaratiladi. Bu o'qish jarayonini talabaning shaxsiy ritmiga moslashtirishga yordam beradi.

4. Talabalarning mustaqil ishini samarali tashkil qilish uchun individual maslahat va mentorlik juda muhimdir. Mentorlar talabalarga yordam ko'rsatish, ularning savollariga javob berish, ishlarni tekshirish va tavsiyalar berish orqali ishlarni tashkil qilishni samarali rag'batlantirishga yordam beradi. Individual yordam talabalarning muammolarini to'g'ri hal qilish va ularning ish faoliyatini yaxshilash uchun kerakli vositadir.

5. Talabalarning mustaqil ishi ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Buning uchun talabalarga realniy vaziyatlarda yoki fanlar bilan bog'liq amaliyotlar orqali mustaqil ishlash imkonini berish lozim. Masalan, laboratoriya ishlari, amaliy tadqiqotlar yoki keys-study o'tkazish.

6. Talabalarning mustaqil ishi davomida individual ta'lim trayektoriyasiga muvofiq ularning ish natijalari tizimli baholanishi kerak. Bu talabaning alohida yozishmalarini, test natijalarini, amaliy ishlarni va boshqalarni olib, ularni aniq ishlab chiqilgan mezon bo'yicha baholashni o'z ichiga oladi. Bu baholash talabalarga o'qish jarayonidagi yo'nalishlarni va muvaffaqiyatlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

7. Talabalarning mustaqil ishi jamoaviy faoliyat bilan ham bog'lanishi mumkin. Buning uchun talabalarga jamoaviy loyihalarda ishtirok etish, bahs-munozaralar olib borish va mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam beruvchi vazifalar topshirilishi mumkin. Jamoada ishlash orqali talabalar o'zaro o'rganish va o'zlarining ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.

8. Individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda talabalarning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlariga alohida e'tibor berish kerak. Bu talabalarga mustaqil ishni amalga oshirishda motivatsiya, samaradorlik va yangilikka intilish imkonini beradi.

9. Talabalarga o'zlarining mustaqil ishi aniq

baholanishi va kelgusida yangi maqsadlarga yo'nalishlar berilshi talabalarning tajribasini samarali tarzda rivojlantirishga yordam beradi.

Individual ta'lim trayektoriyasi mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarning shaxsiy rivojlanishini, motivatsiyasini va professional o'qish jarayonini samarali olib borishini ta'minlaydi. Ushbu tizim talabalarga yuqori darajadagi ta'limni, innovatsion g'oyalar va samarali usullar bilan olishga yordam beradi.

Bu usullar talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda individual ta'lim trayektoriyasidan foydalanish orqali o'qishning samaradorligini oshirishga va har bir talabaning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar negizida ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayoni shunday tashkil etish

kerakki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashga e'tibor qaratish. Ikkinchidan, ushbu sohada muvaffaqiyatlarga erishgan novator o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yib, ishlab chiqish. Uchinchidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida talabalarning mustaqil ta'limga oid ma'lumotlarini zamon talablari asosida shakllantirish va rasmiylashtirish yo'llarini yo'lga qo'yish. To'rtinchidan, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo'lga qo'yish. Yuqorida sanab o'tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

THE IMPORTANCE OF SPEAKING SKILLS IN LEARNING A NEW LANGUAGE

Dilfuza Malikovna Mukarova – English teacher,
Jizzakh city comprehensive school No. 1

Abstract: Speaking skills form a cornerstone of language acquisition, facilitating communication, collaboration, and cultural exchange. This article explores the central role of speaking skills in learning a foreign language, highlighting their significance in academic, professional, and social contexts. It identifies challenges such as limited access to immersive conversational opportunities, pronunciation difficulties, and performance anxiety, which hinder learners' progress. Moreover, the study evaluates contemporary strategies to address these barriers, including the integration of advanced digital tools and interactive teaching methodologies.

Annotatsiya: Nutq qobiliyatlari tilni o'zlashtirishning asosini tashkil qiladi, muloqotni, hamkorlikni va madaniy almashinuvni osonlashtiradi. Ushbu maqola chet tilini o'rganishda nutq qobiliyatlarining asosiy rolini o'rganadi, ularning akademik, kasbiy va ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini yoritadi. U o'quvchilarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi immersiv suhbatlashish imkoniyatlaridan cheklangan foydalanish, talaffuzdagi qiyinchiliklar va ishlash tashvishlari kabi muammolarni aniqlaydi. Bundan tashqari, tadqiqot ushbu to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha zamonaviy strategiyalarni, jumladan, ilq'or raqamli vositalar va interaktiv o'qitish metodologiyalarining integratsiyalashuvini baholaydi.

Аннотация: Навыки говорения являются краеугольным камнем освоения языка, облегчая общение, сотрудничество и культурный обмен. В этой статье рассматривается центральная роль навыков говорения в изучении иностранного языка, подчеркивая их значимость в академическом, профессиональном и социальном контекстах. В ней определяются такие проблемы, как ограниченный доступ к возможностям погружения в разговорную речь, трудности с произношением и тревожность, которые мешают прогрессу учащихся. Кроме того, в исследовании оцениваются современные стратегии устранения этих барьеров, включая интеграцию передовых цифровых инструментов и интерактивных методик обучения.

Keywords: speaking skills, language learning, the benefits of speaking skills, communication, problems encountered in the process of speaking, technology in education, fluency, pronunciation, education policy.

Kalit so'zlar: nutq mahorati, til o'rganish, nutqiy ko'nikmaning afzalliklari, muloqot, nutq jarayonida uchraydigan muammolar, ta'limdagi texnologiya, ravnlik, talaffuz, ta'lim siyosati.

Ключевые слова: навыки говорения, изучение языка, преимущества навыков говорения, коммуникация, проблемы, возникающие в процессе говорения, технологии в образовании, беглость речи, произношение, образовательная политика.

In the 21st century, the ability to communicate effectively in a foreign language is not just a desirable skill – it is an essential one. Globalization has amplified the demand for multilingual professionals capable of navigating diverse cultural, professional, and social settings. Among the four core language skills (reading, writing, listening, and speaking), speaking stands out as the most critical for real-time interaction and meaningful communication. Unlike other skills, speaking integrates linguistic competence with social and cultural adaptability, making it a vital asset for academic and professional success.

However, for learners, especially those in non-native environments, mastering speaking skills is fraught with challenges. Limited access to authentic conversational settings, difficulties in pronunciation and fluency, and psychological barriers such as fear of judgment often undermine learners' progress. This gap necessitates innovative teaching approaches that leverage technology, interactive methodologies, and tailored feedback to foster speaking proficiency. This article aims to provide a comprehensive overview of the importance of speaking skills in language acquisition, the barriers learners

face, and evidence-based strategies to enhance these skills. The discussion draws upon recent international research and best practices, emphasizing their relevance to the evolving demands of a globalized world.

Speaking is not merely about vocalizing words; it is a dynamic process that requires clarity, fluency, and the ability to engage listeners effectively. As Johnson state, "Effective speaking enables individuals to convey ideas persuasively, foster collaboration, and build trust across diverse contexts. This makes speaking skills indispensable for success in academic and professional environments, where clear and confident communication is highly valued"¹. Good speaking abilities allow you to communicate successfully in a variety of contexts, including casual conversations, professional presentations, and business meetings. They are critical for accurately conveying information, convincing others, and developing strong relationships. Additionally, Smith and Brown highlight the role of speaking skills in fostering intercultural competence. In today's interconnected societies, the ability to navigate and adapt to diverse cultural norms is paramount, and effective speaking plays a pivotal role in bridging linguistic and cultural divides². From these points of view we can understand that speaking abilities are essential for improving relationships, boosting confidence, and facilitating successful communication. You can manage disagreements, convince others, and articulate ideas convincingly if you have strong speaking skills. These abilities can result in networking opportunities and job progress in professional contexts. All things considered, developing speaking abilities is crucial for both career and personal success. Speaking well is essential for both professional and personal development for a number of reasons, the most

significant of which are: Enhanced Self-Belief. Gaining proficiency in speaking increases one's self-assurance when voicing thoughts and opinions. People feel more confident in their capacity to interact with people when they are able to articulate their ideas in a clear and concise manner. From casual interactions to large speaking engagements, this boosted confidence is seen in many facets of life; Leadership Potential. Clear and convincing communication is essential for good leadership. Leaders must be able to adequately communicate their vision, goals, and expectations to their teams. Strong speaking abilities assist leaders to inspire, encourage, and influence others, creating a favourable work environment and motivating collective efforts to achieve organisational goals. Why speaking skills are important? Speaking proficiency is more than just using logical words; it is also about effectively communicating ideas and engaging with others. Clear communication ensures that information is accurately transferred, resulting in improved understanding and collaboration. Being a good communicator helps you succeed in your work. It positions individuals as leaders capable of inspiring and influencing teams, propelling initiatives forward and attaining objectives efficiently. Communication will occur between two or more people. They use it for achieving their particular purpose or intention. "When two people are engaged in talking to each other we can be fairly sure that they are doing so for good reasons"³. Communication, particularly through effective speaking skills, plays a crucial role in enabling clear transmission of information and ideas in various contexts. Effective communication ensures that messages are conveyed clearly and precisely. When ideas are communicated clearly, it engages the audience or listener more effectively. They are more likely

-
- 1 Johnson, P., Williams, L., & Martinez, R. (2021). *Effective Communication Strategies in Multicultural Settings*. Cambridge University Press.
 - 2 Smith, J., & Brown, K. (2020). *Language and Leadership: Building Bridges Across Cultures*. Oxford University Press.
 - 3 Jeremy Harmer, *The Practice of English Language Teaching* New Edition, (New York: Longman, 1991), p. 47.

to pay attention and comprehend the message, leading to better engagement and interaction. In the workplace, individuals with strong speaking skills command attention and respect. They can confidently present ideas, lead meetings, and engage with colleagues and clients. Individuals with strong speaking skills are more likely to be considered for promotions and career advancement opportunities. They can represent their organisation effectively in public forums, networking events, and industry conferences, enhancing their visibility and credibility within their field.

Despite their importance, many learners face significant obstacles in developing speaking proficiency:

1. **Limited Exposure:** Access to authentic conversational settings is often limited, particularly in non-native environments, resulting in reduced fluency and confidence.

2. **Pronunciation and Intonation:** Mispronunciation can hinder comprehension, affecting learners' ability to communicate effectively.

3. **Performance Anxiety:** Fear of making mistakes in public can discourage learners from participating actively in conversations.

4. **Balancing Fluency and Accuracy:** Learners often struggle to maintain grammatical accuracy while speaking fluently, creating a barrier to natural communication. If we face such obstacles, how can we improve our speaking skills? Improving English speaking abilities requires taking the time to absorb conversations, which improves comprehension and answer accuracy. Engaging with various English media, such as listening and reading, helps to develop vocabulary and comprehension. Regular experience expressing your opinions and engaging in debates increases confidence. Kumar, Patel, and Lee

emphasize the importance of immersive learning tools, such as AI-driven applications and virtual reality, to address these challenges by providing personalized and interactive environments for practice⁴. To overcome these challenges, educators and policymakers must adopt targeted and innovative approaches:

Interactive Classroom Activities: Techniques such as role-plays, debates, and group discussions provide learners with opportunities to practice speaking in a supportive environment, promoting both fluency and confidence.

Integration of Technology: Digital tools, such as language learning apps, virtual reality simulations, and AI-powered platforms, offer learners tailored feedback and immersive practice opportunities. Kumar highlight how these tools have revolutionized language learning by enabling real-time feedback on pronunciation and fluency.

Feedback and Self-Reflection: Regular constructive feedback, combined with self-assessment, helps learners identify their weaknesses and track progress effectively⁵.

Phonetic Training: Incorporating phonetic exercises and leveraging speech analysis tools can improve pronunciation and enhance intelligibility.

Allow some time to analyse your talks. Taking the time to analyse discussions enables greater comprehension and response formulation. This reflection aids in understanding responses and enhances the ability to participate more effectively in future conversations.

Listen and read. Active listening and reading increase vocabulary and understanding. Exposure to many kinds of English, whether through podcasts, novels, or articles, broadens language skills and improves comprehension of different contexts.

4 Kumar, A., Patel, S., & Lee, J. (2022). "AI-Powered Language Learning: The Future of Speaking Proficiency." *Journal of Educational Technology*, 15(4), 32-45.

5 Smith, J., & Brown, K. (2020). *Language and Leadership: Building Bridges Across Cultures*. Oxford University Press.

Share your thoughts. Regular practice expressing things verbally improves speaking ability. Engaging in discussions, debates, or even describing ordinary occurrences aloud can help you articulate your thoughts clearly and firmly. Developing great speaking skills has various advantages that benefit both personal and professional parts of life: Individuals with strong speaking skills can convey their thoughts and ideas in a clear and succinct manner. This clarity ensures that messages are accurately communicated, lowering the possibility of misunderstandings or miscommunication. It enables the successful transfer of information in a variety of circumstances, including professional presentations and casual interactions. Effective communication frequently correlates with active listening. When individuals develop strong speaking skills, they tend to also improve their ability to listen attentively. This active listening fosters better understanding of others' perspectives and viewpoints, leading to more meaningful and productive conversations.

To sum up, Effective communication builds stronger relationships, both personally and professionally. When individuals can express themselves clearly and understand others' viewpoints, it promotes trust, respect, and empathy. Strong speaking skills enable individuals to navigate conflicts, negotiate agreements, and build connections based on mutual understanding and open communication.

Speaking skills are the gateway to effective communication, enabling individuals to thrive in academic, professional, and social settings. This article has highlighted the indispensable role of speaking in language acquisition, the challenges learners face, and innovative strategies for addressing these barriers. Recent advancements in technology, coupled with interactive teaching methods, have opened new avenues for creating immersive and learner-centric environments that foster speaking proficiency. By prioritizing speaking skills in language education policies and curricula, educators and policymakers can equip learners with the tools to succeed in an increasingly interconnected world. Speaking is not just a skill; it is a bridge to opportunities, collaboration, and mutual understanding in a globalized era. As Johnson emphasize, "investing in speaking skills not only enhances individual potential but also contributes to stronger intercultural connections and global collaboration"⁶. Improving your speaking abilities is a great method to advance both professionally and personally. Stronger relationships, more leadership possibilities, and a more assured and competent professional image are all facilitated by effective communication. Recall that developing these abilities is a process that calls for commitment and repetition. You may successfully navigate this path with Mindmine as your mentor, acquiring the skills and self-assurance required to succeed in any work environment. Make an investment in your speaking abilities now, and you'll see your career take off.

6 Johnson, P., Williams, L., & Martinez, R. (2021). *Effective Communication Strategies in Multicultural Settings*. Cambridge University Press.